

323  
659

422


32 5

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ АДЛИЯ ВАЗИРЛИГИ  
ТОШКЕНТ ДАВЛАТ ЮРИДИК ИНСТИТУТИ

Анвар КОДИРОВ

АНЬАНАВИЙ ЖАМИЯТ ВА УНИ  
МОДЕРНИЗАЦИЯЛАШТИРИШ  
СТРАТЕГИЯСИ

2032842



Тошкент-2006

Тошкент Давлат юридик институти ўкув-услубий Кенгаши мажлисиning 2005 йил 29 сентябрь 2-сонли баённомаси билан тасдиқланган ва нашрға тавсия этилган.

**Анвар Қодиров.** Аньанавий жамият ва уни  
модернизациялаштириш стратегияси. –Т.:  
ТДЮИ нашриёти, 2006. 216 бет.

Сарлавҳада: Ўзбекистон Республикаси адлия  
вазирлиги, ТДЮИ.

**Такризчилар:** Сиёсий фанлар доктори Фофуров С.,  
Фалсафа фанлари номзоди: Бўриева М

Мазкур рисола бугунги кунги долзарб муаммо – жамиятни модернизациялаштиришнинг ижтимоий-сиёсий масалаларини ҳолисона илмий таҳлил қилиш ва уларни ҳал этишнинг мумкин бўлган айrim йўналишлари, усувлари ва омилларини ёритишга бағищланган.

Рисола давлат қурилиши ва бошкаруви, қонунчилик масалалари, ҳавфсизлик муаммолари билан шуғулланувчи мутахассисларга, олийгоҳлар талабаларига, мамлакатимиз тақдиди ва келажаги ҳақида кайгуруувчи кенг китобхонлар оммасига мўлжалланган.

## СҮЗБОШИ

*“Мустақилликни мустаҳкамлаш, жамиятни демократлаштириш ва янгилаш биз учун ҳамиша биринчи даражали мақсад ва вазифа бўлиб қолаверади”*

**И.КАРИМОВ**

Ўзбекистон халки ҳаётида икки палатали парламент тартибига ўтиш муҳим бурилиш бўлди. Бироқ, Президент И.Каримов Қонунчилик палатаси ва Сенатнинг кўшма мажлисида таъкидлаб ўтганидек «бизнинг асосий узок муддатли ва стратегик вазифамиз аввалгича колади – бу демократик давлат, фукаролик жамияти куриш жараёнлари ва бозор ислоҳотларини янада чукурлаштириш, одамлар онгида демократик кадриятларни мустаҳкамлаш йулидан оғишмай, изчил ва кетъяни билан боришидир».

Энди гап мамлакатимизни ривожлантириш стратегиясининг ғоявий ва мафкуравий асосларини шакллантириш, бош стратегик вазифани амалга оширишда колади. Бу борада юртбошимиз мамлакатимиз ривожланишининг 2005 йилга ва келгуси йилларга мўлжалланган устувор вазифа ва йуналишларини ҳам назарий жихатдан белгилаб берди.

Анъанавий жамиятдан замонавий, яъни модернизациялашган жамиятга ўтиш бир дақиқалик ҳодиса эмаслиги кўпчиликка аён. Модернизациялашган жамиятга (айрим манбаларда “постиндустриал” жамият, “информацион” жамият ва ҳ.к. – А.К.) ўтиш ғоят мураккаб ва зиддиятли жараён бўлиб, зарурӣ равишида эскилиқ ва янгилик, анъанавий тафаккур усули билан замонавий тафаккур усули ўртасида вужудга келадиган диалектик жараённи тақозо этади.

Илмий тил билан ифодалаганда консерватизм билан либерализм ёки ортодоксал қарашлар билан реформистик қарашлар ўртасидаги зиддиятли ҳолатлар табиий ва тарихий тарзда барча замонларда ҳам кузатилган. Жамиятнинг илфор кучлари - жамият сиёсий элитаси, инсоният тарақкиёти билан миллий ривожланиш ўртасидаги фаркни доимо ҳис қила олган, жамиятни ўзгартиришга ҳаракат қилган.

Шу боис жамиятни модернизациялаштириш бугун пайдо бўлган вазифа бўлмай, ўзининг тарихий анъаналарига эга.

<sup>1</sup> И.Каримов. Бизнинг бош мақсадимиз - жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишидир. – Г.: Ўзбекистон, 2005, 34-б.

Ушбу рисолада биз Fарб жамиятлари модернизациялаштириш тарихий аньаналари ва тажрибасига эътибор карата олмаймиз. Бу муаммо Fарб илмий адабиётида атрофлича ёритилгандир.<sup>1</sup>

Шу боис бизни кўпроқ ўзимиздаги аҳвол, мавжуд ижтимоий шароитларда ислоҳотлар сиёсати билан анъанавий ижтимоий турмуш тарзи, эски анъана ва удумлар билан жаҳон ҳамжамияти томонидан бизга ишъом этилаётган анъана ва кадрияллар тизими ўртасидаги транспарентлик ва ўзаро уйғунлашув муаммолари кизиктиради.

Таъкидлаш жоизки, посткоммунистик ижтимоий маконда ва жаҳонда бундай муаммолар у ёки бу даражада ҳал этилмоқда.

МДХ ёки Шаркий Европа собик социалистик давлатларини олайликми, ёки Марказий Осиё ёш мустакил давлатлари билан Хитой ёки Японияни олайликми - улар барчаси у ёки бу даражада жамиятни модернизациялаштириш сиёсатини юргизишмоқда. Ҳатто, Миср Араб Республикаси, Вьетнам ва Индонезия мамлакатлари ҳам жамиятни модернизациялаштириш йўлидан боришишмоқда.<sup>2</sup> Агар Хитойни оладиган бўлсанк, собик мафкура нуктаи-назаридан бизга яқин бўлган бу мамлакат собик премьер Дэн Сяо Пинь томонидан олға сурилган “тўрт модернизация” концепциясини жамият хаётига татбик этиб, сиёсий тизимини ва сиёсий тартибини ўзгартирмай туриб, юксак иқтисодий ўсиш даражаларига эришишди. Ҳозир Хитой ҳалки модернизация сиёсатини давом эттириб, нафақат Осиё китъасида, балки бутун жаҳон микёсида иқтисодий ўсиш кўрсаткичлари бўйича етакчилик килиш учун курашмоқда.

Бунинг сири – иқтисодий ва ижтимоий хаётни либераллаштириш ва демократлаштириш, янгилаш ва модернизациялаштиришdir.

<sup>1</sup> Карапп. Альфонсин Р.Р. Модернизация и социальная справедливость// Лат.Америка = America Latina. - М. 1991. - № 10. С.22-32.; Ашин Г.Н. Элиты как субъекты модернизации. // Модернизация и национальная культура. - М., 1995. С.77-87; Бреслауэр Дж.У. Возможности модернизации посткоммунистического режима// Россия-США: опыт политического развития. Ростов н/Д, 1993. С.183-192.; Каспа С.И. Имперская политическая культура в условиях модернизации//Политика, -М., 1998. -№3. С.42-57.; Красильников В.А. Модернизация и Россия на пороге XXI века//Вопросы философии. -М., 1993. - №7. С.40-56.; Попова И.М., Кунявский М.Б. Социальная цена «запаздывающей» модернизации// Социологический журнал. -М., 1997. - №3. С.20-37.; Avraham, M.F. Perspectives on modernization: Toward a general theory of Third World development - Wash. Univ. press of America, 1980. - IV. - 254 p.; Ake,C. Modernization and political instability: A theoretical exploration // Political system and change: A "World politics" reader. - Princeton (N.J.), 1986. -p. 205-220.

Davis, J.C. Radicalism in a traditional society: The evaluation of radical thought in the English commonwealth 1649-1660// History of polit. thought. - Exter, 1982. - vol.3, №2. -p. 193-213.; Giddens, A. Consequences of modernity. - Cambridge: Polity press. 1997. XIII. - 186 p.; Modernity and identity: a symposium // Intern. Social science j. -Paris; N.Y., 1988. -Vol. 40. № 4. p. 441.; Offe, C. Modernity and the state: East, West. - Cambridge: Blackwell: Polity press, 1996. -XII. 279 p.

<sup>2</sup> Лъонг Вьет. Хай. Ускорения модернизации в странах Восточной и Юго-Восточной Азии - Филос.исслед. -М. 1998. №1. С.173-176.

Шунинг учун Президентимиз томонидан олға суралған модернизация концепцияси ва уни амалга оширишнинг устувор йўналишлари асло уйдирма нарсалар бўлмай, хаёт, тараққий этаётган мамлакатлар тажрибасидан келиб чиқади.

Хўш, бизда жамиятни модернизациялаштириш анъаналари тарихан мавжуд бўлғанми ёки йўкми, деган савол туғилади. Марказий Осиёда жамиятни янгилаш, модернизациялаштириш анъаналари узок ўтмишга эга. Ушбу анъаналар ўрта асрларга, диний мафкуранинг давлат, ижтимоий ҳаётда устувор мавкеда бўлған даврларга бориб тақалади.

Бизнинг назаримизда, жамиятни янгилаш, диний гояларни ҳаёттий яратувчилик гоялари билан уйғунлаштириш ҳакидаги илк гояларни буюк аллома Хожа Баҳоуддин Накшбандий олға суро олган.

Баҳоуддин Накшбандийнинг меҳнат, яратувчалик этикасини христианликдаги протестант меҳнат этикаси (М.Лютер, А.Кальвин) билан қиёлаш мумкин. Шарқ Уйғониш даври илмлари оркали обёқка турган Farb цивилизацияси айнан протестант меҳнат этикаси туфайли тараққиётида Шарқдан илгарилаб кетди.<sup>1</sup>

Албатта, Farb цивилизациясининг Шарқ цивилизациясидан илгарилаб кетишида денгиз йўлларининг очилиши, натижада Буюк Ипак йулига эҳтиёжнинг камайиши, географик кашфиётлар кўпроқ сабаб бўлган бўлса-да, менимча, бизнинг фан ва техника соҳасида XV-XIX асрларда Farbdan ортда қолишимизда ислом динининг ғоят ортодоксал, суфизмнинг реакцион қанотлари таълимотларининг салбий таъсири кўпроқ бўлган. Шунинг учун ҳозир сиёсий сахнамизда ўрта асрлар кадриятларини янги даврларда реанимация қилишга уринувчи, эътиборимизни атрофга ва келажакка эмас, балки кўпроқ оркага, ўтган замон ва унинг кадриятлар тизимиға қаратишга уринаётган айрим олимларнинг гоялари модернизация сиёсатидан узокдир. Албатта, тарихий хотирасиз келажак йўқ (И.Каримов), булиши ҳам мумкин эмас. Жамият ҳаётидаги ворислик тарихни билиш оркали мумкин бўлади. Бирок тарихни ўрганишда диалектик меъёр принципи талаблари бузилса – жамиятда нохуш ҳолатлар кўпаяди. Диний экстремизм ва мутаассибчилик мафкурасининг хуружи ҳам ўз-ўзидан келиб чиқмайди, бундай гоялар бир томондан секуляризм принципи заифлашган ҳолатларда, иккинчи томондан, диний ишларга билиб-

<sup>1</sup> Бу ҳақда каранг: М.Вебер. Теория ступеней и направлений религиозного неприятия мира. - Изб.произв. -М.: Прогресс, 1990. С.307-415. М.Вебер Протестантская этика и дух капитализма. - Изб.произв. - М.: Прогресс, 1990. С.61-306.

\* Бу ерда биз Марказий Осиё цивилизациясини назарда тутмоқдамиз – А.К.

бильмасдан аралашиш жараёнларида хужумга ўтади, үзича диний хакиқатни ўрнатмокчи бўлади.

Модернизация сиёсати бундай хуружларга барҳам берибина қолмай, жамиятимизни ўрга аср анъанавий жамиятини барпо этиш васвасасидан узоклаштиради, жаҳон ҳамжамияти кетаётган магистрал тараккиёт йўли – демократия ва фукаролик жамиятини шакллантириш йўлидан оғишмасликни таъмингайди.

Марказий Осиёда жамиятни модернизациялаштиришдаги муҳим босқич – жадидлар ҳаракати билан боғлиқ.

“Жадид” деганинг ўзи арабча “янги”, “янгилаш”, “ислоҳ қилиш” деган маънони англатади.

Туркистонда, туркий забон ҳалклар орасида жадидизм ҳаракатини ёйилишида буюк Крим татар алломаси, модернизация жонкуяри Исмоил Гаспар ўғлининг хизматлари бекиёсdir. У «тилда ва ишда бирлик» ғояси билан бир қаторда чор ҳукумати зулмидан эзилаётган мусулмон ҳалқларини маорифни ислоҳ қилиш, янгилаш, диний билимлар билан бир қаторда дунёвий билимларни ҳам ўрганиш орқали қаддини ростлаб олиши, иккинчи даражали ҳалклар (И.Каримов) мавкеида колиб кетмасликларининг бирдан бир йўли эканлиги ҳакидаги ғояларни ўта жасорат ва куончаклик билан айта олди. Бу ғоялар - Туркистон ҳалкларининг модернизация йулидаги муҳим босқич бўлди. Ушбу ғоялар Туркистон ўлкасининг маърифатчилари – Мукимиy, Фурқат, Беҳбудий, Фитрат, Чўлпон, Авлоний, У.Носир, X.Шамс, Боту ва бошқа ҳалкпарвар зиёдилар томонидан қабул килинди ва янада ривожлантирилди.

Тадқиқотчилар Р.Шарипов ва Ф.Муҳиддиноваларнинг таъкидлашларича “жадидлар мустамлака Туркистоннинг реал тарихий шароигларидан келиб чиқиб, ижтимоий-иктисодий, сиёсий ва маданий соҳалардаги муаммоларни ҳал қилишининг бирдан-бир омили маориф деб билдилар”.<sup>1</sup>

Жамиятни модернизациялаштириш ўша пайтларда нафакат чор ҳукуматига, балки большевистик сиёсий тартибга ҳам хуш келмас эди. Шунинг учун большевизм ўзига хос ғайриинсоний ва ғайритабиий “модернизация” сиёсатини олиб борди – маҳаллий ҳалқни она тилидан, динидан ва тарихидан жудо қилиш, уни дахрий ва тарихий хотирасиз қилиш, авлод-аждодларини уннуга иштирок килиш, бир сўз билан ифодалаганда “манкурт” қилиш сиёсатини юргиздилар.

<sup>1</sup> Шарипов Р.Х., Муҳиддинова Ф. Узбекистон ҳалклари сиёсий-ҳукукий таълимотлари тарихи (XIX аср охири – XX аср бошлари). –Т.: ТДЮИ. 2004. 126-б.

Бунинг учун улар маҳаллий ҳалқни тарихий кадрияти – мулкдан бегона килдилар (коллективлаштириш), давлат мулкига қарам, тоъбе ҳолатига туширдилар, ҳар қандай индивидуал ижодкорлик, хусусий тадбиркорлик ва ташаббускорликдан узоклаштиридилар.

Шўролар даврида жамиятни модернизациялаштириш гоҳ очиқ ва гоҳ яшириш аҳолини руслаштириш, тарихий илдизидан бегоналаштириш мақомида кечди. Энг даҳшатлиси – маҳаллий ҳалқ жаҳон ҳамжамиятидан айрилди, жаҳонга “темир парда” тортилди, Туркистон ҳалқлари нафакат Фарбдан, ҳатто тарихан борди-келди қилиб келган кӯшни Шарқ мамлакатларидан ҳам узилиб қолди.

1991 йилги мустакиллик бундай ҳолатга барҳам берди. Ҳалқимиз мустакиллик шарофати билан нафакат ўзининг мустакил ва эркин тараққиёт йўлини, балки жамиятни янтилашга, ислоҳ этишга қаратилган эски ўзанини – М.Беҳбудий, У.Носир, А.Фитрат, Чўлпон, А.Авлоний, А.Икромов, Ф.Хўжаев ва бошқалар орзу килган тараққиёт йўлини яна топди, авлод-аждодлар ворислити анъаналари яна тикланишига доир ҳукукий кафолатни қўлга киритди.

Шундай қилиб, мустакиллик ҳалқимиз ривожланишида модернизациянинг учинчи тарихий босқичини бошлаб берди. Бу босқич – ўз моҳияти ва мақсадига кўра ўта эзгу ва юксак максадга - жамиятимизни ривожланган мамлакатлар ҳаёти даражасига олиб чикиш, ҳар бир инсонга муносаб ҳаёт шароитлари ва имкониятларини яратишга қаратилгандир.

Жамиятни модернизациялаштириш серкирра ҳодисадир, у инсон ва жамият ҳаётининг деярли барча жабҳаларини – маънавий-маданий, маърифий, иктисодий, сиёсий, ижтимоий, минтақавий ва глобал муносабатларини камраб олади.

Мазкур рисолада санаб ўтилган ижтимоий муносабатларнинг барчаси эмас, балки ижтимоий-сиёсий, минтақавий ва глобал, хавфсизлик ва миллий ривожланиш билан боғлик бўлган томонлари ёритилади, мамлакатимиз ривожланиши истиқболларининг айrim стратегик ва методологик жиҳатлари ҳақида мулоҳаза юритилади.

## **1. Анъанавий жамият ва ундан замонавий жамиятга ўтишнинг махаллий хусусиятлари**

Собик шуролар тузумидан халос бўлган жамиятни сиёсий таракқиётини аввал ҳукукий, демократик давлат ва фуқаролик жамияти таалабларига мувоғиқ сиёсий тизимини ўзгартирисиз тасаввур этиш кийин. Чунки ўтиш ёки жамиятни янгиланиш даврида сиёсий бошкарувнинг эски усуслари ва шаклларининг муайян муддатда сақданиб қолишилти табиийдир. Эскирган, умри тутаган бошқарув анъанала рини ўрнига янгича бошқарув анъаналари, қадриятлари ва усусларини жорий этиш бир дақиқали ҳодиса бўлмай, муайян ахлокий танлов жараёни билан боғлик бўлган тарихий даврни такозо этади.

Сиёсий маънода модернизация – бу фуқароларни жамият сиёсий ҳаётидаги иштирокини фаоллаштирув, уни ўзгартирисдан манфаатдорлигини ошириш, жамиятни замонийлаштиришdir. Амалиёт кўрсатишича, жамиятни модернизациялаштириши, замонавийлаштиришга кўп ҳолларда бир томондан, сиёсий тизим ва сиёсий тартиб ўртасида, ва иккинчи томондан эса қонунийлик билан жамият анъанавий ҳаёти ўртасида юзага келадиган зиддиятлар тўсқинлик киласи. Эски сиёсий тизимдан мерос бўлиб қолган маъмурий – буйруқбозликка асосланган бошқарув стили замонавий жамиятнинг ҳукукий базасини яратиш билан дарҳол йўқолиб кетмайди. Жамиятнинг демократик модели (таракқиётнинг “ўзбекона” модели) билан сиёсий тартиб ўртасида и зиддият сиёсий бошқарувнинг маъмурий – буйруқбозликка асосланган анъаналарига барҳам беришсиз ҳал этилмайди. Афсуски, жамиятда зарурий сиёсий маданиятнинг заифлиги сабабли ижтимоий ахлок мавжуд ижтимоий-сиёсий анъаналарни ижтимоий ҳаётда демократик анъаналар ва қадриятларнинг қарор топиши учун асосий тусиклар деб эмас, балки одатий бир ҳол деб тушунади.

Сиёсий ҳокимиятни маълум даражада сиёсий ворислик орқали кўлга киритган ва амалда “социалистик ғоя” га содиклик ружида тарбияланган собиқ сиёсий элита модернизациялаштиришнинг дастлабки босқичларида ўзини демократик қадрият ва институтларни тарафдори, деб кўрсатишига уринганлиги билан амалда кўп ҳолларда сиёсий мимикрия ва сиёсий комбинациялар билан овора бўлади.

Жамиятнинг ижтимоий ҳаётидаги бу ҳолат таажубки сиёсий, иқтисодий ва ҳукукий соҳада эмас, балки кўпроқ жамият ахлоқи билан боғликлigi оддий сиёсий тахлил натижасида равшан бўлади. Маъмурий – буйруқбозликка асосланган сиёсий тизимнинг ахлокий

асосларига расман барҳам берилган бўлса-да, уни тарихий илдизлари мустакилликнинг дастлабки йилларида ижтимоий ҳаётда сакланиб колибгина эмас, балки, ижтимоий ҳаётнинг янгича сиёсий ва хукукий тамойилларига мослашишга уринади.

Натижада расман эълон қилинган демократик тараққиёт йўли анъанавий жамият рухияти сакланиб қолганлиги сабабли амалда қонунчиликнинг, анъанавий ижтимоий-тараққиёт ахлоқий асослари такозо этган бўш “вагон”ларининг ҳаракатига асос солди. Шунинг учун мустакилликнинг дастлабки йилларида яратилган қонунлар самародорсизлигининг сабаблари айнан ижтимоий ахлоқ соҳаси билан боғликлиги билан изоҳлаш мумкин. Эски ахлоқий анъаналар шаклан демократик бўлган қонунлар билан уйғунлаша олмаганигининг сабаби - демократиянинг умумжахон эътироф этган принципларига мос бўлган янгилangan ижтимоий-ахлоқий парадигманинг яратилмаганилиги билан изоҳланиши мумкин. Мустакилликка эришилгач, жамият гарбона (гоҳида кенг маънода талкин этилувчи) умуминсоний сиёсий ва хукукий қадриятлар билан танишин имкониятига эга бўлди. Бироқ бу имконият жамият ҳаётини ташкил этиш ва бошкарувда мустаҳкамланган эскича анъаналар ҳаётйлиги сабабли ижтимоий воеъликда тез орада карор топа олмади. Шу сабабли жамиятда демократик институтларининг карор топиши эски жамиятдан мерос бўлиб қолган анъаналар тўсифига, қаршилигига дучор бўлди. Адолат юзасидан қайд этиш лозимки, жамиятда янгича қадриятларнинг карор топишига тўскинилк қилувчи эски анъаналарнинг таъсири тарихан Фарб жамиятларида ҳам кузатилган. Шу боис Фарб мамлакатларининг анъанавий жамиятдан замонавий жамиятга ўгиш тарихий тажрибаси биз учун фавқулодда кимматлидир. Шу маънода нафакат Фарбда, балки ҳозирги кунларда Шарқ мамлакатларида ҳам ўта оммавийлашиб бораётган йирик политолог ва социолог олим М.Вебернинг “Протестант этикаси ва капитализмнинг “рухи” номли рисоласи диккатта сазовордир (1905 й.). М.Вебер капитализмнинг ҳозирги постиндустриал ҳолатига олиб келган тараққиёт мантиғини ўта аник тасвирлаб беради. Унингча капиталистик тараққиёт инсон маънавиятнинг узвий қисми – диний эътиқод ислоҳоти билан боғлиқдир. Маълумки, католик черкови Фарб цивилизациясига дунёвий ишлар учун маънавий озуқани бера олмас эди.

М.Вебер фикрича, анъанавий этосдан (ишлаб чиқариш самародорлигини ошириш ва капитални кўпайтиришга интилиш йўқлигига) капиталистик этосга (капитални кўпайтиришга интилишни устувор-

лиги) ўтиш учун инсон тафаккурини тубдан ўзгартириш зарур. Бунга факат диний Реформация (яъни ислоҳотлар) орқали эришиш мумкин. Инсон хаётининг асл моҳиятини унинг ўлимидан сўнг, жаннатдан кидиравга ундовчи католицизмдан фарқли ӯларок протестантизм Фарб кишисини шахсий ютугини дунёвий хаётдан кидириш ғояси билан қуроллантиради. Бошқача ифодалаганда, протестантизм инсон диний ва дунёвий хаётининг бирлигини тарғиб киласди. Бу таълимотга кўра инсоннинг нариги дунёдаги хаётининг қандай булишлиги унинг бу дунёдаги килган ишларига боғлик. Шундай килиб, протестантизм инсоният тарихида биринчи бор инсон хаётини секуляризациялаштиради, яъни черков хаётини ортиқчалигини таъкидлаб, инсон фаровонлиги учун зарурий омил - яратувчан меҳнатни тарғиб киласди.

Бунда протестантизм ғояларининг Шарқда ўрта асрларда оммавийлашган суфизм, хусусан накшбандия этикасига ўхшашлиги кўзга ташланади. Накшбандия этикаси ҳам инсоннинг яратувчаник меҳнатига ургу беради ва бир вактнинг ўзида Оллоҳ номини унутмасликни таъкидлайди (“Дил ба ёр-у, даст ба кор”, яъни “калбингда Оллоҳ номини саклаш билан бирга кўлинг меҳнатда бўлсин”).

Юкоридаги ахлоқий парадигмани немис классик фалсафасининг йирик намоёндаларидан бири В.Ф.Гегел ўта моҳирона ифодалайди. Гегел “Тарих фалсафаси” да таъкидлашича, “айнан протестантизм Худо билан инсонни яраштира олди ва эришилган ярашувга мувофик айнан дунёвийлик ҳак ғояга эга деган англашув яратилди ва аксинча, муқаддас дунёвийлик ёвузлик, эзгуликка қодир бўлмаган қандайдир ташкари бир нарса деб тушунилар эди. Энди эса давлатда ахлоқийлик ва адолатлилик илоҳий эканлиги ва бу орқали Яратувчининг иродаси ифодаланиб, мазмун жиҳатдан бундан юкори ва муқаддас нарса ўюлиги намоён булади”<sup>1</sup>.

М.Вебер таъбирича, айнан шу ғояда, яъни Худо ғояси билан дунёвий хаёт кўшилуви ғоясида капитализмнинг “рухи” асослангандир.

Таъкидлаш жоизки, айнан шу нарса Фарб цивилизациясида мисли кўрилмаган ютук булибгина колмай уни анъанавий жамиятдан замонавий жамиятга ўтиши учун маънавий асос ҳам бўлди. Фарб цивилизациясининг илмий-техникавий юксалиши, демократия принципларининг хаётда қарор топиши, индивид эркинлигини юзага келишлiği, индивидуализм этикасини шаклланиши билан боғлик. Фарб цивилизациясида ижтимоий ва илмий-техникавий юксалишининг асоси бўлиб жамиятнинг бошқа аъзолари билан ўзаро алмашув муносабат-

<sup>1</sup> Карапт: Гегель Г.Ф.Философия истории. СПб., 1933, V С. 428.

ларига киравчи индивид хизмат қиласы. Бундай киши учун Farb цивилизациясида ахлок инсон эркинлигининг бир вақтнинг үзіда ҳам асоси ва ҳам натижасыга айланади. Мазкур ахлокка биноан жамият эркин шахсларнинг олий синтезидір. Жамият инсоннинг табиий ҳукуқларини кафолатлаши зарур. Айнан шу ғояда ҳозирги постиндустриал жамиятлар ахлоқининг моҳияти ётади.

Шуниси таажубланарлықи, Farb цивилизациясида аңғанавий жамиятдан замонавий жамиятта үтиш инсон хулк-авторининг ички бошқарувчысы бұлмиш диний ахлок орқали амалга оширилди. Farb-бона тасаввурларға күра ҳукуқты давлат фуқароларининг қонунга итоаткорлығи инсоннинг зәгури иродасыга бағытталған. Бу фикрни үз вақтіда Гегель бир мұнча аник ифода этади: “Хукуқ ва ахлоқ асосида инсон иродаси ётади”.<sup>1</sup>

Мазкур таълимотта күра инсонни зәгуликка мажбур қилишнинг ташқы шақллари самара сиздір, чунки улар инсон хулк-авторига таъсир үтказыпшының муайян чөара сыға эта. Башқача қилиб ифодалағанда, инсон нұқсанлары қонун воситасыда факат уннинг ичига кувилади, бирок бутунлай йүқолмайды.

Ҳозирги замон Farb цивилизациясининг инсон ҳукуқ ва эркинларига зәтибор берішілігі аңғанавий жамиятдан замонавий жамиятта, яғни инсон хулк-авторини ички идорачиси, яғни зәтиқодға карағылған табиий натижадір. Шу боис Farb жамиятининг тажрибасыннан ажамияти шундаки, айнан у Farb жамиятини индустріал ва постиндустриал жамиятта айланишини ёрқын ифода этади.

Ҳозирги шуро тузумидан ҳалос бұлған үзбек жамияти худди Farb цивилизацияси 17-18 асрларда бошдан кечирған жараёнларни үз бошидан кечирмокта. Бундай холоса учун муайян асослар ҳам мавжуд:

1. Үзбек жамияти үз тарихида биринчи бор қокимияттар бўлиниши ва конституцион демократия принциплари асосида фаолият курсатмоқда.

2. Атеизм, жамият ва шахс ҳаётини кескин секуляризацияси жамият аъзоларыда диний ахлоқни түмтоказушувига, маънавиятни пачакланишига олиб келди.

3. Шуро ҳукумати йилларида иккіёклама ахлок – жамият учун алоҳида ва шахс учун алоҳида бұлған ахлоқ шаклланиши натижасыда инсонни ижтимоий ахлоқ ва ҳукуқ нормаларидан бегоналашуви юзаға келди.

<sup>1</sup> Карант: Гегель Г.Философия истории. СПб., 1933. \ С. 442.

4. Анъанавий жамият Farb ҳуқукий давлати ва фуқаролик жамиятининг андозасини инсон ва жамият ўртасида патерналистик муносабатларнинг устуворлиги сабабли мустақилликнинг дастлабки йилларида тез қабул кила олмади.

5. Жамиятда дин ва дунёвий ҳаётнинг ўзаро муносабати анъанавий жамиятда ўта заифлашди.

Анъанавий жамиятни сиёсий тараққиёти маънавий соҳани ҳуқукий давлат сиёсий институтлари ва фуқаровий жамиятнинг ахлакий талаблари асосида ўзгартиришни такозо этади. Бу – бениҳоят мушкул масала бўлиб, ислом арконлари ва христианлик арконлари эътиқод асослари бўйича бир-бирига мос келса-да, айрим жиҳатлари билан бир-биридан фарқ ҳам киласди.

Анъанавий ислом жамиятларида тарихан шундай ҳолат юзага келганки, унда дунёвийлик доимо диний эътиқодга бўйсунтирилади. Бунинг ўзига яраша сабаблари мавжуд. Маълумки, ислом экстремистик кучларининг фаоллашуви натижасида жамиятда диний қадриятларни кўпинча тинчлик ва осойишталикка, фуқаролараро тотувлик ва ҳамкорликка нисбатан потенциал ҳавф, деган тасаввур шаклланди.

Ислом дарҳақиқат анъанавий жамиятда бир вақтнинг ўзида ҳам эътиқод ва ҳам мағкура, ўрта асрларда эса давлат сиёсати ҳам эди. Шарқшунос олимлардан Вл.Пластун таъкидлашича “ислом айрим исломшунос ҳуқуқшунослар (биринчи навбатда шиа оқими вакиллари) изоҳлашича, оммавий дунёкарашни шакллантиришда асосий ролни иқтисодга ҳам, мағкурага ҳам, фалсафага ҳам эмас, балки сиёсатга беради. У жамият курилишининг тамал тоши ҳисобланади”.<sup>1</sup>

Анъанавий жамиятни замонавийлаштириш мазкур ҳолатни хисобга олмасдан мумкин бўлмайди, зоро шўро жамиятида тарихан шундай вазият юзага келган эдики, инсон ҳаёти икки мағкура исказисида – расмий совет, атеистик ва яширин, нолегал ислом мағкураси таъсирида эди.

Мазкур анъана муайян даражада мустақилликка эришилгач, бироз бўлса-да заифлашди. Бирок ҳолат ижобий томонга унчалик ўзгармади – чунки шўролар даврида тарихан янгича, шартли равишида Homo Soveticus деб ифодаланувчи инсоннинг янгича тарихий типи шаклланган бўлиб, бундай инсон ҳеч қандай иккиланмай эътиқод қонунларини ҳам ва дунёвий қонунларни ҳам менсимайди. У иккизуламачи – озгина атеист ва озгина, номигагина лингор у расман ис-

<sup>1</sup> Каранг: Владимир Пластун. Такой разный ислам// Центральная Азия и Кавказ. Стокгольм. 2000. №5 (11). С. 15.

лом анъаналарига бўйсунади – жанозаларда, хотира кунларида иштирок этади, диний байрамларни нишонлайди, рўза хам тутиши мумкин. Бирок у ўз эътиқоди ва хатти-харакатларида самимий эмас. Диний анъана ва одатларга факат ижтимоий норозиликдан қўркканлиги учунгина бўйсунади.

Маъмурий бўйруқбозликка асосланган сиёсий тизим, социализм яна бир иллатни шакллантириди. Бу - фуқаролар томонидан қонунчиликни менсимаслик, уни тан олмаслиkdir. Бунинг сабаби – инсонда конунга итоаткорликнинг ички маънавий механизмини ёки М. Вебер тъбири билан ифодаланганда “маънавий ирода”ни йўклигидир. Фуқароларда маънавий ироданинг йўклиги – анъанавий жамиятнинг энг даҳшатли меросидир. Homo Soveiticus типдаги фуқароларда эркин ва эзгу маънавий ирода ўрнига мажбураш механизмини ишлатилишини такозо килади. Замонавий жамиятда конун ва хукук тартибот – инсон эътиқоди каби мукаддас хисобланади. Бу фикрни давримизнинг катор кўзга кўринган политологлари хам қўллаб-кувватлашади. Масалан, машхур олим И. А. Василенко “инсонпарвар қонунларнинг карор топиши ва демократик институтларнинг шаклланиши Farbda (кўп ҳолларда) эътиқодли христианлар фаолияти натижасида юз берди”,<sup>1</sup> - деб таъкидлайди.

Ушбу фикрни қатъийрок шаклда ўз вактида америкалик политолог Ф. Бэрри ҳам ифодалайди: “таъкидлаш жоизки, каерда ижтимоий ва шахсий юксалишга каратилган яратувчанлик бор булса, уни ўндан тўккис ҳолатида христианликнинг илхомлантирувчи таъсирини топасиз”.<sup>2</sup>

Ўзбек жамияти юз йиллар давомида шариат қонунлари асосида яшади. Шариат қонунлари – анъанавий Шарқ жамиятининг асосидир. Большевизм хукмронлиги даврида ҳатто ашадий атеизм ва атеистик ташвиқот ҳалк хотирасидан эътиқод асосларини йўқ кила олмади. Бирок бу эътиқод бора-бора заифлашди, жамиятда ҳурмат килинмайдиган бўлиб қолди.

Эътиқод эркинилигини чекланиши, жамиятнинг шафқатсизларча секуляризациялаш секин-аста эътиқодни заифлаштириди, унинг маънавий асосларига путур етказди. Натижада инсон анъанавий эътиқод билан эътиқодни таъкидовчи янги сиёсий тартиб оралигида колди. Мазкур ҳолатнинг фожиавий томони шундаки, инсон социалистик сиёсий тартиб шароитида конун ва хукукий нормаларга нисбатан бе-

<sup>1</sup> Каранг: Василенко И. А. Политическая глобалистика. Учебное пособие. FM., Логос, 2000, с. 198.

<sup>2</sup> Каранг: Baity F. Failures and Opportunities // Christianity and Crisis // L., 1933. – Р. 131.

фарк ва лоқайд бўлиб боради. Янгича социалистик конунчилик томонидан янгича ахлоқий парадигма (даҳрийлик, эътиқодсизлик) факат расман, сиртдангина қонунчилик билан уйғуллашди. Натижада, бу ҳолатда бўлган инсон ўз эътиқодини йўқотади ёки нафақат эътиқодга, балки ҳукукга ҳам бефарк бўлиб колади. Пролетариат диктатураси маънавият соҳасида катъий мажбурлаш сиёсатини олиб бориб ҳаётда атеизмни қарор топтиришга уринди.

Василенко таъкидлашича “ижтимоий ҳаётни мажбурлаш (хукукий жиҳатдан бўлишилгига қарамай) ёрдамида тартибга солишга уриниш нафақат маънавий кулликка, балки ўзини намоён этишининг турли-туман нозик йўлларини кидирувчи ёвуз кучларнинг ҳам норозилигига олиб келади”<sup>1</sup>.

Бошқарувнинг маъмурий-буйруқбозликка асосланган усули мажбурлашга асосланган бўлади. Ҳар қандай мажбуров, ҳатто ҳукукий бўлса-да, инсон фаолиятининг барча жиҳатларини камраб ола олмайди, факат ташки таъсир бўлиб колади. Инсон эътиқодлари, ички олами, қизиқиш ва манфаатлари ҳамма вакт ҳам мажбуровга бўйсунавермайди.

Тарихан шундай бўлдики, социализм даврида инсон иккюзламачи бўлишга мажбур эди. Бир томондан, расмий қонун ва нормаларга итоат этгандек бўлса-да, иккинчи томондан ўз ички дунёси, эътиқоди, интилиш, қизиқиш ва манфаатлари ҳукмига итоат этар эди. Бу маънавий ҳолатнинг энг даҳшатли томони шу эдики, бундай ҳолат секин-аста муайян маънавий-ахлоқий анъанага айланниб борди. Социалистик сиёсий тартибни (“пролетариат диктатураси”ни) ўрнатилиши билан капиталистлар, бойлар, кулоклар, рухонийлар нафақат иктисолий ва ҳукукий жиҳатдан, балки жисмонан ҳам йўқ килинди. Пролетариат диктатураси факат номигагина булиб, аслида эса ишчилар синфи давлат-бюрократик аппарати томонидан шафқатсиз эксплуатация қилинувчи синфга айланган эди. Дехконлар синфининг ҳолати бундан ҳам баттар эди. Мажбурий коллективлаштириш окибатида дехконлар синфи ердан ва ишлаб чиқарувчи воситаларидан маҳрум бўлиб колхоз далаларида арзимаган маошга хизмат қиласар, ўз тормоқаси ҳисобига маҳсулот етказар ва ҳатто ундан ҳам соликлар тўлар эди.

Алоҳида “табака”ни ташкил қилувчи зиёлилар эса айрим ҳур-фикрлиларни учун лоимо давлат хавфсизлик органларининг диккат марказида туришар эди, XX-асрнинг 20-30-йиллари давомида ҳур-

<sup>1</sup> Каранг: Василенко И.М. Политическая глобалистика. Учебное пособие. -М., Логос. 2000. с. 199.

фикрлиги учун ўилаб маданият, маориф, фал арбоблари, инженер ва техник ходимлар жисмонан йўқ қилинди. Бу нарса жамиятда кўркув ҳиссини кучайтирди, ҳукмрон партия-давлат амалдорларининг кўғирчогига айлангандар ва мавжуд шароитга мослаша олганларгина тирик колишиди.

Социализм даврида партия-давлат арбоблари, армия қўмондонлари, давлат хавфсизлиги органлари раҳбарларидан таркиб топган алоҳида синф шаклланди. Айнан шу синф ижтимоий, иктисадий ва маданий сиёсатнинг бошида туришди, амалда “давлат” ва “колхоз-кооператив” мулкига эгалик қилишди, қўшимча махсулотни ўзлаштириди, ҳар қандай хурфикрликни, сўз эркинлигини шафкатсиз жазолади. Социализм шароитида ҳар қандай миллый фарқлар мавжудлиги инкор этилди. Очиқдан-очик руслаштириш сиёсати олиб борилди. Кишилар бирлигининг янги тарихий шакли – “совет ҳалки” миллат деб эълон қилиниб, келгуси этник ва миллатлараро зиддиятлар учун шароит яратилди. Буларнинг барчаси муайян анъаналарни юзага келитириди, мамлакатда ёлғон демократия ва ижтимоий тенглик элементларини ўз ичига олган ярим феодал тузумни шакллантириди.

Бу шароитда тарбияланган киши ўзининг этник ҳусусиятларига карамай шундай анъаналарнинг яратувчисига айланаб жамият анъаналарини баркарорлигини таъминлайди. Юқорида тилга олинган Homo Soveticus анъанавий жамиятнинг айнан шу типдаги кишиси бўлиб, у ҳозир постиндустриал жамиятга ўтиш даврини бошидан кечирмокда. Бу борада Марказий Осиё ҳалклари, айниқса “социализмга капитализмни четлаб ўтган” Ўзбекистон ҳалки алоҳида ҳусусиятга эга. Тарих тақозоси билан бу ҳалклар энди замонавий, постиндустриал жамиятга тараққиётнинг индустриал босқичини четлаб ўтишлари лозим бўлмоқда.

Бунинг учун муайян асослар мавжудми, ва постиндустриал жамиятга ўтишиниң қандай шартларига жавоб бериш мумкин?

Бизнингча Ўзбекистондаги анъанавий жамиятни модернизациялаштиришининг асосий шартларидан бири – сиёсий модернизациядир. Де-юре бундай шартга шароит бор, бирок де-факто модернизация кутилган натижани ҳали бера олтани йўқ. Бунинг сабаби – модернизация учун зарурий шартлардан – қўшартиявийликни, сиёсий мухолифотни, эркин оммавий ахборот воситаларини, ҳақиқий демократиянинг институтларидан бири – ҳокимиятлар бўлиниши принципининг жамият сиёсий маданиятининг заифлиги сабабли тўлақонли фаолият курсата олмаётганлигидир.

Сиёсий маданиятнинг ноңорлиги эскича бошқарув усули механизмини янада кучайтиришига, оқибатда жамиятни модернизациялашуви жараёнини секинлаштиришига олиб келмоқда. Бундай ҳолат нафакат Ўзбекистон учун, балки барча Марказий Осиё мустакил ёш давлатлари учун хосдир. Таникли Америка политологи С.Хантингтон таъкидлашича, “Марказий Осиё мамлакатлари демократизациясинг учинчи тўлкинида туришибди”<sup>1</sup>.

Замонавий Farb жамиятлари юксак тарақкий килган демократик институтларга – кўп partiyaийликка, мухолифот мавжудлигига, ҳокимиятлар бўлинишига (масалан, АҚШ да Конгресс, Президент ва Олий суд ўртасида) асосланган бўлиб, юқори даражада тарақкий этган сиёсий маданиятга асослангандир.

Демократик, ҳукукий давлат ва фукаролик жамият қуришнинг узбекона модели демократик институтларни секин-аста эволюцион ривожлантиришга асослангандир. Анъанавий ўзбек жамиятини модернизациялаштириш ақратилган сиёсий курс “кучли давлатдан кучли жамият сари” деган ғояга асосланади. Модернизациялаштиришнинг мазкур қўринишини бемалол этизизмга киритиш мумкин. Этизизмга кўра давлат жамиятнинг бош ислоҳотчиси деб каралиб, бошқарувнинг анъанавий норма ва усулларининг модернизациялаштиришга тўскинилик килишилиги назардан қочирилади. Шунинг учун де-юре ҳукукий, демократик давлатнинг ҳукукий базаси яратилган бўлишилигига карамай, де-факто вакиллик институтлари тұлаконли фаолият кўрсатмайди, ҳокимиятлар бўлиниши номигагина бўлганлиги сабабли мамлакатда жамиятни демократиялаштириш жараёнини ҳалқаро обрўйини тўқади. Жамиятда партияий кризис ҳукм сурини, оммавий ахборот воситаларининг амалда мустакил эмаслиги – демократия ва модернизацияни бир ёклама тушуниш натижасидир.

Анъанавий жамиятни замонавий, модернизациялашган жамиятга айлантиришда дунёнинг айрим тарақкий этган ва тез ривожланаётган мамлакатларнинг тажрибаси катта эътиборга сазовордир.

Модернизация ҳодисасини кўзга кўринган тадқикотчиларидан бири Д.Аптер таъкидлашича, “анъаналарни йўқотмасдан туриб жамиятни модернизациялаштириш – индивидни ҳокимият билан боғлик бўлган янгича ахлоқий синтезни кидириши заруриятини туғдиради”<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Карапт: Huntington S. The Third Wave. Demokratization in the late Twentieth Century. University of Oklahoma Press. 1999. –р. 39

<sup>2</sup> Карапт: Apter D. The Politics of Modernization. The University of Chicago Press. 1965. –Р.3.

Ўзбекистонни модернизациялашган жамиятга ўтиши учун мустамлака даврини бошдан кечириб сўнг замонавий жамият босқичига кутарилган Шарк мамлакатларининг тажрибаси катта ахамиятга эга.

Шу маънода Ўзбекистон учун ҳозирги Ҳиндистон тажрибаси муҳим ахамият касб этади. Ҳиндистон ўз сиёсий тараққиётида жамиятни ривожланган Европа мамлакатларининг модернизациялаштириш тажрибаси асосида ўзгартирди. Володин А.Г. айтишича “Ҳиндистон модернизациялаштириш босқичига ривожланган мамлакатларда иктисодий ва сиёсий тараққиёт илмий-техника революцияси жараёнлари таъсирида илгариланма ҳаракатга киришган ва бу “кувибетиши” стратегиясини ҳозирги шароитларда бирдан бир ҳаётӣ восита эканлигига айлантирган эди”.<sup>1</sup>

Ҳиндистонда модернизациялашган жамиятга ўтиш илдизлари инглиз веҳмистер парламент-демократик ҳокимиёт тизимиға бориб тақалувчи мустамлакачилик даврида шаклланган сиёсий ва хуқуқий соҳалардаги тажриба асосида тарбияланган ҳинд змёнилари кӯлига ўтган ҳокимиёт фаолияти билан боғлик бўлди.

Ҳиндистонда сиёсий тараққиёт сайлов компанияларида эркин фаолият кўрсатувчи мусобакадош партиялар фаолияти билан боғлик. Умумдавлат тили бўлиб ҳануз инглиз тили ҳисобланади. Ўзбекистонда мустамлака шароитида шаклланган маъмурий-буйруқбозлиқ анъаналаридан фарқли ўларок Ҳиндистонда мустамлакачиларнинг “ёрдами” билан ҳокимиётдан мустакил иш юрита оладиган суд ҳокимиётини эркин фаолиятини амалга ошириш тажрибаси йўлга кўйилди. Ҳиндистонда бундан ташқари суд мустакиллиги билан бир каторда ҳокимиётлар бўлиниш ғояси ва индивидуал эркинлик ғояси ҳам Fарб жамиятидан кабул қилинди. Мазкур хусусиятлар хуқукий давлатнинг асосий принципларини ташкил этади. Бундай стандартлар ва айниска веҳмистерлик парламентчилик демократияси, судловнинг инглизча принциплари ва маъмурийчилик Ҳиндистоннинг анъанавий давлатчилигининг заиф бюрократик институтлари, фикрлар, карашлар хилма-хиллигига мойиллиги билан мос келган эди. Буларнинг барчasi ҳозирги Ҳиндистоннинг модернизациялануви учун асос була олди.

Ҳиндистон тажрибасининг Ўзбекистон учун аҳамияти шундаки, улар иккиси ҳам мустамлакачилик даврини бошдан кечиришди. Бирор Англиядан фарқли ўларок чор Россияси ва кейинчалик большевиклар ҳокимиёти Ўзбекистонда дастлаб абсолютистик ва сўнг ҳар-

<sup>1</sup> Володин А.Г. Становление институтов буржуазной экономики –М.: “Наука”, 1989, С. 163.

кандай ҳокимият бўлиниши, хусусий мулкчилик фаолияти, индивид эркинлигини истисно килувчи давлат-монополистик тартибни ўрнатди.

Бундай тартиб авторитаризм анъанасини яратди. Анъанавий ўзбек жамияти индивидни жамиятга (маҳаллага) бўйсуниши принципи га асосланган булиб, бундай жамиятда шахсни ўз ички салохиятини эркин намоён эгиши учун имконияти кисман чеклапади. Анъанавий ўзбек жамиятининг яна бир туб хусусияти кенг маънодаги патернализмнинг (ёши катталарга сўзсиз итоатда булиш) хукмронлитиди.

Ўзбек оиласидаги патернализм анъаналари тарихан ислом динига бориб тақалади. Шунга кўра, анъанавий ўзбек жамиятида сиёсий ҳокимиятнинг манбаи деб Оллоҳ, ёки Тантри иродаси тушуниб келинган. Бундай анъана ўзбек жамиятида тарихан мустаҳкамланиб Оллоҳга итоат этиш кейинчалик ҳокимга итоат этиш билан айнан-лаштирилади. Бунинг сабаби – ҳокимни, сиёсий ҳокимият бошлигини Оллоҳнинг ердаги ноиби, яъни вакили деб тушунишнинг оммавий онгда диний мафкура таъсирида тарихан мустаҳкамланиб колганилигидир. Бундай анъана таъсири ҳозирги кунда ҳам оммавий онгда ҳануз онда-сонда учрайди. Оллоҳ амрига ва унинг ердаги вакили – ҳокимият соҳибига сўзсиз итоат этиш тарихий анъана булиб, шуро даврида авторитар ҳокимиятнинг маънавий таянчига айланган эди.

Либерализм мафкурасига кўра фатализм ва тақдирга тан бериш - авторитар ҳокимият манбаи булиб, ҳокимият, иирик мулк эгаси анъанавий жамиятда фуқаролардан ўз мавкеига кўра устун кўйилади.

Адолат юзасидан таъкидлаш жоизки, ислом динига биноан Оллоҳ олдиди барча тенгдир. Шу маънода ислом дини эгалитардир. Исломда умумий уммага мансублилик этник ва иркий мансубликдан муҳимроқдир. Фуқароларнинг умумий тобъелиги ва патернализм Шарқда тарихда кучли марказлашган давлатларнинг шаклланишига ҳам олиб келган. Патернализм анъаналари ҳозирги кунларда ҳам қисман сакланиб қолган. Микромухитдаги (оила) патернализм ва макромухитдаги (маҳалла, жамият, давлат) патернализм тенглик, эркинлик ва фикрлар хилма-хиллигини (плюрализм) ёқтирамайди. Шу боис жамиятга конституциявий демократияни жорий этилиши, ҳуқуқий жиҳатдан ҳокимиятлар бўлинишини расмийлаштириш бозор иктисадиётини ва демократиянинг ҳуқуқий базасини яратса-да ва ҳуқуқий демократик давлат ва фуқаролик жамиятга ўтиш утун шароитида тўлақонли үзини намоён кила олмайди. Чунки бундай жами-

ятда фукароларнинг индивидуал тенглиги ва эркинлиги чекланган бўлади.

Ҳозирги замон демократик, фуқаролик жамияти патернализм ва сиёсий етакчининг обрўйига эмас, балки конунлар обрўйи ва устуворлиги, фуқаролар эркинлиги ва фаоллигига таянади. Тарих майтниги объектив равишда конун устуворлиги ва инсон эркинликларини таъминланishi томон ҳаракат киласди.

Конституциявий демократик сиёсий тараккиёт йўли авторитаризм ва патернализмга мазмунан зиддир, зоро унга биноан ҳокимиятнинг бирдан бир манбаи - ҳалқдир. Шунинг учун анъанавий ўзбек жамиятини замонавийлаштириш учун демократик сиёсий тараккиётдан бошқа муқобиллик йўқдир. Ўз навбатида диний мутаассибчиларнинг исломий давлат ҳақидаги васвасалари шу боис хом хаёлдир.

Ўзбекистонда демократик сиёсий тараккиёт учун муайян ҳаракат сезилмоқда – жамиятнинг иктисадий ва сиёсий соҳаларини либераллаштириш томон ластлабки қадамлар қўйилли. **Фарб жамиятини модернизациялаштиришда** кузатилган “касаллик”лар бугун шуролар тузумидан ҳолос бўлиб мустакил тараккиёт йўлига кирган ёш давлатлар учун ҳам хос эканлиги аён бўлмоқда. Шу боис сиёсий тараккиётдаги қўпгина муаммо ва масалалар умумжаҳон миқёсда анъанавий жамиятдан постиндустриал цивилизациясига ўтиш жараёни учун ўхшаш эканлиги тобора равshan бўлмоқда.

Демак, улар келажакда **Фарб мамлакатларида** бўлгани каби, албатта, ҳал этиладилар. Ўзбекистонда анъанавий жамиятдан замонавий жамиятга ўтиш ижтимоий-сиёсий тараккиётнинг турли соҳаларида – сиёсий, иктисадий, ижтимоий ва маданий соҳаларда содир этилиб, ижтимоий ҳаётда тарихан мустаҳкамланган қатор анъаналар, удумлар ва қўнікмалар билан узвий боғлик ҳолда кечади.

Киши ҳатти-ҳаракатида тарихий тараккиёт давомида шаклланиб мустаҳкамланган патернализм анъаналари жамиятда демократизм принципларини карор топишига, уни модернизациялашишига тускинлик қиласди. Расмий жиҳатдан патернализм ва чекланган кўпчилик (маҳалла) фикрини жамоа аъзолари учун умумий эканлиги тан олинса-да. амалда бундай жамоада шахс эркинлиги ҳамма вақт ҳам таъминланмайди. Ҳозирда маҳаллага урғу берилиб, уни келажакда фуқаролик жамиятига ўтишда демократиялаштиришнинг ўзбекона андозаси, деб баҳоланмоқда.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Каранг: “Ўзбекистон Республикасининг шаҳар, поселка ва қишлоқ, маҳалла (мавзе) комитетлари тұгысисида” Низом. Тошкент, 1993.

1999 йилда “Фуқароларнинг ўз-ўзини бошқариш идоралари тұғрисида” (янги таҳрирда) конун қабул килингандың бүлиб, унда маҳалла комитетларининг қатор вазифа ва ваколатлари – маҳалла аъзоларини ижтимоий ҳимоялаш, кексалар қақида ғамхұрлық, жамоат тартибини сақлаш, жиноятларнинг олдини олиш, оила ва аёллар манфаатини ҳимса килиш, маҳалланинг санитар ҳолати устидан назорат, савдо ва мәшиштік хизмат муассасалари фаолиятини назорат килиш ва х.к. санаб үтилған.<sup>1</sup> Бу даржакиқат шундай. Бирок, “маҳалла ўзини ўзи бошқаришининг демократик органды сифатида кайта тикланмоқда”<sup>2</sup> дейиш ҳали фуқаролик жамияттегі ижтимоий асоси яратылды дегани эмас. Маҳалла орқали демократия принциплари бироз бўлса-да ифода этилса-да, уни ҳалкнинг ўзини ўзи идора килишининг тұлақонли органды дейиш бизнингча, кийин. Чунки маҳалла раиси ва унинг котиби лавозимига ҳозирча давлат томонидан маош тұланади ва улар муайян имтиёзга ега (масалан, улар тұла ҳажмда нафака оладилар). Табиийки, бундай ҳолатда маҳалла ҳокимиятта демос үртасида воситаға айланиб, фуқароларнинг сиёсатини эмас, балки ҳокимияттың сиёсатини олиб боришига мажбур бўлади.

Шу боис маҳаллага бўлажак фуқаролик жамияттегі куртакларни деб ургу бериш, уни мутлоклаштириш, тарихан нотұғри бўлса кепрак. Чунки анъанавий жиҳатдан маҳалла уруғ-қабилачилик, ибтидоий-жамоачилик бошқарувининг тарихий типи бўлиб, унда шахснинг индивидуал әркинликлари жамоа иродасига бўйсундирилади. Шунинг ўзи фуқаролик жамияттегі асосий принциплари ва талабларига тұғри келмайди. Үзбек жамиятида фуқаролик жамияттегі яратыш андозаси факат маҳалла, жамоавий фаолиятта, унинг қадриятларига гина асосланади, деб узил-кесил таъкидлаш мумкин эмас. Чунки маҳаллада патернализм ва авторитаризм принциплари сақланып қолади. Фуқаролик жамияттың эса шахс әркинлигига, фикрлар хилма-хиллигига, жамоа бошлигининг обрүйига эмас, балки конун устуворлигига асосланади. Шунинг учун Үзбекистонда фуқаролик жамияттегі буткул маҳалла, яъни жамоавий фаолиятта асосланади, дейиш тарихий истиболов нұктай назаридан нотұғридей. Келажакда фуқаролик жамияттегі бошқа сиёсий институтлари хам шаклланади.

Замонавий жамиятта инсон - мақсад, жамият эса воситага айланади, яъни индивидуализм коллективизмга, яъни инсон восита, жа-

<sup>1</sup> Қарант: “Правда Востока”. 14 май 1999.

<sup>2</sup> Қарант: Арифханова Зоя. Традиционные сообщества в совр. Узбекистане //Центральная Азия и Кавказ. № 4 (10) 2000. С. 55.

мият эса мақсад бўлган ҳолга зид ҳолат яратилади. Фуқаролик жамияти учун давлат шахсга бўйсундирилган ҳолатда булиб, анъанавий жамиятда эса давлат фуқаровий жамиятдан устувор мавқега эга бўлади. Анъанавий жамиятлар учун сиёсий ҳокимият ҳукукий нормалар, ҳокимият ва бошқарув органларига, мафкуравий таъсир этиш аппаратига ва иқтисодий куч-кувватга эга бўлган давлат кўлида бўлишилиги кузатилади.

Шарқ мамлакатларида, хусусан, Туркистонда давлат анъанавий равишда шахс устидан чекланмаган ҳокимиятга эга бўлиб, шахс давлат иродасига сўзсиз итоатда бўлган. Фуқаролик, яъни замонавий жамият эса шахс манфаатини давлат манфаатидан юкори кўяди, қонун давлатга эмас, балки давлат конунга бўйсунади, давлатнинг манбаи демос хисобланади.

Анъанавий жамиятларда инсон улкан давлат-бюрократик машинасининг факат кичик мурватига, обьектига айланади. Замонавий жамиятла эса инсон тарихий жараённинг субъекти хисобланади.

Анъанавий жамият тарихан инкиrozга махкум, чунки у фуқароларни зуравонлик асосида бошкаради, фуқаролар ҳукуклардан махрум бўлади. Анъанавий жамиятдан замонавий жамиятга ўтиш даврида сиёсий етакчи олдидаги мурракаб ижтимоий-сиёсий муаммолар пайдо бўлади ва у мазкур муаммоларни ўз вактида англаб ета олмаса ва укувсизлик қилса сиёсатда мурракаб ижтимоий-сиёсий муаммоларни таражиб бўлади. Натижада аҳоли ўртасида норозилик кайфиятлари, агресивлик кучайиб боради. Буни Грузия, Украина ва Қирғизистонда булиб ўтган ижтимоий бўхронлар яна бир карра исботлади.

Анъанавий жамиятни замонавий жамият томони сиёсий тараккиёти инсон мавжудлигининг умумий томонларини камраб олади. Шу маънода жамоавий, маҳаллавий онг ҳозирги замон ўзбек жамиятида янгича ижтимоий-сиёсий муносабатлар типини шакллантириш орқали ҳозирги замон ижтимоий тараккиётининг муаммоларини мудоммасида ҳал этилишига имконият яратувчи фуқаролик жамиятининг бутунлай янгича типини ҳам яратиши мумкин. Ўзбекистоннинг жамоавий онги анъанага кўра индивидуал онгга эмас, балки маҳаллавий онгга кўпроқ таянади. “Мен” ва “сен”нинг узвий бирлиги бўлган маҳаллавий онг - “биз”нинг бирламчи бирлигидан келиб чиқади. Анъанавий ўзбек жамиятида инсон ўзини маҳалла билан мингларча кўзга кўринмайдиган ришталар билан, маънавий ва ахлоқий жиҳатдан боғлиқ эканлигини доимо хис этиб яшайди. Шу боис ўзбекларнинг анъанавий характерларидан бири –уларнинг жамоавий мавжуд бў-

лишлари, маҳалла-маҳалла бўлиб ҳаёт кечиришларидир. Агар Farбда фуқаролик жамияти автоном индивидларнинг бир-бирлари билан соғ рационал айирбошлиш муносабатларига, асосан индивидуал этикага асосланган бўлса, Шарқда эса, хусусан, узбекона андоза колективизм этикасига асосланган бўлиб, унда шахс жамоавий ахлокий қадриятлар асосида бирлашиб фаолият қўрсатади. Бошқача килиб ифодалаганда, агар Farбда ахлокий қадриятлар тизими у ёки бу ижтимоий таркиб билан боғлиқ бўлмаган автоном шахс атрофида ковушган бўлса, мусулмон Шарқида эса ахлокий қадриятлар тизими бошиданок, ижтимоий идеалга қаратилгандир. Агар Farбда киши ўз тақдирини ўзи яратса, Шарқда эса инсон ўзини коллектив тақдирни билан боғлиқ эканлигини хис килади, чунки у ўз маънавий изланишида доимо жамоат, коллектив хаётига мурожаат килади.

Жамоавий (маҳаллий) онг илдизлари тарих қаърига кириб кетган бўлиб, ҳозирги Марказий Осиёда мавжуд бўлган қадимги давлатлар - Хоразм, Сўғд ва Бактрия давлатлари ҳаёти билан боғликдир. Ўрта асрларда жамоавий онгнинг шаклланиши ва маънавий қадриятларнинг такомиллашувига сомонийлар, эфталитлар, хоразмийлар, темурийлар давлатларининг таъсири катта булган. Уларни барчасини бир нарса – монарх қўлида ҳокимиятни чегарасиз мустаҳкамланиши. табақавий, оила-қариндошлилик ва жамоавий ҳаёт кечириш бирлаштириб турган. Шарқ ва Farб ўртасида савдо-сотикнинг ривожланиши. Буюк ипак йўли кишилар ўртасида ўзаро окибат, хайр-саҳоватли бўлиш, ҳамдардлик каби маънавий қадриятларни шакллантира бориб жамоавий онгни тобора мустаҳкамлади. Йўллар, кўприклар, сугориш системаларини қуриш эҳтиёжи кишиларни бир максад ва вазифа атрофида ўзаро бирлашишини тарихан тақозо этиб, жамоавий онгни янада такомиллашувига сабаб бўлди. Бунинг ёркин мисоли бўлиб. жамоа аъзолари ўртасида беминнат ўзаро ёрдам-хашар удумини шаклланиши хизмат килади.

Шу боис ҳозирги Ўзбекистон фуқаролик жамиятини шакллантиришга киришар экан маҳаллага бўлажак жамиятнинг бош бўғини деган умид билан қарамоқда. Маҳалла фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органи сифатида сиёсий тараккиётнинг негизи бўлиб хизмат килиши кутилмоқда. Маҳаллага ўзини ўзи бошқаришнинг ўзига хос демократик шакли деб қаралмоқда. Бирок фуқаролик жамиятининг умумий талаблари нуктаи-назарилан ёнлаппилганди. маҳалла бўлажак фуқаролик жамиятининг илк куртакларидан бири бўлса-да, анъанавий жамиятдан бозор муносабатларига асосланган замонавий жа-

миятга ўтиш даврида ижтимоий табакаланиш, даромадлар ўртасида фаркнинг кўпайиши, натижасида жамиятда табиий дифференциаланиш ва маргиналлашиш (фукаролар ўртасида турмуш даражалари ўртасида кескин фарклар) билан ўзаро зиддиятга киришади.

Фукаролик жамияти шахсдан ўзини ўзи таъминлашни, турмуш даражасини яхшилаши учун жонкуярликни, жонбозлик, фидойилик ва мисли кўрилмаган ипдивидуал фаоллик, тадбиркорлик ва ишбильармонликни талаб килади.

Бозор муносабатлари кишилар муносабатларида прагматизм, фойдани кўзда тутиб иш юритишини асосий мақсадга айланишини такозо этади. Фукаролик жамиятнинг яна бир талаби – кишининг ижтимоийлашувининг тезлашиши, фукаролик етуклилик ривожланишининг юқори темпда бўлишлигидир. Анъанавий ўзбек жамияти киши ижтимоий етуклигининг аста- секин ўсишига асослангандир. Бунинг сабаби – оиласда патерналистик анъаналарининг, ёшлар ўртасида **бокимандалик** кайфияти ва рухиятининг хамон хаётий эканлигидир.

Шу боис анъанавий жамият қадриятлари замонавий жамият қадриятлари ва уларнинг талабларига зид келади, чунки замонавий жамиятда ҳис-туйғу эмас, балки акл, рационаллик устувор бўлиб, жамият хаётини ташкиллаштиришнинг асосий шаклига айланади.

Замонавий жамиятда қонун ва хукуқ-тартиботнинг устуворлиги кузатилади. Анъанавий ўзбек жамияти эса нафакат қонунга, балки кўпроқ “ёзилмаган” қонунларга - таниш-билишлик, кариндош-уругчилик, ҳокимият вакилини пора эвазига сотиб олиш имкониятининг мавжудлиги асосида фаолият курсатади. Шу боис Ўзбекистон Республикаси Президенти И.Каримов маҳаллийчилик, таниш-билишчилик, кариндош-уругчилик ва коррупцияни давлат мустақиллигига ва ижтимоий-сиёсий тараккиётта асосий хавфлардан бири, деб бежиз баҳоламайди.

Ўзбекистонда шакллангирилаётган янги жамиятнинг асосий талблари ва тамойилларидан бири бўлиб, қонун устуворлиги хисобланади. Мазкур тамойил конституциявий жиҳатдан мустаҳкамланган. Бирок анъанавий жамият маънавий қадриятларининг таъсири остида жамиятда инсон хулк-авторини баҳолашда қонун эмас, балки кишининг таниш-билиш алоқалари, мансабдор шахсни пора эвазига ўзига оғдириш имкониятини бор-йўклиги белгилайди.

Ҳозирги Farb жамиятида ҳам коррупция ва сунистеъмолчилик ҳоллари учраб турса-да, жамиятда қонунлар кучи сезилиб туради.

Юқорида таъкидлаб ўтилган киши ижтимоий етуклигини шакланишини тезлаштириш муаммоси Фарб жамиятининг “намуна”, “андоза” деб қараладиган қадриятларини жамиятга татбиқ этиш, уларни фуқаролик жамиятини универсал коидалари деб караш лозим бўлади. Бирок Жанубий – Шаркий Осиё мамлакатлари – Сингапур, Малайзия, Жанубий Корея ва кунчикар мамлакат – Япониянинг замонавий жамият қуриш тажрибаси шуни кўрсатмоқдаки, замонавий жамиятнинг универсал ва умумий андозаси фактат ҳозирги замон Фарб жамиятидир, дейиш мумкин эмас. Жамоавий, яъни муайян коллективда яшаш ва фаолият юргизиш ҳозирги тараккӣ этган Шарқ мамлакатларида ҳам мавжуд

Масалан, Япон жамияти ўзбек тадқиқотчиларининг фикрича, маданий жиҳатдан, қадриятлари тизими хусусияти жиҳатидан (патернализм, кучли кариндош-уругчилик алоқалари, меҳмондустлик, ҳамдардлик, ўзаро ёрдам) ўзбек жамиятига якинdir. Шу билан бирга Япон жамиятининг илмий-техникавий ютуқлари, турмуш даражаси жаҳон ахли учун намуна ҳисобланади.

Ўзбек жамиятини анъанавий жамият ҳолатидан замонавий жамият ҳолатига ўтказиш ўзига хос сифатий жиҳатларга эга – у сиёсий тараккиётнинг гарбона қадриятлари (ҳокимиятлар бўлиниши тамойили, икки палатали парламент, президент бошқаруви, кўппартиявилик, демократия тамойили ва ҳ.к.) қадриятлари билан анъанавий ўзбек жамиятининг тарихий қадриятлари (кучли кариндош-уругчилик алоқалари, патернализм, ўзаро ёрдам, маҳаллийчилик ва ҳ.к.) ўзаро пайванд қилиниши оқибатида муайян зиддиятлар ҳам пайдо бўлади.

Бу зиддиятлар қуйидаги шаклда намоён бўлади:

- а) “Буйрук-ижро” тамойилига асосланган анъанавий сиёсий тартиб билан янги сиёсий тартиб уртасида юзага келувчи зиддиятлар,
- б) бозор муносабатлари такозо этувчи рационализм ва прагматизм билан анъанавий турмуш тарзи ва тафаккур услуги уртасида юзага келувчи зиддиятлар.

Мазкур зиддиятлар қуйидаги шартларни бажариш воситасида ҳал этилади:

1. инсон фаолиятини ташкил этишнинг хукмронлик табиатига (ўзини ўзи бошқариш эмас, балки юқоридан бошқаришга) барҳам бериш;

2. анъанавий улумлар, одатлар, байрамларни (тўйлар, хотира одатлари, туғилган кунларни ҳашаматли ўтказилиши ва ҳ.к.) ислоҳ килиш;

3. тарбиянинг анъанавий шартларини (хатти-харакат эркинлиги ва унинг оқибатлари учун масъулият, тежамкорлик, иззат-нафс хиссиети ва ҳ.к.) ислоҳ килиш;

4. инсон фаолиятини турли соҳаларида эркин ракобат мұхитини яратиш оркали сиёсий иштирок фаолигини ва ижодий таъсирини рағбатлантириш.

Ўзбекистон ўзининг сиёсий тараккіёттида иктисод устидан кучли давлат назоратини ўрнатиши оркали жамиятни табақаланишига, уни бой ва камбағалларга бўлинишига имкон бермайди.

Ўзбекистонда анъанавий жамиятдан замонавий жамиятга томон кузатилаётган сиёсий тараккіёт хусусиятларига доир мулоҳазаларга мантикий хулоса килиш оркали мамлакатда анъанавий ўзбек жамияти тараккіётининг янги андозаси, унинг сиёсий тизими ва сиёсий тартиби ўртасида кечеётган зиддиятларни ўз вактида ҳал этишни постиндустриал жамият куриш учун қанчалик зарур эканлигини кўрсатишга ҳаракат киласиз.

1. Ўзбекистонда анъанавий жамиятдан постиндустриал замонавий жамиятга ўтишга нафакат жаҳон, ҳатто мінтақавий сиёсий тараккіёт темпларидан оркада қолишига (жамиятнинг барча соҳаларини демократиялаштириш, фан ва таълимни институтлаштириш, инсон хукуқ ва эркинликларини таъминланиши, жамиятнинг очиллиги ва ҳ.к.) анъанавий маъмурий буйруқбоз авторитар бошқарув<sup>1</sup> руҳияти қолдиклари тўскинлик қиласи.

2. Анъанавий жамиятдан замонавий жамиятга ўтиш нафакат давлат мулкини давлат тасарруфидан чиқаришни, балки сиёсий, иктиносидий ва ижтимоий соҳаларни демократиялаштиришни, жамиятни жаҳон ҳамжамияти учун очик бўлишлигини, ўзини ўзи чеклашни эмас, балки бошқа давлатлар билан ўзаро ҳамкорлик муносабатларини нафакат давлат даражасида, балки индивидуал, шахсий даражада ҳам амалга ошириш имкониятини бўлишлигини такозо этади.

3. Анъанавий жамиятни модернизациялаштириш ҳокимиятнинг барча тармоқларининг хукуки ва макомини, ва айниқса унинг түртингчи тармоғи – жамиятнинг демократиялаштиришининг кўзгуси

<sup>1</sup> "Маъмурий-буйруқбоз авторитар бошқарув" терминини илк бор Гильермо О'Даннел (Guillermo A. O'Donnell) музомалага киритган. Муаллифнинг кўйидаги асарларига қарант: Modernization and Bureaucratic-Authoritarianism: Studies in South American Politics (Berkeley: Institute of International Studies, University of California, Berkeley, 1973). "Reflection on the Patterns of Change in the Bureaucratic," – no 1 (1973) p. 3-38. Tuan T. Ling. "Totalitarian and Authoritarian Regimes". In Handbook of Political Science. MA: Addison-Wesley, 1975. 175-375, fsp. 264-350.

бўлмиш оммавий ахборот воситаларини эркин фаолиятини такозо килади.

4. Замонавий жамиятга ўтиш сиёсий партияларнинг етакчилик роли ва бу рол учун курашсиз, сиёсий плюрализмсиз (сиёсий фикрларнинг хилма-хиллиги) мумкин эмас.

5. Постиндустриал, замонавий сиёсий тараккиётнинг асоси ва ричаги бўлиб нафақат эркин ва очик иқтисод, балки очик жамият, унинг давлат бошқарувидан озод ижтимоий ишлаб чикариши ва ижтимоий эҳтиёжга бўйсундирилган таълим тизими хизмат килади.

Мазкур хulosалар қанчалик танқидий ва аёвсиз бўлмасин, улар анъанавий жамиятни замонавийлаштиришни, модернизациялашга бўлган самимий истакларни акс эттиради.

## **2. Мустакиллик – жамиятни модернизациялаштириш ва ривожлантириш омили**

Мустакиллик категорияси илмий жамиятшуносликда кейинги йилларда кенг ишлатиладиган иборага айланди. Кимдир мустакиллик – бу “хукук” деса, кимдир – бу “эркинлик” дейди. Кимдир уни “давлат” ва “миллат” тушунчалари билан хамоҳанг тушунча деса, кимдир уни тарихий категория эканлигини таъкидлайди. Маълум даражада бу фикрларнинг барчасида муайян рационал маъно бор. Мустакиллик категорияси шу даражага кўтарилимоқдаки, айримлар уни давлат ва миллат тушунчалари билан боғлаб, умумий тақдирга эга эканлигини таъкидламоқда.

Бирок мустакилликнинг барча ижтимоий муаммоларини ечишнинг ягона даъвоси, ягона усули ёки воситаси дейиш реал воқеъликка ва умуман мантиққа зиддир. Мустакиллик – нисбий тушунчадир, унинг турлича маъноси мавжуд. Мустакилликка политологик ёки социологик ёндашилса, дарҳакиқат мустакиллик – эркинлик, эркин ижтимоий-сиёсий тараққиёт учун реал имкониятларнинг яратилишидир. Агар масалага фалсафий демак, ҳар томонлама ёндашилса, мустакиллик – нисбий ҳақиқатдир. Бунинг боиси шундаки, XX1 асрга келиб на бирор миллат ва на бирор мамлакат ижтимоий-сиёсий ва маданий-маънавий жиҳатдан том маънода тӯла мустакил бўла олмайди. Чунки ижтимоий ҳаётнинг тобора интеграция ва глобализация томон юз тутиши, халқаро иқтисодиёт ва маданий муносабатларга жаҳоннинг катта-ю кичик мамлакатларини у ёки бу даражада кириб бориши ва маълум даражада халқаро ишлаб чиқаришга боғликлиги мустакилликни нисбийлигини белгилайди. Шу маънода мустакилликни тор ва кенг маънода тушуниш мақсадга мувофиқдир. Тор маънода дарҳакиқат мустакиллик – бу миллатни озод ва эркин, бошқа миллат ва давлатларга қарам бўлмасдан тені ҳукуқи тарихий ривожланишидир. Мустакиллик дегани шу маънода эркин ривожланиш ҳукукидир. Мустакил ривожланишда миллат ўз тарихий тажрибаси, урф-одатлари, удумлари, анъаналари, ахлоқи, маданияти ва тарихий тўплаган тажрибаси асосида ҳеч қандай тазийксиз эркин ҳаёт кечиради. “Аммо, - кўзга кўринган файласуф олим А.Жалоловнинг таъкидлашича, - мутлак эркинлик табиатда ҳам, жамиятда ҳам бўлмайди”.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Жалолов А. Мустакиллик – фидокорона меҳнат ва рух матонати. - Ўзбекистон: Мустакиллик, маънавият, мағкура. Т.: Ўзбекистон, 1999. -48 б.

Чупки оламда ҳамма парса бир-бирига боғланган, бири иккинчиини тақозо этади, хуллас, ўзаро алокада. Мустакиллик ҳам эркинликка эквивалент категория сифатида мутлақ бўла олмайди. Бундай мустакилликни кенг маънода тушуниш миллий ривожланиш учун тор маънода тушунишга нисбатан самарадор эканлиги ҳакида хулоса келиб чиқади.

Дарҳақиқат, мустакилликка эришилгандан сўнг деярли ўп йилдан зиёд мустакилликни тор ва статик тушуниш жамиятда кузатилди. Бунга кўпгина тарихчилар, публицистлар, ёзувчи-ю санъаткорлар ўз хиссаларини кўшишди. Омма онгида мустакиллик – бу ягона максад, деган нотўғри фикр ва тасаввур шаклланди. Ваҳоланки, мустакиллик доимо мустаҳкамланишини, ҳимоя қилиш ва умуман олганда ривожлантирилишни тақозо килади. Мустакиллик мустаҳкамланмаса, ривожлантирилмаса ижтимоий хаёт боткоқликка ботади, мустакиллик фактини макташ, маддоҳлик авж олади. Айниқса, ўтмиш билан мактаниш, уни идеаллаштириш зарарли фаолиятдир, у миллатчиликни, этник ва диний зиддиятларни келтириб чиқаради, фукаролар ҳамкорлиги ва тотувлигига рапхна солади. Шунинг учун ўтмишни миллий ўзлаштириш миллий хавфсизлик ва миллий ривожланиш учун хатарлидир. Марказий Осиё ҳалкларининг тарихий илдизлари бир ва ягодадир. Уни парчалаш, ўзлаштириш (ўзбек, токик, козоқ, кирғиз, туркман, афғон ва ҳ.к.) миллий низоларни келтириб чиқариши табиийдир. Шунинг учун мустакиллик миллий хавфсизлик муаммолари билан уйғунлашиб кетади. Марказий Осиё ҳалклари ўргасида сунъий тўсиқлар, жарликлар ва деворлар барпо этиш – тарихий ҳакиқатга ва миллий ривожланиш талабларига зиддир.

Айнан шунинг учун миллий мустакилликни кенг тушуниш – миллатлараро тотувлик, миллий ҳамжиҳатлик ва барқарор тараккиёт учун истиқболлидир.

Мустакилликка эришиш – барқарор тараккиёт учун, фаровон ҳаёт учун тинимсиз меҳнат килишдир.

Мустакиллик, дарҳақиқат, Оллоҳнииг инъоми бўлди, курбонларсиз, кон тўқилишсиз қўлга киритилди. Энди уни асрраб авайлаш, мустаҳкамлаш ва абадийлаштириш учун миллатдан тинимсиз меҳнат, зийраклик, огоҳлик талаб килинади.

Мустакилликни кенг маънода тушуниш уни ривожлантириш заруратини англашга олиб келади. Мустакиллик шу маънода статик, қотиб қолган факт эмас, балки миллий ривожланиш учун имкониятдир. Бу имкониятдан фойдаланмаслик, мустакиллик шабадасидан

маст бўлиб, эйфорияга берилиш қимматга тушади. Мустакилликка эришган факат Ўзбекистон эмасдир. Собик шўро мамлакати ҳудудида кўплаб ҳалклар ҳам миллий мустакилликка эришдилар. Мустакил ривожланиш одимлари бир вактда бошланди. Бироқ мустакилликка тенг эришган ҳалклар, давлатлар ўргасидаги иктиносидай, илмий, техника-вий ва ижтимоий фарклар аста-секин сезилмоқда. Чунки ривожланиш темплари собик шўролар маконида турлича бўлмоқда. Бунинг сабаби – мустакил ривожланиш тактикаси ва стратегиясининг собик совет республикаларида турличалиги.

Тараккиётнинг “узбекона” модели ҳам турли соҳаларда ўзини оқламоқда.

Бироқ эришилган ютуклар билан қоникиб, ривожланиш суръатларини секинлаштириш мумкин эмасдир.

Тараккиётнинг объектив диалектикаси шуну тақозо этадики, ривожланишда нафакат экстенсив ёки эволюцион, балки интенсив ва инкилобий элементлар ҳам мужассамлангандир.

Фарбий Европа, Жанубий-Шаркий Осиё мамлакатлари тараккиётнинг интенсив ва инкилобий йўлидан кетишмоқда, иктиносидай ўсиш суръатларини йил сайин ошириб боришмоқда. Натижада бу мамлакатлар Лотин Америкаси, Шаркий Европа, Марказий Осиё ва бошқа миштақалар мамлакатларидан иктиносидай ўсиш қўрсаткичлари бўйича илгарилаб кетишмоқда.

Мамлакатимизнинг ҳалқаро микёсдаги нуфузи кўп жихатдан иктиносидай салоҳиятимиздан қай даражада умумли фойдаланишимизга боғлик. Мустакилликимиз мамлакатимизнинг ички салоҳиятидан мустакил фойдаланиш ҳуқуқини беради. Мамлакатимизда жуда катта меҳнат ресурслари мавжуд. Ҳалқимиз тарихан меҳнатсевар ҳалқдир. Мустакиллик озод Ватанга ижодий меҳнат учун имконият яратади. Бу имкониятдан оқилюна фойдаланиш кишидан мустакилликнинг мохиятини ва тарихий аҳамиятини англаш орқали бўлади.

Шу маънода мустакиллик тушунчасини ҳаракатга келтириш, аникроғи инсон фаолиятига мужассамлантириш мустакилликни негизини ташкил этувчи асосий ғояларни англашдан бошланади. Бундай ғоявий негизларга биринчи галда миллий ўзликни англаш, эркинлик, тенглик ва демократия каби тушунчалар киради.

Миллий ўзликни англаш ғояси янги ғоя эмасдир. Миллий ўзлигини англаш аслида миллатни камситиш, тахқирлаш, адолатсизликлар оқибатида шаклланадиган хис-туйғудир. Бу туйгу барча кишига ҳам наеб килавермайди. Миллий ўзликни англаш асосан ҳалк-парвар,

миллатпарвар, сиёсий жихатдан саводли шахсларга хосдир. Миллий ўзликни англаш туйғуси мавжуд ижтимоий шароитлардан норозилик кайфиятлари асосида шаклланади ва сиёсий ҳокимият, сиёсий тартиб учун хатарли ҳисобланади. Шунинг учун ҳукмрон мафкура ва унинг сиёсий институтлари миллатпарвар шахсларни нейтраллаштириш, уларни имкони бўлса жамиятдан ажратиш ёки жисмонан йўқ килиб юборишга ҳаракат киласди. Махмудхўжа Беҳбудий, Абдурауф Фитрат, Чўлпон, Абдулла Авлоний, Абдулла Қодирий, Усмон Носир, Ҳусайн Шамс ва бошқа миллатпарвар, ҳалкпарвар инсонларнинг кисмати шундай бўлган эди.

Улар мустақиллик бешигини илк бор тебратган, миллатни мустақилликка, ижтимоий модернизацияга чорлаган забардаст зиёлилар эди. Бу ҳақда мустақиллик йилларида юзлаб мақола ва китоблар чоп этилди, ноҳақ шаҳид бўлган бу зотларга хиёбонлар, тарихий ёдгорликлар барпю этилди.

Миллий ўзликни англашнинг оммавий онгда шаклланиши жарёни икки қарама-карши мафкура кураши йилларида, “совук уруш” даврларида чукур ўрганилар, таҳлил қилинар эди. Бу иппни собик СССР да давлат хавфсизлиги органлари амалга оширишса, Фарбда эса кўзга кўринган марксшунос, советшунос олимлар амалга оширишар эдилар. Булар жумласига Колумбия университетининг профессори, ўзбекшунос Эдвард Оллворт, Вашингтон университетининг профессорларидан Ильза Сиртаутас, В.Поппа, Элизабет Бэкон, олмониялик советшунослар Боймирза Хайит, Абдурахмон Авторханов, П.Рывкин ва бошгаларни киригиш мумкин.

Совет воқеълигини яхши билган бу тадқиқотчилар миллий ўзликни англаш туйғусини шаклланиш динамикасини адабиётдан, санъатдан, театрдан ва бошқа соҳалардан қидиришар эди. Ойбекнини “Навоий” асари, Абдулла Қаҳҳорнинг “Ўтган кунлар”, Махмудхўжа Беҳбудийнинг “Падаркуш” ва бошқа асарлари қаҳрамонлари оркали улар мустақилликка интилиш учқунларини қидиришар эди. Кекса авлод Москвада, Тошкентда, Олма-ота ва бошқа шаҳарларда Фарб олимлари иштирок этган миллий ўзликни англаш муаммосига бағишлиган ҳалкаро конференция, семинар, давра сухбатлари ва ҳ.к. тадбирларни ҳали ҳам яхши эслашади.

Шунинг учун мустақиллигимизнинг ғоявий негизларидан бири бўлпмиз миллый ўзикни англап туйғуси аллакачон. Ӯша машъум чор Россияси боскини йилларидан бошланган, деб бемалол айтса бўлади. Дукчи Эшон, Жиззах қўзғолонлари ҳам стихияли бўлса-да, миллий

ўзликни англашни шакллантирди, мустақиллик учун курашинг илк куртаклари бўлди. Мустақилликнинг ғоявий негизларидан яна бири – эркинликдир.

Эркинлик этимологик жиҳатдан олиб қаралса, туткинликнинг тескарисидир. Лекин бундай тушуниш илмий билишнинг эмпирик босқичига хосдир. Аслида эса эркинлик назарий категориядир. Унинг мазмунини ўзбилармонлик, бошбошдоқлик, хоҳлаган ишни килаべриш эмас, балки кишининг ҳар бир хатти-ҳаракати учун юксак масъулиятни, ижтимоий бурчни (хусусан фуқаролик бурчни) англаш ташкил этади. Эркинлик ижтимоий адолат мавжуд ерда бўлади. Шу боис соҳибкорон Амир Темур “Касрда Конун ҳукмрон бўлса, шу ерда эркинлик бўлади”, деб бежиз айтмаган.

Адолатли конунлар эса ўз навбатида демократияни, ҳалқ хокимиятчилигини тақозо қиласди.

Ўзбекистонда инсон ҳуқук ва эркинликлари конституциявий жиҳатдан кафолатлангандир. Инсон эркинликлари ичida фикр ва зътиод эркинлиги мухим ўрин тутади. Фикр эркинлиги жамиятда плюрализмни, фикрлар хилма-хиллигини вужудга келтиради.

Мустақилликни мустаҳкамлаш ва миллий ривожланишни таъминлаш нуқтаи-назаридан фикрлар хилма-хиллиги, плюрализм – ривожланишнинг ғоявий манбаидир. Чунки фикрлар хилма-хиллиги ижтимоий гурухлар, уюшмалар, сиёсий партиялар ўртасида ўзаро мунозара мухитини, ракобатини юзага келтиради. Плюралистик жамиятда ҳар бир киши ўзига макбул ва манзур бўлган ғояни, фикрни танлаш имкониятига эга бўлади. Ўзбекистон Республикаси Конституциясида ғоялар, мафкуралар хилма-хиллигига эришиш тараққиёт асоси эканлиги уқтирилади. “Плюрализм, яъни фикрлар хилма-хиллиги ва карашлар ранг-баранглиги маърифий жамиятгагина хос бўлиб, муайян ҳақиқатни турлича изоҳлаш, тушуниш ва талкин этиш тамойилига асосланади”.<sup>1</sup>

Жамиятда плюрализм мухити ўз-ўзидан вужудга келмайди. Плюрализм сиёсий партиялар, турли нодавлат ташкилотлар, ҳаракатлар ва уюшмалар томонидан шакллантирилади. Ўзбекистонда бунинг учун барча ҳуқукий асослар мавжуд. Сиёсий партиялар, нодавлат жамоат ташкилотлари, ҳаракатлар ҳақида маҳсус конунлар тизими яратилган бўлиб, ҳеч ким мукобил фикр ва ғоя учун таъкиб остига олинмайди; ҳеч қандай мафкура давлат мафкураси даражасига кўтарилимайди.

<sup>1</sup> Миллий истиқомол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. Т.: Ўзбекистон, 2000. –19 б.

Ўзбекистонда ғоявий плюрализмни таъминлаш масадида ом-  
мавий ахборот воситаларига тұртнчы ҳокимият мақоми берилган.

Журналистика дахлсизлиги ва эркинлиги қонун ва Президент  
фармони билан мустаҳкамланган.

Плюрализм мустақилликнинг мевасидир. Мустақилликка қадар  
коммунистик ғоя ва мағкура яккаҳокимлиги мавжуд бўлиб, ҳар қандай  
мукобил фикр ва мулоҳаза таъқиб остига олинар эди.

Социалистик демократия, демократик централизм принциплари  
аслида ғоявий яккаҳокимлик никоблари эди ҳолос. Аслида эса ҳар  
қандай ҳурғикрлилик, расмий ғояга мукобил бўлган фикрни билди-  
риш – ғоятда ҳатарли эди. Д.Саҳаров, А.Солженицин, И.Шафаревич  
ва ҳ.к. ҳурғикрли кишилар 80-йилларда диссидент, яъни социалистик  
Ватан хоинлари деб ҳисобланиб ё қамокқа солинар, ё ҳорижга кетиш-  
га мажбур қилингандар эдилар.

Мустақиллик тушунчасининг ғоявий негизини демократия ғояси  
ҳам ташкил килади. Демократия аслида мавқум тушунча бўлиб, иж-  
тиимий реалликда факат муайян даражада карор топади. Ҳатто ўзини  
демократик давлат деб ҳисобловчи АҚШ да ҳам демократия тула ка-  
рор топмаган.

Кўзга кўринган АҚШ политолог олими Фрэнсис Фукуяма  
таъкидлашича, Англия ва АҚШ нинг тарихий ривожланиши бошқа  
давлатлар учун ҳеч ҳам намуна бўла олмайди. Демократия сиёсий  
либерализация билан боғлик бўлиб, юкори иктиносидий ўсиш асосида  
юзага келади.<sup>2</sup> Шунинг учун мустақиллик бир томондан сиёсий либе-  
рализация билан боғлик бўлса, иккинчи томондан юкори иктиносидий  
ўсиш билан боғликлариди. Демократия эса мустақилликнинг асосига ай-  
ланиши учун ижтиимиий-иктиносидий ўсишни, ривожланишини тақозо  
килади. Жанубий-Шаркий Осиё мамлакатларининг, шунингдек Япо-  
ния ва Хитой давлатларининг кейинги ўн йилликлардаги юксак икти-  
носидий ўсиш кўрсаткичлари сиёсий либерализация воситасида амалга  
ошли. Шу боис демократия реал иктиносидий ўсишни, конкрет иктиносидий  
кўрсаткичларни бўлишилигини тақозо килади. Мустақиллик де-  
мократия ғоясини айнан шу талкинда ўз таркибиға олади.

<sup>1</sup> Каранг: Фонд Либеральная миссия - Фрэнсис Фукуяма. "Конфуцианство и демократия". М. 2001.

<sup>2</sup> Мазкур фикр катор тадқиқчилар томонидан кайль этилади, хусусан: Raymond Grew.Grisis of Political Development in Europa and United States. Princeton: Princeton University Press, 1978.

### **3. Миллий ривожланиш ғояси тизимида миллий, умуминсоний, эркинлик ва мустақиллик қадриятлари**

Ҳозирги замонда ҳар қандай модернизация миллий ривожланиш мақсадларига бўйсундирилган ҳолда амалга оширилади.

Миллий ривожланиш кенг ижтимоий ҳодиса бўлиб, у мамлакат ички ижтимоий тузилмасининг табиати асосида жаҳон ҳамжамияти умумэтироф этган иктисадий, сиёсий, хукукий ва маданий-маърифий нормалар ва қадриятлар билан ўзаро алокада бўлади. Миллий ривожланиш ғояси шу маънода интегратив тушунча бўлиб, алоҳидалик, яккалик ва умумийликнинг объектив диалектикасига бўйсунгандир. Бу алокадорликни инкор этиш миллий ривожланиш ғоясини илмий методологиясидан маҳрум этишин билдиради. Муайян илмий методологиясиз ҳар қандай ғоя тўғри ривожлана олмайди. Бунинг сабаби шундаки, инсон бирон бир фаолиятга киришар экан, у даставвал фаолият мақсадини аниклайли, сўнг унга эрининни воситасини кидиради. Унгача ғоя факат потенциал имконият шаклида бўлади. Ғояни натижага айланиши учун мақсад ва восита бир бирига адекват ёки изоморф (гомоморф) муносабатга киришиши лозим бўлади. Ғояни ҳаётта жорий бўлишлигининг бундай методологик курилмаси илмий билишнинг синалган усулидир. Мустақиллик йилларида миллий истиклол, миллий ғоя хусусида қўплаб илмий, илмий-публицистик мақолалар, қўлланма, эссе ва лавҳалар яратилди. Уларда миллий истиклол ва миллий ғояга таркибий жиҳатдан ёндашув кузатилди, статик тахлил устувор мавқеда бўлди.

Миллий ривожланиш ғояси эса ўз табиатига кўра динамик характерда бўлиб, мақсад, восита ва натижага объектив диалектикасини ўзида акс эттиради. Миллий ривожланиш ғояси иқтисодий, сиёсий, хукукий, маданий-маънавий ҳаётга йуналиш беради, муайян мақсадларга эришиш учун илмий методология вазифасини бажаради, ўз навбатида миллий ривожланиш ғоясининг ўзи ҳам шундай методологияга муҳтоҷ. Миллий ривожланиш ғоясининг методологияси миллий ва умуминсоний қадриятларнинг ўзаро уйғунлашуви, ўзаро алокадорлиги ва диалектик бирлиги асосида юзага келади. Бунинг сабаби шундаки, агар миллий ривожланиш ғояси факат туб, яъни титул миллат тили, маданияти, урф-одати ва анъаналарига асосий ургуни бериб, мамлакатни “узбекчалаштириб” юборса, миллатчилик юзага келади. Миллатчи унсурлар эса (аксарият маҳаллий ёзувчилар, тилшунослар, шоирлар ва х.к.) айнан шу йўлдан боришади. Муста-

қилликнинг дастлабки йилларида улар ўта миллатчилик сиёсатини асосий миллий ривожланиш йўлига айлантироқчи бўлдилар. Улар тарихий тараккиёт давомида хаётимизга табиий равишда кириб келган умуминсоний қадриятларни ўзбекчалаштиришга, тарих захирадига улоктирилган “эски чопон”ларни янги жамият елкасига ёпмоқчи бўлишиди. Масалан, умуминсоний “республика” атамаси “жумхурият”; “район”, “нохия” ёки “туман”; “университет” атамаси “дорил-фунин”; “факультет”, “куллиёт”; “газета”, “рӯзнома”; “журнал”, “жаридা”; “самолёт”, “учок”, “аэропорт”, “тайёрагоҳ” ва х.к. ҳалқ учун гушунарли бўлмаган сўзлар билан алмаштирила бошланди.

Миллий ривожланиш хеч качон ўз миллий қобигига ўралиб олиб худди пилла курти каби яшашини ва яратишни англатмайди.

Хозирги информация, глобализация, интеграция замонида миллий қобигда колиб кетиш жаҳон тараққиётидан оркада колиб кетишни англатади. Умуминсоний ҳуқукий, сиёсий, иктисодий ва маънавий қадриятлар миллат учун, миллий ривожланиш учун ҳаётбахшdir.

Лекин бу миллий ўзликни йўқотиш, умуминсоний қадриятлар ичида сингиб кетишни англатмайди.

Мустакилликнинг дастлабки йилларида бош кўтарган миллатчи унсурлар 1920-йилларда ижтимоий ҳаёт саҳнисига чиқкан пролет-культчилар каби фаолият кўрсатишиди. Масалан, бутун жаҳон эътироф этган “политология” соҳасини “сиёсатшунослик” атамаси билан, “идеология”ни “мағкура” атамаси билан алмаштирила бошланди.

Хозирги замон тараккиёти инсониятни миллий, ирқий, диний ва сиёсий тузимидан катъи назар бир бутун эканлигини, умуминсоний муаммоларни (ядровий ҳалокат, экология муаммолари, эпидемия ва х.к.) ҳал этишда ўзаро бирлашишни, якинлашишни, бир сўз билан ифодалаганда ўзаро интеграцияни тақозо этмоқда.

Миллатчилик Ўзбекистон келажаги учун ҳалокатлидир.<sup>1</sup> Миллатлар, фуқаролараро тотувлик ва ҳамжиҳатликни таъминлаш – миллий ривожланиш ғоясининг ўзагидир. Қаерда тотувлик ва ҳамжиҳатлик бўлса, ўша ерда барака бўлади, ўша ерда тараккиёт учун шароит яратилиади. Буни қўшни Афғонистонда тарихан истиқомат килувчи турли этник гурухлар – пуштунлар, афғонлар, ўзбеклар, тоҷиклар, туркмандар, эронийлар, курдлар ва х.к. миллатлар ўртасида ҳамжиҳатлик, тотувликнинг йўклиги афғон ҳалқини жаҳон тараккиётидан ортда колишла. жамиятла жиноятчиликни ўсишига, ҳалкаро терро

<sup>1</sup> Панарин Э.Д., Мухаметшина Н.С. Национальная проблема на пост-советской территории. Санкт-Петербург: Фонд Сороса. 2001, С.40-44.

ризмни ўоғини юзага келишига олиб келди. Афғонистон билан Ўзбекистон тарихан ва жўғрофий жиҳатдан яқин мамлакатлардир. Афғон муаммоси ўзбек муаммоси билан узвийдир. Бу фикрни Ўзбекистон собиқ ташки ишлар вазири Содик Сафоев ифодалаб, “фикрашнинг эскича, яъни глобал муаммоларни “бизники” ва “уларники” га бўлиш – утопия, яъни хом хаёлдан бошқа нарса эмас”, деб тарькидлайди.<sup>1</sup> Минтакавий хавфсизлик Ўзбекистон миллий ривожланиши учун кафолат эканлиги бугун ҳеч кимга сир эмас.

Умуминсоний кадриятлар ҳисобланган тинчлик, баркарорлик, хавфсизлик ва ҳ.к. категориялар миллий ривожланиш учун ғоявий негизга айланмоқда.

Миллий ривожланишни ҳар бир киши ва ҳалк амалга оширади. Таникли тадқиқотчи Ю.К.Яковец таъкидлашича, ҳар бир киши ва ҳар бир ҳалкнинг ижтимоий генотипи тарихан босиб ўтилган даврларни пресслаган ҳолда ўзида акс эттиради.<sup>2</sup> Тарихий ривожланишнинг бурилиш нуктларида бу катламлар ўзини намоён килади. Унгача улар замонавий цивилизация кобиги билан уралган бўлади. Миллий ривожланишга эҳтиёж юзага келган тарихий бурилиш нуктларида мазкур қатламлар юзага чикади – мудраб ётган миллий туйғулар жўш уради, ўзини ўзи танишига, ижтимоий хаётда мустаҳкамланишга ҳарарат килади. Иккинчи томондан замонавий ҳаёт, мавжуд цивилизация такозо этган янгича ривожланиш ғоялари куртаклари ҳам ниш уради. Натижала, миллий ўзликни англаш, тарихий хотирани тиклашга уринувчи кишилар билан замон, давр тараккиёти такозо этган ривожланишга интилевчи кучлар ўртасида зиддият, карама-каршиликлар вужудга келади. Бу табиийдир. Чунки ривожланиш эскилик ва янгилик ўртасидаги кураш асосида кечади.

Ўзбекистон миллий ривожланишида ҳам айнан шу ҳолат кузатилади. Мустақиллик ғояси, мустақиллик мафкураси асос эътибори билан тарихий хотирани, миллий ўзликни англаш вазифасига бўйсундирилган эди. Шу боис ўтмишда яшаб ўтган алломалар номини тиклаш, уларнинг бой илмий ва маънавий меросига мурожаат қилиш, тарихий ворисликни юзага келтириш – миллий истиқлол сиёсатининг асосий ўналишларидан бирига айланди. Бу – масаланинг факат бир томонидир. Бу – миллийликни, миллий кадриятларни тиклаш ғоясидир. Масаланинг иккинчи мухим томони – ҳалкимизни ҳо-

<sup>1</sup> Сафоев С. Региональное развитие и постконфликтное восстановление Афганистана - Стабильность в Центральной Азии в постконфликтный период. –Т.: ИСМИ. 2002. С.26.

<sup>2</sup> Яковец Ю.В. История цивилизации. М.: “Гуманитарный издательский центр ВЛАДОС». 1997. С.266.

зирги замон тараккиёті даражасыға олиб чиқиш, у билан тенглештириш муаммосидир. Бу муаммо – миллій ривожланиш ғоясіні шакллантириш, мустакил таракқиёттә мұайян йұналиш бериш муаммосидир.

Бунинг үчүн миллат атрофида кечеётгандык ижтимоий жараёнларни, давр, замон такозо этаёттан муаммоларни таұлап этиш, замон тарабларига мос иш тутиш ва режа тузиш лозим. Агар миллатчи күчлар анъанавий Шарқ жамиятини тиклаш, реанимация килиш (давлатчиликда, жамият ҳәстини бошқарувда ва х.к.) га ҳаракат қилишса, миллій ривожланиш ғояси тарафдорлари эса жамиятни модернизациялаш, уни постиндустриал жамиятта айлантириш үчүн умумжахон әзтироф этган сиёсий ва хукукий қадриятларни (хокимияттар булиниши, демократия, инсон хукук ва әрқинликларини таъминланиши. парламентчилик ва х.к.) ҳаётда жорий этишга ҳаракат қилаудар.

Бу жараёнда миллій ривожланишнин учинчи йүли тарафдорлари хам мавжуд. Уларни инкор этиш ва улар билан хисоблашмаслик – сиёсий гүллик ва узокни күра билмаслик ёки шапқұрлықтың. Бу күчлар – мыңнан бүзгүнчі күчлар булиб, улар үтакеттән миллатчилар билан бирлашиб, үрта аср кабилидаги диний давлатчилик анъаналарини тиклашга, реанимация китишта уринувчилардир. Бу мақсадлар йүлида улар қалқнинг эң нозик түйгүсі – диний түйғуны никоб ва восита қилиб иш юритмокчи булишади. Миллій ривожланиш вектори мазкур уч тоифа кишилар ичиден эң легитимлігі – Ўзбекистонда демократик, хукукий давлат ва фуқаролик жамиятини қуриш тарафдорлари олға сурған миллій ривожланиш ғояси томон йұналитиши – мамлекаттік истиқболини белгилайди.

Миллій ривожланиш ғояси ижтимоий ҳаётни ижодий үзгартыриш үчүн ўзига хос назарий дастур ёки ғоявий компас вазифасыннан үтайды. Чунки халқ миллій мустакиллікка эришса-да, лекин ривожланиш йұналишини аниклай олмаса – мустакиллік үз ахамияттінің үйкөтади. Мустакил тараккиёт мақсади ва йұналиши мустакиллігимизнинг дастлабки йилларыда аниклаб олинди. Бу – 1992 йил 8 деңгашта қабул қылған Ўзбекистон Республикасы Конституциясидир. Конституцияда давлат ва жамият қандай булишлігі, шахснинг, фуқаронинг давлат ва жамият билан үзаро муносабатларининг табиати қанақа булишлігі умумжайлқ мұхоммасидан үтди ва олай Кенгаш тоғондан тасдикланды. Асосий вазифа - келажақда Ўзбекистонда дүнёвий, демократик, хукукий давлат ва фуқаролик жамиятини шакллантиришdir. Бу конституциявий вазифа – сиёсий-хукукий ахамиятта

эга бўлиб, катор жузъий аниқликлар киритилишини тақозо килади. Мустакиллик йилларида конун чиқарувчи орган Олий Кенгаш ва кейинчалик Олий Мажлис томонидан қабул килинган турли конунлар тизими – конституциявий вазифани тобора конкретлашуви, инсон ва жамият ҳаётига татбиқ этилишининг сиёсий-хуқуқий кўрсаткичларидир.

Миллий ривожланиш ғояси Ўзбекистонда очик жамият куриш ғоясидир. Бу дегани – Ўзбекистон миллий тараккиёти ва миллий манфаатлари йўлида умумжаҳон илфор ютукларидан фойдаланиш учун жамиятимизнинг очиқлиги, жаҳонга юз тутишидир.

Бу соҳада мустақиллик йилларида муҳим ўзгаришлар қўлга киритилди. Иқтисодий соҳада мулқдорлар синфини шакллантириш, мулк шаклларининг ҳам хилма-хиллигини таъминлаш, монополиядан чиқариш, хусусий тадбиркорликни қўллаб-куватлашга оид катор ко-нунлар яратилди.

Кадрлар тайёрлаш миллий дастури (1997 й.), “Таълим түғрисида” конун мамлакатимизда туб маърифий ўзгаришларни таъминлашга, жаҳон стандартларига жавоб берадиган таълим тизими ва малакали кадрларни тарбиялашга каратилгандир. Бу йўналишда катор ютуклар ҳам қўлга киритилди. Узлуксиз таълим тизими, кўп босқичли таълим олиш амалиёти жаҳоннинг етакчи илфор мамлакатлари тажрибасини ўрганиш асосида ташкил этилди. Бундан кўзлаган максад – мамлакатимизнинг жаҳоннинг ривожланган мамлакатлари қаторига олиб чиқишидир.

Миллий ривожланиш ғоясининг таркибий кисмларидан бири – инсон тараккиётидир. Инсон тараккиётига оид БМТ нинг Тараккиёт дастури мавжуд бўлиб, унда инсон тараккиётининг индекси белгилаб берилгандир. Ўзбекистон ҳам ҳар йили БМТ га мазкур индекс бўйича йиллик хисоботни беради. БМТ нинг тараккиёт дастурига биноан киши ўзининг салоҳиятини факат юкори даражали реал даромад (инфляциядан химоя қилинган) га, олий маълумот олиш ва юкори турмуш кечириш рейтингига эга бўлгандагина намоён кила олади.

Агар мамлакатда реал даромад бўйича кескин фарқлар мавжуд бўлса, жамият табақаланишуви тенденцияси кучли бўлса, бундай мамлакат юкори тарақкиёт кўрсаткичларини бера олмайди. Буни тараккий этган мамлакатлар (Япония, Канада, Норвегия, Швеция, Швейцария) ва автократ-бюрократик сиёсий тартибли ривожланаётган мамлакатлар (Мали, Нигерия, Буркина-Фасо, Гвинея) ўргасидаги кескин фарқлар кўрсатиб туради.

Миллий ривожланиш ғояси ғоялигича қолиб кетиши ҳам мумкин. Чунки, “ғоя амал қилингандагина оммалашади”.<sup>1</sup> Оммалашмаган ғоя сұнади. Бунга күплаб мисоллар келтириш мумкин.

Миллий ривожланиш ғоясими амалий татбиги, яны инсон ҳаётіда жорий этилиши нүктаи назаридан құллаганда, ҳар қандай ғоя қиши учун бирон бир натыжа берсагина ахамиятли бұлади. Шунинг учун ҳар қандай ғояни инсон манфаатларига кай даражада мос келиши ёки келмаслиги ёки бошқача қилиб ифодалаганда рационаллығи (М. Вебер) амалий ахамият касб этади. Ғоя билан одам корнини түйгизб бұлмайди. Ғоя қачонки моддий асосға әга бұлса, ёки моддий натижага олиб келса – амалий ахамият касб этади. Бундай ёндашув – анъанавий марксча материалистик ёндашувға үхшаб кетади. Бирок материалистик ёндашувни хурмат қылған қолда, масалага идеалистик (ёки рационалистик) ёндашувни ҳам ижобий баҳолаш лозим. Буни классик шаклда таникли немис социологи М. Вебер узининг “Протестант этикаси ва капитализм руҳи” (1905 й.) асарыда рўй-рост кўрсатиб ўтган эди, М. Вебер таъкидлашиб капитализмни капитализм килған синфий эксплуатация эмас, балки протестант меҳнат этикаси-дир. Протестант меҳнат этикаси – капитализм “руҳи”дир. “Рух” – эса “бу худонинг нафаси – инсоннинг жони, ички дүнёси, қалби”.<sup>2</sup>

Миллий ривожланиш инсон руҳини ҳам ривожлантиришни, уни анъанавий (исломий) мүмін-қобиллик руҳидан қуткаришни тақозо қиласы. Шу үринде бир нарсаны алохидан таъкидлаб ўтишта тұғри келади. Мустакиллик шарофати билан жамиятда ўтмишга кизикиш, үз маънавий илдизларини қидириш бенихоят кучайды. Деярли үн йилдан бүён тарихнинг сарғайған варакларидан турли алломаларни, фозил кишиларни қашф этдік.

Бу миллий үзлікни англаш учун зарур, албатта. Бирок, бу үз нағватида орқага, ўрта асрлар маънавиятига, анъанавий жамиятта кайтишга даъватпен ҳам англатади. Анъанавий жамият – бу кишини яна мутеликка, камсукимликка, мүмін-қобил бўлишга, итоатгўйликка, сабр-каноатли бўлишликка ундовчи жамиятдир. Аңъанавий жамият – инсон ҳаётини барча жабхаларини тақрорланиш қонуниятига асосланган жамиятдир. У турғунликка элтади.

Миллий ривожланишимизнинг мустакилликгача бўлган даврларнинг фожиаси шундаки, биз XV-XVI-асрлардан сұнг турғунлик даврига узил-кесил ўтдик. Ислом ақидаларига асосланган анъанавий

<sup>1</sup> Кувватов Н. Ўтиш даври тафаккури. Т.: “Маънавият”, 2002, 22-б.  
<sup>2</sup> Эрқаев А. Миллий ғоя ва маънавият. –Т.: “Маънавият”, 2002, 35-б.

жамият XVI-асрга келиб узил-кесил шаклланди. Миллий ривожланиш шу даврга келиб тұхтади. Шарқ илми асосида Уйғониш даврини бошлаган Farb илгарилаб кетди. Ажойиб тадқиқотчи А.Эркаевнинг тұғри таъқидлашича “XVI-асрдан бошлаб Шаркнинг Farбдан ортда қолишининг маънавий сабабларидан бири Шарқ ижтимоий-маънавий мұлжалларини инсоннинг ички камолотига, камсукмұлликка, сабр-қанатта қаратылғандыр”.<sup>1</sup>

Факат XIX – асрнинг сұнгги үн йилликларига келиб анъанавий жамиятнинг айрим илғор зиёлілари (И.Гаспарали, М.Бекбұдай) жамиятни янгилаш, ислох килиш даври стилгандығын англаб етдилар. Ислом динининг ҳалқимизнинг маънавий юксалишида хиссаси катта, албатта. Бирок, ислом ақидалари үрта асрлар учун рационал маънога зга. Ислом дини миллатимизни миллий ривожланишига узоқ давр салбий таъсир күрсатып келгани равшан. Шунинг учун ҳозир ҳам турли бузғунчи кучларни (ислом ақидапарастлари, ваҳобийлар ва х.к.) исломий давлатни реанимация килишгә уринишлари ягона максадға бүйсунған – анъанавий ислом жамиятини яратышдыр. Буни қанчалик бемаъни мақсад эканлығын ҳозирги замон илмий- техникавий тараккиёті ишботлаб турибди.

Факат рационализм ва индивидуал ижодий фаолият, pragmatizmiga ҳозирғи замон тараккиётіга ундайды.

Бу дегани ҳар бир киши үзининг бетакор әкливінде жисмоний салохијитидан фойдалана олиш учун ижтимоий шароитларни яратылышы учун фидокорона меңнат килиши, яратувчаплик фаолияттунда үстүвөр бұлишлігі демектир. Озод, әркін фікр килиш, әркін япап – замонавий жамият белгисидир. Инсон хуқук ва әркинліктардың кафолатланған жамият – замонавий жамияттады.

Миллий ривожланиш гояси учун чексиз имконияттарға зга. У миллий ва умуминсоний қадриятлар муштараклығын таъминлайды, ҳалқимизни анъанавий жамият ботқогидан чикаради. Бозор муносабаттарининг үзи анъанавий жамиятни дағын этади. Жамияттада янгича урғодатлар, үдүмлар секин-аста шаклланиб анъанага айланади, эски анъаналарға үрин колмайды. Бирок миллатни бошқа миллатлардан ажратып турувчи миллий хусусиятлар йүқолиб кетмайды. Масалан, мемлекеттік, очик құнғиллилік – үзбекларға хос хусусияттады. Текамкорлық, аниқлік эса немисларға хос фазилаттады. Анъанавий жамият коидаларига биноан ҳашаматли түйлар үтказиш, йигирма-

<sup>1</sup> Эркаев А. Миллий гоя ва маънавият –Т.: “Маънавият”, 2002. 181-б.

кирк йил маросимларини дабдабали килиб нишонлаш – одатий ҳолдир.

Хориждан келган кишиларға ҳам қаддан зиёд мулозамат күрсатиш, ортиқча тақаллуф қилиш ҳам ўтмиш жамиятининг белти-  
сидир. Айоим “Мехмон” лар ўзбекларнинг бу тақаллуфларини хушомад, ғарали мақсални кўзлаб килинмоқда, деб тушунадилар. Тенглиқ, тенг ҳукуқчи, тенг моддий ва маънавий муносабатлар замонавий жамиятда кўпроқ қадрланади. Дағдабабозлик, ясама “бойваччалик”, яхши, фаровон кўринишга сунъий интилиш – ўтмиш даврлардан колган салбий одатлардир. Бу одатлар кўпчиликка нафакат қимматга тушиди, балки фожия ҳам келтиради. “Мен сендан кам эмасман”, деб чиранишлар, карзга ботиш, карзни узаман деб ноқонуний йўлларга кириш – дарҳақикат фожиаларга сабаб булади. Замонавий киши замонавий жамиятда рационал фикрлайди ва рационал иш тутади. Чиким-киримга караб килинади. Миллй ривожланиш ғояси шу маънода кишини замонавий ҳаёт кечириши учун, ўзининг жисмоний ва аклий имкониятларга тўғри баҳо беришлиги учун, натижада бир текис фаровон ҳаёт кечириши учун ғоявий дастур бўлади.

#### **4. Сиёсий тизимни модернизациялаштириш - демократик жамиятни шакллантириш талаби**

Анъанавий жамиятни модернизациялаштириш, уни сиёсий тизимини модернизациялаштиришсиз мүмкін эмас. Маълум даражада айнан сиёсий тизимни модернизациялаштириш даражаси жамиятнинг гипини ва демократиялашувини белгилайди. Ҳозирги замонда модернизация ва демократизация бир туркумдаги ҳодисалар бўлиб, улар сиёсий ҳокимиятнинг таркиби ва мазмунини, фуқароларнинг жамиятни бошқаруvida иштироки даражасини белгилайди.

Сиёсий тизимни модернизациялашуви жамиятни сиёсий, иктисолид, ҳукукий ва маънавий соҳаларини демократиялаштириш демакдир. Анъанавий жамиятни модернизациялаштириш уни демократиялаштиришни, яъни фуқароларни сиёсий бошқарувда иштирокини фоллаштиришни такозо килади.

*Кўшинча сиёсий тизимни модернизациялаштириш ҳокимиятни мажбурлов механизмини, яъни давлатни демократиялаштириш<sup>1</sup>, деб тушунилади.*

Бундай тушунишда сиёсий тизим тўғридан тўғри давлат, сиёсий ҳокимият, мажбурлов тизими билан айнанлаштирилади. Бизни бу ерда сиёсий ибораларнинг мазмунини аниклаш эмас, балки давлат ва сиёсий тизим вазифаларини аниклаш қизиқтиради. Шунинг учун биз бу ерда давлат сиёсий тизимининг бор йўғи бир элементи (табиийки зарурий ва асосий) эканлигини таъкидлаш билан чекланамиз. Сиёсий тизим – “бу муайян сиёсий ва ҳукукий нормаларга, кадрият ва анъанаclarга таянадиган сиёсий институтлар, сиёсий муносабатлар, жараёнларнинг муайян тизими бўлиб, у сиёсий маданиятнинг муайян қадрияtlари, анъаналари, сиёсий ва ҳукукий нормаларига асосланади”<sup>2</sup>.

Сиёсий тизимни модернизациялаштириш асосан уч ўлчовга: иктисолид, ижтимоий ва сиёсий соҳаларга асосланади.

Иктисолид ҳаётни модернизациялаштириш бу - индустрлаштириш ва техникалаштириш бўлиб, унда кишлөк ҳўжалиги аҳамияти жиҳатидан саноат ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатиш кабилардан кейин туради.

Ижтимоий соҳали модернизациялаштиришнинг мухим жиҳатлари эса бу - урбанизация, ижтимоий сафарбарликни даражасини кўта-

<sup>1</sup> Қаранг: Шарон П. Сравнительная политология. / Пер.с англ. В 2-х частях. -М.: Прогресс, 1992. С.13-14.

<sup>2</sup> Политология. Учебное пособие для вузов./2 изд. М.: Контр, 2000. С. 131.

риш, фукароларни моддий ва маънавий неъматлардан тұлақонли баҳраманд бұлиши имкониятлари даражасини ошириш, ижтимоий махсулотларидан хизмат күрсатиш имкониятини яхшилаш, фанни институтлаштириш ва х.к.

Сиёсий модернизация ёки сиёсий тизимни модернизациялаштиришни иктисадий ва ижтимоий модернизациялаштиришдан ташкарида амалга ошириб бўлмайди. Чунки, жамиятнинг иктисадий ва ижтимоий ҳаёти сиёсий тизимининг асосидир, улар сиёсий тизимни ривожланиши шарт-шароитини тақпил этади.

Шундай қилиб, жамиятнинг сиёсий тизими – бу сиёсий субъектлар, тизимлар ва муносабатларнинг йиғиндиси бўлиб, кенг кўламда ижтимоий бирликлар ва сиёсий кучларни манфаатларини ифодалайди. Сиёсий тизим умумий ахамият ва максаблар йулида жамиятни интеграциялашгиради ва унинг фаолиятини самарадорлигини таъминлайди.

Сиёсий тизимни модернизациялаштириш умуман олганда бир вактда иктисадий ва ижтимоий модернизациялаштиришни амалга оширмасдан туриб ҳозирги замон постиндустриал жамиятини вужудга келтира олмайди. Шундай жамият курган ёки унинг арафасидан турган давлатларнинг тажрибаси фикримизнинг исботидир.

Хозирги замон анъанавий жамиятини сиёсий тизимини модернизациялаштириш биринчи навбатда сиёсий ижодистнинг монопол субъекти, консенсуал ҳокимиятдан мажбуран устун турадиган давлат бошқарувига асосланган сиёсий режимни либераллаштиришни талаб киласи. Марказлаштирилган маъмурий-бошқарув тизимида сиёсий партиялар ва жамоат ташкилотлари сиёсий ижодиётдан четлаштирилади, чунки улар расман фаолият кўрсатадилар, мустакиллик ва эркинликка эга эмаслар. Бу жамиятда ривожланган сиёсий маданият ва сиёсий онгнинг шаклланмаганлиги билан боғлиқdir.

Иккинчи томондан – кўппартиявилик анъаналари мавжуд эмаслиги жамиятда сиёсий плюрализмни, сиёсий партияларни тузилиши учун етарли сиёсий шарт-шароитларни вужудга келтиришга имконият бермайди. Эски сиёсий тизимини бузиб ташламасдан, модернизациялашган баъзи давлатларнинг тажрибаси шуни кўрсатадики, модернизациялаштириш яхлит вокеликда, яъни жамиятни сиёсий, иктисадий ва ижтимоий модернизациялаштириш – ўзаро алокадор-цирлида амалга оширилиши мумкин.

Мисол учун, хозирги даврдаги Хитойдаги ислохотларни қайд килишимиз мумкин. Ушбу давлат сиёсий ҳаётни якка партиявилик

ва ягона мафкура асосида ривожланадиган сиёсий тизимини бузиб ташламади, балки уни бозор иктисидиёти ва очик жамият қонуниятига мос равишда модернизациялаштириди. Хитойни модернизациялаштириш стратегияси 1978 йил декабрь ойидаги ХКП МК нинг пленумида ишлаб чиқилган. Ушбу максад “тұрт модернизация” номли дастурида – саноат, кишлоқ хұжалиги, миллий мудофаа, фан ва техника каби соҳаларда ишлаб чиқылған.<sup>1</sup> Модернизациялаштириш дастурини амалга ошириш уч босқичга бўлинган ва XXI асрнинг урталаригача бўлган даврни камраб олади. Хитой жамиятини модернизациялаштиришнинг асосчиси ўша даврдаги сиёсий йўлбошчи Дэн Съяо Пин хисобланади. У Хитойда модернизациялашган социалистик жамият (яъни, бозор иктисидига асосланган) куриш йўлини ишлаб чиқди. Унинг максади – ҳалқнинг турмуш даражасини изчил ошириб боришдан иборат. Хитой ҳукумати 1997 йилдан бошлаб очик жамият сиёсатини амалга оширишга киришди. Дастрлаб Гуандун ва Фуцзян вилоятлари ташки иктисидий фаолиятига имтиёзлар берилди. Кейинги босқичида 14 та денгиз бандаргоҳлари ва денгиз бўйи шаҳарлари шу жумладан, Даляни ва Цинъхуандо шаҳарлари ҳалқаро алоқалар учун очик деб эълон килинди. Очик сиёсат Хитой жамияти ва иктисидиётига ижобий таъсир этмокда. 1998 йилдан бошлаб Хитой беш йил давомида бир йиллик инвестицияларни киритилишини кўрсаткичи бўйича АҚШ дан кейинги иккинчи үринни эгаллаб келмоқда. Охирги 20 йил давомида 71 миллиард доллар микдоридаги шартномаларга имзо чекилган, шундан 17 миллиард долларлик ишлар бажарилган. Хитой жаҳоннинг 200 дан ортиқ мамлакатлар ва минтақалар билан савдо-иктисидий ҳамкорлик килмоқда, 240 дан ортиқ денгиз, куруқлик ва ҳаво-чегара бириичи тоифали муассасаларини очик, деб эълон килинди, божхона соликлари 17% гача қискартирилди, божхона соликларисиз шартномалар сони қискартирилди. Ташки алоқаларнинг осоилиштирилиши саноат таркибини тартибга солишини рағбатлантириди, ишлаб чиқаришни одилона таҳсилманишига шарт шароит яратди. Хорижий капиталини мамлакат иктисидиётига жалб қилиш жараённинг кўлами гобора ортиб бормоқда. “Байзинг жибао” ойномасида қайд этилишига кўра “жаҳоннинг ишлаб чиқариш соҳасидаги 500 та энг иирик ҳалқаро фирмаларидан 300 тага якини ўз капиталини Хитойга киритган”.<sup>2</sup> 2000 йилда Хитойнинг импорт-экспорт айланмаси 400 млрд. долларни ташкил этган. 2010 йилга келиб унинг микдо-

<sup>1</sup> Карапсин: “Проблемы Дальнего Востока”, № 4, Москва, 1988. С. 28.

<sup>2</sup> Карапсин: “Бейзинг жибао”, Пекин от 15 января 1998 г. С. 4.

ри 800 млрд. долларни ташкил этиши режалаштирилмоқда. Буларнинг барчаси Хитой жамиятини модернизациялашувини англатади, у жаҳонга янада кенг товар бозорларини ва капитал киритишнинг янада катта имкониятларини яратишини англатади.

Дунёнинг йирик политологларидан бири булган АҚШ стратегик ва ҳалқаро тадқиқотлар Марказининг эксперти Збигнев Бзежинский-пинг қайд этишига қўра Буюк Хитойнинг мавқеи Узок Шарқда ва Марказий Осиё минтақасида мустаҳкамланди<sup>1</sup>. Хитой товарлари рус Узок Шаркини тўлтирди, Марказий Осиё минтақасига кириб келмоқда. Бу жараённи тұхтатиши максадида божхона соликларини ошириш, маҳаллий валютотани конвертация қилишни тақиқлаш, чегаралар нинг мустаҳкамланиши каби вужудга келтирилган сунъий түсиклар эркин савдо ва тижоратнинг сиқувига бардош бера олмай кулаб тушиди.

Иктиносий интеграция, модернизация ва информатизация жараёнларига түсиклар қўйишга интилиш ҳалқаро жамоатчилик томонидан салтбий кабул килинади. Ҳар қандай жамият, агарда биқиқликка интилса, ташки таъсирлар учун ёпик бўлса, иктиносий, маданий ва сиёсий ривожланишдан орқада қолишига маҳкум ва охир оқибатда ижтимоий турғунликка дучор бўлади. Термодинамика конуниятига қўра ёпик тизимларда энтропия кучаяди, яъни “иссиқлик ўлеми” каби фожиага олиб келади. Ижтимоий тизимларда ҳам ўзини ўзи чеклаш, сиёсий ижодиётни бостириш сиёсати олиб борилса, у ҳолда бундай тизим ўзининг ижтимоий-сиёсий ривожланишида орқада кола бошлияди. Ёпик жамиятларда, улар одатда “тоталитар жамият” лар деб аталади, сўз эркинлиги чекланади. Модернизациялаштириш назарияси асосчилари Г.Алмонд, У.Ростоу, Т.Парсонс, С.Эйзенштейн ва бошқаларнинг фикрича, “сиёсий тараққиёт юкори либерал плюрализм даражасини такозо этади”.<sup>2</sup> Либерал плюрализм авторитар сиёсий режимда, яъни норасмий цензуранинг мавжудлиги, сўз эркинлигини йўқлиги, ОАВ нинг давлат назоратида бўлиши, информация бозорининг йўқлиги шароитида мавжуд бўла олмайди.

Авторитар сиёсий режимлар тоталитар тизимдан демократик тизимга ўтиш давридаги жамиятларда сакланиб колиши мумкин. Техник-иктиносий имкониятлари даражаси паст бўлган бундай жамиятларга қуидагилар хосдир: патриархал-уругчилик бозоригача бўлган

<sup>1</sup> Қаралсин: A. Report of CSIS Freemen Chair in China Studies. China's new journey to the west. Washington D.C. August 2003. p. 5.

<sup>2</sup> Чарльз Ф.Эндрейн. Сравнительный анализ политических систем./ пер.с англ. – М.: Весь мир, 2000 С. 247.

муносабатлар сақланиб қолиши, ижтимоий тизимида гурухларга бўлинишнинг заифлиги, фукаролик жамияти институт ва ташкилотларнинг етарли даражада ривожланмаслиги, аҳоли сиёсий маданиятигининг наст даражада эканлиги. Авторитар сиёсий режимлар асорати советлар давлати парчаланиб кетганидан кейин ҳам у ёки бу даражада сақланиб қолди. Чунки авторитар сиёсий режимлар советлар сиёсий тартибигача мавжуд эди.

1917 йил октябр тўнтаришидан олдин Туркистанда ҳам тарихан авторитар режимлар мавжуд бўлган. Бухоро амирлиги, Қўкон ва Хива хонликлари анъанавий авторитар режимлар сифатида кайд этилади.

Ўзбекистон собиқ советлар давлати таркибида авторитар режим ривожланишининг бир катор боскичларидан ўтган. Биринчи боскич, 1917 йилдан 1920 йилнинг ўрталаригача давом этган. Бу даврда сиёсий режим авторитар-диктаторлик кўринишида бўлган. Большевиклар, аникроғи партия раҳбарияти расман пролетариат диктатурасини ўрнатиб сиёсий ҳокимиятни зўравонлик билан кўлга олди. Конун чиқарувчи, ижроия ва суд ҳокимиятларини ўзига бўйсундирди. Камчиликни ташкил этган бошқарувчилар (большевиклар) сиёсий террорга, шу жумладан, куролли зўравонликка таяниб кўпчилик устидан сиёсий ҳокимиятини ўрнатди. Туркистанда советлар ҳокимияти куч билан, курол ёрдамида, кучли ташвиқот аппаратига таяниб амалга оширилди.

Иккинчи боскич – 20 йилларнинг ўрталаридан 50 йилларнинг ўрталаригача бўлган давр Сталин номи билан боғлиқ. Сталин сиёсий режимига – репрессиялар, ўзгача фикрловчиларни таъкиб қилиш, расмий террор, авторитаризмнинг бетакрор кўриниши ва бошқалар хосдир.

Учинчи давр – 50 йилларнинг ўрталаридан – 1991 йил мустакилликни кўлга киритилишигача бўлган даврdir. Ушбу даврда давлат аппаратининг зўравонлиги заифлашди, оммавий репрессиялар хурфикарликни таъкиб қилиш сиёсати билан алмаштирилди, давлат фукароларнинг доимий ортиб борувчи эҳтиёжларини хисобга ола бошлади, “темир шарда” очила бошлади, одамлар Farb маданияти билан бевосита танишиш имкониятини кўлга киритди.

1991 йилдан Ўзбекистонда янги вакт хисоби бошланди, мамлакат мустакил сиёсий ривожланиш ҳукукини кўлга киритди. 1992 й. декабрь ойида мустакил давлатнинг янги Конституцияси кабул килинди. Унда янги сиёсий тизимнинг ҳукукий асослари ишлаб чиқилди. Бироқ, сиёсий модернизация талабларидан бири бўлган сиёсий

ҳокимиятга “посанги” була оладиган нодавлат ва сиёсий институтлар зидигина шаклланиб бормоқда. Ижтимоий назорат институти астасекин карор топмоқда.

Сиёсий ҳокимият фаолиятими назорат килювчи сиёсий куч сифагида одатда кўппартиявилик тизими ва оммавий ахборот воситалари хизмат қилади. Узбекистонда ҳозирча сиёсий ҳокимиятта ҳакикий оппозиция була оладиган сиёсий партия мавжуд эмас. Оммавий ахборот воситалари эса ресурсларнинг такчиллиги сабабли ҳокимиятга карам булиб, давлат дотациялари хисобидан фаолият олиб бориши жамиятни модернизациялашувини секинлаштирувига сабаб булиши мумкин.

Авторитар сиёсий тартиб шароитларида ҳокимият обрўйи пасяди, кишилар ҳокимиятдан юз ўтиради, ҳалқ ва ҳокимият ўртасида масофа ортади, секин-аста фукароларнинг давлатдан бегоналашуви ривожланади, фукароларнинг ҳаёти ёмонлашади, кишиларнинг давлат томонидан олиб борилаётган сиёсатта норозилиги ортади. Жамиятдаги бу ҳолатнинг табиий оқибати экстремистик бузғунчи сиёсий кучларнинг фаоллашуви булиб, улар пайдо бўлган имкониятдан мавжуд конституциявий тартибни ағдариб ташлаш учун фойдаланишга ҳаракат килишади. Кўшни Кирғизистондаги 2005 йил бошларида, Белоруссияда 206 йил март ойида булиб ўтган Президент сайловлари билан боғлиқ бўлган сиёсий тангликлар буни исботлади.

Ислоҳотлар натижаларидан коникмаётган фукаролари норозилигини сиёсий ҳокимият куч ишлатиш воситасида бостира олади. Бирок ахоли турмуш даражасининг пасайиб кетиши, ишсизликнинг ўсиши, ларомадларнинг тенг эмаслиги, ҳокимият тизимидағи коррупция – омма кайфиятининг ёмонлашувини ва умидсизликни юмшата олмайди. Буни Грузия ва Украинадаги “рангли инқилоб”лар рўй-рост курсатди. Бу мамлакатларда ижтимоий бекарорлик ҳануз давом этмоқда.

Замонавий жамият нафакат демократик сиёсий тизимни, балки демократик сиёсий режимни ҳам тақозо этадики, бундай режимда сиёсий ҳокимиятга мукобил бўлган сиёсий тузилмалар – ракобатчи партиялар, таъсир этувчи гурухлар, мустақил ахборот воситалари ва бошқаларга эҳтиёж ортиб боради.

Конституциявий бошқарув агар индивид эркинлигини, хусусий мулк ва бозор иқтисодиётини ҳимоя килмаса, у ҳолда бундай жамият фукаролари жамият сиёсий ҳаётидаги фаол иштирок ҳам эта олмайдилар, буни истамайдилар ҳам. Агар фукаролар мавжуд ҳолатдаги ўзгаришларни нафакат керакли, балки зарур ҳам, деб билишса, улар сиё-

сий ҳаётда фаол иштирок этадилар. Шу максадда улар сиёсий партияларга, сиёсий бирлашмаларга, касаба уюшмалариға азъо бўлиб, сиёсий фаолликни намоён этадилар.

Модернизация назарияси тарафдорлари Алекс Инкелес ва Дэвид Смит сиёсий тараккиётни сиёсатда фаол иштирок этиш билан боғлайдилар.<sup>1</sup>

Бу табиийдир, чунки традицион (анъанавий) жамиятдан замонавий жамиятга ўтиш жамият аъзоларининг оммавий фаолигини, мавжуд ҳолатни ўзгартиришдан мафгаатдорликларини кўзда тутади.

Эски жамиятдан постиндустриал жамиятга ўтиш шароитларидаги анъанавий онг янги парадигмалар, замон талаблари асосидаги ислоҳга, янгиланишга муҳтоҷдир.

Бу аввало сиёсий онгга тааллуқлидир. Анъанавий сиёсий онг давлат ва бошка сиёсий институтларнинг роли тұғрисидаги эски тасаввурларга асослангандир. Анъанавий, яъни эски сиёсий онг давлатни жамият, инсон тепасида турувчи алоҳида куч сифатида идрок этади. Бунинг узига хос сабаблари бор. Биринчидан, анъанавий Совет давлати жамият ва инсон тепасида турар, инсон эса бор-йўғи бир винтча бўлиб, сиёсатга таъсир этиш хукукига эга эмас эди.

Иккинчидан, давлат инсон ҳаётини таъминловчи бош омил сифатида ўзини намоён этар, индивидуал ишлаб чикариш ва истеъмол фаолияти давлат томонидан тўлиқ назорат остига олинган эди. Буларнинг барчаси биргаликда инсонни меҳнатдан бегоналашуви, бокимандалик психологиясининг шаклланишига шароит туғдирган эди.

Анъанавий жамиятдан фарқли ўлароқ замонавий жамият инсон фаолияти учун кулагай шарт-шароит, имконият яратади, у бокиманда одамга, фақатгина истеъмол этишини ўйловчига тоқат қила олмайди.

Ҳиссиётдан ҳоли конунлар замонавий жамиятда рационалдир, чунки бундай қонунлар амал қиласидан жамиятда ишлаб чикаришда фаол иштирок этувчи, ижодкор-яратувчи инсонларгина яшай оладилар, ракобатга бардош бера оладилар. Бошқача айтганда замонавий жамиятда “Фарқ бўлувчининг кутилиши унинг ўзига боғлик” деган коида амал қиласиди, яъни давлат ҳаётий фаолият мазмунини эмас, балки унинг шарт-шароитларини, хукукий асосинигина яратади ёки беради.

<sup>1</sup> Alex Inkeles and David H. Smith. *Becoming Modern: Individual change in Six Developing countries*. (Cambridge, MA: Harvard University Press, 1974). P. 251.

Жамиятнинг ижтимоий табақаланишуви, шафқатсиз ракобат шароитларида инсон ўз фоалиятини ўзи бошкара олмаса, муайян максадга йўналтирилган ўз хаётини қура олмаса, унинг яшаши қийиндир.

Сиёсий гизимни модернизациялаш инсон ўз имкониятларини, ақлий ва маънагий куч-кудратини руёбга чиқариши учун қулай бўлган сиёсий шарт-шароитлар ва имкониятлар яратилишини такозо этади.

Сиёсий тизимни модернизацияни килиш унлаги бош ва асосий элемент – давлатни модернизация қилишдан бошланмоғи керак.

Давлат сиёсий ҳокимиятни ташкил этишнинг ўзига хос ташкилоти бўлиб, жамиятни бошқарувга маҳсус механизм, бошқариш тизими ва муассасаларига эгадир.

Давлат механизмлари дейилганда вакиллик, ижроия ва суд хокимиятлари ҳамда маҳсус муассасалар гушунилади.

Замонавий модернизациялашган давлатнинг ўзига хос муҳим хусусиятларидан бири фуқаролик жамияти бўлиб, давлат у билан ҳамкорлик киласи ва жуда қизғин ҳамда турли-туман ўзаро алоқалар ўрнатади.

Фуқаролик жамиятининг мавжудлиги – демократлаштиришнинг, яъни жамият сиёсий тизимининг модернизациялашганлик даражасини кўрсатади. Фуқаролик жамияти дейилганда Ўзбекистонда новдавлат ташкилотлари тизимининг, ҳаракатларнинг, ассоциациялар, фондлар, бирлашмалар ва бошқаларнинг мавжудлиги тушунилади.

Юқорида кайд этилганидек фуқаролик жамиятининг куртаги маҳалла бўлиб, у сиёсий, ижтимоий, минтақавий, ёки этник хусусиятларга қура эмас, балки яшаш жойи буйича вужудга келган қадимий ижтимоий бирликларидир.

Бизнингча, маҳалла фуқаролик жамиятининг бошланғич элементи холос, унинг асосий элементи бўла олмайди, чунки у интеллектуал ва бошка хусусиятларга қура таркиб жиҳатидан турли-туман бўлиб, расмий сиёсатда фуқаролик жамиятининг ибтидоси сифатида таърифланадаётган бўлса-да, унга фуқаролик жамиятининг тўлиқ легитим элементи сифатида қараш ножоиздир.

Бизнинг фикримизча, фуқаролик жамияти – фуқаролар ва улар бирлашмаларининг (харакатлар, гурӯҳлар, касбий, маданий, миллий, экологик ва бошка бирлашмалар) йиғиндиси бўлиб, у ўз гурӯхий манфаатларини ташкилий тарзда ҳимоя киласи ва бу манфаатларнинг давлат томонидан қонуний тартибда қондирилишига эриша олади. Шундай килиб, фуқаролик жамияти одамларнинг шунчаки бир

йигиндиси эмас, балки цивилизациялашган, онгли ва фаол фуқаролар уюшмасидир.

Сиёсий тизимлар, давлатлар ва сиёсатта оид ҳозирги замон концепцияларида фуқаролик жамияти давлатга тобе бўлмаган ва мустакил фуқароларнинг, масалан фермерлар, тадбиркорлар, истеъмолчилар, омонатчилар ва бошкаларнинг ассоциацияси сифатида тушуниладики, уларнинг аъзолари профессионал сиёсатчилар бўлмасалар-да, ўзлари мансуб бўлган ижтимоий гурухлар манфаатларининг кондирилиши мақсадида давлат ҳокимиятига ташкилий гарзда ва фаол таъсир кўрсатадилар.

Буни хоҳлаймизми-йўқми – фуқароларнинг ва фуқаролар гурухларининг сиёсий фаоллиги заминида муайян иқтисодий манфаатлар ётади. Ҳар қандай фуқаролар бирлашмаси сиёсатга ўзининг иқтисодий манфаати орқали таъсир этади. Ўзларининг мазкур манфаатларини кондириш учун улар (яъни ижтимоий гурухлар, ҳаракатлар ва ҳ.к.) турли воситалардан фойдаланадилар. Масалан, давлат амалдорлари билан, сиёсий партиялар етакчилари билан, парламент депутатлари билан (уларни манфаатларини кондирилиши эвазига қўллаб-кувватлаш учун) алоқа ўранатадилар, парламент орқали ўзлари учун фойдали бўлган конун ва карорларни ўтказишига ҳаракат қиласидилар (лоббизм), оммавий (фақат демократик жамиятларда - А.К.) намоийишлар ўтказишиб, ўзларининг муаммоларига жамият эътиборини каратишига уришадилар. Ва ниҳоят, айрим ҳолларда, ўзлари ҳам конун чиқарувчи органларнинг маҳаллий ва умумдавлат бўғинларига бўладиган сайловларда иштирок этишга, маҳаллий бошкарув тизимиға кириб олишга ҳаракат қиласидилар. Бундан ташқари фуқаровий жамиятлари учун хос бўлган ҳокимият ва жамоатчилик фикрига таъсир ўтказишининг шаклларидан – намоийишлар, митинглар, фуқаролар бўйсунмаслиги, акциялар, пикетлар ва ҳ.к. лардан ҳам фойдаланилади. Бизнинг фикримизча, айнан шу ҳодисалар орқали эски, давлатга патриархал – бўйсунувчи (амалда мутлақ қўллаб-кувватлаш ёки ижтимоий кафолатлар эвазига аралашмаслик позицияси) муносабати намоён бўлади. Бизнинг фикримизча, сиёсий модернизациялашда мазкур босқич қачонки жамиятнинг турли табакалари ва гурухлари томонидан ўзларининг ижтимоий эҳтиёжларини англай бошлагандагина эришилади.

Айнан шундай машаккатли йўл орқали Россия ва бошка собиқ совет мамлакатлари фуқаролик институтларини шаклланиши, ҳақиқий демократиянинг қарор топиши томон бормоқдалар. Бу йўлга Ев-

ропа мамлакатлари Реформация ва буржуа инқилоблари давларидәң кирганды.

Жамиятни модернизациялаштиришга асосан фаол сиёсий күчларни яратувчанлик үзанияга буриш, стихияли норозиликлардан сакланыш, фуқароларнинг ижтимоий ва сиёсий фаоллигининг яхсон килювчи оқибатларини олдини олишилр. Буларнинг бурчаси жамият сиёсий тизимишинг мухим элементларидан бири фуқароларнинг сиёсий онги ва сиёсий маданияти ривожланғанлигининг муайян даражаси билан боғлик.

Жамият сиёсий тизимиши модернизациялаштириш ва демократиялаштириш учун модернизация тақдирини белгиловчи уч бир-бири билан боғлик бўлган вазифаларни ҳал этиш лозим:

1. Ишлаб чиқариш воситаларининг хусусий институтларини (коллектив ва индивидуал) яратиш, иктисадий ракобат мухитини яратиш, ҳўжалик юритувчи субъектларнинг фаоллигини ва тенг хукуклилигини таъминлаш;

2. Чексиз сиёсий ҳокимиятчиликни ҳар кандай асосларини йук қилиш, марказламтиришдан чиқариш, ҳокимият ваколатларини кайта тақсимлаш;

3. Инсон онгини озод қилиш, орият хиссини, ўз кучига ишониш ҳиссини кишиларда мустаҳкамлаш, ижтимоий сиёсий масалаларни ҳал этишда лоқайллик ва сусткашликка барҳам бериш.

Хозирги замон модернизациялашган демократик давлати ва фуқаролик жамияти бир-бирини тўлдиради ва бир-бири билан узвий алокада туради. Давлат онгли ва фаол фуқаролар томонидан назорат килинмаса – демократик эмас, балки авторитар, коррупцияга асосланған давлатга айланади. Бир вакътнинг ўзида жамият аъзолари томонидан конунларни ва хуқукий нормаларни бажарилишини назорат килиб турувчи давлатсиз биз уюшган, онгли фуқаролик жамият ўрнига тартибсизликни, бошбошдокликни, “ҳаммани ҳаммага қарши уруши” ни кузатган бўлар эдик. Бунга эса йўл қўйиб бўлмайди.

Хозирги замон Ўзбекистонининг модернизациялаштириш куйидаги зиддиятларни ҳал этишни ҳам тақозо этади:

1. Анъаналар билан замонавийликни тўқнашувини, яъни замон таалабларига жавоб бера олмайдиган анъаналар турли эскирган таркиблар, принциплар ва нормалар билан, янгича ривожланиш йўлларини кашф этиш, ўзгаришларга интилиш, сиёсий фаолиятнинг ва сиёсий тафаккурнине янтича шакллари ўртасидаги зиддиятлар.

2. Farб цивилизациясининг тарихий маҳсули бўлмиш янгича сиёсий парадигмалар билан ўтмиш авторитар тузумдан мерос бўлиб колган эскича сиёсий тафаккур тўқнашуви.

3. Xозирги замон халқаро муносабатлари ва барқарорлик такозо этган ўзгаришларга интилишни бузилиши билан алокада бўлган турли бузгунчи, деструктив интилишлар тўқнашуви.

Ўзбекистон Республикасининг сиёсий тизимини модернизациялаштириш мукаррар характерга эга бўлиб бормоқда. Бу вакиллик хокимиятини, парламентни модернизациялаштиришда кўзга ташланмоқда. 2004 йил 26 декабрда икки палатали парламентта сайловлар бўлиб ўтди. Сиёсий партияларнинг вакиллик хокимиятидаги сиёсий иштироки кучайди, мухолиф сиёсий партиялар фаолияти учун шароитлар яратилиб, мавжуд сиёсий хокимиятга мувозанат мухити яратилди. Буларнинг барчаси жамиятни янгиланиши, демократизациялашуви ва сиёсий модернизациялаштирилишига қаратилгандир.

## **5. Ижтимоий ҳамкорлик - жамиятни модернизациялаштириш имконияти**

Ўзбекистон ҳалкининг мустакил миллий ривожланиши жамиятла ижтимоий ҳамкорлик муносабатларини шакллантирмай ва сиёсий баркарорликни таъминламай туриб мумкин эмасдир. Бу фикрни қанчалик хаётий эканлиги минтақавий ва глобал миқёсда кузатилаётган мураккаб ижтимоий-сиёсий, иқтисодий ва маънавий-маърифий жараёнлар, зиддият ва муаммолар мисолида кузатилмокда. Миллий, этник, иркий ва диний низолар, сепаратизм, тероризм, сиёсий ва диний экстремизм ижтимоий ҳамкорлик ва жамиятда сиёсий баркарорлик, фукаровий тотувлик ва хамжиҳатлик бўлмаган ерда пайдо булиши ва миллий ривожланишга хавф туғдириши ҳеч кимга сир эмасдир.

Кушни Афғонистонда, Яқин Шарқда, Шимолий Ирландия, Хиндистон, Россия ва бошқа мамлакатларда кузатилаётган этник, диний, иркий ва худудий зиддиятларнинг илдизи жамиятда, фукаролар ўртасида ижтимоий ҳамкорликниг ва сиёсий баркарорликни таъминловчи интегратив механизм – миллий ривожланиш ғоясининг йуқлиги, жамият мағкурасининг ночорлиги билан изоҳланади. Ижтимоий ҳамкорлик нима, унинг мазмуни ва таркибини нималар ташкил этади, деган савол туғилади.

Ижтимоий ҳамкорлик мазмун ва моҳият жиҳатдан кент тушунча булиб, у глобал, регионал (минтақавий) ва худудий (локал) ижтимоий муносабатлар ва ижтимоий муносабатларни ўз ичига олади.

Глобал миқёсда ижтимоий ҳамкорлик глобаллашув жараёни билан боғлик булиб, жаҳоннинг турли мамлакатлари ўртасида иқтисодий, сиёсий, маданий, техниковий, илмий, ҳарбий-стратегик, экологик, ижтимоий-гуманитар муносабатларни камраб олади. Глобал миқёсдаги ижтимоий ҳамкорлик глобал ва регионал миқёсда тинчлик ва баркарорликни таъминлаш, иқтисодий муносабатларни кучайтириш, миллий ва диний низоларни, зиддиятларни олдини олиш, маданий ва гуманитар муносабатларни ривожлантиришга каратилгандир.

Глобал миқёсдаги ижтимоий ҳамкорлик оммавий қирғин куролларини ишлаб чиқариш ва тарқатишни чеклаш, экологик тангликларни олдини олиш, эпидемия ва бошқа оммавий хавфли ҳодисаларни олдини олиш ва жиловлаш учун жаҳоннинг турли сиёсий тартиб ва сиёсий тизимидағи лавлатлари ўртасидаги ҳамкорликка асосланади.

Регионал ёки минтақавий ижтимоий ҳамкорлик муайян чекланган жўғрофий ҳудудда умуммінтақавий иқтисодий, сиёсий, маданий

ва экологик миаммоларни ҳал этишга қаратилган шу ҳудудда жойлашган мамлакатларнинг ўзаро ҳамкорлигидир. Марказий Осиё минтакасида мустақилликка эришган ёш мустакил давлатлар иктисодий, сиёсий, маданий, экологик ва бошқа соҳаларда ўзаро ҳамкорликка интилмоқда. Масалан, Марказий Осиёни ядервий куролдан ҳалос бўлған минтақага айлантиришга қаратилган ўзаро ҳамкорлик, Оролбўйин минтақасида экологик тангликни камайтириш, эпидемия, тоза ичимлик суви билан таъминлапгга қаратилган минтақавий ҳамкорлик, ҳалқаро терроризм ва диний экстремизмга, гиёхванд моддаларни этиштириш, саклаш ва бошқа ҳудудларга етказишга (наркотрафик) карши қаратилган ўзаро ҳамкорлик шулар жумласидандир.<sup>1</sup>

Шу маънода “Туркистан – умумий уйимиз”, деган сиёсий шиор Экосан, ЭКО, Шанхай ҳамкорлик кенгаши ва бошқа ҳалқаро минтақавий ташкилотлар фаолияти оркали амалга оширилаётган Марказий Осиё давлатлари ўргасидаги ўзаро ҳамкорлик регионал (минтақавий) ҳамкорлик мисолидир. Минтақавий ҳамкорлик шу минтақада яшовчи ҳалқларнинг ўзаро маданий якинлашуви, иктисодий уйғунлашуви хавф-хатарсиз фаровон ҳаёт кечиришларини, яхши кўшничилик муносабатларини мустаҳкамлашга қаратилгандир. Жаҳоннинг глобаллашув томон юз туваётган бир тарихий даврда ўзини минтақавий ҳамкорлиқдан чекловчи, ижтимоий-иктисодий ва маданий ривожланиш жиҳатидан биқиқ ҳолатта солувчи ижтимоий сиёсат олиб борувчи ҳар қандай давлат ҳалокатга, инқирозга маҳкумдир. Факат яхши, тенг ҳуқуқли, очик ва самимий ўзаро иктисодий, сиёсий ва маданий муносабатларгина минтақа ҳалқарини фаровонликка етаклади. Шу боис тарихий маданий илдизлари яқин бўлган ҳалқлар минтақавий ҳамкорликка интиладилар. Бундай интилишларнинг ижобий натижасини АСЕАН (Тинч океани бассейни (ҳавзаси) мамлакатлари ўзаро ҳамкорлиги ассоциацияси), АТР, НАФТА ва х.к. минтақавий уюшмаларга аъзо мамлакатлар турмуш даражасининг тез суръатлар билан ривожланиб бориши мисолида кузатиш мумкин. Россия, Белоруссия, Козоғистон ва Қирғизистон давлатларининг МДХ иккисодий-сиёсий маконида ўзаро ҳамкорликка киришиши, Евроосиё ўзаро минтақавий ҳамкорликни йўлга қўйишга қаратилган ўзаро интилишлар ўз истиқболига эга. Европа Иттифоқи ҳам минтақавий ижтимоий ҳамкорликка мисол бўла олади. Минтақавий ҳамкорлик глобал ижтимоий ҳамкорликнинг асоси, унга олиб чиқувчи поғонадир.

<sup>1</sup> Р.М.Алимов. Центральная Азия: Общность интересов./ Р.М.Алимов. – Т.: “Шарқ”, 2005.

Худудий ёки локал ижтимоий ҳамкорлик бир мамлакат худуди-да яшовчи турли ижтимоий табақалар, этник гурухлар, турли диний энтиковдга эга бўлган кишилар, сиёсий ҳаракатлар, сиёсий партиялар, ижтимоий ташкилотлар ва уюшмалар ўртасида баркарор ривожла-нишга қаратиган ўзаро ҳамкорликдир.

Ижтимоий ҳамкорликни худудий ёки локал тушуниши муаммога конкретлик багишлади, миллӣ ривожланиш ғоясини амалий йўналишини таъминлайди. Ижтимоий ҳамкорликни худудий ёки ло-кал изоҳлашта оид катор мулоҳаза ва таърифлар мавжуд. Оммавий ва ўкув-услубий адабиётда кенг тарқалган таъриф қуидагича: “Ижти-моий ҳамкорлик-муроса фалсафаси бўлиб, хилма-хил фикр ва қараш-ларга эга бўлган, турли миллат, ирқ ва динга мансуб шахс ва гурух-ларнинг умумий максад йўлидаги ҳамжиҳатлигини таъминлайди”<sup>1</sup>.

Ижтимоий ҳамкорлик ўз-ўзидан юзага келмайди. У жамиятнинг турли ижтимоий гурухлари, катламлари, сиёсий партия ва ҳаракат-лари ўртасида ижтимоий тараққиётга муайян эҳтиёж пайдо бўлган-дагина юзага келади. Демак, у кишилар ўртасида индивидуал ва иж-тимоий жиҳатдан пайдо бўладиган муайян муаммоларни ҳал этиш, муайян эҳтиёж ва қизикишларни кондиришга умумий зарурат туғил-гандагина пайдо бўлади ва ҳаракатланади.

Ижтимоий ҳамкорлик интегратив ҳодиса бўлиб, турли ижтимо-ий гурухлар, синфлар ва айниқса сиёсий партия ва сиёсий кучларни бошини қовуштирувчи муайян ғоя ёки вазифа юзага келгандагина юзага келади. Узбекистон шароитда турли ижтимоий гурухлар, та-бақалар, партиялар, ҳаракатлар, нодавлат ташкилотларни бошини қо-вуштирувчи ягона бир максадга йўналтирувчи ғоя – бу миллӣ ис-тиклол, буғун эса миллӣ ривожланиш ғоясидир.

Шу боис “Узбекистон ҳалқининг миллӣ тараққиёт йўлидаги бош ғояси – озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон хаёт барпо этиш-дир”<sup>2</sup>.

Айнан шу ғоя миллӣ мустакил ривожланишимизнинг ўзак ғоя-си, максади ва орзуидир.

Мазкур орзуга, мақсад ва ғояга амалда эришиш иқтисодий, сиё-сий, ҳуқуқий ва маданий-маърифий тадбирларни амалга оширишни такозо этади. Ўлар ичida энг муҳими, ташкиллаштирувчи ва амали-ётда мустаҳкамлантирувчиси – сиёсий баркарорликдир.

<sup>1</sup> Миллӣ истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. –Т.: Янги аср авлоди. 2001. 133-б.

<sup>2</sup> Ўша асар. 50-б.

Сиёсий барқарорлик бўлмаган жойда на иқтисодий, на хукукий ва на маданий тараккиёт бўлади. Сиёсий барқарорлик жамият ички ҳайтини соғломлаштирувчи, унга илгариланма харакат қилиш, ривожланиш учун шароит яратувчи омилдир. Сиёсий барқарорлик тинч-тотув ҳаёт, фаровон турмуш, ижтимоий тараккиёт гаровидир.

Сиёсий барқарорликнинг глобал ва регионал (минтакавий) ахамияти мавжуд.

Мамлакат ижтимоий ривожланиши учун чет эл инвестициясининг, ҳалкаро ҳамжамият эътиборининг аҳамияти салмоклидир. Сиёсий барқарорлик бўлмаган мамлакатга чет эл сармоясини кириб келиши қийинлашади. Чунки ҳар қандай инвестор ўз сармоясини сиёсий ва хукукий жиҳатдан қафолатланишидан манфаатдор бўлади. Сиёсий бекарорлик, сиёсий бош-бошдоклик – бу худди шамолда қаттиқ тебраниб турувчи, қулаб тушишга яқин дараҳт мисолидир. Тебраниб турган дараҳтга на бирон бир күш кўнади, на ин куради. Шунинг учун сиёсий барқарор бўлмаган минтакага ёки ҳудудга сармоя олиб кириш, тадбиркорлик билан шугулланиш ҳар қандай акли расо хорижий сармоядор учун хавфидир.

Ўзбекистонда хозир 100 дан зиёд чет эл сармоядорлари катта капитал асосида саноатнинг йирик тармоқлари билан ҳамкорлик қилмокда. Бу – тўқимачилик, машинасозлик, фойдали казилмалярни разведка килиш ва ўзлапитириш билан боғлиқ лойиҳалардир.

Сиёсий барқарорликни таъминлаш мустакилликнинг дастлабки йилларидан бошлаб ёш мустакил давлатимизнинг диккат марказида туради. Факат сиёсий барқарорликкина миллый, диний, чегаравий зиддиятларнинг реанимация килиншини, фуқаролар ўртасила ўзаро ҳамкорликни йўқолишини олдини олади. Шундай килиб, сиёсий барқарорлик – жамиятнинг турли ижтимоий гурухлари, синфлари, сиёсий партиялари, этник ва диний вакиллари, иодавлат ташкилотлари ўртасида ўрнатилган толерантлик, ҳамжиҳатлик, тутувлик, ҳамкорлик ва ўзаро биродарлик мухитининг мавжудлигидир.

Мамлакат ичидағи сиёсий барқарорлик, ёки локал сиёсий барқарорлик регионал ёки минтакавий барқарорлик билан узвий боғлиқдир. Ўзбекистон мисолида сиёсий барқарорлик шунинг учун факт ички омил эмасдир. Тарих такозосига кўра Марказий Осиё давлатлари ўртасидаги чегара демаркация чизиклари бенихоят шартлидир. Шуролар хукуматининг айби билан минтакадаги этник ўзбеклар, козоклар, кирғизлар, тоҷиклар ва туркманлар ўртасидаги чегара демаркация чизиклари тарихан нисбий ҳолда бўлиб колган. Этник

ўзбеклар Марказий Осиё минтақасининг барчасида истикомат килалилар. йўз навбатида Ўзбекистонда ҳам Марказий Осиё ҳалқларининг турли миллат вакиллари хаёт кечиришади.

Шу боис Ўзбекистондаги сиёсий баркарорлик бутун Марказий Осиё минтақасидаги сиёсий баркарорликка узвий боғлиқдир. Буни яқин ўтмишда, мустакиллигимизнинг дастлабки йилларида минтақада юзага келган сиёсий танглик аниқ-равшан тасдиқлади. Минтақаларо, этник низолар – сиёсий баркарорликнинг күшандасидир. Сиёсий баркарорликнинг йўқолипи миллий ривожланиш учун фожиадир. Чунки сиёсий баркарорликгина мамлакатда конституциявий тузумни мувозанатини таъминлайди, фуқаролар урушини, сиёсий тангликларни, худудий ва чегаравий даъволарни, нафақат диний ва сиёсий экстремизмни ҳам олдини олади.

Ўзбекистонда ва Марказий Осиё минтақасида тинчлик ва сиёсий баркарорликни таъминланишида ва унинг мустаҳкамланишида Ўзбекистоннинг биринчи Президенти Ислом Каримовнинг хизматлари каттадир.<sup>1</sup> Фарғона, ўш, Наманган, Паркент, Бўка воқеалари ҳали ҳалқимиз хотирасидан ўчгани йўқ. Ўша даҳшатли, калтис воқеаларни жиловлашувда ва нафакат Ўзбекистонда, балки Марказий Осиёда фуқаролар уруши, хунрезликларнинг олди олинишида Президент Ислом Каримовнинг хизматлари тарих олдида дарҳакиат каттадир. Буни холисона шаклда Кирғизистон собик Президенти Аскар Акаевнинг 1994 йил 5 ноябррида Россиянинг “Известия” газетасида берган интервьюосидан ҳам билиб олиш мумкин.<sup>2</sup>

Президент Аскар Акаев айтишича, 1990 йил июнь ойида икки кун ичida ўшдаги миллатлараро кирғинда юзлаб ўзбеклар ва кирғизлар ҳалок бўлдилар. Республиқани иккинчи Қарабоғга айланишидан асрар қолишида мұъжиза туфайлигини муваффақ бўлинди. Шунда Президент Каримовнинг аниқ позицияси ёрдам берди.

Сиёсий баркарорликни таъминлаш оддий бир иш эмасдир. Сиёсий баркарорлик мустаҳкам ҳуқукий, моддий ва маънавий асослар ярагилишини такозо қиласи. Ундан ташқари сиёсий баркарорлик илмий асосдагина, илмий услублар воситасидагина яратилади. Бунда политологик, социологик, статистик, этнографик, тарихий ва мантиқий услублар ижтимоий воқеаларни илмий таҳлил этиш ва уларнинг

Бу хакда батафсилроқ каранг: М.С.Гафарли, А.Ч.Касаев. Ривожланишнинг ўзбек модели: тинчлик ва баркарорлик – тараккиёт асоси. Тошкент: “Ўзбекистон”, 2001 й.

<sup>1</sup> Каранг: “Известия” газета. 5 ноябрь 1994 й. сони.

ривожланиш тенденцияларини амалий сиёсат учун башорат ва тавсиялар беришда катта аҳамият касб этади.

Сиёсий баркарорликни таъминлаш ҳар бир фукаронинг, вижонли, эътиқодли кишининг бурчидир. Сиёсий баркарорлик тинч, хавф-хатарсиз меҳнат қилиш, фаровон ҳаёт кечириш, Ватан юксалишини таъминлаш омилидир.

Ижтимоий ҳамкорлик ва сиёсий баркарорликка ўз-ўзидан эришилмайди. Бунинг учун муайян ижтимоий-сиёсий, маданий-маънавий ва иқтисодий асослар яратилиши керак.

Ўзбекистон ўз мустакиллигининг дастлабки йиллариданок миллий ривожланишнинг сиёсий, хукукий ва иқтисодий асосларини яратишга киришди. Миллий ривожланишнинг сиёсий-хукукий асоси бўлиб 1992 йил 8 декабря кабул килинган Ўзбекистоннинг янги Конституцияси хизмат киласи.

“Асосий Қонунда, -деб таъкидлайди Р.Жумаев, - мустакил демократик давлат қурилишининг восита ва йўллари, фукаролик жамияти, унинг кўп киррали ҳак-хукуклари ва тинчлик тизими билан ривожланиш йўлини тушуниш, умуминсоний манфаатларининг партия, синф, миллат ва бошқалардан устунлиги, мустакил Ўзбекистоннинг ривожланиш стратегиясининг баённомаси ўз аксини топган”<sup>1</sup>.

Ўзбекистонда ижтимоий ҳамкорлик ва сиёсий баркарорликнинг хукукий кафолати Конституциянинг қатор моддаларида ўз аксини топгандир. Масалан, 21-моддала “Ўзбекистон Республикасининг бутун ҳудудида ягона фукаролик ўрнатилди. Ўзбекистон Республикасининг фукаролиги, унга кандай асосларда эга бўлганлигидан катьи назар, ҳамма учун тенгдир”, деб таъкидланади. Мазкур модданинг ижтимоий ҳамкорлик ва сиёсий баркарорлик учун аҳамияти шундаки, Ўзбекистонда мустакиллик шарофати билан фукаролик институти мазмунан тубдан янги маъни ва мустакил аҳамият касб этди, фукаролик давлатчилигимизнинг муҳим ажралмас белгисига айланди. Шунга биноан фукаролик шахснинг давлатга мансублигини, унга дахлдорлигини юридик жиҳатдан мустаҳкамлайди.

Ўзбекистон Республикаси Президенти И.Каримов “шахс Ўзбекистон Республикаси фукаролигини кабул қиласар экан, бу билан у Конституциямиз ва қонунларимизда мустаҳкамлаб қўйилган хуқук ва эркинликларга эга бўлади. Шунингдек, у маълум бурчларни ҳам бажаришга мажбурдир. Табиийки, Ўзбекистон давлати ҳам фукаро-

<sup>1</sup> Рустам Жумасов. Давлат ва жамият: демократлаштириш йўлида. –Т.: Шарқ, 1998, 11-6.

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Конституцияси 21-модда.

ларнинг манфаатлари ва эркинликларини Республика худудида ва унинг ташқарисида ҳимоя килиш мажбуриятларини ўз зиммасига олади”<sup>1</sup>.

Сиёсий барқарорликни таъминлаш нуктаи назаридан республика худудида бир фуқаролик ҳуқуқий институтини ўрнатиш ижобий ҳодиса эканлигини хаёт исботлади. Ўзбекистон кўпмиллатли давлатдир. Унинг худудида юздан зиёд миллат ва элат вакиллари истикомат килади. Конституцияни лойиҳасини муҳокама қилиш пайтида маҳаллий миллатдан ташкари тарихий ватани собик СССРнинг турли республикалари бўлган русийзабон кишиларга икки фуқаролик ҳуқуқини бериш таклифи ҳам ўргата ташланган эди.

Ўзбекистон Президенти И.Каримов узоқни кўзловчи сиёсий стакчи сифатида бунинг салбий оқибатларини назарда тутиб, “икки давлат фуқаролигига мансублик ачинарли ҳолдир. Бу беватанлик билан баробардир”,<sup>2</sup> - деб таъкидлаган эди. Дарҳақиқат, мазкур ҳуқуқий ҳолатнинг хаётий эканлигини, диний, ирқий ва миллий зиддиятларнинг олдини олишда фуқаролар ўртасида ижтимоий ҳамкорлик муносабатларини шакллантиришда муҳим аҳамиятга эга эканлигини мамлакатда эришилган тинчлик, ҳамжиҳатлик ва миллатлараро тутувликда кўрдик.

Фуқароларга ҳуқуқдан ташкари конституциявий нормаларга риоя этиш юзасидан қатор мажбуриятлар ҳам юклатилгандир. Шунинг билан бирга фуқароларнинг Конституцияга риоя этиши факатгина уларга юклатилган мажбуриятлар билан чекланмайди, балки бу анчагина кенгрок маъно ва мазмун касб этади.

Кўпмиллатли давлат шароитида ҳар бир фуқародан ижтимоий келиб чиқиши, миллати, дини ва ирқидан катъи назар қуидагилар талаб қилинади. “...Биринчидан, бошқа фуқароларнинг конституциявий ҳуқуқларини хурмат килиш; иккинчидан, давлат ҳокимиятининг конституциявий органлари томонидан қабул қилинган ҳуқуқий актларга, шунингдек суднинг конуний кучга кирган ҳукм ва карорларига итоат этиш; иккинчидан, конституциявий тартиботларни хурмат килиш, ҳеч қандай ҳолатда (зарурий мудофаадан ташкари) зўрлик ишлатмаслик, конунга итоаткор бўлиш”<sup>3</sup>.

<sup>1</sup> И.А.Каримов. Буюк келажагимизнинг ҳуқуқий кафолати. - Биздан озод ва обод Ватан колсин. 2-том. -Т.: Узбекистон, 1996, 95-о.

<sup>2</sup> И.А.Каримов. Ўша аср. 96-б.

<sup>3</sup> У.Таджиханов. Х.Одилкориев. А.Саидов. Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий ҳуқуқи. -Т.: “Шарқ”. 2001. 121-б.

Мамлакатда сиёсий баркарорликни таъминлашда Конституция асосида юзага келган конунчилик ҳам катта рол ўйнайди. Ҳаёт, амалиёт эктиёжларидан келиб чиқилган ҳолда, Жиноят Кодексига ҳам қатор ўзгаришишлар киритилди. Хусусан, амалдаги Жиноят Кодексининг 216-моддаси куйидаги таҳрирда баён этилди: “Фаолияти тақиқланган жамоат бирлашмалари ва диний ташкилотлар тузиш ёки уларнинг фаолиятини тиклаш, худди шунингдек, бундай бирлашмалар ва ташкилотлар фаолиятида фаол қатнашиш – энг кам иш ҳакининг эллик бараваридан юз бараваригача миқдорда жарима ёки олти ойгача қамоқ ёхуд беш йилгача озодликдан маҳрум килиш билан жазоланади”.

Сиёсий баркарорлик турли экстремистик гурӯҳлар, бузгунчи кучларга қақшаткич зарба бермасдан мумкин бўлмайди. Диний экстремизм, терроризм ва шу каби мамлакат сиёсий баркарорлигига ҳавф түғдирувчи кучларга карши кураш факат конун доирасида олиб борилиши керак. 1997 йил 16 феврал воеаларига қадар диний экстремизм, фундаментализм ва терроризм бизнинг мамлакатда унчалик ҳалқ осойишталигини, юрт тинчлиги ва сиёсий баркарорликни бузувчи омил деб каралмас эди. Февраль воеалари билан боғлик бўлган юзлаб бегуноҳ қишиларнинг фожиали тақдирни бу ҳодисаларни олдини олиш учун жиноят конунчилигига ҳам ўзгаришишлар киритишини такозо килди. Шу боис юрт тинчлиги ва сиёсий баркарорликни таъминлаш осойишталикни химоя қилиш учун Жиноят Кодексига маҳсус 244<sup>1</sup> - модда киритилди. Унда шундай дейилади: “Диний экстремизм, сепаратизм ва ақидапарастлик ғоялари билан йўғрилган, қирғин солишга ёки фуқароларни зўрлик билан кўчириб юборишга даъват этадиган ёхуд ахоли орасида вахима чиқаришга қаратилган материалларни тайёрлаш, уларни тарқатиш мақсадида сақлаш, шундай ҳаракатлар учун маъмурий жазо қўлланилгандан кейин содир этилган бўлса - энг кам иш ҳакининг эллик бараваридан юз бараваригача миқдорда жарима ёки уч йилгача ахлок тузатиш ишлари ёхуд олти ойгача қамоқ ёки мол-мулк мусодара килиниб ёки мусодара килинмай уч йилгача озодликдан маҳрум қилиш билан жазоланади”.

Ижтимоий ҳамкорлик ва сиёсий баркарорликнинг сиёсий асослари Конституциянинг 12, 13, 14, 15, 32, 33, 35 ва х.к. моддаларида ўз аксини топган. Хусусан, Конституциянинг 12-моддасида “Ўзбекистон Республикасида ижтимоий ҳаёт сиёсий институтлар, мафкуралар ва фуқароларнинг хилма-хиллиги асосида ривожланади. Ҳеч қайси мафкура давлат мафкураси сифатида ўрнатилиши мумкин эмас”, - дейи-

лади. Дарҳақиқат мустакил Ўзбекистоннинг ижтимоий ҳаёти ва сиёсий тизими мағкуралар ва фикрларнинг хилма-хиллиги асосида ривожланади. Бир мағкуранинг, бир дунёкарапашнинг яккаҳокимлигидан воз кечиш, сиёсий партиялар, мағкуралар ва фикрлар хилма-хиллиги конституциявий йўл билан эътироф этилган.

Мамлакатимизда ижтимоий ҳамкорликни ва сиёсий барқарорликни таъминланишида мазкур сиёсий-хуқукий дастурнинг ахамияти катта. Бирок мазкур сиёсий-хуқукий дастур салоҳиятидан шу кунгача хануз тӯла фойдаланилгани йўқ. Бунинг сабаби кишилар онгидা совет мағкурасининг яккаҳокимлигига асосланган ижтимоий ҳаётда ўринашиб колган сиёсий кўнікмаларнинг сакланиб колганлиги, ҳалк хотирасидан учмаганлигидир. Иккинчидан, мағкуралар хилма-хиллигини ижтимоий ҳаётда қарор топа олмаганингининг бош сабабларидан бири - мамлакатда фаолият кўрсатаётгани партияларнинг мустакил, узига хос мағкурасининг йўклиги ёхуд шаклланишга ултурмаганлигидир.

Сиёсий барқарорликни таъминланишида гарчи муҳолиф сиёсий кучлар ва муҳолиф мағкуралар учун хуқукий ва сиёсий макон мавжуд бўлса-да, афсуски жамиятда сиёсий ва хуқукий маданият даражасини пастилиги сабабли сиёсат майдонига конструктив муҳолифот эмас, балки деструктив, яъни бузгунчи муҳолиф кучли чикишга уринишиди. Бузгунчи муҳолиф сиёсий кучлар аслида жиноятчи унсурлар таъсирида бўлганлити сабабли (Тохир Йулдошев, Жума Наманганий, Мұхаммад Солих ва бошкалар) Ўзбекистон ислом уйғониши партияси никоби остида амалда ҳалқ осойишталигини бузиш, сиёсий барқарорликка путур етказиш йулида бордилар. Террор, кишиларни кўркувга солиш, ахоли ўртасида захима тарқатиш – бузгунчи муҳолиф кучларнинг кураш услугига айланди. Гарчи купчилик бў кучларнинг ғаразли максадларини ўз вактида тўғри англаб олган бўлсалар-да, айрим нодон, ишонувчан, содда кишилар уларнинг таъсирига тушиб колдилар.

Жамиятда шу боис муайян муддатда барқарорлик ва осойишталик бузилди. Фақат хукуматимизнинг саъй-харакати билан жамиятда бўлиниш, парчаланиш, худудий ва миллий бўлинишларнинг, конли қарама-қарши туришликларнинг (кўшни Тожикистон бунга мисол – А.К.) олди олинди. 1997 йил 16 феврал воқеаларидан сўнг Ўзбекистонда сиёсий барқарорликни тикланиши ва мустахкамланишила Президент И.Каримовнинг “Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: ҳавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараккиёт кафолатлари” ном-

ли асари ва “Ўзбекистон XX1 асрга интилмоқда” номли рисоласи мамлакатимизнинг кейинги ривожланиши учун сиёсий ва мафкура-вий асос бўлади.

Президент И.Каримов мамлакатимизнинг XX1 аср бўсағасидаги ижтимоий-сиёсий, иқтисодий ва маданий-маънавий шароитини чукур илмий таҳлил килиш асосида ижтимоий барқарорликнинг ва миллий ривожланишимиизнинг асосий шартлари ва кафолатлари ҳақида сиёсий-назарий асосни яратди.

Бу асослар куйидагича:

1. Маънавий кадриятлар ва миллий ўзликни англашнинг тикла-ниши;
2. Давлатчиликни шакллантириш ва мудофаа кобилиятини мус-таҳкамлаш.
3. Демократик институтларни ва фуқаролик жамияти асосларини шакллантириш.
4. Кучли ижтимоий сиёсат ва ахоли ижтимоий фаоллигини оши-риш.

Мамлакатимизда ижтимоий ҳамкорлик ва сиёсий барқарорликни таъминлашнинг аниқ иқтисодий асослари ҳам Президент И.Каримов томонидан ишлаб чиқилган булиб, бир вактнинг ўзида бу омилилар ижтимоий-иктисодий ривожланишимиизнинг кафолатлари булиб ҳам хизмат қиласди.

Ижтимоий ҳамкорлик ва сиёсий барқарорликнинг моддий-иктисодий асослари булиб куйидагилар хизмат қиласди:

1. Бозор муносабатларининг карор топиши ва мулкдорлар син-фининг шаклланниши;
2. Жўғрофий –стратегик имкониятлар ва табиий хом ашё ресурс-лари;
3. Инсон салоҳияти, ижтимоий ва ишлаб чиқариш инфраструк-тураси;
4. Кенг кўламли ўзгаришлар ва ҳамкорлик кафолатлари;
5. Жаҳон ҳамжамияти билан ҳамкорлик.

Ўзбекистон – умуминсоний кадриятларга асосланган, миллати, дини, ижтимоий аҳволи, сиёсий эътиқодларидан катъи назар, фуқа-роларнинг ҳуқуклари ва эркинликларини таъминловчи давлатdir. Ўзбекистонда инсон ҳаёти, унинг эрки, кадр-қиммати кадрланади.

“Инсон ҳуқуклари ва демократия сингари умумбашарий кад-риятлар, - деб таъкидлайди Ўзбекистон Президенти И.Каримов, - республикамизнинг миллий давлатчилик манбаатларига тұла мос ке-

лади. Инсоннинг энг устувор ва муқаддас ҳуқукларидан бири – бу тинч яшаш ҳуқукидир. Давлат ва жамиятнинг бурчи ана шу ҳуқукни барча конуний воситалар билан кафолатлаб беришдир. Бу ҳуқукни амалга ошириш – давлат ва жамиятни демократлаштиришнинг эн мухим шартидир. Демократиянинг инсонпарварлиги шу билан белгиланади”,<sup>1</sup> ижтимоий ҳамкорлик ва сиёсий баркарорликнинг маънавий-маърифий асослари Ўзбекистонда миллый ўзликни таниш, эътиқод эркинлигини таъминлаш, миллатлараро тотувликни, ўзаро ҳурмат ва ҳамжиҳатлик мухитини яратиш билан боғлик.

Ўзбекистон давлати ижтимоий ҳамкорлик ва сиёсий баркарорликни таъминлашда мамлакатда яшовчи барча миллат ва элатларнинг хоҳиши-иродасини хисобга олиб иш юритди.

Таникли сиёсатшунос Н.Жураев таъкидлашича: “...давлат факат адолатга таянсагина, унинг сиёсатда миллый, ирқий, диний мансублигидан катъи назар яхлит мамлакат фуқароси тақдири қамраб олинсан гина кадриятга айланади”.<sup>2</sup> Муаллифнинг фикрича, миллатлараро муносабатларни баркарорлаптириши ўтиш даври учун хос ҳусусиятлайдир. Бизнингча, миллатлараро муносабатлар ўта нозик ва қалтис ҳодиса бўлиб, у бирон бир давр билан чекланмайди, миллый ривожланиш концепцияси учун миллатлараро муносабатларни баркарорлаштириш сиёсати мунтазам ва доимий олиб борилиши лозим. Акс ҳолда 130 дан зиёд миллат ва элат истикомат килувчи кўпмиллатли давлат шароитида этник ва миллый зиддият ҳар дақиқада юзага келиши, жамият бирлигини бузиши, ҳатто фуқаролар урушини келтирб чикариши мумкин. Миллатлараро муносабатлар мунтазам эътиборни талаб килади. Сиёсий баркарорлик ва фуқаролик ҳамкорлиги миллый муносабатлар ҳолатига кўп жихатдан боғлиқдир. Миллатлараро муносабатларни мұтадил ривожланишида давлат ва миллый тиллар, маҳаллий аҳоли ва тарихий ватани бошқа мамлакатлар билан боғлик бўлган миллат ва элатлар ўртасида ўзаро тенглик, толерантлик ва ҳурмат муносабатларини сакланишига кўп жихатдан боғлиқдир. Шу боис мамлакатда 15 дан зиёд диний конфессия ва 70 га яқин миллый-маданий марказларни фаолият кўрсататгани нафакат сиёсий баркарорлик, балки фуқаролар ўртасида ижтимоий ҳамкорлик муносабатларини мустаҳкамланишувига ижобий таъсир кўрсатмоқда.

<sup>1</sup> И.А.Каримов Ўзбекистон: миллый истиқбол, иктисад, сиёсат, мағкура. I-том. Т.: Ўзбекистон, 1996. 78-79-бетлар.

<sup>2</sup> Жураев Нарзулта. Гафаккурдаги эврилиш: Истиқбол изтироблари ва қувончлари ҳакида муроҷазалар. -Т.: “Шарқ”, 2001. 83-.

“Миллатлараро тотувлик ғояси – умумбашарий қадрият бўлиб, турли ҳалклар биргаликда истиқомат қиласиган минтака ва давлатлар миллий тараққиётини белгилайди, шу жойдаги тинчлик ва баркарорликнинг кафолати бўлиб хизмат қиласиди”.<sup>1</sup>

Диний бағрикенглик, мамлакатда яшовчи ҳар бир миллатнинг, хоҳ у кўп сонли хоҳ у кам сонли бўлсин, миллий удумлари, анъаналири, байрамлари ва миллий тилини хурмат қилиш, уни камситмаслик – ижтимоий ҳамкорлик ва сиёсий баркарорликни таъминлашда муҳим омилдир. Шу боис миллий ривожланиш ғоясининг асосий принципларидан бири миллатлараро ҳамжиҳатлик, диний ва ирқий бағрикенглик, ўзаро хурмат ва эҳтиром принципидир. Мазкур принципга амал килган ҳолда ижтимоий ҳаётни ташкиллаштириш ва бошқариш келажакда фукаролик жамияти, ҳуқукий, демократик давлат карор топишда зарурый омил бўлади.

<sup>1</sup> Миллый истиқомат ғояси: Асосий тушунча ва тамоилилар. –Т.: Ўзбекистон, 2000. 59-б.

## **6. Ижтимоий ҳамкорлик ва сиёсий барқарорлик – миллий ривожланиш ғояси амалга ошувишинг асосий омили**

Ижтимоий ҳамкорлик ва сиёсий барқарорлик гарчи ижтимоий ходиса бўлса-да, индивид, конкрет шахс маданияти, маънавияти, эътиқоди ва дунёкарашига боғлик. Индивид, шахс фаолияти ижтимоий ҳамкорлик ва сиёсий барқарорликка конкретлик бағишлайди, уларни ижтимоий воесьликда реаллашувини белгилайди.

Миллий ривожланиш ғояси – концептуал омил, фаолият стратегияси бўлса, ижтимоий ҳамкорлик уни амалга ошувини таъминловчи шахсларнинг фаолиятидир.

Ижтимоий ҳамкорлик фақат ҳалкнинг, миллатнинг ҳамжиҳатлиги асосида юзага келади. “Миллатнинг, ҳалкнинг ҳамжиҳатлиги эса ҳар кандай тараккиётнинг гаровидир”<sup>1</sup>.

Миллий ривожланиши айнан шу ижтимоий ҳамжиҳатлик, яъни миллатлараро тотувлик, диний бағрикенглик, ижтимоий адолат ва конун устуворлик бор жойда мавжуд бўлади. Миллий ривожланиш ғояси ўз мазмунига кўра серкирра ва мураккаб бўлиб, у мамлакат ҳалкларини бир максад, бир орзу атрофида бирлаштиради, уларга ганланган тараккиёт сиёсий йўлини мукаррар юксалиш йули эканлигига ишонч туғдиради.

Ижтимоий ҳамкорлик Ўзбекистонда яшовчи ҳар бир фукарода мамлакат танлаган сиёсий тараккиёт йўлига ишонч, эътиқод ва иродада бўлгандагина юзага келади. Фукаролар ўртасида эртаги кунга ишонч бўлмаса, хокимият томонидан адолатсизликка йўл кўйилса, инсон манфаатидан давлат манфаати устун кўйилса – ижтимоий ҳамкорлик ўрнига анархия, бош-бошдоқлик, фақат үзини манфаатини ўйлаш, эгоизм ҳодисалари кўпаяди.

Ижтимоий ҳамкорлик ҳар бир фуқаро томонидан давлат томонидан олиб борилаётган сиёсатни инсон фаровонлиги, осойишталиги ва баҳт-саодатига қаратилганлигини ҳис этгандагина кузатилади. “Ватан”, “ватанпарварлик”, “Ватан туйгуси” ва ҳ.к. юксак тушунчалар конкрет хатти-харакатлар, амалий фаолият, ҳаёт томонидан мустаҳкамланмас экан, улар сиёсий популизмнинг, куруқ сафсатабозлигининг ифодасига айланади, кишиларнинг энсаси котади, бу тушунчаларни факат кишиларни лакиллатиш учун ишлатилаётганлигига ишончини оширади.

Каримов И.А. Жамиятимиз мафкураси ҳалкни-ҳалк, миллатни-миллат килсин. - Адолатли жамият сари. -Т.: Ўзбекистон. 1998. 15-б.

Инсон табиатан шундай мавжудотки, у күпинча юксак минбардан ёки оммавий ахборот воситалари томонидан айтилаётган баландпарвоз гаплар, въздалар эмас, балки бу сүз ва въздаларни қанчалик уни моддий ва маънавий турмушини яхшилаётганилиги караб сиёсатга баҳо беради, фаоллигини оширади. Буни конкрет ижтимоий лавҳаларда кузатиш мумкин.

Маълумки, собиқ шўролар даврида Фарбни, Farb мамлакатлари ни ижтимоий адолат йўклигида, у срда яшатган кишиларни бахтсизликда ва фуқаролар ўртасида ижтимоий тенгликни йўклигида айбланиб ташвиқот юритилар эди. Инсон бахт-саодатининг, фаровонлигининг тимсоли деб социализм ғояси ва бу ғоянинг тантана қилган мамлакатлар уқтирилар эди.

Farb мамлакатларида эса аксинча, бундай ташвиқотга қарама карши бўлган мафкуравий усуслар кўлланилар эди. Масалан, телевидение орқали социализм “бешиги” Москва ҳаётидан конкрет лавҳа кўрсагилади. Москванинг энг гавжум кўчаларидан бири Арбат кўчасидаги машҳур дўконлар атрофида навбат кутиб турган турнатор тирбанд одамлар кўрсатилади. Навбатда турганлар бирма-бир кўрсатилиб, дўкон ичидаги нима борлиги ҳам кўрсатилади. Кўпинча лўконда у ёки бу озиқ-овқат маҳсулоти ёки чет элдан келтирилган товарга (масалан, италянча этик ёки инглизча пальто) навбатда туришади. Сотувчи бир кишига факат бир жуфт товар бераётганлиги алоҳида курсатилади. Телерепортёр айни вақтда томошабинга мурожаат киласди: “Сиз социализмни хоҳлайсизми?”. Табиийки Farb фуқароси ушбу лавҳадан сунг социализм манзарасини уз кузи билан кўради ва жавоб беради: “Ҳеч қачон! Менга социализм керак эмас”, - деб катый жавоб беради. Чунки Farb истеъмолчиси бозор муносабатларида эркинлар. У хоҳлаган нарсасини хоҳлаган микдорда, хоҳлаган вақтда ва хоҳлаган шарт билан (накд, кредит, ижарага ва ҳ.) ҳеч қандай тўсиксиз ва эътироғсиз сотиб олади.

Farbда истеъмолчиси хукуклари товар ишлаб чиқарувчиларга нисбатан устувордир, у доимо конун химоясида бўлади.

Шу боис Farb фуқароларида ижтимоий ҳамкорлик ва унинг дебочаси - фуқаровий ҳамжиҳатлик конкрет ҳукукий кафолат механизми ва институтига асослангандир.

Миллий ривожланиш айнан шу бошланнич кадриятлар тизимиға асослангани учун Farb цивилизациясида демократизм ва инсон ҳукук ва эркинликлари ижтимоий ишлаб чиқариш ва маданий тараккиётда устувор мавқега эгадир.

Ижтимоий ҳамкорлик ижтимоий локайдлик, бефарқлик ва суст-  
каштилика ҳам зиддир. Бунинг маъноси шундаки индивиддан, жами-  
ятнинг ҳар бир фуқаросидан шахсий бахт ва фаровонлик учун макси-  
мал даражада меҳнат ва ҳаракат қилиш талаб қилинади. Боқиман-  
далик, номигагина меҳнат қилиш, давлат дотациясига қарам булиб  
қолиш – миллий ривожланиш талабларига зиддир.

Бунинг маънавий ва маданий асослари Farb цивилизациясида  
мавжуддир. Бу канчалик таажубланарли ва ғайриилмий булиб туюл-  
масин, ҳозирги Farb цивилизациясининг фан, техника ва маданиятда  
илгарила бетган тигининг сабаби – Реформация ва Маърифатчилик  
даврларида (XVII – XVIII асрлар) протестант этикасига асос солин-  
ганлигидир. Бу фикрни буюк сиёsatшунослардан бири Макс Вебер  
узининг 1905 йилда ёзган “Протестант этикаси ва капитализм рухи”  
номли асарида баён қилади. Капитализмнинг “рухи” – Макс Вебер  
фикрича протестант этикаси тарғиб этувчи меҳнатсварлик ва инти-  
зомдадир. Бу фикрни катор кўзга кўринган социолог ва сиёsatшунос-  
лар ҳам кайд қилишади. Ҳусусан, И.Саифназаров “буғунги тараққий  
этган дунёнинг асосий фаолият мезони – прагматизм ҳам айни ана шу  
протестантлик таълимоти асосида шаклланган эди”<sup>1</sup>, - деб таъкидлай-  
ди.

Миллий ривожланиш ғоясини ҳаётимиизда амалий қарор топиши  
учун маънавий асослар бизнинг маданий меросимизда ҳам мавжуддир.  
Бой маданий меросимизда миллий ривожланишимизга ижобий  
таъсир кўраатувчи ғояларни таънлаб, уларни кишилар онгига сингди-  
риш, ўтмиш шуро тузумидан мерос бўлган давлатга боқимандалик.  
факат истеъмолчилик, ялқовлик ва дангасалик руҳиятидан тезроқ ку-  
тилишга кўмаклашади.

Яратувчаник, ижодкорлик меҳнатисиз миллий ривожланиши-  
миз асло мумкин эмасдир. Буни ҳаёт, илгарила бетгаётган узоқ ва  
яқин мамлакатлар тараққиети исботла бурибди. Ижтимоий ҳамкор-  
лик айни бунёдкорлик, ижодий ва ҳалол меҳнатга асосланади. Бу  
шак-шубҳасиздир. Миллий ривожланишимизнинг маънавий асосла-  
рига келсак, бу муаммо ижтимоий ҳамкорлик ва сиёсий барқарорлик-  
ни таъминлаш учун амалий аҳамиятга эгадир. Гап шундаки, миллий  
ривожланиш ғоясими (миллий истиқлол мағкураси ва миллий ғояни  
ҳам – А.К.) юқоридан туриб ҳаётга татбиқ этиш мушкул вазифадир.  
Инсон иктисадий, моддий жиҳатдан фаровонликка эга эмас экан, ун-  
га қуруқ ғоя ва маънавият ҳакидаги гап-сўз керак эмасдир. Бу аччиқ

<sup>1</sup> Исмоил Саифназаров. Маънавий барқарорлик ва сиёсий маданият. –Т.: “Шарқ”. 2001. 56-6.

ҳақиқатни ўз вактида К.Маркс ҳам ўз “Капитал” ида таъкидлаб ўтган эди. Миллий ривожланиш гояси иқтисодий равнақ ва фаровонлик билан уйғунлашган ҳолдагина ҳётда қарор топа олади. Бунинг учун ҳар бир фуқаро рухиятида, унинг маънавий кадриятлар тизимида ислоҳот ўтказиш, унинг одатланиб қолинган локайдликдан, дангасаликдан ва бокимандалик кайфиятидан кутқариш, уйғотищ, кўзини очиш, унга “ўз бахтинг, фаровонлигиинг ўз қўлингда”, деб уқтириш, хуллас, ижодкор, беминнат меҳнат килишга кайтариш ва ундаш лозим бўлади. Шу боис “миллий қўтарилиш, миллий ўзлигини англаш, маънавий кадриятлар қўламини кенгайтириш жараёни ҳам ахлокий тасаввурларимиз, анъаналаримиз ва эзгу фазилатларимизга бориб тақалади”.

Миллий ривожланиш гоясини амалда қарор топиши ва ижтимоий ҳамкорликнинг реал асослари шаклланиши учун бой маънавий меросимиздан фойдаланиш юкорида таъкидлаганимиздек ижобий нағижа беради. Агар Фарбда протестант этикаси (пуританизм) капиталистик тараккиёт учун асос бўлган бўлса, Шарқда айрим сабабларга кўра реал ҳётда қарор топа олмаган Накшбандия тарикати бугунги кунда миллий ривожланишимиз учун маънавий асос булиши мумкинлигига шубҳа иўқидир. Шу боис Баҳоуддин Накшбанд мероси ҳукumat эътибори даражасида эканлиги бежиз эмасдир. Ислом мутаассибилигидан, диний фанатизмидан фарқли уларок, ватандошимиз Баҳоуддин Накшбанд диний илмни дунёвий меҳнат билан қўшиб олиб боришни (“Дил ба ёр-у, даст ба кор”) тарғиб этган эди. Меҳнат-севарлик, яратувчанлик ҳар бир мўмин-мусулмоннинг муқаддас вазифаси эканлиги ул буюк зот томонидан доимо тарғиб этиб келинган эди.

Шўро мафкураси ва унинг яккаҳоқимлиги натижасида маърифат булоғи бўлмиш Накшбандия, кубровия, яссавия ва ҳ.к. таълимотлар гакикланди, ҳалқимиз бу маърифат булокларининг ҳаётбахш томчиларидан мустакиллигимизга қадар бебахра бўладилар. Бугун вазият ўзгарди. Конституциямизда мафкуралар хилма-хиллигига ҳукукий мақом берилиб, мафкура яккаҳоқимлигига (давлат мафкурасига) барҳам берилди. Ижтимоий ҳамкорлик фуқароларда маънавий меросимизга, унинг асл намуналарига эҳгиrom билан қарашни, улардан бугунги кун учун, тараққиётимиз учун фойдалана билишни тақозо этади. Чунончи, Президент И.Каримов таъкидлаганидек “маърифат-парварлик биз учун бугун ҳам ўз ахамиятини йўқотгани йўқ,

\* Тилаб Махмудов. Мустакиллик ва маънавият. -Т.: “Шарқ”, 2001. 106-6.

йўқотмайди ҳам. Акл-заковатли, юксак маънавиятли кишиларни тарбиялай олсакгина, олдимизга кўйган максадларга эриша оламиз, юртимизда фаровонлик ва тараккиёт карор топади. Агар шу муаммони ечолмасак, барча тоат-ибодатларимиз бир пул: тараққиёт ҳам, кела-жак ҳам, фаровон ҳаёт ҳам бўлмайди”<sup>1</sup>.

Миллий ривожланиш ғоясини ҳаётда карор топиши учун сиёсий барқарорлик ҳам катта аҳамиятга эга. Сиёсий барқарорликка эса осонликча эришиб бўлмайди. Ижтимоий ҳаётда хушёрикни, огохликни бўшаштириш, айрим гайрисиёсий табиатдаги ҳодисаларга (диний экстремистик) конформистик (келишувчанлик) муносабати жамиятда сиёсий барқарорликка путур етказади, мамлакатда деструктив (бузгунчи) сиёсий кучлар бопп кўтаради. Бу эса ўз нафбатида миллий ривожланишга нафакат соя солади, балки уни орқага ҳам торгади.

Сиёсатшунос олим Ш.Пахрутдинов таъкидлашича “мамлакатлар гарихий тажрибасидан маълумки, ҳавф-хатар омилига нисбатан доимий равишда сергаклик билан муносабатда бўлинса, мунтазам назорат қилиб борилса, у маълум доирада чегараланиб, жамият асосларига жиддий ҳавф түгдирмайди”. Бироқ ҳавф-хатарга қарши кураш баҳонасида мавжуд ҳокимиятга танкидий фикр билдирувчи сонлом сиёсий кучларга ҳам зарба бериш – миллий ривожланиш учун ҳалокатли эканлиги ҳам хеч кимга сир эмасдир. Ўзбекистонда мустақиллик йилларида кечайтган туб иқтисодий ва сиёсий ислоҳотларни чукур ўрганиб, ҳолисона баҳо берган хорижий олим Леонид Левитин “Фарbdаги айрим тадқиқотчилар собиқ советлар ҳудудида пайдо бўлган мамлакатларда вужудга келган сиёсий тартиботни демократура ёки номенклатура демократияси деб – самарали оммавий сиёсий фаолият имкониятларини чеклайдиган, аммо юкори табака даражасида ракоботатга йўл қўядиган тартибот деб атамоқдалар”<sup>3</sup> - дейди.

Миллий ривожланиш учун сиёсий барқарорликка эришиш мамлакатда сиёсий муҳолифотни йўқотиш, унга шарт-шароитлар яратмаслик, ҳар кандай муҳолифотни таъкиқлаш ва таъкиб остига олиш өвазига бўлмаслигини ҳаётни ўзи исботлаб турибди. Ҳокимиятнинг нафакат куи, балки ўрга ва юкори погоналарида илдиз ота бошлаган коррупция ва суиистемолчилик бехатар илдиз отаётганлиги мазкур касалликка ижтимоий ва сиёсий баҳо берувчи муҳолиф сиёсий кучларни ва мустақил матбуотни заифлигидадир. Юкоридаги олимнинг

Каримов Ислом. Адолатли жамият сари. -Т.: Ўзбекистон, 1998. 36-б.

Пахрутдинов Ш. Таҳдид-ҳалокатли куч. Т.: Академия. 2001. 136-б.

Левитин Л. Ўзбекистон тарихий бурилиш палласида. -Т.: Ўзбекистон, 2001. 363-б.

холисона таъкидлашича “муҳолифот тӯғри стратегик карорлар қабул килинишига ва уларнинг амалга оширилишига ёрдам берадиган куч сифатида катнашмаса, Ўзбекистонда янгиланиш зарур даражада тезлаша олмайди”<sup>1</sup>.

Сиёсий баркарорликка муҳолиф сиёсий кучларни йўқотиш, муҳолифотга йўл қўймаслик ҳисобига эришиш – қимматга тушиши мумкинлигини, мамлакат обруйини халқаро майдонда тушириб юбориши мумкинлигини, Ўзбекистоннинг халқаро ҳуқукнинг тўлақонли субъекти сифатида мамлакат ичкарисида сиёсий фаолият олиб бора-стганлигига жаҳон ҳамжамияти назарида шубҳа уйғотиши мумкинлиги миллий ривожланиш ғоясини ҳаётда тезроқ қарор топишига тўскинлик килиши барчага аёндир.

Мамлакатимиз демократик тараккиёт йўлига кирди. Энди орқага йўл йўқ. Демократия ва инсон ҳуқуқ, эркинликларига оид ўнлаб умумжаҳон сиёсий ва ҳукукий хужжатларига кўл қўйилди, кўплаб шартномалар ратификация килинди. Ўзбекистонда демократияпаштиришни кўллаб-кувватловчи ўнлаб халқаро ташкилотлар ва миссиялар фаолият кўрсатмоқда. Сиёсий соҳадаги либерализация жараёни тезлашмоқда. Бу шароитда миллий ривожланиш ғоясига тўскинлик килиш – мустақил тараккиётимизга хиёнат қилиш билан тенгdir. Мамлакатимиз сиёсий етакчиси томонидан олиб борилаётган сиёсат, ривожланишнинг ўзбекона модели ўз салоҳиятини тўла намоён этиши учун реал шароитни яратилишига кўмаклашиш ҳар бир онгли фукаронинг мұқаддас бурчидир.

<sup>1</sup> Ўша асар. 364 б.

## **7. Миллий ривожланиш ва жамиятни модернизациялаштиришда миллий хавфсизликнинг ўрни ва аҳамияти**

Миллий ривожланиш миллий хавфсизликни таъминлашсиз мумкин эмаслиги ҳеч кимга сир эмасдир. Миллий хавфсизликни таъминлаш мамлакатни барқарор илгариланма тараккий килиши учун зарурий омилдир.<sup>1</sup> “Миллий хавфсизлик” тушунчаси кенг камровли тушунча бўлиб, миллий мустақилликнинг ажралмас қисми, зарурий механизмидир. Миллий хавфсизлик тушунчаси фақат миллий мустақилликка эришилгандан сўнгтина ҳётда ўз ўрнини тоғди. Муқаддам миллий хавфсизлик тушунчаси ўрнига “Давлат хавфсизлиги” тушунчаси ишлатилар эди. Бу тушунча воситасида тоталитар тизимни ички ва ташки томондан муҳофаза қилиш, унинг нормал фаолиятини таъминлашга доир тадбирлар туркуми ифодаланар эди.

Ўзбек ҳалки миллий мустақилликка эришгач, мустақилликни ички ва ташки хавфлардан ҳимоя қилиш зарурати ҳам найдо бўлди. Айникса 1997 йил 16 февраль воқеалари миллий хавфсизликни таъминлаш ва унинг асосий обьектлари – шахс, жамият ва давлатни муҳофаза қилиш нафакат ички ишлар, Куролли кучлар, суд ва прокуратура, балки ҳар бир фуқаронинг конституциявий ва фуқаровий бурчи эканлигини яққол кўрсатди. Шу боис 1997 йил 29 августида “Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури” билан бир каторда “Ўзбекистон Республикасининг миллий хавфсизлик концепцияси”ни қабул қилиниши бежиз эмас. Зоро миллий хавфсизликни таъминлашнинг дастурий аҳамиятга эга бўлган илмий концепциясиз миллий мустақилликни таъминлаш мумкин эмаслиги аён бўлди.

Диний экстремизм ва фундаментализмни бош кутариши, фуқаролар тотувлигига, мамлакат, жамият яхлитлигига хавф солиппий ва бузғунчи кучларни юзма-юз эмас, балки маккарона – ҳалк билан аралашиб давлат тузумига карши курашиши уларга зарба беришнинг янгича, замонавий усул ва воситаларини кўллаш эктиёжини түгдирди. Акс ҳолда бегуноҳ, саводсиз, ишонувчан фуқаролар ҳёти ва тақдири хавф остида қола бошлаган, уларнинг кўпчилиги англамасдан қилган қилмишлари учун жазога тортила бошлаётган эди.

Бу холатга барҳам бериш учун масалага янгича ёндашиш, миллий хавфсизликни таъминлашнинг тинч, сиёсий ва мафкуравий стратегияси ва тактикасини ишлаб чиқиши эктиёжи түгилади. Мазкур

<sup>1</sup> А.Кодиров. Ҳукукий давлатнинг шаклланишига хавф солаётган ҳодисалар. - Ҳукук-Право-Law. 2005. 1-сон. 5-7-бетлар.

стратегияни ва миллий хавфсизлик концепциясининг муаллифи бўлиб, Узбекистон Президенти И.Каримов ташаббус кўрсатди. У очикдан-очик, конкрет тарзда: “Фояга карши – факат ғоя, жаҳолатга карши – маърифат”, деган шиорни ўргата ташлади. Бу шиорнинг инсонпарварлик моҳияти шундаки, у воситасида инсон ҳаётини улуғлаш, қадрлаш, уни ҳимоя қилиш давлат сиёсатининг устувор йўналишига айланиб бораётганилиги сезилди. Мазкур шиор конуничиликда ҳам ўз аксини тоғди, жиноят сиёсатини либераллаштириш сиёсатига асос солинди. Бу билан кўшлаб кишиларнинг тақдирни ҳимоя қилинди, уларга нисбатан мукобил жазо шакллари кўлланилди.

Миллий хавфсизликни таъминлашнинг долзарб муаммога айланниб бораётганилининг яна бир сабаби – мамлакатимизга нафакат тинчликсевар кучларнинг, балки ғаразли, кора ниятли турли ҳалқаро кучларнинг қизикишининг тобора ортиб бораётганилигидир. Марказий Осиёнинг кулай геосиёсий худудида жойлашган мамлакатимиз ҳалқаро терроризм ва диний экстремизмнинг ҳам дикватини тортмоқда, дунёвий давлат куриш йўлидан диний давлат куриш йўлига ўтишга ҳалкимизни ғоявий-мағкуравий даъват қилмоқда. Буни қанчалик реал эканлигининг ички ишлар, миллий хавфсизлик хизмати, суд ва прокуратура томонидан тўпланган маълумотлар, ашёвий далиллар яққол исботламоқда.

Бугун жаҳонда биполяр, яъни икки қарама-карши кутбга асосланган ҳарбий-сиёсий ривожланиш ўрнига кўп кутбли ривожланиш тенденцияси юзага келди. Бунинг ҳам ижобий ва ҳам салбий оқибатлари мавжуд. Ижобий томони шундаки, энди жаҳонда катта-ю, кичик мамлакатлар ўз сиёсий тараққиёт йулини ўзи танлайди, буюк давлатнинг кош-ковогига караб иш тутмайди, мустақил ривожланади. Шу билан бирга жаҳонда яккаҳоким бўлишга интилувчи кучли давлатлар ҳам борлигини унутмаслик керак.

Кўпкутбли сиёсий ривожланишнинг салбий томонлари шундаки, энди аввал “писиб”, кучли давлатлардан ҳадисираб юргап турли бузгунчи, экстремист кучлар жаҳон сиёсий майдонига чиқа бошлади, ҳатто жаҳоннинг кучли давлатларига ҳам таҳдид солмоқда (биргина мисол – АҚШ да 2001 йил 11 сентябрида бўлиб ўтган воеалар). Шу боис хавфсизлик масаласи бугун миллий давлат чегарасидан чиқиб глобал, ҳалқаро миқёсдаги муаммога айланниб бормоқда, миллий хавфсизлик глобал хавфсизликни таъминлашсиз мумкин бўлмай колмокда. Шу боис Шанхай ҳамкорлик Кенгаши ва бошқа ҳалқаро ташки-

лотларнинг тузилиши – давр гакозосидир. Терроризм хавфига қарши глобал ҳамкорлик бугунги кун вазифасига айланмоқда.<sup>1</sup>

Терроризмга ва диний экстремизмга қарши кураш турли давлатларнинг ўзаро ҳамкорлик килишга унданмоқда. Ўзбекистоннинг миллий, минтақавий ва глобал хавфсизликни таъминлаш учун АҚШ ва Япония давлатлари билан стратегик ҳамкорлик ҳакидаги шартномаларни иккиёклама имзолаши ҳам ҳаёт тақозоси билан бўлди.

XXI асрда глобал хавфсизликни таъминлашни тобора долзарблашиб бораётганлигининг сабаби – дунёда нафакат оммавий кирғин куролларини (ядро куроли, бактериологик ва кимёвий курол ва х.к.) ишлаб чикиш ва тарқатиш муаммоси билан, балки экологик, информацион, географий, иқтисодий, сиёсий, диний ва х.к. таҳдидларнинг миллий давлатларга нисбатан ортиб бораётганлигидир. Бутун муаммо шу даражага етдики, энди гап Fарб ва Шарқ цивилизацияларининг омон колиши устида кетмоқда. Шу боис жаҳоннинг етакчи мамлакатлари умумжаҳон омон қолиш лойиҳасини яратиш устида иш олиб бормоқдалар. Хусусан шу йўналишда собик Швеция премьер-министри Улоф Пальме номидаги ҳалқаро комиссия иш юритмоқда.

Агар юкорида тасвирланган вазиятдан келиб чиқиладиган бўлса, миллий хавфсизликни таъминлаш иқтисодий, сиёсий ва информацион глобализация жараёнларини ҳисобга олмасдан туриб мумкин эмаслиги равшанлашади.

Миллий ривожланиш ва миллий хавфсизлик ўзаро бир-бирини тақозо қилувчи, бир-бири билан диалектик бирликдаги ҳодисалардир. Концептуал нұктай назардан қаралганда эса бу диалектик бирлик яқкалиқ, алоҳидалиқ ва умумийликнинг умумий диалектикасига асосланади, яъни миллий хавфсизлик мишлий ривожланиш, минтақавий ва глобал хавфсизликсиз мавжуд була олмайди. Улар уртасида узаро тафовут ва ўхшашлик билан бир каторда, ўзаро алоқадорлик ва ўзаро боғлиқлик муносабатлари ҳам мавжудлар.

Буни ҳисобга олмаслик “миллий хавфсизлик” тушунчасини факат эмпирик боскичда бўлишилигига, уни назарий ва метаназарий боскичи ва даражасини назардан кочиришга олиб келади.

Аслида эса миллий хавфсизлик муайян тизим (система) табиатига эга бўлиб, у кичик тизимларни ёки тизим ости тузилмаларни тақозо этади.

Масалан, хавфсизлик тизими шахс, жамият ва давлат миқёсида бўлса, уларнинг ҳар бири ўзининг конкрет хавфсизлик асосларига

<sup>1</sup> Patterns of Global terrorism. United States Department of State. Washington D.C. May 2002.

(тизим ости тузилмасига) ҳам эгадир. Бунинг боиси шундаки, хавфсизлик масаласи мавхум муаммо бўлмай, конкрет, реал муаммодир. Шу боис миллий хавфсизлик муаммосига минтақавий ва глобал хавфсизлик даражаларини хусусиятларини ҳисобга олиб ёндашиш – миллий хавфсизликни таъминлаш ишига конкретлик бағишлади, кичик ва катта системалар ўзаро алоқадорлигини таъминлайди. Буни конкрет мисолларда кузатиш ҳам мумкин. Масалан, Яқин Шарқда Истроил-Фластин можароси, Ироқдаги вазият ёки Ливия ёки Эрондаги ядро материаларидан фойдаланиш муаммосини ёки Жанубий Африка минтақасидаги демографик муаммоларни (Қўшни Афғонистондаги муаммоларни айтмасак ҳам булади) Ўзбекистон миллий хавфсизлигига қандай алокаси бор, деган савол туғилади. Юзаки караганда ҳечкандай алока йўқдек туюлади. Бирок масалага системали услуг оркали диалектик ёндашилса олдимиизда глобал хавфсизлик, тинчлик муаммоси гавдаланади. Юкорида таъкидлаганимиздек, ҳозирги глобализация жараённида ҳар қандай миллат ва давлат бошқа давлатлардаги воқеалардан мутлак чегараланиб яшай олмайди. Жаҳон информацион жараёнлари, иқтисодий, экологик, географий ва ҳ.к. муаммолар умумпланетар аҳамиятга ва таъсирга эгадир.

Миллий хавфсизликни таъминлаш мамлакатда нафакат сиёсий барқарорликни, балки иқтисодий барқарорликни ҳам таъминлайди. Сиёсий барқарорликка хавф эса ўз навбатида иқтисодий хавфни туғдиради, улар ўртасидаги мавжуд мувозанат, барқарор ривожланиши муносабатлари бузилади. Масалан, сиёсий хавф одатда иқтисодий соҳада ҳам хавфни туғдиради, ишлаб чиқаришга кескин салбий таъсир кўрсатади ва аксинча.

Иқтисодий соҳадаги инфляция истеъмол товарларига талабни, демак, нарх-навони ошишига олиб келади. Бу ўз навбатида жамиятда порозилик кайфиятларини, зиддиятларни вужудга келиши, оммавий тартибсизликларни, намойишларни юзага келтириш ва танглик ҳолатига олиб келиши мумкин.

Шунинг учун бир хавф иккинчи хавф учун асос ва манбага айланishi ҳам мумкин.

Миллий ривожланишга хавфлар бошқа давлатлар ва минтақалардаги ижтимоий-иқтисодий вазиятга ҳам боғлиқдир. Масалан, жаҳон валюта бозоридаги аҳвол, пул бирлигининг долларга ёки бошқа шартли бирликка нисбатини ўзгариши мамлакат молиявий аҳволига таъсир килиши мукаррардир. Миллий хавфсизлик ички истеъмол бозорини ҳам ҳимоя килишни, иқтисодий ва молиявий барка-

порликни таъминлашни ҳам такозо қилади. Шунинг учун “миллий хавфсизлик” тушунчаси сермазмун тушунча бўлиб, шахс, жамият ва давлат фаолиятининг деярли барча жабҳаларига алокадордир.

Оддий бир мисол: СПИД ёки бошка юқумли касалликларни олайлик. Миллий хавфсизлик нуқтаи-назаридан мамлакат аҳолисини саломатлигини сақлаш умуммиллий аҳамиятга эгадир. Заҳарланган, истеъмолга яроқсиз озиқ-овкат маҳсулотларини мамлакатга кириб келиши ҳам миллий ривожланишга хавф туғдиради, ҳеч бўлмаса уни секинлаштиради.

Миллий хавфсизлик тушунчаси шу боис умуммиллий ривожланиш ғояси билан боғлик бўлиб, унинг таркибини куйидагилар ташкил килади:

- Ўзбекистонни жаҳон ҳамжамиятидаги урни ва ролини аниклаш;

- Ўзбекистон Республикасининг миллий манфаатлари ва устувор қизиқишлиарини аниклаш;

- Миллий хавфсизликка нисбатан ички ва ташки хавфларни аниклаш ва баҳолаш;

- Давлат ва жамиятни миллий хавфсизликка таҳдидларни олдини олишга имкониятларини ва манбаларини баҳолаш ва аниклаш;

- Миллий хавфсизликни таъминлашнинг стратегик вазифалари ни аниклаш ва уларни ҳал этишининг механизмини ишлаб чиқиш;

- Миллий хавфсизликни таъминлаш тизимини такомиллаштириш ва унинг ҳуқуқий базасини шакллантириш.<sup>1</sup>

Миллий хавфсизликка минтақавий, глобал ва бошқа хавфсизликларни ҳисобга олмасдан туриб таъриф бериш мушкул. Бироқ энг умумий шаклда қуйидаги таърифни бериш мумкин: Миллий хавфсизлик – миллий ривожланишга бўлган ички ва ташки таҳдидларга нисбатан бўладиган турли тадбирлар, восита ва усувлар тизимиdir.

Миллий хавфсизлик ўз обьекти ва субъектига эга. Миллий хавфсизликнинг обьекти – шахс, жамият ва давлат хавфсизлигиdir. Миллий хавфсизликнинг субъекти эса – қонун чиқарувчи, ижро ва суд ҳокимияти, нодавлат ташкилотлари, уюшмалар, ҳаракатлар ва фуқаролардир.

Хавфсизликни “миллий” деб аташнинг ижтимоий-сиёсий маъноси ҳам мавжуд бўлиб, у титул миллат ёки этник гурух манфаатларини эмас, балки умумдавлат манфаатларини ифода этувчи фуқаролик ва колати билан боғлиқdir. Шунинг учун “миллий хавфсизлик” тушун-

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси миллий хавфсизлик концепцияси. Т.: 1997. 1-б.

часи мамлакатда яшовчи барча миллатлар, этник гурухларни ижтимоий мавкеи, дини, ёътиқоди ва ҳ.к.лардан каты назар ички ва ташки таҳдидлардан муҳофаза килишга қаратилган тадбирларни акс эттиради.

“Миллий хавфсизлик” тушунчаси инсон ва жамият фаолияти-нинг турли соҳаларини қамраб олади: иқтисодий, сиёсий, ҳарбий, информацион, экологик ва маданий-маърифий.

Миллий хавфсизлик тизимининг вазифаси эса нафақат шахс, жамият ва давлат ҳасти ва тақдирига ички ва ташки хавфларни барта-раф этиш, балки Узбекистон Республикасининг устувор манбаатлари мавжуд бўлган ҳодисаларни стратегик жиҳатдан таҳлил этиш ва назорат килиш, таҳдидларни олдини олишга қаратилган илмий ва оператив башоратларни ишлаб чиқишидир.

Узбекистонда миллий хавфсизликнинг мазкур вазифаларини бажарилишини назорат килувчи “Миллий хавфсизлик Кенгashi” фаолият кўрсатали.

Мустакилликгача бўлган даврларда хавфсизлик органларининг фаолиятига кулф осилган бўлиб, сир сакланар эди. Чунки хавфсизлик органлари ҳалқ манбаати йўлида эмас, балки давлат манбаатлари йўлида хизмат килар эди. Шунинг учун у “Давлат хавфсизлиги комитети” деб номланган эди.

ЧК (Фавқулодда комиссия), НҚВД ва бошқа даҳшатли ташкилотлар ва уларнинг ходимлари қанчадан қанча кишиларнинг ёстиғини қуригани ҳаммага маълум. Том маънода “Давлат хавфсизлиги комитети” – террористик давлат ташкилоти эди.

Миллий мустақиллик шарофати билан хавфсизлик хизмати ҳам ислоҳ килинди. Узбекистонда миллий хавфсизлик хизмати ва унинг ходимлари тарихда илк бор эзгу ният ва мақсадлар йўлида фаолият кўрсатмоқда, юрт тинчлиги, осойишталиги, яратувчанлик меҳнати ва барқарорликни ҳакиқий посбонларига айландилар. Узбекистон Президенти хузурида фаолият кўрсатаётган “Миллий хавфсизлик Кенгashi” айнан шу эзгу фаолиятни сиёсий жиҳатдан ташкиллаштиради ва назорат киласиди.

Мазкур Кенгашнинг фаолияти ҳам ошкор бўлиб, ҳалқимиз хавфсизлигини таъминлашнинг турли муаммоларини ҳал этишга қаратилгандир. Ушбу вазифалар куйидагилардир:

- Узбекистон Республикаси Миллий хавфсизлик концепциясини жорий этишга қаратилган ишларни ташкиллаштириш ва назорат килиш;

- Жамият барқарорлигига хавф түғдирувчи ички ва ташки таҳдидларни аниқлаш;

- Узбекистон Республикасида миллий хавфсизликни таъминлашга қаратилган ягона давлат сиёсатини давлат ҳокимияти органлари томонидан олиб борилишини назорат килиш;

- Ички ва ташки хавфларини олдини олишга қаратилган тадбирларни ва таклифларни ишлаб чикиш ва х.к.

Миллий хавфсизликни таъминлашда қатор давлат ташкилотлари ва хизматлари фаолият кўрсатади. Булар жумласига Қуролли кучлар, прокуратура, ИИВ, ФХБ, ДБК, ДСҚ, МХХ ва бошкалар киради.

Миллий хавфсизлик юрт тинчлиги, барқарор хаёт, чегаралар дахлсизлиги, миллатлараро тотувлик, диний бағрикенглик (толерантлик), фукаролараро ҳамжиҳатликка қаратилган булиб, коррупция ва жиноятчилик, маҳаллийчилик, шовинизм ва миллатчиликни, диний экстремизм ва мугаасибчиликни, фундаментализм ва вахҳобийликни миллий ривожланишизига асосий хавф деб баҳолайди. Мустакил ривожланиш ғояси мазмунан миллий хавфсизлик ғоясини ўз таркиби-га олади. Чунки мустакил миллий ривожланиш, мустакилликни мустаҳкамлаш ва миллий хавфсизликни таъминлашсиз мумкин бўлмайди. Миллий хавфсизликка таҳдид солувчи омилларни ўрганиш ва уларни бартараф этишни усуслари, йўллари ва воситаларини ишлаб чикиш миллий ривожланишни барқарор кечишига асос яратади.

## **8. Миллий хавфсизликка таҳдид солувчи омиллар ва уларни бартараф килиш имкониятлари**

ХХ-аср сиёсатининг патриархларидан бири – инглиз давлат арбоби, Буюк Британия премьер министри, маккор ва шу билан бирга самимий шахс – сэр Уинстон Черчилл давлатларапо муносабатлар табиати ҳакида тұхталиб, “давлатлар үргасида “дұстлик” ҳам, “душманлық” ҳам эмас, балки манфаатлар ёғади”, - деб таъқидлаган эди. Бу фикрнинг қанчалик долзарб ва ҳәёттій эканлигини ХХ аср сиёсий тараккиёти ва XXI аср бошларыда жаһонда юзага келген сиёсий вазият қайта-қайта исботламоқда. Ҳар қандай давлатнинг миллий хавфсизлигининг вектори унинг миллий манфаатларига қаратылғандир. Миллий ривожланиш миллий манфаатлар асосида, унга бүйсунган ҳолда кечади. Миллий хавфсизлик миллий манфаат ва әхтиёжларга бүйсунғанлығы табиийдир. Чунки ҳар қандай миллат үз мустақил равнаки, суверенитети, ҳудудий яхлитлиги, маданий ва маънавий дахлсизлигидан манфаатдордир. Шу боис миллий хавфсизлик масаласи ҳар бир давлатнинг дикқат марказида туради. Миллий хавфсизликка таҳдид солувчи омилларни аниклаш, үрганиш, баҳолаш ва уларни бартараф этип, нейтралланытиришга қаратылған тадбирларни амалга ошириш – ҳар бир давлатнинг вазифасидир.

Ўзбекистон давлатининг миллий хавфсизлигига таҳдид солувчи омиллар, уларнинг кўринишлари, хусусиятлари ва йўналишлари Президент И.Каримовнинг катор асарларида, ҳалқаро конференция ва учрашувларда сўзлаган нуткларида батафсил ёритилған. Буларнинг ичида “Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, баркарорлик шартлари ва тараккиёт кафолатлари”, “Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда”, “Минтакада хавфсизлик ва ҳамкорлик учун” (Тошкентда Марказий Осиёда хавфсизлик ва ҳамкорлик масалаларига багишланған кенгаш–семинарда сўзлаган нутқ. 1995 йил 15 сентябрь), “Глобализмга регионализм орқали”, “Европа Хавфсизлик ва Ҳамкорлик Ташкилотининг Истамбул саммитида сўзлаган нутқ”ида (1999 йил 18 ноябрь), “Шанхай Ҳамкорлик ташкилотига аъзо давлатлар раҳбарларининг саммитида сўзлаган нутқи” (2001 йил июнь) да. АҚШ да 2001 йил 11 сентябрида содир этилған террористик акт юзасидан килинган Баёнотда (“Ҳалқ сўзи”, 2001 й., 6 октябрь) ва бошка асарлари алоҳида урин тутади.

Бугун “хавф”, “таҳдид”, “хавфсизлик” тушунчалари кенг ишлатаётган тушунчаларга айланиб қолмоқда. Ҳозирги замон кишиси-

нинг ҳаёти унинг хавфсизлиги даражаси билан ўлчамоқда. Шахс хавфсизлиги жамият хавфсизлигига туташиб кетмоқда.

“Хавф” ва “хавфсизлик” категорияларини таснифлаш, тартибга солиш ва тўғри ишлатиш миллий хавфсизлик, ижтимоий барқарорликни таъминлаш учун бениҳоят мухим аҳамият касб этади. Халқаро терроризм, диний экстремизм ва фундаментализм, сепаратизм ва агрессив миллатчилик – XXI асрни дастлабки йиллариданоқ умуминсоний хавф эканлигини кўрсатмоқда. Халқаро терроризмнинг умуминсоний хавфга айланганлигини БМТ Хавфсизлик Кенгашининг 1373-сонли резолюцияси асосида маҳсус антитеррор комиссиясини ташкил этилганлигига ҳам кузатиш мумкин. Шанхай Ҳамкорлик Кенгаши ҳам асосан халқаро терроризм, диний экстремизм ва сепаратизмга қарши халқаро ҳамкорликни таъминлашга каратилгандир. БМТ Низомининг 51-моддасига биноан террористик ҳаракатлар уруш ҳаракатларига тенглантирилди. “Бу – Россия Бош Прокурори Владимир Устинов таъкидлашича – инсоният тарихида биринчи бор содир бўлди”.<sup>1</sup>

Халқаро терроризм миллий хавфсизликка ҳам таҳдид соладиган ҳодиса эканлиги барчага аён бўлиб колди. Шу боис айрим давлатлар аллакачон миллний хавфсизликни таъминлашни давлат сиёсатининг устувор йўналишларидан бирига айлантирган. Масалан, АҚШда “Миллний хавфсизлик стратегияси” миллний хавфсизликка ички ва ташкил таҳдидларнинг характеристики ва кўламига караб ўзгартирилиб туради. Масалан, 2001 йил 11 сентябрь воқеаларидан сўнг АҚШ Марказий Осиёда халқаро террористларнинг маконларидан бири – Афғонистон “Талибон” ҳаракатига қарши курашиш учун ўзига стратегик ҳамкор қидирди. Ўзбекистон Афғонистон “Талибон” жангари кучларига қарши курашда АҚШ билан стратегик ҳамкорлик ҳақидаги шартномани имзолади.

XXI асрда жаҳонда тинчлик ва барқарорликни таъминлашда НАТО ҳарбий ташкилотининг обруйи каттадир. НАТО нинг максади – евроатлантика хавфсизлигини таъминлаш билан бир қаторда глобал ва минтакавий тинчлик ва барқарорликни таъминлашга ҳисса қўшишдир. Ўзбекистон Республикаси НАТОнинг “Тинчлик йўлида ҳамкорлик” дастурида иштирок этмоқда.

Ўзбекистон Республикаси ҳам ўзининг Миллний хавфсизлик концепцияси асосида миллний хавфсизликка таҳдид солувчи асосий омилларни ўрганиш, баҳолаш ва бартараф этиш йўлида ҳамкорлик

<sup>1</sup> Устинов В.В. Обвиняется терроризм. М.: ОЛМА-ПРЕСС, 2002. С. 6.

бирларни ишлаб чиккан бўлиб, улар Узбекистоннинг миллий ривожланишининг асосий манфаатларига бўйсундирилгандир.

Хавфсизликка бағишенган адабиётда “миллий манфаат” лар хусусида гапирилса-да унинг мазмuni ва шакллари ёритилмайди. Миллий хавфсизлик миллий манфаатларга бўйсундирилганилиги учун уни мазмuni ва шакларини аниклаш – масалага конкретлик бағишлийди.

Ўзбекистон Республикаси “Миллий хавфсизлик концепцияси”га биноан миллий манфаатлар уч асосий даражада – шахс, жамият ва давлат даражасида намоён бўлади.

Шахспинг ҳаётий манфаатлари қўйидагилар:

- инсон ҳукук ва эркинликларининг таъминланиши;
- шахсни ўз аклий ва жисмоний салоҳиятидан фойдаланиш имкониятларининг мавжудлиги.

Жамиятнинг зарурий ҳаётий манфаатлари:

- фукарориий диний ва миллий ҳамжиҳатликнинг таъминланиши;
- миллий анъаналарга мос келувчи демократик институтларни ва фукаролик жамиятининг асосларини шакллантириш;
- сиёсий-ҳукукий маданиятни шакллантириш;
- аҳолининг ижтимоий ва сиёсий фаоллигини ошириш;
- миллий ўзликни англашни ўстириш орқали миллатни маънавий ривожланишини таъминлаш;
- жамиятни давлат фаолияти устидан самарали назоратини ташкилластириш.

Ўзбекистон давлатининг зарурий ҳаётий манфаатлари:

- Ўзбекистон Республикасини суверенитетлиги ва худудий яхлитлигини ҳимоя килиш;
- Конституциявий тузум ва ҳукук-тартиботни ҳимоя қилиш;
- Давлатни муҳофаза кудратини таъминлаш;
- Ижтимоий, миллатлараро ва фукаролараро ҳамжиҳатлик ва тоувликни таъминлаш;
- Ижтимоий-сиёсий ва иқтисодий барқарорликни таъминлаш;
- Самарали ички ва ташқи сиёсатни олиб бориш;
- Халкаро алоқалар ва ҳамкорликни мустаҳкамлаш;
- Хавфсизликни мустаҳкам тизимини яратиш;
- Ўзбекистонни глобал ва миintaқавий хавфсизлик тизимига йигушишувини таъминлаш ва х.к.

Миллий хавфсизликка хавф солувчи таҳдидлар эса асосан қуйидагилардир:

- “Минтақавий мажаролар;
- Диний экстремизм ва фундаментализм;
- Буюк давлатчилик шовинизм ва агрессив миллатчилик;
- Этник ва миллатлараро зиддиятлар;
- Коррупция ва жиноягчилек;
- Маҳаллийчилек ва уруғ аймокчилек муносабатлари;
- Экологик муаммолар”<sup>1</sup>.

Юкорида санаб ўтилган таҳдидларни миллий хавфсизликка хавф солувчи асосий омиллар, деб баҳоласа ҳам бўлади. Масалан, Марказий Осиёда “ислом омили” нинг ўсиб бориши – реал факт ҳисобланади. Шунинг билан бирга турли диний экстремистик кучларнинг ислом дини никоби остида бузғончилек, кўпорувчилек фаолияти дарҳакиқат минтакада хавфсизликка таҳдид солувчи омил, деб баҳоланиши ҳам мумкин.

Ўзбекистонда миллий хавфсизликка таҳдид қилувчи омилларни бартараф этишнинг ишончи асослари яратилган. Уларнинг ичидаги асосийси – қонунчилигимиздир. Ўзбекистон Республикаси қонунчилигига ва айниқса Бош Конун – Конституцияда юкорида санаб ўтилган барча таҳдидларни бартараф этишнинг хукукий асослари яратилгандир.

Масалан, Ўзбекистонда бошка мустакил давлатлардан фаркли уларок миллий ва этник низоларга хеч кандай ўрин йўқдир. Чунки Ўзбекистон Конституциясининг 8-моддасига биноан “Ўзбекистон ҳалкини миллатидан катъи назар. Ўзбекистон Республикасининг фуқаролари ташкил этади”. Мазкур коида Конституциянинг 18-моддасида янада конкретлаштирилгандир: “Ўзбекистон Республикасида барча фуқаролар бир хил хукуқ ва эркинликларга эга бўлиб, жинси, ирки, миллати, тили, дини, ижтимоий келиб чикиши, эътиқоди, шахси ва ижтимоий мавқеидан катъи назар, конун олдида тенгдирлар...”.

Ушбу модда мамлакатимизда ҳеч кандай миллий камситишга, миллий тенгсизликка йўл қўймайди, миллатлараро ҳамжиҳатлик ва тотувликни хукукий жиҳатдан таъминлайди. Бирок мустакиллигимизнинг дастлабки йилларида мамлакатимиз мустакиллигини кўра олмаган, фаразли мақсадларда юрган, яна “оғалик” қилишни қумсовчи кучлар Марказий Осиё худудида турлича сценарийлар бўйича “сиё-

<sup>1</sup> Ушбу таҳдидларнинг мазмунни ва мөхияти ҳакида кўйилаги асарда батафсил чальумот мавжуд: Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсагасида: хавфсизликка таҳдид. баркарорлик шартлари ва тараккиёт кафолатлари. –Т.: Ўзбекистон, 1997. 19-134 бетлар.

сий “үйин”ларни ташкил этишга ва бу “үйинда” энг кучли карта – миллый түйғу ва диний эътиқод карталарини ишга солмокчи бўлдилар.

Ўш, Фарғона, Паркент, Бўка воеалари ана шу “ўйинчилар” нинг сценарийси асосида бўлгани кейинчалик маълум бўлди.

Факат сиёсий етакчимизнинг узокни кўра билиши, вазминлиги ва қатъий карорларни вазиятни ҳисобга олиб кабул қила олиш қобилияти Марказий Осиёни Тоғли Қорабоғ ва Югославия хунрезгиларига ўхшаб кетишлнгига йўл қўймади. Буни соф вижданли, ҳолис ташки кузатувчилар ҳам эътироф этишга мажбур бўлдилар.<sup>1</sup>

Ўзимиздан чикқан ғаламислар – каллакесар жангарилар Тохир Йулдош ва Жума Намангоний эса диний экстремизм ва фундаментализмнинг тегирмонига сув қўйиб, ўзларининг чет эллик ҳомийларининг “садақаси” эвазига “ислом” картасини “ўйин”га туширмоқчи бўлдилар. Бирок “ўйин” чиқмади. Аламзада бўлган бу шахслар калтакесак каби Фарғона водийсидан Тожикистон – Афғонистон ҳудудига ура қочдилар ва у ерда ўзларига ўхшаган жангари – каллакесарлар тұдаси – “Толибон” лагерларида паноҳ топдилар. Ҳозир бу жангариларнинг колдиклари ўз ниятларидан қайтганича йўқ.

Ўзбекистонда диний экстремизм ва ислом фундаментализмини ёйилиши ва мустаҳкамланиши учун ҳеч кандай асос йўқдир. Тарихан ханафия мазхабига мансуб Имом-Аъзам маслакдошлари сунний бўлиб, Хизб-ут-Таҳрир ва Муҳаммад Ваҳҳоб таълимотларига эътиқод килмайдилар. Ўзини “ваҳҳобий”, деб эълон килган айрим кимсалар эса мачитларда ҳакиқий ислом эътиқодига риоя қилувчи мусулмонларнинг умумий нафратига дучор бўлмоқдалар. Ўзбекистонда диний эътиқодга эркинлигига кенг ҳукуклар берилиши, диний китобларни, хусусан Куръонни ўзбек тилига таржима қилиниши, олийгоҳларда “Диншунослик” курсини ўқитилаётганлиги ўз ижобий натижасини бермоқда – муқаддам дин ҳақида дунёвий тасаввурга эга бўлмаган фукароларимиз диннинг асл моҳиятидан хабардор бўлмоқдалар. Дин давлатимиз эътиборида туради.

Миллий хавфсизлигимизга таҳдид солувчи минтақавий можаролар ҳам аста-секин ҳал этилмоқда. Наркобизнес ва наркографик йўллари мамлакатимиз чегара кўшинлари, божхона хизмати ходимлари томонидан қаттиқ назорат остига олинган, қўшни мустакил давлатлар билан ҳудудий даъвога оид масалалар БМТ нинг резолюция-

<sup>1</sup> Эльвира Мамитова. Исламский фундаментализм и экстремизм в странах Центральной Азии. - Центральная Азия и Кавказ. Стокгольм. 2000. №5(11). С. 57-63.

лари ва Низомига биноаи кун тартибига қўйилмайди. Марказий Осиё минтақасига таҳдид солиб турган қўшни Афғонистондаги ҳарбий-сиёсий вазият юмшади, Афғонистонда коалицион ҳукумат барча этник гуруҳларни бошини ковуштиришга, мамлакатни барқарор ривожланиш йўлига олиб киришга харакат қылмоқда. Қўшни Тожикистанда ҳам мухолифат кучлари ҳукумат билан бирлашиб тожик ҳалқини демократик давлатни шаклантириш сари етакламоқда.

Бирок миллый хавфсизликка, миллый ривожланишимизга таҳдид солувчи икки омил бошқа таҳдид солувчи омилларга нисбатан мураккаб ва мустаҳкамдир.

Бу – коррупция ва жиноятчилик, маҳаллийчилик ва уруғ-аймокчилик муносабатларидир. Миллый равнақ ва ривожланиш учун энг хавфли таҳдид – коррупциядир. Коррупция дегани – бу мансабдор шахс томонидан ўзининг ваколатларини суистеъмол қилиши демакдир.

Коррупция давлат ва жамият учун ижтимоий коррозия, яъни “занг” дир. Давлатни агар механизм деб олсан, у агар зангласа, коррозияга дучор бўлса, бу механизм узоқ ишламайди, емирилади.

Коррупциянинг турли сабаблари мавжуд. Коррупциянинг сиёсий сабаби – давлат, ҳокимиёт ходимлари, турли даражадаги мансабдор шахслар томонидан хизмат бурчларига хиёнат килишлари, суистеъмолчиликка йўл қўйишлари ва “ёзилмаган қонун”ларни (танишибилишчилик, маҳаллийчилик, кариндош-уруғчилик ва х.к.) расмий қонунлардан устун қўйишларидир.

Коррупциянинг иктисадий сабаблари – давлат, ҳокимиёт ходимининг реал даромадларини ўртacha турмуш кечириш даражасидан пастлиги, унинг меҳнатига кам ҳак туланишидир.

Коррупциянинг маданий-маънавий сабаблари – давлат, жамият ходимининг сиёсий, ҳуқукий ва ахлоқий онги ва маданиятининг эгаллаб турган лавозимиға ва унга ишониб топширилган ваколатлар талбларига мос келмаслигидир.

Коррупциянинг ижтимоий-тарихий сабаблари ҳам мавжуд. Улар собик марказлашган маъмурий-буйрукбозлик сиёсий тизимида сиёсат ва ишлаб чиқариш, бошқариш ва таксимлаш соҳаларида мустакил қарорлар кабул қилишинг чекланганлиги оқибатида давлат ходимида шаклланган ўзига хос руҳиятини ва дунёкарашини ворисийтигидандир.

Коррупция ва пораҳурлик ёлғон демократия ва бир сиёсий тизимдан иккинчи сиёсий тизимга ўтиш даврларида, ҳар бир ишда ва

соҳада давлат монополиясини ўрнатилишида, ўта марказлаштирилган бошқарув тизимида ва авторитар сиёсий тартиб ҳукмрон бўлган жамиятларда “гуллаб-яшнайди”, илдиз отади ва ривожланади. Миллий хавфсизликка ва миллий ривожланишга коррупция ва порахўрлик мисли кўрилмаган даражада зиён етказади. Коррупция ва порахўрлик мамлакатга бўладиган ташки таҳдиддан ҳам хавфли ва зааралидир. Коррупция боткоғига ботган мамлакатда тараккиёт сескинлашади, жамият таназзулга юз тутади, фуқароларда давлат ҳокимиятига ва унинг ижроия тизимиға ишончи йўқолади. Натижада деструктив, яъни бузгунчи кучларнинг фаоллашувига шароит яратилади. Шу боис Ўзбекистон Президенти И.Каримов коррупцияни жиноятчилик билан бир қаторга қўяди ва уни миллий хавфсизлик ва барқарорликка таҳдидлардан бири, деб баҳолади.

Миллий хавфсизликка ва миллий ривожланишга хавф туғдирувчи иккинчи заарали таҳдид-маҳаллийчилик ва уруғ-аймокчиликдир. Маҳаллийчилик ва уруғ-аймокчилик тарихан уруғ-кабилачилик ибтидоий тузумидан мерос булиб, у анъанавий жамиятларда кузатилади. Замонавий, яъни модернизациялашган жамиятларда уруғ-аймокчилик ва маҳаллийчилик муносабатлари эмас, балки индивидуал рационал-прагматистик муносабатлар юзага келади. Уруғ-аймоқчилик ва маҳаллийчилик жамиятни ижтимоий ривожланишининг куйи босқичларининг кўринишидир. Капиталистик ёки ҳозирги замон бозор муносабатлари шаклланган мамлакатларда уруғ-аймокчилик ва маҳаллийчилик ўrniga рационализм, тежамкорлик ва имкониятлардан максимал фойдалана билишлик руҳияти устувор аҳамият касб этади. Уруғ-аймокчилик ва маҳаллийчилик жамиятга бенихоят зарап етказувчи, давлат ҳокимиятини заифлаштирувчи касалликдир. Ўзбекистон Республикаси Президенти И.Каримов Тошкент, Сурхандарё, Хоразм, Самарканд, Сирдарё ва бошқа вилоятлар ҳалқ депутатлари Кенгашининг навбатдан ташқари сессияларида вилоят ҳокимларини эгаллаб турган лавозимларидан муддатидан илгари четлаштирас экан, уларга умумий бўлган ягона сиёсий баҳони беради – маҳаллийчилик ва уруғ-аймокчилик касали. Уруғ-аймоқчилик ва маҳаллийчилик демократияга, яъни ҳалқ ҳокимиятчилигига зиддир. Уруғ-аймоқчилик ва маҳаллийчилик агрессив миллатчилик каби коррупция ва порахўрликка ўйл очади. Шунинг учун коррупция, порахўрлик, уруғ-аймокчилик ва маҳаллийчилик бир туркумдаги салбий ҳодисалардир, улар ҳуқуқий давлат талабларига зиддир.

Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, унинг асосида Олий Мажлис томонидан қабул килинган Мехнат кодекси, Жиноят кодекси, Маъмурий кодекс. фуқаролик кодекси ва ҳ.к. ҳукукий асослар уруғ-аймокчилик, маҳаллийчилик, миллатчилик, коррупция ва ҳ.к. салбий ҳодисаларни Ўзбекистонда шаклланаётган ҳукукий, демократик давлат ва фуқаролик жамияти табиатига батамом зид эканлигини асослайди.

Ўзбекистон Республикасининг Миллий хавфсизлик концепцияси талаблари ҳам маҳаллийчилик, уруғ-аймокчилик, миллатчилик ва ҳоказо салбий ҳодисаларни мустақил ривожланиш сиёсатига батамом зид, тескари эканлигини кўрсатади. Шу боис Ўзбекистон Республикасининг конунчилиги маҳаллийчилик, уруғ-аймокчилик, миллатчилик ва ҳ.к. салбий ҳодисаларга карши қурашиб учун ҳукукий имконият ва шароит яратади.

## **9. Миллий хавфсизликни таъминлашда ёшларга миллий ва фукаровий бурчларнинг англатишнинг маънавий-маърифий аҳамияти. Унда миллий ривожланиш ғоясининг роли**

Миллий хавфсизликни таъминланиши жамиятнинг барча аъзолари учун бирдай хаётий аҳамиятга эга. Бирок мамлакат хавфсизлиги, Ватан равнаки ва келажаги ҳақида қайғуриш ҳисси жамиятнинг барча аъзоларида бирдай шаклланмайди. Ватан, туғилган эл-юртга, уни тақдирига қизиқиш, бефарқ ва лоқайд бўлмаслик учун кишидан муайян билим, ўтиқод ва дунёкараш талаб килинади.

Миллий мустақилликка эришилгандан сўнг мамлакатимиз ижтимоий хаётида содир бўлган ҳалокатли, мураккаб воқеалар шуни курсатдики, миллий хавфсизлик, миллий ривожланишнинг мустақил йўлини жамиятнинг барча табақалари бирдай англай олмайдилар. Айниқса ҳаёт тажрибаси кам, ўтмиш мустабид шўро тузумининг асл моҳиятини ҳали англаб улгурмаган ёш-яланглар турли экстремистик-бузгунчи ғоялар учун осонгина “ўлжа” бўлишлари мумкинлиги равшан бўлди. 1997 йил 16 феврал воқеаларидан кейин ўтказилган аниқлап ва тозалаш тадбирлари натижасида аксарият ёшлар кўпроқ жиноий жазога тортилдилар.

Президент И.Каримовнинг “ёшлар – менинг болаларим, мен уларни бирорга бериб қўймайман”, деган самимий оталарча мулоҳазаларидан сўнг, жамиятимиз нотуғри йўлга англамай, адашиб кириб колган ёшларни кўпчилигини кечирди, уларга эзгу ҳаётга қайтишлари учун имкониятлар яратилди.

Бирок бу – ёшларни эзгу мақсадлар йўналишида тарбиялаш муаммолари ҳал бўлди, дегани эмас. Ёшлар, демак мамлакатимиз келажаги учун кураш ҳали олдинда. Бугунги айрим маълумотларга кўра, бузгунчилик учун қакшатқич зарбага учраган экстремистик, жиноятчи унсурлар – Тохир Йулдош ва унинг гумашталари чет элларда вояга стмаган ватандошларимизни ғоявий жиҳатдан маҳсус даргоҳларда ашадий террорчи, каллакесар, “шахид” килиб тайёрлаш ишларини амалга оширмоқдалар. Бу ишда турли хорижий мутахассислардан кўпорувчилик услубияти, маҳфий иш юритиш ва ўзаро алока қилишнинг замонавий билимларидан, техника ва бошқа информация воситаларидан фойдаланиш сирларини ўргатмоқдалар.

Кейинги пайтларда турли манбаларда ва матбуотда “ғоявий иммунитет”, яъни “ғоявий кўнукма”, деган ибора тез-тез ишлатиладиган бўлиб қолди. Таъкидлаш жоизки, мазкур тушунча аслида янги эмас-

дир. Фоявий иммунитет, фоявий кураш, мафкуравий диверсия, мафкуравий экспансия ва бошқа тушунчалар сабик икки кутбли жаҳон ижтимоий-сиёсий рақобати, “совук уруш” даврларида ошкор бўлмаса-да ишлатилиар ва бу тушунчаларнинг амалий самараси йўлида катта маблағлар, восита ва инсон ресурслари аямай сарфланар эди.

Дунёдаги вазият XX аср охириларига келиб ўзгарган бўлса-да, мазкур тушунчалардан фойдаланиш эскирмади, аксинча янгича ахамият ва маъно касб эта бошлади. Бугун фоявий ва мафкуравий кураш янги босқичга кўтарилди ва янгича маъно касб этмоқда. Шу маънода Ўзбекистон Президенти И.Каримовнинг “бугун мафкура полигонлари ядро полигонларидан ҳам кучлироқдир”, деган фикрларида чукур маъно бордир.

Мафкура полигонлари ҳозир чест элларда, айниқса Афғонистон, Покистон, Эрон, Саудия Арабистони, Ливия ва бошқа мамлакатларда жойлашган бўлиб, халқаро терроризмнинг таянч пунктиларига, мафкуравий манбаларига айланган. У ердан бузгунчи мазмундаги турли китоблар, лавҳалар, буклетлар ва варақалар жаҳоннинг турли мамлакатларига экспорт қилинади ва диний экстремизмга хайриҳоҳ кучлардан ўзларига маслакдошлар яратиш ва келажакда исломий давлат куриши максадида мафкуравий тадбирлар бошқарилади.

Қўпорувчилик, бузгунчилик мазмунидаги турли адабиётлар Марказий Осиёнинг барча ёш мустакил давлатларида, Россиянинг Чеченистон, Доғистон, Татаристон, Бошқирдистон ва бошқа минтақаларида кўплаб топилмоқда.

Мафкуравий экспансияда ҳозирги жаҳон информацион тўри – Интернетдан кент фойдаланилмоқда. Ашадий халқаро террорчи, жиноий ишлари ва мақсадлари учун халқаро кидирувда бўлган Усама Бен Ладенning Интернетда ҳозир 8 та сайти мавжуд. Бу сайтларда ёшлар, гўл фуқароларни лакиллатиши, тўғри йўлдан уруш, саробий мақсадлар йўлига кириш учун фоявий тадбирлар эълон килинмоқда. Шунинг учун миллий хавфсизликнинг таркибий кисмларидан бири бўлмиш информацион хавфсизлик мустакил ривожланишнинг асосий талабларидан биридир.

Хўш, миллий ривожланишимизга ва миллий хавфсизлигимизга таҳдид соловчи фоявий таъсирларга қандай қаршилик қилиш, қандай воситалардан фойдаланиш ва уларга нимани карши қўйиш мумкин, деган савол туғилади.

Миллий хавфсизлик, ижтимоий баркарорлик учун ишончли калқон-хаёт тажрибасига эга, оқ-корани таниган, бошидан шўро сиё-

сий тартибини мусибатларини, таҳқирлашларини, бошидан кечирган жамиятнинг кекса авлодидир. Айнан ёши улуғ фукаролар, мустақилликгача бўлган ҳаётни кўрган, бугунги ҳаётни ўтмиш ижтимоий ҳаётда фарқили билгаи кекса авлодгина ёш авлодни гоявий бузилишдан, мустақил ривожланишга лоқайдлик, бефарқликдан кутқара олади, огоҳликка ундаиди. Чунки, ҳар бир ёш оиласда яшайди. Ҳозир ко-нунчилигимизда ёшлар учун ота-онанинг масъулияти масаласи ҳам ўз ўрнини топган. Авлодлар ворислиги миллий бурч ва миллий маданиятни таъминлашда энг ишончли омилдир. Ёш ниҳол боғбоннинг маънавияти, билими ва дунёкараши таъсирида шаклланганлиги каби ёш авлод ҳам ота-онанинг ва қолаверса мактаб, маҳалла ва жамиятнинг таъсирида шаклланади.

Шунинг учун ёшларга миллий ривожланиш учун бурчи нимада эканлигини тушунтириш, унинг орзу-умидларининг ушалиши мамлакатда бўлаётган ўзгаришларга алокадорлигини англатиб бориш ўз са-марасини бериши мукаррардир. Ижтимоий бурчни ангаш – энг яхши ва ишончли гоявий иммунитет, кўникмадир. Бунинг маънавий-маърифий аҳамияти шундаки, ёшлар ўзини ижтимоий воқеаларга (қонунлар кабул килинишига, конунлар лойиҳасини муҳокамаси, сайловлар, референдумлар, сессиялар ва х.к.) алокадорлигини, бу воқеаларни келажакда уни ҳаётига бевосита таъсир кўрсатишини англаши уларни сиёсий фаоллигини, демак ижтимоий ҳаётда сиёсий иштирокини ўстиради. “Давлат” нима, “жамият” нима, “бюджет” нима. “солик” нима, “молия” нима, “сиёсий партия ва унинг мақсади” нима, “демократия” нима, “хукумат” нима, “фукаро” нима каби ижтимоий-сиёсий тушунчаларни факат мактаб, лицей, коллеж ва олийгоҳ ўкувчиси эмас, балки ҳар бир ёш билишлиги оила даврасида нормага айлананишига эришиш – миллий ривожланиш, демак миллий хавфсизлик учун ишончли аксилгоявий қалқон ва кўникма бўлади.

Матбуотда “Ватан”, “миллий гоя”, “миллий мустақиллик”, “миллий мафкура” ва х.к. юқори абстракцияли тушунчалар кенг ишлатилади. Уларга кўпичча бадиий тус ва киёфа берилиб, истеъмолчи-га таклиф килинади. Бу усусли самарасиз эканлигини феврал воқеалари яна бир бор исботлади. Кам ҳажмда, бирок тушунарли ва ишончли қилиб “хужра”ларда олинган “сабок”лар мактаб синфларида ва олийгоҳ аудиторияларида юқори илмий даражадаги мутахассислар томонидан берилган “илм” лардан таъсиранрок эканлигини ҳаёт ачинарли бўлса-да исботлади.

Ёшлар томонидан ижтимоий бурч ва масъулиятни англаш юкоридан эмас, балки куйидан бошланиши маъкул. Чунки ҳали ғўр, абстракт билимлар мағзини англай олмайдиган ёшларга “миллий мафкура”, “миллий ғоя”, “Ватан равнақи” ва ҳ.к. юқори даражадаги сиёсий тушунчаларни бериш 6-7 ойлик гўдакка ош беришга тенгдир. У ҳазм қила олмайди.

Шунинг учун ёшларни қадам-ба-қадам, секин-аста, мунтазам катта ҳаётга тайёрлаб борилса, уларга ёшига муносиб бўлган билимларни бериб борилса, улар шундагина ижтимоий ва фуқаровий бурчи тушуниш даражасига кўтарилади. Шунинг учун ўсмирга факат муайян балоғат ёшига етгандагина фуқаролик паспорти берилади ва унга фуқаролик мажбурияти ва масъулияти юкланди. Конунчиликда мазкур холатлар хисобга олингандир.

Миллий ривожланиш ғоясини ёшлар англаши учун яна бир ижтимоий категория мухимдир. Бу – фуқаролик стуклиги категориясидир. Бизнинг жамиятшунослигимизда мазкур категория ва унинг амалий салоҳияти ҳали яхши ўрганилмагандир. Ваҳоланки, ҳам ахлоқий, ҳам сиёсий ва ҳам ҳуқукий тарбия учун мазкур категориянинг роли ва аҳамияти салмоклиди.

Фуқаролик етуклиги категориясининг моҳияти шундаки, фуқаровий етук бўлган шахс ижтимоий бурч ва ижтимоий масъулиятни яхши билади, ўз фаолиятини шу категориялар асосида ташкил қиласди. Фуқаровий етук инсон конунлардан ҳам, улар томонидан ҳар бир фуқарога куйилган талаблардан ҳам хабардор бўлади. Бу – ижобий қўрсаткичдир. Бундай одам ҳар хил бўлмагир ёки ясама ғоя ва фикрларга кўшила олмайди, уларга эргашмайди, унда муайян ҳаётий принцип ва позиция шаклланган бўлади. Бундай инсон табиийки ўзи яшаётган Ватанга, мамлакатга, ҳалқига, демак миллатига хисбат ва хоинлик қилмайди. Ижтимоий бурч ва ижтимоий масъулият ҳақида тасаввур ва тушунчага эга бўлмаган киши одатда иродасиз, муноғик бўлади – арзимаган нарсага сотилади, ён босади, қилаётган қилмишини ижтимоий зарарини хаёлига ҳам келтирмайди, жиноятга қадам қўяди.

Инсон она корнидан тўғри ёки ўғри, яхши ёки ёмон бўлиб туғилмаслиги - фактдир. Муаммо – нима учун айрим ёшлар нотўғри йўлга кириб қолади, сабаби нимада эканлигини ўрганишдир. Миллий ривожланиш ғоясининг таркибий муаммоларидан бири ҳам ана шунда – фаровон келажагимизни таъминлаш, инсон учун муносиб бўлган ижтимоий шароитни яратишдир. Мехнаткаш ва заҳматкаш ҳалқимиз

асрлар давомида мустабид, муте шароитда яшади, косаси оқармади, таҳкирланди, хўрланди. Боболари яратган жасорат, қатъийлик, мағрурлик, “ӯзбек”лик, миллый шаън, ор-номус каби ҳиссиятлари тумтоқлашди, онги хиралашди. Бошини кўтариб тик караш, адолатсизликка муросасиз бўлиш ўрнига унда биологик қўркув, жазоланишдан. таъкибдан вахима килиш хиссиёти устун келадиган бўлди. Ниҳоят тарих тақозоси билан мустакил бўлдик. Нафакат ўша унтутилмас 1991 йил августида, балки бугун ҳам ҳали айримлар мустақиллик нима эканлигини, уни қадри, ахамияти нимада эканлигини тушунмайдилар

Шунинг учун ёш авлод – орзу-умидимидир. Уларда Президент И.Каримов таъкидлаганидек акл ҳам, жасорат ҳам, қатъийлик ҳам ва уларнинг маҳсули баҳт-саодат ҳам албатта қарор топажак. Бунга бугун барчанинг ишончи комил. Бирок бунинг учун муайян дастур зарур. Бу дастур – Ўзбекистон Республикаси Конституцияси ва унинг мантикий инъикоси – миллый ривожланиш ғоясидир.

## **10. Жаҳон ҳамжамиятига уйғунлашиш ва глобализация жамиятни модернизациялаштириш шарти**

Үтган XX аср ижтимоий-тарихий салмоги, воқеаларнинг нуфузи ва инсоният цивилизацияси учун аҳамияти жихатидан бир неча минг йилликларга тенг аср бўлди. Инсоният нафакат микро оламни, балки коинотни забт этди, ҳатто инсон ирсияти қонунларини ҳам кашф этди.

XX асрнинг ютуғи – ҳам тафаккурда ва ҳам техникада афсонаий тезлик ва тезланишларни бошкара олиш, сунъий материалларнинг яратилишидир.

Компьютер техникаси, робот техникаси, автоматик бошқариш тизими, глобал информацион тур – Интернет ва х.к. ходисалар дарҳақиқат XX аср мўъжизаларирид.

XX асрда нафакат мамлакатлар, ҳатто қитъалар ўртасидаги ма-софа кисқарди, бир неча дакика ичida жаҳоннинг хоҳлагани пункта-сидан маълумот олиш ёки маълумот алмасиш мумкин бўлди.

Жаҳонда иқтисодий, сиёсий ва маданий алоқалар ҳам якинлаша бошлади, умумжаҳон якинлашуви, уйғунлашуви ва упинг натижасида глобализация, яъни бутун Ер шари миқёсида ўзаро ҳамкорлик муно-сабатлари ривожлана бошлади.

Бирок турли мамлакатларда иқтисодий ўсиш темплари турлича эди. Агар Farb мамлакатларида постиндустриал жамиятта ўтиш XX асрнинг 70-йилларига тўғри келса, “учинчи дунё” мамлакатлари ин-дустриализация бўйича анча орқада эди. Табиийки иқтисодий ривож-ланган мамлакатлар қолок мамлакатлар учун намуна була бошлади-пар. 70-йилларда “етиб олиш” шиори қолоқ мамлакатлар учун харак-терли эди.

Шуниси дикқатга сазоворки, иқтисодий ўсиш фақат миқдор нуқтаи-назаридан эмас, балки бошка мезонлар асосида ҳам бўлиш-лиги зарурлиги қатор иқтисодчи, социолог ва политологлар томонидан англана бошланади. Улар орасида “етарли” ёки “мувозонатли” (sustainable) тараккиёт ҳакида мулоҳазалар кенг таркала бошлади.<sup>1</sup>

БМТ нинг тараккиёт ва атрофмуҳитни муҳофаза килиш бўйича Бутунжаҳон комиссияси томонидан 1987 йилда тайёрланган “Бизнинг умумий келажагимиз” номли докладда тараккиётнинг мезони бошка худудлар ресурсларини эгаллаш ва соғ микдорий курсаткичларга

<sup>1</sup> Бу ҳақда баттафсил маълумотлар куйидаги асарда мавжуд: Pearce D., Barbier E., Markandya A. Sustainable Development. Economics and Environment in the Third World. L.: 1990. p. 1-3.

эришиш орқали эмас, балки мамлакатнинг ички имкониятлари хисобига бўлишлиги мумкинлиги асосланади. Бирок, Фарб жамиятини ўзининг ички имкониятлари асосида ривожлана олиши унинг бутунжашон тараққиёти учун андоза бўлишлигини англатмайди.

Иктиносидий ва сиёсий тараққиётнинг ғарбона либерал андоза бутун планета. Ер шари миқёсида ишлаши мумкин, деган хулоса 80-90 йилларда кенг тарқала бошлади ва “глобализация” термини деярли барча ижтимоий назарияларнинг асосини ташкил эта бошлади. Таникли Фарб олимни М. Уотерс “Агар 80-йилларнинг асосий тушунчаси “постмодернизм” тушунчаси бўлган бўлса, 90-йилларнинг асосий тушунчаси “глобализация” бўлиб, бу тушунча орқали инсониятни учминг йилликка ўта бошлаганини тушунамиз”,<sup>1</sup> деб таъкидлайди.

Жаҳон тараққиётига нисбатан глобализация тушунчаси моҳиятан турли мамлакатларни иктиносидий, маданий ва сиёсий жиҳатдан якинлашуви, уйғунлашувины англатмайди. Бундай тенденция дарҳақиқат мавжуд. Бирок у глобализациянинг асп моҳиҷитини аңглатмайди.

Глобализация, дегани анъянавий жамиятларни постиндустриал замонавий жамиятга, яъни модернити босқичига ўтиш демакдир. Модернити ёки постиндустриал жамиятга ўтиш жараённида миллий иктисолиётлар ўзаро уйғунлашиб борадилар. Бу халқаро савдо-сотикнинг ривожланиши, инвестицияларнинг халқаро тус ола бориши орқали содир бўлади.

Глобализация жараёни жаҳонда қарама-карши қарашларни хам юзага келтирмоқда. Масалан, бирорлар глобализация бутунжашон иктиносидиётни тенг ривожланишига, демак сиёсий тузуми ва тартибидан катъи назар катта-кичик барча мамлакатларда турмуш даражаси ва сифатини ошувига олиб келади, деб ижобий баҳоласалар, бошқалар глобализацияни миллий иктиносидий ривожланиш ва миллий тараққиёт учун зарарли, деб баҳоламоқдалар. Ҳозир ҳатто халқаро тус олиб бораётган антиглобализм харакати ҳам мавжуд. Антиглобалистлар фикрига кўра, глобализация оқибатида ривожланаётган мамлакатларда кам маош тўлаш иктиносидий жиҳатдан ривожланган мамлакатларда иш ўринларини қисқартиришга олиб келади. Чунки давлат иш ҳакини камайтириш хисобига ўзини глобал миқёсда ракобат-бардошлигини таъминлайди. Ривожланган мамлакатлар ўзларига тенглашишга харакат қилаётган тараққий этаётган мамлакатлар билан муносабатга киришар экан, улар каби мамлакатда иш ҳакини, атроф-

<sup>1</sup> Waters M. Globalization.L. –N.Y., 1995, p.1.

мухитни муҳофаза килишга ҳаражатларни қисқартиришга мажбур бўлади. Шу боис антиглобалистлар халқаро иқтисодий форумлар, учрашувлар ўтадиган мамлакатларда турли намойишлар, пикет ва тартибузарликлар ташкиллаштириб ўзларини глобализациядан норозилигини билдирадилар.

Антиглобализм либерализм, консерватизм, социализм каби ижтимоий ҳаракатдир. Улар давлатлараро, минтақалараро ва глобал миқёсдаги халқаро иттифоклар, кенгашлар ва юшмаларнинг шаклланишига карши чиқадилар.

Антиглобалистларнинг халқаро етакчилари ва марказлашган штаби ҳам мавжуд.

Уларнинг етакчиларидан Маркос (Мексика), Жозе Бове (Франция) каби шахсларнинг номи машҳур. Антиглобализмнинг штаб квартираси Франциянинг Париж шаҳрида жойлашган булиб, "АТТАК", деб аталади. Ҳозир антиглобалистлар сафида жаҳоннинг 42 мамлакати фукаролари бордир. Улар айниқса Швейцариянинг Давос шаҳрида ҳар йили бўладиган халқаро иқтисодий форумларда ашадийлашишади, турли намойишлар ва тартиблизилар уюштиришади.

2001 йил Италиянинг Генуя шаҳрида июн ойида ўтказилган "саккизлик" нинг давлат раҳбарлари учрашувига антиглобалистлар катта тайёргарлик кўрган эди. 2003 йил май ойида Тошкентда Европа кайта куриш ва тараққиёт банкининг йиллик йиғилишида ҳам антиглобалистларнинг хуружи кутилган эди.

Бирок хукуматимиз томонидан кўрилган тадбир-чоралар натижасида (виза тартиботини кучайтириш ва ҳ.к.) антиглобалистлар бизнинг мамлакатга кира олмадилар.

Антиглобалистлар қўйидаги нарсаларга қарши курашадилар:

1. Турли иқтисодий тараккиёт боскичида турувчи давлатларнинг ўзаро яқинлашуви (конвергенция) ва ҳамкорлиги;
2. Иқтисодни минтақавийлашуви (регионализация);
3. Жаҳонда молиявий глобализацияни ўсисб бориши;
4. Глобал трансмиллий корпорацияларни вужудга келиши.

Социолог, философ ва маданиятшунослар жаҳонда турли мамлакатлар турмуш тарзини яқинлашуви маданиятларни гиридлашуви ва универсаллашувини ҳам башорат кильмоқдалар.

Тарихчи олимлар фикрича эса глобализация жараёни аллақачон бошланган булиб, у буюк географик қашфиётлар даврига бориб такалади. Бу таҳминан XIV-XVI асрларни ўз ичига олади. Инглизлар, испанлар, португаллар, французлар ва бошқа Европа мамлакатлари ва-

киллари томонидан Америка китъасини очилиши, Африкани забт этилиши, Ҳиндистонни кашф этилиши ва х.к. географик экспансизм Ер шарининг турли маданиятлари ва цивилизацияларини дарҳакиқат яқинлаштириди. Мустамлакачилик сиёсатиaborиген, тузем ҳалкларни мустамлакачилар турмуш тарзини, маданиятини ва ҳатто эътиқодини ҳам қабул килинишига олиб келган эди. Масаланинг салбий томони шундаки, марказ ва протекторат ўртасида меҳнат таксимоти ва тармоқланиш ҳолати юзага келиб, саноат ишлаб чиқариш тармоғи асосан марказда ривожланиб, протекторат эса факат ҳом ашё етказиб беришга ихтисослаша бошлайди. Бунинг оқибатида Европада саноат ишлаб чиқариши, индустрIALIZация катта темплар билан ривожланиб кетди. Фан ва техниканинг ривожланиши Европа мамлакатларини жаҳоннинг бошқа мамлакатларига нисбатан илгарилаб кетиштигини таъминлади.

XVII-XVIII асрлар инглиз ва француз революциялари, Реформация Европада капиталистик муносабатларни шакллантириди. Капиталистик ишлаб чиқариш, ракобат мұхитини яратилиши Farb цивилизациясини маданий-маънавий жиҳатдан ҳам усишини таъминлади.

XX асрга келиб, Farb мамлакатлари жаҳонда иктисадий, илмий-техникавий ва маданий тараккиёт жиҳатидан етакчилик қила бошладилар. Farb кадриятлари, давлат түзилиши принциплари, жамиятни бошқарув усууллари Шарқ мамлакатлари учун андоза, намуна ролини ўйнай бошлади. Айниқса демократизм анъаналарининг Farbда тикланиши Шарқ мамлакатлари учун жамият ҳаётининг моделига айланди.

Бу ҳодисани “вестернизация” деб аташ ҳам расм бўлди. Дарҳакиқат ғарбона турмуш тарзи, тафаккур услуги ва маданият модели бутун жаҳонга санъат ва маданият тармоқлари орқали тарқала бошлиди.

Миллий телерадиокомпаниялар Farb фильмларини, ғарбона турмуш тарзини тарғиб қила бошлади. Бу маданий глобализацияни тезлаштириди.

Глобализация муаммоси юзасидан молиявий глобализация масаласи илмий доираларда кенг мұхокама килинмоқда. АҚШ пул бирлиги – долларнинг ҳалқаро молиявий операцияларда этalon бўлиб боришлиги, жаҳон валюта бозорида миллий пул бирликларининг киймати доллар кийматига нисбатан белгиланиши молиявий глобализацияни дарҳакиқат реаллик эканлигини кўрсагди.

Молиявий глобализациянинг ҳам ижобий ва ҳам салбий томонлари мавжуд. Унинг ижобий жиҳатлари қуйидагича:

- хар бир тадбиркор ва ишбилармон миллий валютасининг мамлакатдаги иқтисодий муносабатларнинг яхшиланиши ёки ёмонлашуви оқибатида юзага келадиган тангликлардан мұттадил курсда турувчи глобал пул бирлиги – доллар воситасида үз капиталини ҳимоя килиш имкониятiga эга бўлади;

- глобал миқёсда бозор муносабатларининг устуворлиги хукуматлар томонидан инфляцион сиёсатни юргизишларига ҳалакит беради, давлат карздорлигини ўсишига тўскинлик қиласи ва ҳ.к.

Дарҳакикат глобализация оқибатида назарий жиҳатдан мамлакатга ҳалқаро капиталнинг катта миқдорда кириб келиши ижобий ҳолдир. Бунинг оқибатида инвестицияга мухтоҷ мамлакатларнинг молиявий аҳволи бир мунча баркарорлашади. Тадбиркорлар бунини натижасида үзларининг ички қарорлари билан чекланиб қолмай. бошқа мамлакатлардан инвестиция килиш имкониятларини қидирадилар. Үз навбатида чет эл инвестициялари ҳам мамлакатда үз маблагларини жойлаштириш учун кенг имкониятларга эга бўладилар.

Молиявий глобализациянинг салбий жиҳатларига келсак, жаҳон бозорида молиявий бозорларни интеграциялашуви барқарорликни бузувчи омилга айланади, макроиқтисодий сиёсатни бунинг оқибатида кимматли коғозлар ва облигациялар билан чайковчилик килувчилар белгилай бошлашади.

Молиявий глобализацияга қарши кишиларнинг фикрича, бозор муносабатларининг вақтинча юкори кўрсаткичларига маҳлиё бўлиш узок муддатли самараларни назардан қочиришни, бугунги кун натижалари билан чекланиб қолишга олиб келади.

Ҳалқаро миқёсдаги молиявий глобализация ҳалқаро пул ва молия бекарорлигини, иқтисодий тангликларнинг сабабчисидир. Буни 1992-1993 йиллардаги Европада, 1994-1995 йилларда Мексикада ва 1997 йилда Жанубий-Шаркий Осиёда бўлиб ўтган молиявий тангликлар билан исботлашади.<sup>1</sup>

Глобализациянинг салбий жиҳатлари айrim тадқикотчилар фикрича миграцион жараёнларнинг ривожланиши оқибатида иш жойларининг кискариши, фуқароларни ижтимоий жиҳатдан ҳимояланишининг заифлашиши юзага келади.

Кучли миграция жараёнлари ривожланган мамлакатларнинг демографик ҳолатига таъсир этади, аньанавий жиҳатдан кексалари кўп бўлган мамлакат, иммигрант ишчи кучлари хисобига ёшарib боради.

<sup>1</sup> Қаранг: Latouche S. The Westernization of the World. The Significance, Score and Limits of the Drive Towards Global Uniformity. Cambridge, 1989. p. 50-51

Чунки иммигрантларни асосан ишга лаёкатли ёшлар ташкил килади. Табиийки бу шароитда ёшлар маҳаллий кекса фуқаролар иш ўринларига даъвогар бўладилар. Бунинг устига иммигрантлар кам иш ҳаки эвазига ҳам меҳнат қилиш шартига кўнадилар. Бу нарса маҳаллий фуқароларнинг норозилигини кучайтиради.

Умуман олганда эса глобализация объектив табиий-тариҳий жараён бўлиб, инсониятнинг тараккиёти натижасидир. Инсонни ташкил олам ҳакидаги билимларининг ошиб бориши, ижтимоий таракқиёт бутун Ер шарни миқёсида маданий ва ижтимоий яқинлашувга олиб келади. Агар мукаддам Ер шарининг турли китъаларида ва мамлакатларида ижтимоий таракқиёт, маданият турлича ривожланган бўлса XX асрнинг охирларига келиб ва айникса XXI асрда инсоният тобора ягона таракқиёт йўлига кира бошлайди. Буни ҳам иктиносидий, ҳам сиёсий ва ҳам маданий соҳада кузатиш мумкин. Масалан, иктиносидий соҳада ҳозир жаҳоннинг барча мамлакатлари бозор иктиносидиётига ўтмоқдалар ёки шу йўлга киришга интилмоқдалар.

Сиёсий соҳада эса ҳалқ ҳокимиятчилиги, фуқаролик жамияти инсоният орзу килган ягона адолатли жамият эканлиги аён бўлиб борган сари демократия принципларининг, демократик бошқарув усулларининг аҳамияти ошиб бормоқда. Ҳокимиятлар булишиши, Конституция, парламент ва президент бошқаруви тизимларига ўтиш глобал миқёсда содир бўлмоқда. Глобализация фан ва техникини, алоқа воситаларининг тез ривожланиши натижасида маданиятларни ўзаро яқинлашувига, ўзаро бойишига, умуминсоний маданият кадриягларини тобора устувор бўлиб боришлигига олиб келмоқда.

Шунинг билан бирга глобализация бирданига содир бўла олмайди. Глобализация дастлаб регионализацияни тақозо килади. Регионализациянинг моҳияти шундаки, муайян минтақада жойлашган давлатлар маданияти, иктиносиди, тарихи ва сиёсий тартибларининг нисбатан ўхшашлиги натижасида ўзаро ҳамкорлик муносабатларини ўрнатадилар, ҳамкорлик, ўзаро фойдали иктиносидий, сиёсий ва маданий таракқиётнинг омили эканлигини тобора чукурроқ хис эта бошлайдилар. Айникса, айрим регионализация, яъни минтақавий ҳамкорликнинг ижобий натижалари жаҳоннинг турли минтақаларидаги давлатларни ҳам ўзаро ҳамкорлик қилишга ундейди. Масалан, Европа Иттифоки, АСЕАН, НАФТА, ЭКО ва бошқа регионал уюшмалар бундай ҳамкорликка интилишнинг натижаларидир. Регионал, яъни минтақавий муаммолар (экология, эпидемия, ҳавфсизлик ва ҳ.к.) Шанхай ҳамкорлик кенгashi, НАТО ва бошқа ташкилотларни шаклларни ташкил килади.

ланишига олиб келмоқдаки, улар секин-аста глобал хавфсизликнинг ҳам омилига айланмоқда.

Ўзбекистон Республикаси ҳам Марказий Осиёда минтақавий муаммоларни ҳал этиш орқали жаҳон ҳамжамиятига тобора уйғунлашади.

Президент И.Каримов таъкидлаганидек “Марказий Осиё минтақасида турли сиёсий, иқтисодий, ҳарбий, транспорт ва экологияга оид муаммолар түпланиб колган... Минтақада жұтрофий-сиёсий мувозанатни ва баркарорликни саклаган тақдирдагина мазкур муаммоларни ҳал этиш имкони туғилади”.<sup>1</sup>

Миллий хавфсизликни таъминлаш шу боис минтақавий хавфсизликни таъминлашсиз асло мумкин эмасдир. Ҳалкимизнинг “Құшнинг тинч, сен ҳам тинч”. деган наклида күп маъно бор. Шунинг учун миллий хавфсизликни таъминлаш учун ҳудудий ва глобал ҳамкорлик тинчлик ва осойишталык, ижтимоий-сиёсий баркарорликининг мухим омилидир.

<sup>1</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, баркарорлик шартлари ва тараккиёт кафолатлари. –Т.: Ўзбекистон, 1997. 9-б.

## **11. Ўзбекистоннинг глобаллашув жараённида тенг ҳуқук ва тенг манфаат тамойили асосида жаҳон ҳамжамияти билан интеграциялашуви ва унинг жамиятни модернизациялаштиришда тутган ўрни**

Ўзбекистоннинг Марказий Осиё худудида ва жаҳон ижтимоий-иктисодий жараёнидаги мавкеи кўп жиҳатдан мамлакатда амалга оширилаётган иктиносий, сиёсий ва ҳуқукий ислоҳотлар табиатига боғлик. Конституциявий жиҳатдан мустаҳкамланган умуминсоний қадриятларнинг миллий қадриятлардан устуворлигини тан олишининг легитимлиги Ўзбекистонни жаҳон ҳамжамиятияга уйғунлашуви учун ҳуқукий кафолат бўлади.

Ўзбекистон ўз келажагини ўзи яратади. Марказий Осиёда буюк давлатчилик сиёсатини олиб борувчи Россиянинг мавкеини заифлашиши ўзбекистоннинг ҳам эркин ва мустакил ривожланиши учун, жаҳон ҳамжамияти билан кенг куламда ҳамкорликка киришиши учун шарт-шароитлар яратади.

Ўзбекистон Президенти И.Каримов, “Ўзбекистон дунё учун очик. Биз ҳам дунёнинг Ўзбекистонга жуда катта қизикиш билан қарабётганлигини ҳис этмоқдамиз”, - деб таъкидлайди.

Марказий Осиё минтақаси ва хусусан Ўзбекистон мураккаб демографик холат (ахолининг табиий үсишининг юкорилиги), денгиз коммуникациялардан узоқлиги, Орол денгизининг тобора қуриб бораётганлиги сабабли ер ва сув ресурсларининг чекланиб бораётгашилиги билан характерланади. Марказий Осиё мингакасининг барқарорлигига хавф солиб турувчи Афғонистон муаммосини нисбатан барқарорлашуви минтақавий муаммоларни аслида камайтирмайди.<sup>1</sup> Минтақада бозор муносабатларига ўтиш, глобал миқёсдаги ижтимоий сиёсий жараёнларга уйғунлашиш беш ёш мустакил давлатларда турлича даражада амалга ошмоқда.

Марказий Осиё ёш давлатлари учун умумий бўлган жиҳатлардан бири шундаки, улар глобал ижтимоий-сиёсий жараёнларга уйғунлашувини давлатнинг етакчилигига амалга ошироқдалар. Чет эл капиталини ҳам минтақага кучли давлат кафолатлари ҳимоясида жалб этилмоқда, ташки иктиносий муносабатларни ривожлантириш давлат назорати остида кечмокда. Валютанинг кириб келиши, им-

<sup>1</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бусагасида: авфисзилкка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараккиёт кафолатлари. -Т.: Ўзбекистон, 1997. 297-б.

<sup>2</sup> Алимов Р.М. Центральная Азия: Общность интересов. -Т.: “Шарқ”. 2005. 213-б.

портни кўллаб-кувватлаш механизми ҳам давлат қўлида сақланиб колмоқда. Шунинг билан бирга минтақада иктисодий жиҳатдан етакчилик учун хуфёна кураш кетмоқда.

Ўзбекистоннинг миллий манфаатлари нуктаи назаридан минтақада миллатлараро тотувликни, қўшини давлатлар билан ўзаро ҳамкорликни, яхши қўшничилик муносабатларини ривожлантириш оркали минтақавий интеграцияга (ягона иктисодий ҳудуд, божхона тўловларини мўттадиллаштириш, виза (бориши-келиш) тартибини содлаштириш ва х.к.) эришиш истиқболли сиёsat хисобланади.

Ўзбекистон Республикаси Президенти И.Каримов минтақавий интеграциялашув оқибатида давлатлар устида турувчи тизимларни пайдо булишига мутлақо карши чиқмоқда.

Президент И.Каримовнинг Ўзбекистон Миллий ахборот Агентлиги муҳбири билан сұхбатида "...интеграция, энг аввало, ўз салоҳияти, ўз кучи ва имкониятларига суюнган ҳолдагина, ўзаро фойдали шериклик қилиш учун қурби етагандагина, такрор айтаман, ўзаро фойдали мулкчилик қилиш учун қурби етгандагина, ... ўзаро фойдали кооператив вужудга келиб, бундан барча манфаатдор томонлар наф кўргандагина амалий натижа бериши мумкин",<sup>1</sup> - деб таъкидлайди.

Шунингдек, бокимандалилка асосланган уринишлар, ўз муаммоларини бошқалар ҳамда уларнинг ресурслари хисобига ҳал килишга умид боғлаш мажозий қилиб айтганда ... бундай интилишлар биз учун мутлақо мақбул эмаслиги таъкидланади.

Муҳбирнинг "Сизнинг назарингизда интеграция жараёнларини шакллантиришга асос бўла оладиган принципиал ҳоллар нималардан иборат булиши мумкин?", деган саволига Президент И.Каримов куйидаги жавобларни беради: "Биринчидан, интеграцияга ихтиёрий қўшилиш, бунда давлатлар тўла тенг ҳуқуқка эга булиши керак. Суверенитет ва давлат мустакиллиги тўла сақланиб қолиши зарур. Иккинчидан, ҳар бир мамлакатда ўтказилаётган ислохотлар бир йўналишда ва бир-бирига монанд булиши лозим. Назаримизда, сиёсий ва иктисодий янгиланишларнинг, конунчилик ва ҳукукий асоснинг турли боскичида турган давлатларнинг интеграциялашуви мумкин эмас.

Учинчидан, ҳар бир давлат, энг аввало, ўз салоҳиятига суюниши лозим. Интеграция ва кооперация жараёнларини чукурлаштиришдан барча, аввало ўзаро, бир-биридан манфаатдор булиши керак. Бокимандалилкайфийтигининг барча курнишларига, бирорининг хисобидан

<sup>1</sup> Каримов И.А. Бунёдкорлик тұлпдан. Т.4. –Т.: Ўзбекистон, 1996. 300-6.

бошқаларнинг муаммосини ҳал этиш ниятларига барҳам берилиши шарт.

Тұртингидан, интеграция жараёнларини сунъий равища жадаллаштиришга ҳам йўл қўйиб бўлмайди. Интеграция шунчаки интеграция учун эмас, ўзини қўрсатиш, популистик ва бошқа сиёсий максадлар учун эмас, энг аввало, биз номи ва фикри билан ҳар бир хатти-ҳаракатимизни никобламокчи бўлаётган ҳалқларнинг фаровонлиги учун амалга оширилиши лозим.

Бешинчидан, интегратив жараёнларига мафкуравий тус бериш оқибатида давлатлар устидан куриладиган парламентлараро, ҳукуматлараро қўшни тузишмаларни ташкил этиш, бу жараённи иқтисодий интеграция жараёнларидан олдин қўйиш ҳамда иқтисодий алоқаларнинг холисона амалга оширилишига зуғул қилиш мутлако номакбулдир. Аравани отдан олдин қўйиб бўлмаганидек, сиёсатни ҳам иқтисодиётдан олдин қўйиб бўлмайди.

Интеграция деб аталаётган бундай ҳодисанинг куч ишлатадиган, зўравонлик усуслари бизга мутлако түгри келмайди. Бунинг қандай оқибатга олиб келиши тўғрисида гапириб ўтиришнинг ўзи ортиқча”.<sup>1</sup>

Ўзбекистон давлати Марказий Осиё минтақасида жойлашган давлатлар, Россия ва Европа Кенгаши мамлакатлари билан ўзаро ҳамкорликка асосланган интеграция жараёнига кирап экан, ўзининг аник позициясини ҳам интеграцияга киришаётган давлатларга эълон киласди.

Бу позиция Президентимиз томонидан 1996 йил 12 апрелда Тошкентдаги дипломатия корпуси ва журналистлар билан учрашувда сўзлаган нуткида рўй-рост ўз ифодасини топган. Президент И.Каримов Ўзбекистон давлатини минтақавий ва глобал интеграция масаласига муносабатини ифодалар экан “собик советлар ҳудудида интеграция масалалари бўйича юз бераётган воқеалар, шу муносабат билан имзоланган ҳужжатлар ҳар бир алоҳида давлат ва унинг раҳбарлик тузишмаларининг ҳукуки ва ички ишидир. Ҳар бир давлат ва унинг раҳбарлари энг аввало ўз мағфаатларидан келиб чиқсан ҳолда ҳар қандай ҳужжат ва давлатлараро шартномаларни қабул қилиш ва имзолаш ҳукукига эга. ...Ўзбекистон учун бу шартнома ва ҳужжатлар макбулми, Ўзбекистон бу шартномаларга қўшилиши мумкинми ёки йўқми? Бунинг устига, катъийлик билан бизни ҳамжамият ёки интеграциялашган давлатлар иттифоки деб аталмиш уюшмаларини тузиш ҳақидаги ҳужжатларни имзолашга таклиф этишмокда, гоҳида эса бу

<sup>1</sup> Ўша асар. 300-301-бетлар.

нарса Ўзбекистонга фойдалими, йўқми эканини биз учун ўзлари ҳал қилишмоқда.

Шу муносабат билан мен Ўзбекистон учун бундай иттифоқлар ёки ҳамдустликлар мутлако мақбул эмаслигини айтиб ўтишин истар эдим”,<sup>1</sup> - деб таъкидлайди.

Президент И.Каримовнинг глобал ва минтақавий интеграция муаммоси бўйича мустакил Ўзбекистон позициясини ифодалашпида иккита мухим томон мавжуд. Биринчиси, интеграцияга киришаётган давлатлар ўзаро тенг ҳукуклик принципига риоя килишлари, яъни каттами. кичикми барча давлатлар ўзаро шартнома мажбуриятларини ишлаб чишишда ва бажаришда тенг масъулиятни булиши керак.

Иккинчиси, интеграцияга киришиш ҳар бир давлатни мустакиллигига зарар етказмаслиги лозим.

Давлатимиз раҳбарининг хавотирларинан жойи шундаки, иктисодий интеграция никоби остида ҳарбий-сиёсий масалалар, бирлашган кўмондонлик тузиш, чегараларни биргаликла кўриклаш каби масалалар ҳам аста-секин МДҲ давлатлари интеграцияси олдига кўйила бошланди. Бу асло йўл кўйиб бўлмайдиган холдир. Шунуназарда тутиб, Президент И.Каримов шундай дейди: “... ташкил этиладиган ҳамжамиятларда бевосита амал қиласидиган, яъни барча органлар ва ташкилотлар бажарилиши мажбур бўлган қарорларни шартномада иштирок этувчи ҳар бир мамлакатнинг тегишли органларини четлаб ўтиб қабул қилиш ҳукукига эга бўлган давлатдан юкори турувчи тузилмалар ташкил этилган такдирда, бу давлатларни мустакил давлат дейиш кийин бўлади”<sup>2</sup>.

Ўзбекистон Республикасининг минтақавий интеграцияга нисбатан позицияси катъий – тенглар ичida тенг булиш, миллий мустакилликка путур етказмаслиқдир.

Ўзбекистон бу билан ўз эшикларини зич ёпиб, бошқа мамлакатлар билан ҳамкорликни олиб бормайди, дегани эмас. Ўзбекистон минтақавий ҳамкорликни тобора ривожлантириш сиёсатини изчил олиб бормоқда. Биргина 1996 йилнинг ўзида кўшни мамлакатлар билан иктисодий муносабатларни ривожлантиришга оид қатор учрашувлар булиб ўтди. Масалан, 1996 йил 5 апрель куни Тошкентда ягона иктисодий макон барпо этиш ҳақидаги шартномани имзолаган мамлакатлар Бош вазирларининг навбатдаги мажлиси бўлди. Унда Қозоғистон, Ўзбекистон, Бирмания, Ўзбекистон Бош вазирлари транспорт ва

<sup>1</sup> Каримов И.А. Бунёдкорлик йўлидан. Т.4. –Т.: Ўзбекистон. 1996, 307-б.

<sup>2</sup> Уша осор, 309 б.

коммуникация соҳасида келишилган сиёсат ўтказиш, ёқилғи-энергетика ва сув ресурсларидан, шунингдек, газ қувурларидан фойдаланиш, наркотик моддаларнинг ғайриконуний тарзда айланишига карши курашда хамкорлик килиш, “Центразэлектрон” трансмилий молия-саноат гурухини тузиш, ернинг давлатлараро ижараси ва бошка масалалар бўйича юздан ортиқ ҳужжат имзолашди.<sup>1</sup> Бундай шартнома ва ҳужжатлар кейинги ўн йилда кисман ҳаётда ўз тасдиfinи топди, айримлари эса ҳануз ҳаётга жорий бўла олмади. Бунинг қатор сабаблари мавжуд. Бундай сабаблардан бири - Ўзбекистон давлати танлаган сиёсий йўл – модернизация жараёнини тезлаштиrmай, иктисолидиётни юксалтириш орқали интеграцияга киришган мамлакатлар билан моддий ишлаб чиқариш бўйича тенг ривожланишга эришишдир.

Минтақавий интеграция жараёнини суст кечишининг сабаби шартнома имзолаган мамлакатларнинг бундай иттифок ичida “катта оға”ни пайдо булишидан ҳадисирашдир.

Марказий Осиё давлатларининг кўпчилигинга Президент И.Каримов таъкидлашича, ўтмиш совет тарбияси ўз кучини кўрсатаяпти ва “МДХ доирасида қабул килинган карорларнинг бажарилишини таъминлайдиган механизмларни астойдил излаш, давлатлар ўртасидаги икки томонлама муносабатларни ривожлантириш, уларни аниқ ва муайян мазмун билан бойитиш ўрнига, бизда кўпинча эски замонларни кумсаш намоён бўлмоқда”.<sup>2</sup>

Ўзбекистон Марказий Осиё ва МДХ давлатларидан ташқари АҚШ, Япония, Франция, Туркия ва Жанубий Корея давлатлари билан турли соҳада муносабатларини ривожлантирмоқда.

Ўзбекистон НАТО билан “Тинчлик йўлида хамкорлик” дастури орқали минтақада хавфсизлик ва баркарорликни таъминлаш учун ўзаро хамкорлиги мустақиллигимизни мустаҳкамлаш ва миллий ривожланишимиз учун ишончли омилга айланди. МДХ доирасида “Коллектив хавфсизлик” шартномасини қоғозда қолиши, Ўзбекистонга 2000 йил Афғонистоннинг “Толибон” жангларари реал хавф тутғирганда яккол сезилди. Шунинг учун Ўзбекистон бу шартномадан бир томонлама чиқди. Бу факт ишни кўрсатдик, Ўзбекистон ўз мудофаа қобилиятини даставвал ўзининг ички салоҳиятига таяниб ривожлантириш лозимлигини ҳаётни ўзи исботлади. Ўзбекистон миллий манфаатлари қўшни мамлакатлар манфаатини ҳурмат қилган

<sup>1</sup> Уша асар. 306-6.

<sup>2</sup> Уша асар, 308-6.

ҳолда мустақил миллий ривожланишимизни таъминлаш, унинг иккисодий, сиёсий, хукукий ва маданий асосларини мустаҳкамлашдир.

Шунинг учун сиёсий етакчимиз томонидан бошқарилаёттан кенг қўламли ислоҳотлар ҳовликиш, меъёридан ортиқ тезлик билан эмас, балки табиий ўз меъёрида. аста-секин, боскичма-боскич ўта босиклик билан ўтказилмоқда.

Мамлакатимизда эришилган сиёсий барқарорлик, миллатлараро тутувлик ва ҳамжихатлик мана шу сиёсатнинг натижасидир.

Шу боис Ўзбекистонга жаҳон ҳамжамияти томонидан кизикиш тобора ўсиб бормоқда. Ўзбекистоннинг жуғрофий-табиий имкониятлари, табиий бойликлари ва энг муҳими меҳмондуст ва меҳнатсевар ҳалки жаҳон ҳалқларини ўзаро ҳамкорликка унданмоқда, глобал иктисадий ва маданий муносабатларга тенг хукукли субъект булиб кириши учун кафолат булмоқда. Миллий ривожланишимиз шу боис факат бошқа мамлакатлар билан ўзаро ҳамкорлик, ўзаро манбаатдорлик, ўзаро дустлик муносабатларни ривожлантириш орқали эканлитини хаёт исботламоқда.

## **12. Ўзбекистоннинг жаҳон ҳамжамияти билан интеграциялашуви жараёнидаги фаоллигини ошириш жараёни**

Ўзбекистоннинг жаҳон ҳамжамияги билан интеграциялашуви нафакат Ўзбекистон Республикаси Конституциясида белгиланган сиёсий-хукукий нормалар орқали, балки миллий ривожланиш ғояси орқали ҳам амалга ошади. Бунинг боиси – миллий ривожланиш ғоясининг Ўзбекистон давлати танлаган сиёсий тараккиёт йўли – кела-жакда дунёвий демократик, хукукий давлат ва фуқаролик жамиятини шакллантириш максадига бўйсундирилганлигидир. Миллий ривожланиш ғояси мамлакатимизни жаҳон ҳамжамиятияга уйғунлашуви (глобаллашуви) нинг назарий асосидир.

Ўзбекистонни жаҳон ҳамжамияти билан интеграциялашуви автоматик тарзда бўлмайди. Чунки ҳар қандай интеграция, Президент И.Каримов таъбири билан айтганда, нисбатан тенг иктиносидий, сиёсий ва маданий ривожланиш даражасини такозо этади. Акс ҳолда ҳар қандай иктиносидий ва ҳ.к. иттифоқда тентглик принципи бузилади, кимдир қаттиқ меҳнат килади, кимдир бокиманда бўлади. Шунинг учун юкорида тилга олинган антиглобалистларнинг чиқишиларида ҳам маъно бор – улар глобализмни миллий ривожланишга салбий таъсир этишидан чўчишади. Антиглобалистлар асосан иктиносидий жиҳатдан юкори таракқий этган мамлакатларнинг фуқаролариридир, улар ўзларини ватанпарварлар, деб ҳисоблашади.

Жаҳонда юзага келган ҳар бир интеграция (АТС, АСЕАН, НАФТА, ЕИ ва ҳ.к.) иштирокчи мамлакатларнинг нисбатан тенг иктиносидий тараккиёт даражасини талаб килади. Мисол тарикасида Европа Иттифоқи (ЕИ) тарихига мурожаат қиласиз.

Европада интеграцияга киришиш жараёни деярли 50 йилдан ошик даврда давом этиб келмоқда. Иккинчи жаҳон урушидан сўнг жаҳонда иккита буюк давлат – ССРВ ва АҚШ жаҳон ижтимоий-сиёсий об-ҳавосини белгилай бошлади. Бу икки давлат атрофида қатор давлатлар бирлашиб, икки ҳарбий-сиёсий лагерни ташкил этдилар.

ССРВ нинг ҳарбий кудрати ва АҚШнинг маданий экспансияси Фарбий Европа мамлакатларини чўчита бошлади. Иккинчи жаҳон уруши натижасида анча заифлашган Фарбий Европа мамлакатлари бу икки давлаттага бирга-бир, яккана-якка қарши тура олмас эди. Бунинг учун уларда на иктиносидий ва на ҳарбий кудрат бор эди. Буюк давлат арбоби У.Черчилл 1946 йили Цюрихда сўзлаган нуткида “Европа Америка Кўшма Штатларига ўҳшаган бўлиши лозим”, - деб айтди. Бу

пайтда Европанинг илғор зиёлилари Европада яна уруш ўчогини пайдо бўлмаслиги учун, тинчлик ва барқарор тараккиётни таъминлаш учун ўзаро бирлашиш лозимлигини тобора яхши англай бошлаган эди.

Айни шу даврда АҚШ Европага, хусусан мағлуб бўлган Германияни тиклаш учун “Маршалл плани”ни тузиб Фарбия Европага инвестиция кила бошлади. Мазкур режа доирасида 1948 йили Европа иқтисодий ҳамкорлик ташкилотига асос солинди. Шу йилнинг ўзида “Бенелюкс” божхона иттифоки тузилди.

Фарбий Европанинг катор давлатларини бирлаштирган бу янги тузилма турли мамлакатларнинг иқтисодий соҳадаги тараққиёт имкониятларини кўрсатди. 1949 йили Европа Иттифокига асос солинди.

1956 йилга келиб бу иттифок катор соҳаларни камраб ола бошлиди. Хусусан, ядро энергиясидан биргаликда тинч мақсадда фойдаланишга оил 1957 йил 25 марта Рим Шартномаси имзоланди. Европа Иқтисодий Иттифоки, Европа атом энергиясидан фойдаланиш иттифоки (Евроатом) ва бошқа интеграциялар секин-аста шаклланди.

Европада ягона бозор маконини вужудга келтириш учун 1987 йил 1 июля Ягона Европа Акти имзоланди.

1996 йил декабрида Европанинг 12 та давлати Голландиянинг Маастрихт шаҳрида йиғилишиб, ўзаро интеграцияни янада чукурлаштиришга келишишиб 1993 1 январидан янги мазмунда Иттифокка асос солишиди. Бу Шартномага асосан ягона фукаролик (умумевропа миқёсида), иқтисодий ва валюта иттифоки ва сиёсий иттифок тузилди.

Бугунга келиб, Европа Иттифоки жаҳондаги энг нуфузли интеграцияга айланди. Унинг Европа қайта куриш ва тараққиётбанки, ОБСЕ ва ҳ.к. юкори мартабали тармоқлари нафақат Европада, балки бутун жаҳон миқёсида барқарор иқтисодиёт, демократия, инсон хукук ва эркинликларини таъминлаш, гуманитар ёрдам кўрсатиш йўналишлари бўйича фаолият кўрсатмоқда. Ўзбекистонда Европа Иттифокининг катор миссиялари мавжуд. Европа Иттифоки жаҳон бозорида ва иқтисодиётида катта салмоққа эга. Европа Иттифокига аъзо мамлакатларида ягона пул бирлиги – евро муомалага киритилган, у долларга нисбатан ўз қадрини ошириб бормоқда, миллий валюталар европга нисбатан ўлчамоқда.

Европа Иттифокига кириш орзусида юрган давлатлар талайгина.

Бунинг учун ҳар бир даъвогар мамлакат дастлаб ўз ички бозорини, иктисадиётини жаҳон стандартлари талабига мос килиб ривожлантириши лозим.

Ўзбекистонни жаҳон ҳамжамиятига уйғунлашуви ҳам катор халқаро талабларни бажаришни такозо этади. Миллий ривожланиш гояси шу маънода Ватанимизни жаҳоннинг илфор мамлакатлари қаторидан ўрин олиши учун муайян назарий асос ролини ўйнайди, фуқароларимизнинг сиёсий онги ва сиёсий маданиятини ва пировардиди эса замонавий дунёкашини шакллантиришга хизмат қиласди.

## СҮНГИ СҮЗ

Шундай килиб, модернизация жамият ҳаётини тубдан ўзгартириш, уни умумжахон илғор ижтимоий-сиёсий принциплари ва конуннингларига мувоффиклаштириш, планетар ижтимоий тафаккурга якинлаштириш демакдир. Бу – миллый хусусиятларни, миллый ўзликни ва бетакрорликни йўқотиш, уларни умумжахон ижтимоий ҳаётда кориштириб юбориш, ижтимоий ассимиляцияни амалга ошириш дегани эмас. Модернизация кўпроқ трансформация, ижтимоий янгиланиш демакдир.

Анъанавий жамиятни модернизациялаштиришнинг стратегияси эса шундан иборатки, биринчидан, жамият сиёсий тизимида демократик институтларни шакллантириш, ижтимоий ҳаётда давлат монополиясини чеклаш, ижтимоий назоратни, ўз-ўзини бошқаришни карор топтиришда бўлса, иккинчидан, эркин иқтисодиётни ва иқтисодий муносабатларни шакллантириш ва уларнинг хукукий механизмини мустахкамлаш, учинчидан, жамият маънавий ҳаётини ҳам тубдан ўзгартириш, анъана ва удумларда прагматизм ва рационализм принципларини карор топтириш, ясама илтифот ва такаллупларга барҳам бериш, реалистик дунёкарапни шакллантиришни ўз ичига олади.

Анъанавий жамиятни модернизациялаштириш асосида уни демократилаштириш ётишлиги стратегик ғоядир. Бироқ ушбу ғоя антиномия характеристига эга бўлиб, ҳар кандай демократиялаштириш даставвал юкори даражада бўлган иқтисодий ўсишни такозо этади. АҚШ нинг кўзга кўринган социологи Фрэнсис Фукуяма таъкидлашича, иккинчи жаҳон урушидан сўнг айрим Шарқ, аниқроғи Жанубий-Шарқий Осиё мамлакатларида юксак иқтисодий ўсиш ушбу мамлакатларда сиёсий либерализацияни юзага келтириди.

Фрэнсис Фукуяманинг таъкидлашича, иқтисодий ўсиш билан демократик институтларни мустахкамланиши Япониядан тортиб Жанубий Кореягача деярли бир вактда кузатилди. Тайвань, Таиланд, Бирма ва Филиппинда ҳам жамиятни модернизациялаштириш иқтисодий ўсиш ва сиёсий соҳани либераллаштириш билан ўзаро алокадорликда кузатилмаганлигини қатор бошқа тадқиқотчилар ҳам таъкидлашади.<sup>1</sup>

Ҳам Farbda ва ҳам Шарқда, Жанубий-Шарқий Осиё мамлакатларида иккинчи жаҳон урушидан сўнг кузатилган иқтисодий ўсиш

демократик институтларни мустаҳкамланиши, сиёсий сокада либерализация жараёнлари билан узвий алоқада кечганилигини тасдиқлади.

Иқтисодий ҳаётда давлат монополиясини мустаҳкамлаш демократияни бўғишини ёки “бошқариладиган демократия” ва ундан ҳам ачинарлиси - “демократик централизм”ни юзага келтиради. Собик Совет Иттифоқининг иккинчи жаҳон урушидан кейинги таракқиёти айнан шундай бўлди.

Пировард оқибат шу бўлдики, 80-йиллар охириларига келиб “ғолиб” бўлган мамлакат “мағлуб” бўлган давлатлардан (Германия, Япония) инсонпарварлик ёрдамини олишга мажбур бўлди. Шунинг учун жамиятни демократлаштириш кечиктириб бўлмайдиган стратегик вазифадир.

Ушбу фикрни Ўзбекистон Президенти И.Каримов ҳам Олий Мажлис Қонунчилик ва Сенатнинг Кўшма мажлисида сўзлаган нутқида ифодалар экан “биз бугунги кунда минтақамизда яшаётган ҳалклар гуёки ҳали демократия учун тайёр эмас, бу борада “пишиб стилмаган” улар олдин камбагаллик ва кашшоқлик билан боғлик муаммоларни ҳал килишлари зарур, шундан кейингина демократия куриш, сиёсий ва иқтисодий ислоҳотлар учун шарт-шароит юзага кела-ди, деган гапларни кўп эшитамиз”, дейди. Ушбу фикрни давом эътироф экан И.Каримов “бундай баёнот ва ёндашувлар – аввало, тарихни билмаслик, ҳалкнинг бунёдкорлик салоҳиятига, куч-кудратига ишон-маслик, айтиш мумкинки, ҳозирги дунёни жадаллик билан ўзгаририб бораётган объектив, глобал жараёнларни тушунмаслик натижасидир”, деб таъкидлайди.

“Бугун, ҳамма бўлмаса ҳам, лекин қўинчилик одамлар яхши англайдики, - дейди И.Каримов, - факат замон билан тенг-кадам ташлаётган, тез ўзгараётган дунёнинг катъий шарт ва талабларига жавоб беришга интилаётган мамлакатнинг келажаги ёруғ бўлиши мумкин”.

Мазкур фикрларни янада ойдинлаштирас экан юртбошимиз “мустақилликни мустаҳкамлаш, жамиятни демократлаштириш ва янгилаш биз учун ҳамиша биринчи даражали устувор мақсад ва вазифа булиб қолаверади”, - деб таъкидлайди.

Жамиятни демократлаштириши кенг маънода уни модернизациялаштириш, янгилаш, замонавийлаштириш демакдир. Шу маънода модернизация айрим кимсалар томонидан олға сурилаётган, зўравонлик билан кишилар онгига сингдиришга уринилаётган турли экстремистик мақсад ва вазифаларга батамом зиддир. Бундай мақсад ва вазифалар бир нарсага – биз шакллантирмоқчи бўлган замонавий дунёвий

жамият ўрнига ўрта аср қабиладаги диний-теократик давлат – халифаликни барпо этишга қаратилгандир. Бундай максад ва вазифаларнинг бемаънилиги шундаки, тарихий тараққиётнинг объектив жараёнини орқага кайтариш ёки уни куч билан тұхтатиб бўлмайди. Тарих ғилдираги бундай уринишларни ғилдиракка ёпишган лой каби улоктириб ташлайли, янчид кетади. Бундай қисмат тарихий жараённи, модернизация жараёнини тұхтатмокчи бўлган кишилар истайдими ёки йўкми – шундай бўлади.

Модернизацияга қаратилган сиёсий курс – умумжахон микёс ва маромгэ эга. Модернизация жараёни нафакат Фарбда ва Шарқда, балки Лотин Америкасида, Африка китъасида ва айникса Жанубий Шаркий Осиё мамлакатларида тез суръатлар билан кечмокда. Ушбу жараёнга мустакил Ўзбекистон ҳам тортилгандир. Чунки у жаҳон ҳамжамияти билан узаро ҳамкорликсиз тараққий эта олмайди, у жаҳон ҳамжамиятининг узвий қисмидир, жаҳон ҳамжамияти олдида турган вазифалар Ўзбекистон учун ҳам долзарбдир. Ўзбекистон миллий ривожланиши модернизацияга қаратилгандир. Буни англамаслик сиёсий саводсизлик билан тенгдир.

## ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Каримов И.А. Бизнинг бош максадимиз – жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишдир. Т.: “Ўзбекистон”, 2005.
2. Каримов И.А. Буюк келажагимизнинг ҳуқукий кафолати.// Биздан озод ва обод Ватан колсин. 2-том, Т.: “Ўзбекистон”, 1996.
3. Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқбол, иктисад, сиёсат, мағкура. 1-том. Т.: “Ўзбекистон”, 1996.
4. Каримов И.А. Жамиятимиз мағкураси ҳалқни-ҳалқ, миллатни-миллат килсин.// Адолатли жамият сари. –Т.: “Ўзбекистон”, 1998.
5. Каримов И.А. Адолатли жамият сари. –Т.: “Ўзбекистон”, 1998.
6. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI-аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. –Т.: “Ўзбекистон”, 1997.
7. Каримов И.А. Бунёдкорлик йўлидан. Т. 4. –Т.: “Ўзбекистон”, 1996.
8. Алимов Р.М. Центральная Азия: общность интересов. –Т.: «Шарқ», 2005.
9. Альфонсин Р.Р. Модернизация и социальная справедливость.// Лат.Америка. America Latina. – М. 1991. № 10.
10. Арифханова Зоя. Традиционные сообщества в совр. Узбекистане.// Центральная Азия и Кавказ. №4 (10). 2000.
11. Ашин Г.Н. Элиты как субъекты модернизации.// Модернизация и национальная культура. –М., 1995.
12. Бresslauэр Дж.У. Возможности модернизации посткоммунистического режима.// Россия-США: опыт политического развития. Ростов н/Д, 1993.
13. «Бейзинг жибао», Пекин от 15 января 1998.
14. Вебер М. Теория ступеней и направлений религиозного неприятия мира. -Изб.произв. –М.: Прогресс, 1990.
15. Вебер М. Протестантская этика и дух капитализма. Изб.произв. –М.: Прогресс, 1990.
16. Василенко И.М. Политическая глобалистика. Учебное пособие. –М., Логос. 2000.
17. Гегель Г. Философия истории. СПб., 1933.
18. Гафарли М.С., Касаев А.Ч. Ривожланишнинг ўзбек модели: тинчлик ва барқарорлик – тараккиёт асоси. –Т.: “Ўзбекистон”, 2001.

19. Жалолов А. Мустақиллик – фидокорона меҳнат ва рух мато-нати. // Ўзбекистон: мустакиллик, маънавият, мафкура. –Т.: Ўзбе-кистон, 1999.
20. Жумаев Р. Давлат ва жамият: демократлаштириш йулида. –Т.: “Шарқ”, 1998.
21. Жураев Нарзулла. Тафаккурдаги эврилиш: истиқбол изти-ролари ва қувончлари ҳакида мулоҳазалар. –Т.: “Шарқ”, 2001.
22. “Известия” газетаси, 1994 й. 5 ноябрь.
23. Каспэ С.И. Имперская политическая культура в условиях мо-дернизации.// Политика. М., 1998.
24. Красильщиков В.А. Модернизация и Россия на пороге XXI века.// Вопросы философии. № 7. –М., 1993.
25. Льонг Вьет Хай. Ускорение модернизации в странах Восточ-ной и Юго-Восточной Азии.// Филос.исслед. №1. –М., 1998.
26. Левитин Л. Ўзбекистон тарихий бурилиш палласида. –Т.: “Ўзбекистон”, 2001.
27. Махмудов Тилаб. Мустакиллик ва маънавият. –Т.: “Шарқ”, 2001.
28. Мамитова Эльвира. Исламский фундаментализм и экстрем-изм в странах Центральной Азии.// Центральная Азия и Кавказ. Стокгольм. № 5 (11), 2000.
29. Миллий истиқлол тоғаси: асосий тушунча ва тамойиллар. –Т.: Ўзбекистон. 2000.
30. Пахрутдинов Ш. Таҳдид–халокатли куч. –Т.: Академия. 2001.
31. Панарин Э.Д., Мухаметшина Н.С. Национальные проблемы на постсоветской территории. Санкт-Петербург: Фонд Сороса. 2001.
32. Попова И.М., Куняевский М.Б. Социальная цена «запазды-вающей» модернизации. // Социологический журнал. -№3. –М., 1997.
33. Пластун Вл. Такой разный ислам.// Центральная Азия и Кав-каз. Стокгольм. 2000, № 5 (11).
34. Политология. Учебное пособие для вузов. // 2-изд. М.: Констр, 2000.
35. «Проблемы Дальнего Востока», № 4. М., 1988.
36. Саифназаров И. Маънавий баркарорлик ва сиёсий маданият. –Т.: “Шарқ”, 2001.
37. Сафоев С. Региональное развитие и постконфликтное восста-новление Афганистана.// Стабильность в Центральной Азии в по-стконфликтный период. –Т.: ИСМИ. 2002.

38. Становление институтов буржуазной экономики. –М.: «Найка», 1989.
39. Таджиханов У., Одилқориев Х., Сайдов А. Узбекистон Республикасининг конституциявий хукуки. –Т.: “Шарқ”, 2001.
40. Устинов В.В. Обвиняется терроризм. –М.: ОЛМА-ПРЕСС. 2002.
41. Фонд Либеральная миссия.// Фрэнсис Фукуяма. Конфуцианство и демократия. М., 2001.
42. Фукуяма Ф. Конфуцианство и демократия. // Journal of Democracy. 1995. vol. 1., № 2.
43. Чарльз Ф. Эндрейн. Сравнительный анализ политических систем.//Пер. с англ. –М.: Весь мир, 2000.
44. Шарипов Р.Х., Мухиддинова Ф. Узбекистон ҳалклари сиёсий-хукуқий таълимотлари тарихи (XIX аср охири – XX аср бошларида). Т.: Тошкент Давлат юридик институти. 2004.
45. Шарағ П. Сравнительная политология // Пер. с англ. В. 2-х частях. –М.: Прогресс, 1992.
46. Эркаев А. Миллий ғоя ва миллий маънавият. –Т.: “Маънавият”, 2002.
47. Яковец Ю.В. История цивилизации. –М.: «Гуманитарный издательский центр ВЛАДОС», 1997.
48. «Узбекистон Республикасининг шахар, посёлка ва қишлоқ, маҳалла (мавзе) комитетлари тұғрисида» Низом. –Т., 1993.
49. Узбекистон Республикаси миллий хавфсизлик концепцияси. Т.: 1997.
50. Қуватов Н. Үтиш даври тафаккури. –Т.: “Маънавият”, 2002.
51. Қодиров А. Ҳукукий давлатнинг шаклланишига хавф солаётган ҳодисалар.// Ҳукуқ-Право-Law, 2005 1-сон.
52. Қодиров А. Сиёсат фалсафаси. –Т.: ТДЮИ. 2005
53. Кадыров А. Политическая модернизация-как фактор демократизации и обновления общества.//Жамиятни демократлаштириш, янгилаш ва ислоҳ килиш муаммолари. –Т.: ТДЮИ. 2005.
54. Abraham, M.F. Perspectives on modernization. Toward a general theory of Third World Development. –Wash.Univ.Press of America, 1980. –IV.
55. Ake, C. Modernization and political instability: A theoretical exploration//Political system and Change: A “World politics” reader. – Princeton (N.J) 1986.

56. A report of CSIS Freeman Chair in China Studies. China's new journey to the west. Washington D.C. August 2003.
57. Alex Inkeles and David H. Smith. *Becoming Modern: Individual Change in Six Developing Countries*. (Cambridge, MA: Harvard University Press, 1974).
58. Apter D. *The Politics of Modernization*. The University of Chicago Press. 1965.
59. Barry. F. *Failures and Opportunities // Christianity and Crisis*. // L., 1933.
60. Bureaucratic – Autoeratism: Studies in South American Politics (Berkeley: Institute of International studies. University of California, Berkeley. 1973.
61. Davis J.C. *Radicalism in a Traditional society: The evaluation of radical thought in the English commonwealth 1649-1660 // History of polit. Thought*. – Exter. 1982. – Vol. 3, № 2.
62. Giddens, A. *Consequences of modernity*. – Cambridge: Polity press, 1997. XIII.
63. Modernity and identity: a symposium // Intern. Social Science J. – Paris. N.Y. 1988. – Vol. 40. № 4.
64. Offe, C. *Modernity and State: East, West*. - Cambridge: Oxford. Blackwell: Polity press, 1996. -XII.
65. Huntington S. *The Third Wave. Demociatization in the late Twentieth Century*. University of Oklahoma Press. 1999.
66. Reflection on the Patterns of Change in the Bureaucratic. – no 1. (1973).
67. Tuan T. Ling. "Totalitarian and Authoritarian Regimes". /In *Handbook of Political Science*. MA: Addison – Wersley. 1975.
68. Political Development in Europa and United States. Princeton: Princeton University Press. 1978.
69. Patterns of Global terrorism. United States Departement of State. Washington D.C. May, 2002.
70. Pearce D., Barbier E., Markandya A. *Sustainable Development. Economics and Environment in the third world*. L., 1990.
71. Waters. M. *Globalization*. L. –N.Y., 1995.
72. Latouche S. *The westernization of the World. The Significance, Seare and Limits of the Drive Towards Global Uniformity*. Cambridge, 1989.
73. *Journal of Democracy*. 1995. vol. 1. № 2.

**ANVAR Qodirov**

**AN'ANAVIY JAMIYAT VA UNI  
MODERNIZATSIYALASHTIRISH  
STRATEGIYASI**

**Toshkent-2006**

## SO`Z BOSHI

*“Mustaqillikni mustahkamlash, jamiyatni demokratlashtirish va yangilash biz uchun hamisha birinchi darajali maqsad va vazifa bo`lib qolaveradi”*

**I.A.KARIMOV**

O`zbekiston xalqi hayotida ikki palatali parlament tartibiga o`tish muhim burilish bo`ldi. Biroq Prezident I.A.Karimov Qonunchilik palatasi va Senatning qo`shma majlisida ta`kidlab o`tganidek «bizning asosiy uzoq muddatli va strategik vazifamiz avvalgicha qoladi – bu demokratik davlat, fuqarolik jamiyati qurish jarayonlari va bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, odamlar ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlash yo`lidan og`ishmay, izchil va qat`iyat bilan borishdir».<sup>1</sup>

Endi gap mamlakatimizni rivojlantirish strategiyasining g`oyaviy va mafkuraviy asoslarini shakllantirish, bosh strategik vazifani amalga oshirishda qoladi. Bu borada yurtboshimiz mamlakatimiz rivojlanishining 2005 yilga va kelgusi yillarga mo`ljallangan ustuvor vazifa va yo`nalishlarini ham nazariy jihatdan belgilab berdi.

An'anaviy jamiyatdan zamonaviy, ya`ni modernizatsiyalashgan jamiyatga o`tish bir daqiqalik hodisa emasligi ko`pchilikka ayon. Modernizatsiyalashgan jamiyatga (ayrim manbalarda “postindustrial” jamiyat, “informatsion” jamiyat va h.k. – A.K.) o`tish g`oyat murakkab va ziddiyatli jarayon bo`lib, zaruriy ravishda eskilik va yangilik, an'anaviy tafakkur usuli bilan zamonaviy tafakkur usuli o`rtasida vujudga keladigan dialektik jarayonni taqozo etadi.

Ilmiy til bilan ifodalaganda konservativm bilan liberalizm yoki ortodoksal qarashlar bilan reformistik qarashlar o`rtasidagi ziddiyatli holatlar tabiiy va tarixiy tarzda barcha zamонlarda ham kuzatilgan. Jamiyatning ilg`or kuchlari, jamiyat siyosiy elitasi, insoniyat taraqqiyoti bilan milliy rivojlanish o`rtasidagi farqni doimo his qila olgan, jamiyatni o`zgartirishga harakat qilgan.

Shu bois jamiyatni modernizatsiyalashtirish bugun paydo bo`lgan vazifa bo`lmay, o`zining tarixiy an`nalariga ega.

<sup>1</sup> I.Karimov. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash. mamlakatni modernizatsiya va islosh etishdir. –T.: O`zbekiston, 2005. 34-b.

Ushbu risolada biz G`arb jamiyatlari modernizatsiyalashtirish tarixiy an'analarini va tajribasiga e'tibor qarata olmaymiz. Bu muammo G`arb ilmiy adabiyotida atroficha yoritilgandir.<sup>1</sup>

Shu bois bizni ko`proq o`zimizdagi ahvol, mavjud ijtimoiy sharoitlarda islohotlar siyosati bilan an'anaviy ijtimoiy tur mush tarzi, eski an'ana va udumlar bilan jahon hamjamiyati tomonidan bizga in'om etilayotgan an'ana va qadriyatlar tizimi o`rtasidagi transparentlik va o`zaro uyg`unlashuv muammolari qiziqtiradi.

Ta'kidlash joizki postkommunistik ijtimoiy makonda va jahonda bunday muammolar u yoki bu darajada hal etilmoqda.

MDX yoki Sharqiy Yevropa sobiq sotsialistik davlatlarini olaylikmi, yoki Markaziy Osiyo yosh mustaqil davlatlari bilan Xitoy yoki Yaponiyani olaylikmi ular barchasi u yoki bu darajada jamiyatni modernizatsiyalashtirish siyosatini yurgizishmoqda. Hatto Misr Arab Respublikasi, Vctnam va Indoneziya mamlakatlari ham jamiyatni modernizatsiyalashtirish yo`lidan borishmoqda.<sup>2</sup> Agar Xitovni oladigan bo`lsa k sobiq mafkura nuqtanazaridan bizga yaqin bo`lgan bu mamlakat sobiq premyer Den Syao Pin tomonidan olg`a surilgan “to`rt modernizatsiya” konsepsiyasini jamiyat hayotiga tatbiq etib, siyosiy tizimini va siyosiy tartibini o`zgartirmay turib, yuksak iqtisodiy o`sish darajalariga erishishdi. Hozir Xitoy xalqi modernizatsiya siyosatini davom ettirib, nafaqt Osiyo qit'asida, balki butun jahon miqyosida iqtisodiy o`sish ko`rsatkichlari bo`yicha yetakchilik qilish uchun kurashmoqda.

Buning siri iqtisodiy va ijtimoiy hayotni liberallashtirish va demokratlashtirish, yangilash va modernizatsiyalashtirishdir.

Shuning uchun Prezidentimiz tomonidan olg`a surilgan modernizatsiya konsepsiysi va uni amalga oshirishning ustuvor yo`nalishlari aslo

<sup>1</sup> Qaratang: Альфонсин Р.Р. Модернизация и социальная справедливость// Лат.Америка = America Latina.- М. 1991. - № 10. С.22-32.; Ашин Г.Н. Элиты как субъекты модернизации. // Модернизация и национальная культура - М., 1995. С.77-87; Бреслауэр Дж.У. Возможности модернизации посткоммунистического режима// Россия-США: опыт политического развития. Ростов н/Д, 1993. С.183-192.; Каспэ С.И. Имперская политическая культура в условиях модернизации// Политика. -М., 1998. -№3. С.42-57.; Красильщиков В.А. Модернизация и Россия на пороге XXI века//Вопросы философии. -М., 1993. - №7. С.40-56.; Попова И.М., Куняевский М.Б. Социальная цена «запаздывающей» модернизации// Социологический журнал. -М., 1997. - №3. С.20-37.; Avraham, M.F. Perspectives on modernization: Toward a general theory of Third World development - Wash Univ. press of America, 1980. -IV. -254 p. Ake,C. Modernization and political instability: A theoretical exploration // Political system and change: A "World politics" reader. -Princeton (N.J.), 1986. -p. 205-220. Davis, J.C. Radicalism in a traditional society: The evaluation of radical thought in the English commonwealth 1649-1660// History of polit. thought. - Exter, 1982. -vol.3. №2. -p.193-213. Giddens, A. Consequences of modernity. - Cambridge: Polity press, 1997. XIII. -186 p. Modernity and identity: a symposium // Intern. Social science j. -Paris; N.Y., 1988. -Vol. 40. № 4.p. 441. Offe, C. Modernity and the state: East. West. - Cambridge: Oxford: Blackwell: Polity press, 1996. -XII, 279 p.

<sup>2</sup> Лонг Вет. Хай. Ускорения модернизации в странах Восточной и Юго-Восточной Азии -Филос.исслед. -М. 1998. №1. С.173-176.

uydirma narsalar bo`lmay, hayot, taraqqiy etayotgan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqadi.

Xo`sh bizda jamiyatni modernizatsiyalashtirish an'analari tarixan mavjud bo`lganmi yoki yo`qmi, degan savol tug`iladi. Markaziy Osiyoda jamiyatni yangilash, modernizatsiyalashtirish an'analari uzoq o`tmishga ega. Ushbu an'analar o`rtा asrlarga, diniy mafkuraning davlat, ijtimoiy hayotda ustuvor mavqeda bo`lgan davrlarga borib taqaladi.

Bizning nazarimizda, jamiyatni yangilash, diniy g`oyalarni hayotiy yaratuvchilik g`oyalari bilan uyg`unlashtirish haqidagi ilk g`oyalarni buyuk alloma Xoja Bahouddin Naqshbandiy olg`a sura olgan.

Bahouddin Naqshbandiyning mehnat, yaratuvchanlik etikasini xristianlikdagi protestant mehnat etikasi (M.Lyuter, A.Kalvin) bilan qiyoslash mumkin. Sharq Uyg`onish davri ilmlari orqali oyoqqa turgan G`arb sivilzatsiyasi aynan protestant mehnat etikasi tufayli taraqqiyotida Sharqdan ilgarilab ketdi.<sup>1</sup>

Albatta, G`arb sivilzatsiyasining Sharq sivilzatsiyasidan ilgarilab ketishida dengiz yo`llarining ochilishi, natijada Buyuk Ipak yo`liga ehtiyojning kamayishi, geografik kashfiyotlar ko`proq sabab bo`lgan bo`lsada, menimcha, bizning fan va texnika sohasida XV-XIX asrlarda G`arbdan ortda qolishimizda islom dinining g`oyat ortodoksal, sufizmning reaksiyon qanotlari ta`limotlarining salbiy ta'siri ko`proq bo`lgan. Shuning uchun hozir siyosiy saxnamizda o`rtा asrlar qadriyatlarini yangi davrlarda reanimatsiya qilishga urinuvchi, e'tiborimizni atrosga va kelajakka emas, balki ko`proq orqaga, o`tgan zamон va uning qadriyatlar tizimiga qaratishga urinayotgan ayrim olimlarning g`oyalari modernizatsiya siyosatidan uzoqdir. Albatta, tarixiy xotirasiz kelajak yo`q (I.A.Karimov), bo`lishi ham mumkin emas. Jamiyat hayotidagi vorislik tarixni bilish orqali mumkin bo`ladi. Biroq tarixni o`rganishda dialektik me`yor prinsipi talablari buzilsa – jamiyatda noxush holatlar ko`payadi. Diniy ekstremizm va mutaassib-chilik mafkurasining xuruji ham o`z-o`zidan kelib chiqmaydi, bunday g`oyalalar bir tomonidan sekulyarizm prinsipi zaiflashgan holatlarda, ikkinchi tomonidan, diniy ishlarga bilib-bilmasdan aralashish jarayonlarida xujumga o`tadi, o`zicha diniy haqiqatni o`rnatmoqchi bo`ladi.

Modernizatsiya siyosati bunday xurujlarga barham beribgina qolmay, jamiyatimizni o`rtा asr an'anaviy jamiyatini barpo etish vasvasasidan uzoqlashtiradi, jahon hamjamiyati ketayotgan magistral taraqqiyot yo`li de-

<sup>1</sup> Bu haqda qarang: М. Вебер. Теория ступеней и направлений религиозного неприятия мира. – Изб. произв. – М.: Прогресс, 1990. С. 307–415. М. Вебер Протестантская этика и дух капитализма. – Изб. произв. – М.: Прогресс, 1990. С. 61–306

\* Bu yerda biz Markaziy Osiyo sivilzatsiyasini nazarda tutmoqdamiz – А. +.

mokratiya va fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo`lidan og`ishmaslikni ta'minlaydi.

Markaziy Osiyoda jamiyatni modernizatsiyalashtirishdagi muhim bosqich – jadidlar harakati bilan bog`liq.

“Jadid” deganining o`zi arabcha “yangi”, “yangilash”, “isloh qilish” degan ma`noni anglatadi.

Turkistonda, turkiy zabon xalqlar orasida jadidizm harakatini yoyilishida buyuk Qrim tatar allomasi, modernizatsiya jonkuyari Ismoil Gaspar o`g`lining xizmatlari beqiyosdir. U «tilda, dilda va ishda birlik” g`oyasi bilan bir qatorda chor hukumati zulmidan ezilayotgan musulmon xalqlarini maorifni isloh qilish, yangilash, diniy bilimlar bilan bir qatorda dunyoviy bilimlarni ham o`rganish orqali qaddini rostlab olishi, ikkinchi darajali xalqlar (I.Karimov) mavqeida qolib ketmasliklarining birdan bir yo`li ekanligi haqidagi g`oyalarni o`ta jasorat va kuyunchaklik bilan ayta oldi. Bu g`oyalalar - Turkiston xalqlarining modernizatsiya yo`lidagi muhim bosqich bo`ldi. Ushbu g`oyalalar Turkiston o`lkasining ma`rifatchilari – Muqimiyy, Furqat, Behbudiy, Fitrat, Cho`Ipon, Avloniy, U.Nosir, X.Shams. Botu va boshqa xalqparvar ziyolilar tomonidan qabul qilindi va yanada rivojlantirildi.

Tadqiqotchilar R.Sharipov va F.Muhiddinova larning ta'kidlashlaricha “jadidlar mustamlaka Turkistonning real tarixiy sharoitlaridan kelib chiqib, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalardagi muammolarni hal qilishning birdan-bir omili maorif deb bildilar”.<sup>1</sup>

Jamiyatni modernizatsiyalashtirish o`sha paytlarda nafaqat chor hukumatiga, balki bolshevistik siyosiy tartibga ham xush kelmas edi. Shuning uchun bolshevizm o`ziga xos g`ayriinsoniy va g`ayritabiyy “modernizatsiya” siyosatini olib bordi – mahalliy xalqni ona tilidan, dinidan va tarixidan judo qilish, uni daxriy va tarixiy xotirasiz qilish, avlodajodlarini unuttirish, bir so`z bilan ifodalaganda “manqurt” qilish siyosatini yurgizdilar.

Buning uchun ular mahalliy xalqni tarixiy qadriyati – mulkdan begona qildilar (kollektivlashtirish), davlat mulkiga qaram, to`be holatiga tuishirdilar, har qanday individual ijodkorlik, xususiy tadbirkorlik va tashabbuskorlikdan uzoqlashtirdilar.

Sho`rolar davrida jamiyatni modernizatsiyalashtirish goh ochiq va goh yashirish aholini ruslashtirish, tarixiy ildizidan begonalashtirish maqomida kechdi. Eng daxshatlisi – mahalliy xalq jahon hamjamiyatidan

<sup>1</sup> Sharipov R.X., Muxiddinova F. O`zbekiston xalqlari siyosiy-shuquqiy ta`limiotlari tarixi (XIX asr oxiri – XX asr boshlarij. T.: Toshkent Davlat yuriqidik instituti. 2004 y., 126 b.

ayirildi, jahonga “temir parda” tortildi, Turkiston xalqlari nafaqat Farbdan, hatto tarixan bordi-keldi qilib kelgan qo’shni Sharq mamlakatlardan ham uzelib qoldi.

1991 yilgi mustaqillik bunday holatga barham berdi. Xalqimiz mustaqillik sharofati bilan nafaqat o’zining mustaqil va erkin taraqqiyot yo`lini, balki jamiyatni yangilashga, isloh etishga qaratilgan eski o’zanini – M.Behbudiy, U.Nosir, A.Fitrat, Cho`lpon, A.Avloniy, A.Ikromov. F.Xo`jayev va boshqalar orzu qilgan taraqqiyot yo`lini yana topdi, avlod-ajdodlar vorisligi an’analari yana tiklanishiga doir huquqiy kafolatni qo`lga kiritdi.

Shunday qilib, mustaqillik xalqimiz rivojlanishida modernizasiyaning uchinchi tarixiy bosqichini boshlab berdi. Bu bosqich – o’z mohiyati va maqsadiga ko`ra o`ta ezgu va yuksak maqsadga - jamiyatimizni rivojlangan mamlakatlar hayoti darajasiga olib chiqish, har bir insonga munosib hayat sharoitlari va imkoniyatlarini yaratishga qaratilgandir.

Jamiyatni modernizatsiyalashtirish serqirra hodisadir, u inson va jamiyat hayatining deyarli barcha jabhalarini – ma’naviy-madaniy, ma’riifiy, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, mintaqaviy va global munosabatlarini qamrab oladi.

Mazkur risolada sanab o’tilgan ijtimoiy munosabatlarning barchasi emas, balki ijtimoiy-siyosiy, mintaqaviy va global, xavfsizlik va milliy rivojlanish bilan bog`liq bo`lgan tomonlari yoritiladi, mamlakatimiz rivojlanishi istiqbollarining ayrim strategik va metodologik jihatlari haqida mulohaza yuritiladi.

## **1. An'anaviy jamiyat va undan zamonaviy jamiyatga o'tishning mahalliy xususiyatlari**

Sobiq sho`rolar tuzumidan halos bo`lgan jamiyatni siyosiy taraqqiyotini avval huquqiy, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati talablariga muvofiq siyosiy tizimini o`zgartirishsiz tasavvur etish qiyin. Chunki o'tish yoki jamiyatni yangilanish davrida siyosiy boshqaruvning eski usullari va shakllarining muayyan muddatda saqlanib qolishligi tabiiydir. Eskirgan, umri tugagan boshqaruv an'alarini o`rniga yangicha boshqaruv an'alarini, qadriyatlari va usullarini joriy etish bir daqiqali hodisa bo`lmay, muayyan axloqiy tanlov jarayoni bilan bog`liq bo`lgan tarixiy davrni taqozo etadi.

Siyosiy ma'noda modernizatsiya – bu fuqarolarni jamiyat siyosiy hayotidagi ishtirokini faollashtiruv, uni o`zgartirishdan manfaatdorligini oshirish, jamiyatni zamoniylashtirishdir. Amaliyot ko`rsatishicha, jamiyatni modernizatsiyalashtirish zamonaviylashtirishga ko`p hollarda bir tomonidan, siyosiy tizim va siyosiy tartib o`rtasida, va ikkinchi tomonidan esa qonuniylik bilan jamiyat an'anaviy hayoti o`rtasida yuzaga keladigan ziddiyatlar to`sinqinlik qiladi. Eski siyosiy tizimdan meros bo`lib qolgan ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan boshqaruv stili zamonaviy jamiyatning huquqiy bazasini yaratish bilan darhol yo`qolib ketmaydi. Jamiyatning demokratik modeli (taraqqiyotning "o`zbekona" modeli) bilan siyosiy tartib o`rtasidagi ziddiyat siyosiy boshqaruvning ma'muriy – buyruqbozlikka asoslangan an'alariga barham berishsiz hal etilmaydi. Afsuski, jamiyatda zaruriy siyosiy madaniyatning zafligi sababli ijtimoiy axloq mavjud ijtimoiy-siyosiy an'alarни ijtimoiy hayotda demokratik an'alar va qadriyatlarning qaror topishi uchun asosiy to`sinqilar deb emas, balki odatiy bir hol deb tushunadi.

Siyosiy hokimiyatni ma'lum darajada siyosiy vorislik orqali qo`lga kiritgan va amalda "sotsialistik g`oya" ga sodiqlik ruhida tarbiyalangan sobiq siyosiy elita modernizatsiyalashtirishning dastlabki bosqichlarida o`zini demokratik qadriyat va institutlarni tarafdori, deb ko`rsatishga urin-ganligi bilan amalda ko`p hollarda siyosiy mimikriya va siyosiy kombinatsiyalar bilan ovora bo`ladi.

Jamiyatning ijtimoiy hayotidagi bu holat taajubki siyosiy, iqtisodiy va huquqiy sohada emas, balki ko`proq jamiyat axloqi bilan bog`liqligi oddiy siyosiy taxlil natijasida ravshan bo`ladi. Ma'muriy – buyruqbozlikka asoslangan siyosiy tizimning axloqiy asoslariga rasman barham berilgan bo`lsa-da, uni tarixiy ildizlari mustaqillikning dastlabki yillarida ijtimoiy

hayotda saqlanib qolibgina emas, balki, ijtimoiy hayotning yangicha siyosiy va huquqiy tamoyillariga moslashishga urinadi.

Natijada rasman e'lon qilingan demokratik taraqqiyot yo`li an'anaviy jamiyat ruhiyati saqlanib qolganligi sababli amalda qonunchilikning, an'anaviy ijtimoiy-taraqqiyot axloqiy asoslari taqozo etgan bo`sh "vagon"larining harakatini yuzaga keltirdi. Shuning uchun mustaqillikning dastlabki yillarda yaratilgan qonunlar samaradorsizligining sabablari ay-nan ijtimoiy axloq sohasi bilan bog`liqligi bilan izohlash mumkin. Eski axloqiy an'analar shaklan demokratik bo`lgan qonunlar bilan uyg`unlasha olmaganligining sababi - demokratiyaning umumjahon e'tirof etgan prinsiplariga mos bo`lgan yangilangan ijtimoiy-axloqiy paradigmanning yaratilmaganligi bilan izohlanishi mumkin. Mustaqillikka erishilgach, jamiyat g`arbona (gohida keng ma'noda talqin etiluvchi) umuminsoniy siyosiy va huquqiy qadriyatlar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo`ldi. Biroq bu imkoniyat jamiyat hayotini tashkil etish va boshqaruvda mustahkamlangan eskicha an'analar hayotiyligi sababli ijtimoiy voqe'likda tez orada qaror topa olmadi. Shu sababli jamiyatda demokratik institutlarining qaror topishi eski jamiyatdan meros bo`lib qolgan an'analar to`sig`iga, qarshili-giga duchor bo`ldi. Adolat yuzasidan qayd etish lozimki, jamiyatda yangicha qadriyatlarning qaror topishiga to`sinqinlik qiluvchi eski an'analarning ta'siri tarixan G`arb jamiyatlarida ham kuzatilgan. Shu bois G`arb mamlakatlalangan. Shu bois G`arb mamlakatlaonaviy jamiyatga o`tish tarixiy tajribasi biz uchun favqulodda qimmatlidir. Shu ma'noda nafaqat G`arbda, balki hozirgi kunlarda Sharq mamlakatlarida ham o`ta ommaviy-lashib borayotgan yirik politolog va sotsiolog olim M. Veberning "Protestant etikasi va kapitalizmning "ruhi" nomli risolasi diqqatga sazovordir (1905 y.). M. Veber kapitalizmning hozirgi postindustrial holatiga olib kel-gan taraqqiyot mantig`ini o`ta aniq tasvirlab beradi. Uningcha kapitalistik taraqqiyot inson ma'naviyatining uziy qismi – diniy e'tiqod islohoti bilan bog`liqdir. Ma'lumki, katolik cherkovi G`arb sivilizatsiyasiga dunyoviy ishlar uchun ma'naviy ozuqani bera olmas edi.

M. Veber fikricha, an'anaviy etosdan (ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va kapitalni ko`paytirishga intilish yo`qligida) kapitalistik etosga (kapitalni ko`paytirishga intilishni ustuvorligi) o`tish uchun inson tafakkurini tubdan o`zgartirish zarur. Bunga faqat diniy Reformatsiya (ya'ni islohotlar) orqali erishish mumkin. Inson hayotining asl mohiyatini ning o`limidan so`ng, jannatdan qidiruvga undovchi katolitsizmdan farqli o`laroq protestantizm Garb kishisini shaxsiy yutug`ini dunyoviy hayotdan qidirish g`oyasi bilan qurollantiradi. Boshqacha ifodalaganda, protestan-

tizm inson diniy va dunyoviy hayotining birligini targ`ib qiladi. Bu ta'li-motga ko`ra insonning narigi dunyodagi hayoti qanday bo`lishligi uning bu dunyodagi qilgan ishlariga bog`liq. Shunday qilib, protestantizm in-soniyat tarixida birinchi bor inson hayotini sekulyarizatsiyalashadir, ya`ni cherkov hayotini ortiqchaligini ta'kidlab, inson farovonligi uchun zaruriy omil - yaratuvchan mehnatni targ`ib qiladi.

Bunda protestantizm g`oyalaringin Sharqda o`rta asrlarda ommaviy-lashgan sufizm, xususan naqshbandiya etikasiga o`xhashligi ko`zga tashlanadi. Naqshbandiya etikasi ham insonning yaratuvchanlik mehnatiga urg`u beradi va bir vaqtning o`zida Olloh nomini unutmaslikni ta'kidlaydi (“Dil ba yor-u, dast ba kor”, ya`ni “qalbingda Olloh nomini saqlash bilan birga qo`ling mehnatda bo`lsin”).

Yuqoridaqgi axloqiy paradigmani nemis klassik falsafasining yirik namoyondalaridan biri V.F.Gegel o`ta mohirona ifodalaydi. Gegel “Tarix falsafasi” da ta'kidlashicha, “aynan protestantizm Xudo bilan insonni yarashtira oldi va erishilgan yarashuvga muvofiq aynan dunyoviylik haq g`oyaga ega degan anglashuv yaratildi va aksincha, muqaddas dunyoviylik yovuzlik, egzulikka qodir bo`lmagan qandaydir tashqari bir narsa deb tu-shunilar edi. Endi esa davlatda axloqiylik va adolatlilik ilohiy ekanligi va bu orqali Yaratuvchining irodasi ifodalanib, mazmun jihatdan bundan yu-qori va muqaddas narsa yo`qligi namoyon bo`ladi”.

M.Veber ta'biri, aynan shu g`oyada, ya`ni Xudo g`oyasi bilan dunyoviy hayot qo`shiluvi g`oyasida kapitalizmnинг “ruhi” asoslangandir.

Ta'kidlash joizki, aynan shu narsa G`arb sivilizatsiyasida misli ko`rilmagan yutuq bo`libgina qolmay uni an'anaviy jamiyatdan zamonaviy jamiyatga o`tishi uchun ma'naviy asos ham bo`ldi. G`arb sivilizatsiyasining ilmiy-texnikaviy yuksalishi, demokratiya prinsiplarining hayotda qaror topishi, individ erkinligini yuzaga kelishligi, individualizm etikasini shakllanishi bilan bog`liq, G`arb sivilizatsiyasida ijtimoiy va ilmiy-texnikaviy yuksalishning asosi bo`lib jamiyatning boshqa a zolari bilan o`zaro almashuv munosabatlariga kiruvchi individ xizmat qiladi. Bunday kishi uchun G`arb sivilizatsiyasida axloq inson erkinligining bir vaqtning o`zida ham asosi va ham natijasiga aylanadi. Mazkur axloqqa binoan jamiyat erkin shaxslarning oliy sintezidir. Jamiyat insonning tabiiy huquqlarini kafolatlashi zarur. Aynan shu g`oyada hozirgi postindustrial jamiyatlar axloqining mohiyati yotadi.

Shunisi taajublanarlik, G`arb sivilizatsiyasida an'anaviy jamiyatdan zamonaviy jamiyatga o`tish inson xulq-atvorining ichki boshqaruvchisi bo`lmish diniy axloq orqali amalga oshirildi. G`arbona tasavvurlarga ko`ra

huquqiy davlat fuqarolarining qonunga itoatkorligi insonning ezgu irodasiga bog`liq. Bu fikrni o`z vaqtida Gegel bir muncha aniq ifoda etadi: "Huquq va axloq asosida inson irodasi yotadi".<sup>1</sup>

Mazkur ta`limotga ko`ra insonni ezbilikka majbur qilishning tashqi shakllari samarasizdir, chunki ular inson xulq-atvoriga ta'sir o`tkazishning muayyan chegarasiga ega. Boshqacha qilib ifodalaganda, inson nuqsonlari qonun vositasida faqat uning ichiga quviladi, biroq butunlay yo`qolmaydi.

Hozirgi zamон G`arb sivilizatsiyasining inson huquq va erkinlariga e'tibor berishligi an'anaviy jamiyatdan zamонавија jamiyatga, ya'ni inson xulq-atvorini ichki idorachisi, ya'ni e'tiqodga qaratilgan tabiiy natijadir. Shu bois G`arb jamiyatining tajribasining ahamiyati shundaki, aynan u G`arb jamiyatini industrial va postindustrial jamiyatga aylanishini yorqin ifoda etadi.

Hozirgi sho`ro tizumidan halos bo`lgan o`zbek jamiyatni xuddi G`arb sivilizatsiyasi 17-18 asrlarda boshdan kechirgan jarayonlarni o`z boshidan kechirmoqda. Bunday xulosa uchun muayyan asoslar ham mavjud:

6. O`zbek jamiyatni o`z tarixida birinchi bor hokimiyatlar bo`linishi va konstitutsion demokratiya prinsiplari asosida faoliyat ko`rsatmoqda.

7. Ateizm, jamiyat va shaxs hayotini keskin sekulyarizatsiyasi jamiyat a`zolarida diniy axloqni tumtoqlashuviga, ma`naviyatni pachaqlanishiga olib keldi.

8. Sho`ro hukumati yillarida ikkiyoqlama axloq jamiyat uchun alohida va shaxs uchun alohida bo`lgan axloq shakllanishi natijasida insonni ijtimoiy axloq va huquq normalaridan begonalashuvi yuzaga kelди.

9. An'anaviy jamiyat G`arb huquqiy davlati va fuqarolik jamiyatining andozasini inson va jamiyat o`rtasida paternalistik munosabatlarning ustuvorligi sababli mustaqillikning dastlabki yillarida tez qabul qila olmadи.

10. Jamiyatda din va dunyoviy hayotning o`zaro munosabati an'anaviy jamiyatda o`ta zaiflashdi.

An'anaviy jamiyatni siyosiy taraqqiyoti ma`naviy sohani huquqiy davlat siyosiy institutlari va fuqaroviy jamiyatning axloqiy talablari asosida o`zgartirishni taqozo etadi. Bu benihoyat mushkul masala bo`lib, islom arkonlari va xristianlik arkonlari e'tiqod asoslari bo'yicha bir-biriga mos kelsa-da, ayrim jihatlari bilan bir-biridan farq ham qiladi.

An'anaviy islom jamiyatlarida tarixan shunday holat yuzaga kelganki. unda dunyoviylik doimo diniy e'tiqodga bo`ysuntiriladi. Buning o`ziga yarasha sabablari mavjud. Ma'lumki, islom ekstremistik kuchlarin-

ing faollashuvi natijasida jamiyatda diniy qadriyatlarni ko`pincha tinchlik va osoyishtalikka, fuqarolararo totuvlik va hamkorlikka nisbatan potensial xavf degan tasavvur shakllandi.

Islom darhaqiqat an'anaviy jamiyatda bir vaqtning o`zida ham e'tiqod va ham mafkura, o`rta asrlarda esa davlat siyosati ham edi. Sharqshunos olimlardan VI.Plastun ta'kidlashicha "islom ayrim islomshunos, huquqshunoslар (birinchi navbatda shia oqimi vakillari) izohlashicha, ommaviy dunyoqarashni shakllantirishda asosiy rolni iqtisodga ham, mafkuraga ham, falsafaga ham emas, balki siyosatga beradi. U jamiyat qurilishining tamal toshi hisoblanadi".<sup>1</sup>

An'anaviy jamiyatni zamonaviylashtirish mazkur holatni hisobga olmasdan mumkin bo`lmaydi, zero sho`ro jamiyatida tarixan shunday vaziyat yuzaga kelgan ediki, inson hayoti ikki mafkura iskanjasida rasmiy sovet, ateistik va yashirin, nolegal islom mafkurasi ta'sirida edi.

Mazkur an'ana muayyan darajada mustaqillikka erishilgach, biroz bo`lsa da zaiflashdi. Biroq holat ijobji tomoniga unchalik o`zgarmadi chunki sho`rolar davrida tarixan yangicha, shartli ravishda Homo Sovietius deb ifodalanuvchi insonning yangicha tarixiy tipi shakllangan bo`lib, bunday inson hech qanday ikkilanmay e'tiqod qonunlarini ham va dunyoviy qonunlarni ham mensimaydi. U ikkiyuzlamachi ozgina ateist va ozgina nomigagina dindor, u rasman islom an'analariga bo`ysunadi janazalarda, xotira kunlarida ishtirok etadi, diniy bayramlarni nishonlaydi, ro`za ham tutishi mumkin. Biroq u o`z e'tiqodi va xatti-harakatlarida samimiy emas. Diniy an'ana va odatlarga faqat ijtimoiy norozilikdan qo`rqqanligi uchungina bo`ysunadi.

Ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan siyosiy tizim, sotsializm yana bir illatni shakllantirdi. Bu fuqarolar tomonidan qonunchilikni mensimaslik, uni tan olmaslikdir. Buning sababi insonda qonunga itoatkorlikning ichki ma'naviy mexanizmini yoki M.Veber ta'biri bilan ifodalanganda "ma'naviy iroda" ni yo`qligidir. Fuqarolarda ma'naviy irodaning yo`qligi – an'anaviy jamiyatning eng dahshatli merosidir. Homo Soveticus tipdagi fuqarolarda erkin va ezgu ma'naviy iroda o`rniga majburlash mexanizmini ishlatalishini taqozo qiladi. Zamonaviy jamiyatda qonun va huquq tartibot inson e'tiqodi kabi muqaddas hisoblanadi. Bu fikrni davrimizning qator ko`zga ko`ringan politologlari ham qo`llab-quvvatlashadi. Masalan, mashhur olim I.A.Vasilenko "insonparvar qonunlarning qaror topishi va

<sup>1</sup> Qarang: Владимир Пластун. Такой разный ислам// Центральная Азия и Кавказ. Стокгольм. 2000. №5 (11). С.15.

demokratik institutlarning shakllanishi G`arbda (ko`p hollarda) e'tiqodli xristianlar faoliyati natijasida yuz berdi”,<sup>1</sup> deb ta'kidlaydi.

Ushbu fikrni qat'iyroq shaklda o`z vaqtida amerikalik politolog F.Berri ham ifodalaydi: “ta'kidlash joizki, qayerda ijtimoiy va shaxsiy yuk-salishga qaratilgan yaratuvchanlik bor bo`lsa, uni o`ndan to`qqiz holatida xristianlikning ilhomlantruvchi ta'sirini topasiz”<sup>2</sup>.

O`zbek jamiyati yuz yillar davomida shariat qonunlari asosida ya shadi. Shariat qonunlari an'anaviy Sharq jamiyatining asosidir. Bolshevikm hukmronligi davrida hatto ashaddiy ateizm va ateistik tashviqot xalq xotirasidan e'tiqod asoslarini yo`q qila olmadi. Biroq bu e'tiqod bora-bora zaiflashdi, jamiyatda hurmat qilinmaycigan bo`lib qoldi.

E'tiqod erkinligini cheklanishi, jamiyatning shafqatsizlarcha sekulyarizatsiyalasila sekin-asta e'tiqodni zaiflashtirdi, uning ma`naviy asoslariga putur yetkazdi. Natijada inson an'anaviy e'tiqod bilan e'tiqodni ta'qiqlovchi yangi siyosiy tartib oralig`ida qoldi. Mazkur holatning fojiaviy tomoni shundaki, inson sotsialistik siyosiy tartib sharoitida qonun va huquqiy normalarga nisbatan befarq va loqayd bo`lib boradi. Yangicha sotsialistik qonunchilik tomonidan yangicha axloqiy paradigma (daxriylik, e'tiqod-sizlik) faqat rasman, sirdangina qonunchilik bilan uyg`unlashdi. Natijada, bu holatda bo`lgan inson o`z e'tiqodini yo`qotadi yoki nafaqat e'tiqodga, balki huquqga ham befarq bo`lib qoladi. Proletariat diktaturasi ma`naviyat sohasida qat'iy majburlash siyosatini olib borib hayotda ateizmni qaror toptirishga urindi.

Vasilenko ta'kidlashicha “ijtimoiy hayotni majburlash (huquqiy jihatdan bo`lishligiga qaramay) yordamida tartibga solishga urinish nafaqat ma`naviy qullikka, balki o`zini namoyon etishning turli-tuman nozik yo`llarini qidiruvchi yovuz kuchlarning ham noroziligidagi olib keladi”<sup>3</sup>.

Boshqaruvning ma`muriy-buyruqbozlikka asoslangan usuli majburlashga asoslangan bo`ladi. Har qanday majburlov, hatto huquqiy bo`lsa-da, inson faoliyatining barcha jihatlarini qamrab ola olmaydi, faqat tashqi ta'sir bo`lib qoladi. Inson e'tiqodlari, ichki olami, qiziqish va manfaatlari hamma vaqt ham majburlovga bo`ysunavermaydi.

Tarixan shunday bo`ldiki, sotsializm davrida inson ikkiyuzlamachi bo`lishga majbur edi. Bir tomondan, rasmiy qonun va normalarga itoat et-gandek bo`lsa-da, ikkinchi tomondan o`z ichki dunyosi, e'tiqodi, intilish, qiziqish va manfaatlari hukmiga itoat etar edi. Bu ma`naviy holatning eng dahshatli tomoni shu ediki, bunday holat sekin-asta muayyan ma`naviy-

<sup>1</sup>Qarang: Василенко И.А. Политическая глобалистика. Учебное пособие. FM. Логос. 2000. С.198.

<sup>2</sup>Qarang: Bar: F. Failures and Opportunities // Christianity and Crisis // L., 1933 – Р. 131

<sup>3</sup>Qarang: Василенко И.М. Политическая глобалистика. Учебное пособие. -М-. Логос. 2000. С.199.

axloqiy an'anaga aylanib bordi. Sotsialistik siyosiy tartibni (“proletariat diktaturasi”ni) o`rnatalishi bilan kapitalistlar, boylar, quloglar, ruhoniylar nafaqat iqtisodiy va huquqiy jihatdan, balki jismonan ham yo`q qilindi. “Proletariat diktaturasi” faqat nomigagina bo`lib, aslida esa ishchilar sinfi davlat-byurokratik apparati tomonidan shafqatsiz ekspluatatsiya qilinuvchi sinfga aylangan edi. Dehqonlar sinfining holati bundan ham battar edi. Majburiy kollektivlashtirish oqibatida dehqonlar sinfi yerdan va ishlab chiqaruvchi vositalaridan mahrum bo`lib kolxoz dalalarida arzimagan maoshga xizmat qilar, o`z tomorqasi hisobiga mahsulot yetkazar va hatto undan ham soliqlar to`lar edi.

Alovida “tabaqa”ni tashkil qiluvchi ziyolilar esa ayrim hurfikrliliklari uchun doimo davlat xavfsizlik organlarining diqqat markazida turishar edi, XX-asrning 20-30 – yillari davomida hurfikrligi uchun o`nlab madaniyat, maorif, fan arboblari, injener va texnik xodimlar jismonan yo`q qilindi. Bu narsa jamiyatda qo`rquv hissini kuchaytirdi, hukmron partiya-davlat amadorlarining qo`g`irchog`iga aylanganlar va mavjud sharoitga moslasha olganlargina tirk qolishdi.

Sotsializm davrida partiya-davlat arboblari, armiya qo`mondonlari, davlat xavfsizligi organlari rahbarlaridan tarkib topgan alovida sinf shakllandi. Aynan shu sinf ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy siyosatning boshida turishdi, amalda “davlat” va “kolxoz-kooperativ” mulkiga egalik qilishdi, qo`shimcha maxsulotni o`zlashtirdi, har qanday hurfikriikni, so`z erkinligini shafqatsiz jazoladi. Sotsializm sharoitida har qanday milliy farqlar mavjudligi inkor etildi. Ochiqdan-ochiq ruslashtirish siyosati olib borildi. Kishilar birligining yangi tarixiy shakli – “soviet xalqi” millat deb e`lon qilinib, kelgusi etnik va millatlararo ziddiyatlar uchun sharoit yaratildi. Bularning barchasi muayyan an`analarni yuzaga keltirdi, mammakatda yolg`on demokratiya va ijtimoiy tenglik elementlarini o`z ichiga olgan yarim feodal tuzumni shakllantirdi.

Bu sharoitda tarbiyalangan kishi o`zining etnik xususiyatlariiga qaramay shunday an`analarning yaratuvchisiga aylanib jamiyat an`analarini barqarorligini ta`minlaydi. Yuqorida tilga olingan Homo Soveticus an`anaviy jamiyatning aynan shu tipdagisi kishisi bo`lib, u hozir postindustrial jamiyatga o`tish davrini boshidan kechirmoqda. Bu borada Markaziy Osiyo xalqlari, ayniqsa “sotsializmga kapitalizmni chetlab o`tgan” O`zbekiston xalqi alovida xususiyatga ega. Tarix taqozosini bilan bu xalqlar endi zamonaviy, postindustrial jamiyatga taraqqiyotning industrial bosqichini chetlab o`tishlari lozim bo`lmoqda.

Buning uchun muayyan asoslar mavjudmi? Postindustrial jamiyatga o`tishning qanday shartlariga javob berish mumkin?

Bizningcha O`zbekistondagi an'anaviy jamiyatni modernizatsiya-lashtirishning asosiy shartlaridan biri – siyosiy modernizatsiyadir. De-yure bunday shartga sharoit bor, biroq de-fakto modernizatsiya kutilgan natijani hali bera olgani yo`q. Buning sababi – modernizatsiya uchun zaruriy shartlardan – ko`ppartiyaviylikni, siyosiy muholifotni, erkin ommaviy axborot vositalarini, haqiqiy demokratiyaning institutlaridan biri – hokimiyatlar bo`linishi prinsipining jamiyat siyosiy madaniyatining zaifligi sababli to`laqonli faoliyat ko`rsata olmayotganligidir.

Siyosiy madaniyatning nochorligi eskicha boshqaruv usuli mexanizmini saqlanib qolayotganligiga, oqibatda jamiyatni modernizatsiyalashuvi jarayonini sekinlashtirilishiga olib kelmoqda. Bunday holat nafaqat O`zbekiston uchun, balki barcha Markaziy Osiyo mustaqil yosh davlatlari uchun xosdir. Taniqli Amerika politologi S.Xantington ta`kidlashicha, “Markaziy Osiy mamlakatlari demokratizatsiyaning uchinchi to`lqinida turishibdi”.<sup>1</sup>

Zamonaviy G`arb jamiyatlari yuksak taraqqiy qilgan demokratik institutlarga – ko`ppartiyaviylikka, muholifot mavjudligiga, hokimiyatlar bo`linishiga (masalan, AQSH da Kongress, Prezident va Oliy sud o`rtasida) asoslangan bo`lib, yuqori darajada taraqqiy etgan siyosiy madaniyatga asoslangandir.

Demokratik, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyat qurishning o`zbekona modeli demokratik institutlarni sekin-asta evolyutsion rivojlanishiga asoslangandir. An'anaviy o`zbek jamiyatini modernizatsiyalashirishga qaratilgan siyosiy kurs “kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari” degan g`oyaga asoslanadi. Modernizatsiyalashirishning mazkur ko`rinishini bemalol etatizmga kiritish mumkin. Etatizmga ko`ra davlat jamiyatning bosh islohotchisi deb qaralib, boshqaruvning an'anaviy norma va usullarining modernizatsiyalashirishga to`sinqlik qilishligi nazardan qochiriladi. Shuning uchun de-yure huquqiy, demokratik davlatning huquqiy bazasi yaratilgan bo`lishligiga qaramay, de-fakto vakillik institutlari to`laqonli faoliyat ko`rsatmaydi, hokimiyatlar bo`linishi nomigagina bo`lganligi sababli mamlakatda jamiyatni demokratiyalashirish jarayonini xalqaro obro`yini to`kadi. Jamiyatda partiyaviy krizis hukm surishi, ommaviy axborot vositalarining amalda mustaqil emasligi – demokratiya va modernizatsiyani bir yoqlama tushunish natijasidir.

<sup>1</sup> Qarang: Huntington S. The Third Wave. Demokratization in the late Twentieth Century. University of Oklahoma Press. 1999. – p. 39.

An'anaviy jamiyatni zamonaviy, modernizatsiyalashgan jamiyatga aylantirishda dunyoning ayrim taraqqiy etgan va tez rivojlanayotgan mamlakatlarning tajribasi katta e'tiborga sazovordir.

Modernizatsiya hodisasini ko`zga ko`ringan tadqiqotchilaridan biri D.Apter ta'kidlashicha, "an'analarни yo`qotmasdan turib jamiyatni modernizatsiyalashtirish – individni hokimiyat bilan bog`liq bo`lgan yangicha axloqiy sintezi qidirishi zaruriyatini tug`diradi".<sup>1</sup>

O`zbekistonni modernizatsiyalashgan jamiyatga o`tishi uchun mustamlaka davrini boshdan kechirib so`ng zamonaviy jamiyat bosqichiga ko`tarilgan Sharq mamlakatlarining tajribasi katta ahamiyatga ega.

Shu ma'noda O`zbekiston uchun hozirgi Hindiston tajribasi muhim ahamiyat kasb etadi. Hindiston o`z siyosiy taraqqiyotida jamiyatni rivojlangan Yevropa mamlakatlarining modernizatsiyalashtirish tajribasi asosida o`zgartirdi. Volodin A.G. aytishicha "Hindiston modernizatsiyalashtirish bosqichiga rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy va siyosiy taraqqiyot ilmiy-teknika revolutsiyasi jarayonlari ta'sirida itgaritamna harakatga kirishgan va bu "quvib yetish" strategiyasini hozirgi sharoitlarda birdan bir hayotiy vosita ekanligiga aylantirgan edi".<sup>2</sup>

Hindistonda modernizatsiyalashgan jamiyatga o`tish ildizlari ingliz vesmister parlament-demokratik hokimiyat tizimiga borib taqaluvchi mustamlakachilik davrida shakllangan siyosiy va huquqiy sohalardagi tajriba asosida tarbiyalangan hind ziyyolilari qo`liga o`tgan hokimiyat faoliyati bilan bog`liq bo`ldi.

Hindistonda siyosiy taraqqiyot saylov kompaniyalarida erkin faoliyat ko`rsatuvchi musobaqadosh partiyalar faoliyati bilan bog`liq. Umum davlat tili bo`lib hanuz ingliz tili hisoblanadi. O`zbekistonda mustamlaka sharoitida shakllangan ma'muriy buyruqbozlik an'analaridan farqli o`laroq Hindistonda mustamlakachilarning "yordami" bilan hokimiyatdan mustaqil ish yurita oladigan sud hokimiyatini erkin faoliyatini amalga oshirish tajribasi yo`lga qo`yildi. Hindistonda bundan tashqari sud mustaqilligi bilan bir qatorda hokimiyatlar bo`linish g`oyasi va individual erkinlik g`oyasi ham Farb jamiyatidan qabul qilindi. Mazkur xususiyatlar huquqiy davlatning asosiy prinsiplarini tashkil etadi. Bunday standartlar va ayniqsa vesmisterlik parlamentchilik demokratiyasi, sudloving inglizcha prinsiplari va ma'muriychilik Hindistoning an'anaviy davlatchiligining zaif byurokratik institutlari, fikrlar, qarashlar xilma-xilligiga moyilligi bi-

<sup>1</sup> Qarang: Apter D. The Politics of Modernization. The University of Chicago Press. 1965. –P.3/

<sup>2</sup> Володин А.Г. Становление институтов буржуазной экономики. –М.: "Наука". 1989. С.163.

lan mos kelgan edi. Bularning barchasi hozirgi Hindistonning modernizatsiyalanuvi uchun asos bo`la oldi.

Hindiston tajribasining O`zbekiston uchun ahamiyati shundaki, ular ikkisi ham mustamlakachilik davrini boshdan kechirishdi. Biroq Angliyadan farqli o`laroq chor Rossiyasi va keyinchalik bolsheviklar hokimiyati O`zbekistonda dastlab absolutistik va so`ng har qanday hokimiyat bo`linishi, xususiy mulkchilik faoliyati, individ erkinligini istisno qiluvchi davlat-monopolistik tartibni o`rnatdi.

Bunday tartib avtoritarizm an'anasini yaratdi. An'anaviy o`zbek jamiyatni individni jamiyatga (mahallaga) bo`ysunishi prinsipiiga asoslangan bo`lib, bunday jamiyatda shaxsni o`z ichki salohiyatini erkin namoyon etishi uchun imkoniyati qisman cheklanadi. An'anaviy o`zbek jamiyatining yana bir tub xususiyati keng ma'nodagi paternalizmning (yoshi kattalarga so`zsiz itoatda bo`lish) hukmonligidir.

O`zbek oilasidagi paternalizm an'analari tarixan islom diniga borib taqaladi. Shunga ko`ra, an'anaviy o`zbek jamiyatida siyosiy hokimiyatning manbai deb Ollo, yoki Tangri irodasi tushunib kelingan. Bunday an'ana o`zbek jamiyatida tarixan mustahkamlanib Olloho itoat etish keyinchalik hokimga itoat etish bilan aynanlashtiriladi. Buning sababi hokimni, siyosiy hokimiyat boshlig`ini Ollohoning yerdagi noibi, ya`ni vakili deb tushunishning ommaviy ongda diniy mafkura ta'sirida tarixan mustahkamlanib qolganligidir. Bunday an'ana ta'siri hozirgi kunda ham ommaviy ongda hanuz onda-sonda uchraydi. Ollo amriga va uning yerdagi vakili - hokimiyat sohibiga so`zsiz itoat etish tarixiy an'ana bo`lib, sho`ro davrida avtoritar hokimiyatning ma'naviy tayanchiga aylangan edi.

Liberalizm mafkurasiga ko`ra fatalizm va taqdirda tan berish avtoritar hokimiyat manbai bo`lib, hokimiyat, yirik mulk egasi an'anaviy jamiyatda fuqarolardan o`z mavqeiga ko`ra ustun qo`yiladi.

Adolat yuzasidan ta'kidlash joizki, islom diniga binoan Ollo oldida barcha tengdir. Shu ma'noda islom dini egalitardir. Islomda umumiy ummagaga mansublilik etnik va iriqiy mansublikdan muhimroqdir. Fuqarolarning umumiy to`beligi va paternalizm Sharqda tarixda kuchli markazlashgan davlatlarning shakllanishiga ham olib kelgan. Paternalizm an'analari hozirgi kunlarda ham qisman saqlanib qolgan. Mikromuhitdagi (oila) paternalizm va makromuhitdagi (mahalla, jamiyat, davlat) paternalizm tenglik, erkinlik va fikrlar xilma-xilligini (plyuralizm) yoqtirmaydi. Shu bois jamiyatga konstitutsiyaviy demokratiyanii joriy etilishin, huquqiy jihatidan hokimiyatlar bo`linishini rasmiylashtirish bozor iqtisodiyotini va demokratiyaning huquqiy bazasini yaratsada va huquqiy, demokratik davlat va

fuqarolik jamiyatga o`tish uchun sharoit yaratsada, amalda paternalizm va avtoritar siyosiy tartib sharoitida to`laqonli o`zini namoyon qila olmaydi. Chunki bunday jamiyatda fuqarolarning individual tengligi va erkinligi cheklangan bo`ladi.

Hozirgi zamон demokratik, fuqarolik jamiyati paternalizm va siyosiy yetakchining obro`yiga emas, balki qonunlar obro`yi va ustuvorligi, fuqarolar erkinligi va faolligiga tayanadi. Tarix madaniyatiga obyektiv ravishda qonun ustuvorligi va inson erkinliklarini ta'minlanishi tomon harakat qiladi.

Konstitutsiyaviy demokratik siyosiy taraqqiyot yo`li avtoritarizm va paternalizmga mazmunan ziddir, zero unga binoan hokimiyatning birdan bir manbai xalqdir. Shuning uchun an'anaviy o`zbek jamiyatini zamонави-ylashtirish uchun demokratik siyosiy taraqqiyotdan boshqa muqobililik yo`qdir. O`z navbatida diniy mutaassibchilarning islomiy davlat haqidagi vasvasalari shu bois xom xayoldir.

**O`zbekistonda demokratik siyosiy taraqqiyot uchun muayyan harakat** sezilmoqda Jamiyatning iqtisodiy va siyosiy sohalarini liberallashtirish tomon dastlabki qadamlar qo`yildi. G`arb jamiyatini modernizatsiyalashtrishda kuzatilgan “kasallik”lar bugun sho`rolar tizumidan halos bo`lib mustaqil taraqqiyot yo`liga kirgan yosh davlatlar uchun ham xos ekanligi ayon bo`lmoqda. Shu bois siyosiy taraqqiyotdagi ko`pgina muammo va masalalar umumjahon miqyosda an'anaviy jamiyatdan postindustrial sivilizatsiyasiga o`tish jarayoni uchun o`xshash ekanligi tobora ravshan bo`lmoqda.

Demak, ular kelajakda G`arb mamlakatlarida bo`lgani kabi, albatta, hal etiladilar. O`zbekistonda an'anaviy jamiyatdan zamонавија jamiyatga o`tish ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotning turli sohalarida – siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalarda sodir etilib, ijtimoiy hayotda tarixan mustahkamlangan qator an'analar, udumlar va ko`nikmalar bihan uziy bog`liq holda kechadi.

Kishi xatti-harakatida tarixiy taraqqiyot davomida shakllanib mustahkamlangan paternalizm an'analari jamiyatda demokratizm prinsiplarini qaror topishiga, uni modernizatsiyalashishiga to`sinqinlik qiladi. Rasmiy jihatdan paternalizm va cheklangan ko`pchilik (mahalla) fikrini jamoa a'zolari uchun umumiyligi ekanligi tan olinsa-da, analda bunday jamoada shaxs erkinligi hamma vaqt ham ta'minlanmaydi. Hozirda mahal-

laga urg`u berilib, uni kelajakda fuqarolik jamiyatiga o`tishda demokratiyalashtirishning o`zbekona andozasi, deb baholanmoqda.<sup>1</sup>

1999 yilda "Fuqarolarning o`z-o`zini boshqarish idoralari to`g`risida" (yangi tahrirda) qonun qabul qilingan bo`lib, unda mahalla komitetlarining qator vazifa va vakolatlari – mahalla a`zolarini ijtimoiy himoyalash, keksalar haqida g`amxo`rlik, jamoat tartibini saqlash, jinoyatlarning oldini olish, oila va ayollar manfaatini himoya qilish, mahallaning sanitari holati ustidan nazorat, savdo va maishiy xizmat muassasalari faoliyatini nazorat qilish va h.k. sanab o`tilgan.<sup>2</sup> Bu darhaqiqat shunday. Biroq, "mahalla o`zini-o`zi boshqarishning demokratik organi sifatida qayta tiklanmoqda"<sup>3</sup> deyish hali fuqarolik jamiyatining ijtimoiy asosi yaratildi degani emas. Mahalla orqali demokratiya prinsiplari biroz bo`lsa-da ifoda etilsa-da, uni xalqning o`zini-o`zi idora qilishning to`laqonli organi deyish bizningcha. qiyin. Chunki mahalla raisi va uning kotibi lavozimiga hozircha davlat tomonidan maosh to`lanadi va ular muayyan imtiyozga ega (masalan, ular to`la hajmda nafaqa oladilar). Tabiiyki, bunday holatda mahalla hokimiyat va demos o`rtasida vositachiga aylanib, fuqarolarning siyosatini emas, balki hokimiyat siyosatini olib borishga majbur bo`ladi.

Shu bois mahallaga bo`lajak fuqarolik jamiyatining kurtaklari deb urg`u berish uni mutloqlashtirish, tarixan noto`g`ri bo`lsa kerak. Chunki an'anaviy jihatdan mahalla urug` qabilachilik, ibridoij-jamoachilik boshqaruvining tarixiy tipi bo`lib, unda shaxsning individual erkinliklari jamoa irodasiga bo`ysundiriladi. Shuning o`zi fuqarolik jamiyatining asosiy prinsiplari va talablariga to`g`ri kelmaydi. O`zbek jamiyatida fuqarolik jamiyatini yaratish andozasi faqat mahalla, jamoaviy faoliyatga, uning qadriyatlarigagina asoslanadi deb uzil-kesil ta'kidlash mumkin emas. Chunki mahallada paternalizm va avtoritarizm prinsiplari saqlanib qoladi. Fuqarolik jamiyat esa shaxs erkinligiga, fikrlar xilma-xilligiga, jamoa boshlig`ining obro`yiga emas, balki qonun ustuvorligiga asoslanadi. Shuning uchun O`zbekistonda fuqarolik jamiyati butkul mahalla, ya`ni jamoaviy faoliyatga asoslanadi, deyish tarixiy istibol nuqtai nazaridan noto`g`ridir. Kelajakda fuqarolik jamiyatining boshqa siyosiy institutlari ham shakllana boradi.

Zamonaviy jamiyatda inson - maqsad, jamiyat esa vositaga aylanadi, ya`ni individualizm kollektivizmga, ya`ni inson vosita, jamiyat esa maqsad

<sup>1</sup> Qarang. O`zbekiston Respublikasining snasnar, poseika va qishloq, maxalla (mavzej) komitetlari ti<sup>2</sup> iñizomi. Toshkent, 1993.

<sup>2</sup> Qarang: "Правда Востока". 14 май 1999.

<sup>3</sup> Qarang: Арифханова Зоя. Традиционные сообщества в совр. Узбекистане //Центральная Азия и Кавказ. № 4 (10) 2000. С. 55.

bo`lgan holga zid holat yaratiladi. Fuqarolik jamiyatni uchun davlat shaxsga bo`ysundirilgan holatda bo`lib, an'anaviy jamiyatda esa davlat fuqaroviylar jamiyatdan ustuvor mavqega ega bo`ladi. An'anaviy jamiyatlar uchun siyosiy hokimiyat huquqiy normalari, hokimiyat va boshqaruvi organlariga, mafkuraviy ta'sir etish apparatiga va iqtisodiy kuch-quvvatga ega bo`lgan davlat qo`lida bo`lishligi kuzatiladi.

Sharq mamlakatlarda, xususan, Turkistonda davlat an'anaviy ravishda shaxs ustidan cheklanmagan hokimiyatga ega bo`lib, shaxs davlat irodasiga so`zsiz itoatda bo`lgan. Fuqarolik, ya`ni zamonaviy jamiyat esa shaxs manfaatini davlat manfaatidan yuqori qo`yadi, qonun davlatga emas. balki davlat qonunga bo`ysunadi, davlatning manbai demos hisoblanadi.

An'anaviy jamiyatlarda inson ulkan davlat-byurokratik mashinasining faqat kichik murvatiga, obyektiga aylanadi. Zamonaviy jamiyatda esa inson tarixiy jarayonning subyekti xisoblanadi.

An'anaviy jamiyat tarixan inqirozga maxkum, chunki u fuqarolarni zo`ravonlik asosida boshqaradi, fuqarolar huquqlardan maxrum bo`ladi. An'anaviy jamiyatdan zamonaviy jamiyatga o`tish davrida siyosiy yetakchi oldida qator murakkab ijtimoiy-siyosiy muammolar paydo bo`ladi va u mazkur muammolarni o`z vaqtida anglab yeta olmasa va uquvsizlik qilsa siyosatda qator xatolarga yo`l qo`yadi. Natijada aholi o`rtasida norozilik kayfiyatlar, agressivlik kuchayib boradi. Buni Gruziya, Ukraina va Qirg`izistonda bo`lib o`tgan ijtimoiy bo`xronlar yana bir karra isbotladi.

An'anaviy jamiyatni zamonaviy jamiyat tomon siyosiy taraqqiyoti inson mavjudligining umumiyligi tomonlarini qamrab oladi. Shu ma`noda jamoaviy, mahallaviy ong hozirgi zamon o`zbek jamiyatida yangicha ijtimoiy-siyosiy munosabatlar tipini shakllantirish orqali hozirgi zamon ijtimoiy taraqqiyotining muammolarini muvaffaqiyatli hal etilishiga imkoniyat yaratuvchi fuqarolik jamiyatining butunlay yangicha tipini ham yaratishi mumkin. O`zbekistonning jamoaviy ongi an'anaga ko`ra individual ongga emas, balki mahallaviy ongga ko`proq tayanadi. "Men" va "sen" ning uzviy birligi bo`lgan mahallaviy ong - "biz" ning birlamchi birligidan kelib chiqadi. An'anaviy o`zbek jamiyatida inson o`zini mahalla bilan minglarcha ko`zga ko`rinmaydigan rishtalar bilan, ma`naviy va axloqiy jihatdan bog`liq ekanligini doimo his etib yashaydi. Shu bois o`zbeklarning an'anaviy harakterlardan biri - ularning jamoaviy mavjud bo`lishlari, mahalla-mahalla bo`lib hayot kechirishlaridir. Agar G`arbda fuqarolik jamiyatni avtonom individlarning bir-birlari bilan sof ratsional ayirboshlash munosabatlariga, asosan individual etikaga asoslangan bo`lsa, Sharqda esa, xususan, o`zbekona andoza kollektivizm etikasiga asoslangan bo`lib, unda

shaxs jamoaviy axloqiy qadriyatlar asosida birlashib faoliyat ko`rsatadi. Boshqacha qilib ifodalaganda, agar G`arbda axloqiy qadriyatlar tizimi u yoki bu ijtimoiy tarkib bilan bog`liq bo`lмаган avtonom shaxs atrofida qovushgan bo`lsa, musulmon Sharqida esa axloqiy qadriyatlar tizimi boshidanoq, ijtimoiy idealga qaratilgandir. Agar G`arbda kishi o`z taqdirini o`zi yaratса, Sharqda esa inson o`zini kollektiv taqdiri bilan bog`liq ekanligini his qiladi, chunki u o`z ma`naviy izlanishida doimo jamoat. kollektiv hayotiga murojaat qiladi.

Jamoaviy (mahalliy) ong ildizlari tarix qa`riga kirib ketgan bo`lib, hozirgi Markaziy Osiyoda mayjud bo`lgan qadimgi davlatlar - Xorazm, So`g`d va Baqtriya davlatlari hayoti bilan bog`liqdir. O`rta asrlarda jamoaviy ongning shakllanishi va ma`naviy qadriyatlarning takomillashuviga somoniylar, eftalitlar, xorazmiylar, temuriylar davlatlarining ta'siri katta bo`lgan. Ularni barchasini bir narsa - monarch qo`lida hokimiyatni chegarasiz mustahkamlanishi, tabaqaviy, oila-qarindoshchilik va jamoaviy hayot kechirish birlashtirib turgan. Sharq va G`arb o`rtasida savdosotiqning rivojlanishi, Buyuk ipak yo`li kishilar o`rtasida o`zaro oqibat, xayr-sahovatli bo`lish, hamdardlik kabi ma`naviy qadriyatlarni shakllantira borib jamoaviy ongni tobora mustahkamladi. Yo`llar, ko`priklar, so`g`orish sistemalarini qurish ehtiyoji kishilarni bir maqsad va vazifa atrofida o`zaro birlashishini tarixan taqozo etib, jamoaviy ongni yanada takomillashuviga sabab bo`ldi. Buning yorqin misoli bo`lib, jamoa a'zolari o`rtasida beminnat o`zaro yordam-xashar udumini shakllanishi xizmat qiladi.

Shu bois hozirgi O`zbekiston fuqarolik jamiyatini shakllantirishga kirishar ekan mahallaga bo`lajak jamiyatning bosh bo`g`ini degan umid bilan qaramoqda. Mahalla fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish organi sifatida siyosiy taraqqiyotning negizi bo`lib xizmat qilishi kutilmoqda. Mahallaga o`zini o`zi boshqarishning o`ziga xos demokratik shakli deb qaralmoqda. Biroq fuqarolik jamiyatining umumiyl talablari nuqtai-nazaridan yondashilganda, mahalla bo`lajak fuqarolik jamiyatining ilk kurtaklaridan biri bo`lsa-da, an'anaviy jamiyatdan bozor munosabatlariiga asoslangan zamonaviy jamiyatga o`tish davrida ijtimoiy tabaqalanish, daromadlar o`rtasida farqning ko`payishi, natijasida jamiyatda tabiiy differensialanish va marginallashish (fuqarolar o`rtasida turmush darajalari o`rtasida keskin farqlar) bilan o`zaro ziddiyatga kirishadi.

Fuqarolik jamiyat shaxsdan o`zini o`zi taminlashni, turmush darajasini yaxshilashi uchun jonkuyarlikni, jonbozlik, fidoyilik va misli

ko`rilmagan individual faollik, tadbirkorlik va ishbilarmonlikni talab qiladi.

Bozor munosabatlari kishilar munosabatlarida pragmatizm, foydani ko`zda tutib ish yuritishni asosiy maqsadga aylanishini taqozo etadi. Fuqarolik jamiyatning yana bir talabi – kishining ijtimoiylashuvining tezlashishi, fuqarolik yetuklilik rivojlanishining yuqori tempda bo`lishligidir. An'anaviy o`zbek jamiyatni kishi ijtimoiy yetukligining asta-sekin o'sishiga asoslangandir. Buning sababi – oilada paternalistik an'analaring, yoshlар о`rtasida boqimandalik kayfiyati va ruhiyatining hamon hayotiy ekanligidir.

Shu bois an'anaviy jamiyat qadriyatlari zamona viy jamiyat qadriyatlari va ularning talablariga zid keladi, chunki zamona viy jamiyatda hissuyg`u emas, balki aql, ratsionallik ustuvor bo`lib, jamiyat hayotini tashkil-lashtirishning asosiy shakliga aylanadi.

Zamona viy jamiyatda qonun va huquq-tartibotning ustuvorligi kuza-tildi. An'anaviy o`zbek jamiyat esa nafaqat qonunga, balki ko`proq “yozilmagan” qonunlarga - tanish-bilishlik, qarindosh-urug`chilik, hokimiyat vakilini pora evaziga sotib olish imkoniyatining mavjudligi asosida faoliyat ko`rsatadi. Shu bois O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov mahalliy chilik, tanish-bilishchilik, qarindosh-urug`chilik va korrupsiyani davlat mustaqilligiga va ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotga asosiy xavflardan biri, deb bejiz baholamaydi.

O`zbekistonda shakllantirilayotgan yangi jamiyatning asosiy talablari va tamoyillaridan biri bo`lib, qonun ustuvorligi hisoblanadi. Mazkur tamoyil konstitutsiyaviy jihatdan mustahkamlangan. Biroq an'anaviy jamiyat ma'naviy qadriyatlarining ta'siri ostida jamiyatda inson xulq-atvorini baholashda qonun emas, balki kishining tanish-bilish aloqalari, mansabdor shaxsni pora evaziga o`ziga og`dirish imkoniyatini bor-yo`qligi belgilaydi.

Hozirgi G`arb jamiyatida ham korrupsiya va suiste'molchilik hollari uchrab tursa-da, jamiyatda qonunlar kuchi sezilib turadi.

Yuqorida ta'kidlab o`tilgan kishi ijtimoiy yetukligini shakllanishini tezlashtirish muammosi G`arb jamiyatining “namuna”, “andoza” deb qaraladigan qadriyatlarini jamiyatga tatbiq etish, ularni fuqarolik jamiyatini universal qoidalari deb qarash lozim bo`ladi. Biroq Janubiy – Sharqiy Osiyo mamlakatlari – Singapur, Malayziya, Janubiy Koreya va kunchiqar mamlakat – Yaponiyaning zamona viy jamiyat qurish tajribasi shuni ko`rsatmoqdaki, zamona viy jamiyatning universal va umumiy andozasi faqat hozirgi zamon G`arb jamiyatidir, deyish mumkin emas. Jamoaviy,

ya'ni muayyan kollektivda yashash va faoliyat yurgizish hozirgi taraqqiy etgan Sharq mamlakatlarida ham mavjud.

Masalan, Yapon jamiyati o`zbek tadqiqotchilarining fikricha, maddaniy jihatdan, qadriyatlari tizimi xususiyati jihatidan (paternalizm, kuchli qarindosh-urug`chilik aloqalari, mehmondo`stlik, hamdardlik, o`zaro yordam) o`zbek jamiyatiga yaqindir. Shu bilan birga Yapon jamiyatining ilmiy-texnikaviy yutuqlari, turmush darajasi jahon ahli uchun namuna hisoblanadi.

O`zbek jamiyatini an'anaviy jamiyat holatidan zamonaviy jamiyat holatiga o`tkazish o`ziga xos sifatiy jihatlarga ega – u siyosiy taraqqiyotning g`arbona qadriyatlari (hokimiyatlar bo`linishiga tamoyili, ikki palatali parlament, prezident boshqaruvi, ko`ppartiyaviylik, demokratiya tamoyili va n.k.) qadriyatlari bilan an'anaviy o`zbek jamiyatining tarixiy qadriyatlari (kuchli qarindosh-urug`chilik aloqalari, paternalizm, o`zaro yordam, mahalliychilik va h.k.) o`zaro payvand qilinishi oqibatida muayyan ziddiyatlar hain paydo bo`ladi.

Bu ziddiyatlar quyidagi shaklda namoyon bo`ladi:

a) "Buyruq-ijro" tamoyiliga asoslangan an'anaviy siyosiy tartib bilan yangi siyosiy tartib o`rtasida yuzaga keluvchi ziddiyatlar;

b) bozor munosabatlari taqozo etuvchi ratsionalizm va pragmatizm bilan an'anaviy turmush tarzi va tafakkur uslubi o`rtasida yuzaga keluvchi ziddiyatlar.

Mazkur ziddiyatlar quyidagi shartlarni bajarish vositasida hal etiladi:

5. inson faoliyatini tashkil etishning hukmronlik tabiatiga (o`zini o`zi boshqarish emas, balki yuqorida boshqarishga) barham berish;

6. an'anaviy udumlar, odatlар, bayramlarni (to`ylar, xotira odatlari, tug`ilgan kunlarni hashamatli o`tkazilishi va h.k.) isloh qilish;

7. tarbiyaning an'anaviy shartlarini (xatti-harakat erkinligi va uning oqibatlari uchun mas'uliyat, tejamkorlik, izzat-nafs xissiyoti va h.k.) isloh qilish;

8. inson faoliyatini turli sohalarida erkin raqobat muhitini yaratish orqali siyosiy ishtirok faolligini va ijodiy ta'sirini rag`batlantirish.

O`zbekiston o`zining siyosiy taraqqiyotida iqtisod ustidan kuchli davlat nazoratini o`rnatishi orqali jamiyatni tabaqlananishiga, uni boy va kambag` allarga bo`linishiga imkon bermaydi.

O`zbekistonda an'anaviy jamiyatdan zamonaviy jamiyatga tomon kuzatilayotgan siyosiy taraqqiyot xususiyatlariiga doir mulohazalarga manтиqiy xulosa qilish orqali mamlakatda an'anaviy o`zbek jamiyati taraqqiyotining yangi andozasi, uning siyosiy tizimi va siyosiy tartibi o`rtasida ke-

chayotgan ziddiyatlarni o`z vaqtida hal etishni postindustrial jamiyat qurish uchun qanchalik zarur ekanligini ko`rsatishga harakat qilamiz.

1. O`zbekistonda an'anaviy jamiyatdan postindustrial zamonaviy jamiyatga o`tishga nafaqat jahon, hatto mintaqaviy siyosiy taraqqiyot templaridan orqada qolishiga (jamiyatning barcha sohalarini demokratiyalashtirish, fan va ta`limni institutlashtirish, inson huquq va erkinliklarini ta'minlanishi, jamiyatning ochiqligi va h.k.) an'anaviy ma'muriy buyruqboz avtoritar boshqaruv<sup>1</sup> ruhiyati qoldiqlari to`sinqilik qiladi.

2. An'anaviy jamiyatdan zamonaviy jamiyatga o`tish nafaqat davlat mulkini davlat tasarrufidan chiqarishni, balki siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarni demokratiyalashtirishni, jamiyatni jahon hamjamiyati uchun ochiq bo`lishligini, o`zini o`zi cheklashni emas, balki boshqa davlatlar bilan o`zaro hamkorlik munosabatlarini nafaqat davlat darajasida, balki individual, shaxsiy darajada ham amalga oshirish imkoniyatini bo`lishligini taqozo etadi.

3. An'anaviy jamiyatni modernizatsiyalashtirish hokimiyatning barcha tarmoqlarining hequqi va maqomini, va ayniqsa uning to`rtinchı tarmogi – jamiyatning demokratiyalashtirishning ko`zgusi bo`lmish omaviy axborot vositalarini erkin faoliyatini taqozo qiladi.

4. Zamonaviy jamiyatga o`tish siyosiy partiyalarning yetakchilik roli va bu rol uchun kurashsiz, siyosiy plyuralizmsiz (siyosiy fikrlarning xilmoxalligi) mumkin emas.

5. Postindustrial, zamonaviy siyosiy taraqqiyotning asosi va richagi bo`lib nafaqat erkin va ochiq iqtisod, balki ochiq jamiyat, uning davlat boshqaruvidan ozod ijtimoiy ishlab chiqarishi va ijtimoiy ehtiyojga bo`ysundirilgan ta`lim tizimi xizmat qiladi.

Mazkur xulosalar qanchalik tanqidiy va ayovsiz bo`lmashin, ular an'anaviy jamiyatni zamonaviylashtirishni, modernizatsiyalashga bo`lgan samimiy istaklarni aks etiradi.

<sup>1</sup> „Ma'muriy buyruqboz avtoritar boshqaruv“ terminini ilk bor Gillermo O’Donnel (Gillermo A. O’Donnel) muomalaga kiritgan. Muallifning quyidagi asarlarga qarang: Modernization and Bureaucratic-Authoritarianism: Studies in South American Politics (Berkeley: Institute of International Studies, University of California, Berkeley, 1973). „Reflection on the Patterns of Change in the Bureaucratic. – no 1 (1973) p. 3-38. Tuan T. Ling. „Totalitarian and Authoritarian Regimes“. In Handbook of Political Science. MA: Addison-Wersley, 1975. 175-275, fsp. 264-350.

## 2. Mustaqillik – jamiyatni modernizatsiyalashtirish va rivojlantirish omili

Mustaqillik kategoriyasi ilmiy jamiyatshunoslikda keyingi yillarda keng ishlatalidigan iboraga aylandi. Kimdir mustaqillik – bu “huquq” desa, kimdir – bu “erk’nlik” deydi. Kimdir uni “davlat” va “millat” tushunchalari bilan hamohang tushuncha desa, kimdir uni tarixiy kategoriya ekanligini ta’kidlaydi. Ma’lum darajada bu fikrlarning barchasida muayyan ratsional ma’no bor. Mustaqillik kategoriyasi shu darajaga ko’tarilmoqdaki, ayrimlar uni davlat va millat tushunchalari bilan bog’lab, umumiyligida qo’shiladi.

Biroq inmustaqillikning barcha ijtimoiy muammlolarini yechishning yagona da’vosi, yagona usuli yoki vositasi deyish real voqe’likka va umuman mantiqqa ziddir. Mustaqillik – nisbiy tushunchadir, uning turlicha ma’nosи mavjud. Mustaqillikka politologik yoki sotsiologik yondashilsa, darhaqiqat mustaqillik – erkinlik, erkin ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot uchun real imkoniyatlarning yaratilishidir. Agar masalaga falsafiy demak, har tomonlama yondashilsa, mustaqillik – nisbiy haqiqatdir. Buning boisi shundaki, XX1 asrga kelib na biror millat va na biror mamlakat ijtimiy-siyosiy va madaniy-ma’naviy jihatdan tom ma’noda to`la mustaqil bo`la olmaydi. Chunki ijtimoiy hayotning tobora integratsiya va globalizatsiya tomon yuz tutishi, xalqaro iqtisodiyot va madaniy munosabatlarga jahoning katta-yu kichik mamlakatlarini u yoki bu darajada kirib borishi va ma’lum darajada xalqaro ishlab chiqarishga bog`liqligi mustaqillikni nisbiyligini belgilaydi. Shu ma’noda mustaqillikni tor va keng ma’noda tushunish maqsadga muvofigdir. Tor ma’noda darhaqiqat mustaqillik – bu millatni ozed va erkin, boshqa millat va davlatlarga qaram bo`lmasdan teng huquqli tarixiy rivojlanishidir. Mustaqillik degani shu ma’noda erkin rivojlanish huquqidir. Mustaqil rivojlanishda millat o’z tarixiy tajribasi, urfodatlari, udumtlari, an’analari, axloqi, madaniyati va tarixiy to`plagan tajribasi asosida hech qanday tazyiqsiz erkin hayot kechiradi. “Anumo, - ko`zga ko`ringan faylasuf olim A.Jaloiovning ta’kidlashicha. - mutlaq erkinlik tabiatda ham, jamiyatda ham bo`lmaydi”<sup>1</sup>.

Chunki olaimda hamma narsa bir-biriga bog`langan, biri ikkinchisini taqozo etadi, xullas, o’zaro aloqada. Mustaqillik ham erkinlikka ekvivalent kategoriya sifatida mutlaq bo`la olmaydi. Bunday mustaqillikni keng

<sup>1</sup> Jalolov A. Mustaqillik – fidokorona meshnat va rus matonati. - O’zbekiston: Mustaqillik, manaviyat, maskura. T. O’zbekiston, 1999. —48 b.

ma'noda tushunish milliy rivojlanish uchun tor ma'noda tushunishga nisbatan samarador ekanligi haqida xulosa kelib chiqadi.

Darhaqiqat, mustaqillikka erishilgandan so`ng deyarli o'n yildan ziyod mustaqillikni tor va statik tushunish jamiyatda kuzatildi. Bunga ko`pgina tarixchilar, publitsistlar, yozuvchi-yu san'atkorlar o`z xissalarini qo`shishdi. Omma ongida mustaqillik – bu yagona maqsad, degan noto`g`ri fikr va tasavvur shakllandi. Vaholanki, mustaqillik doimo mustahkamlanishni, himoya qilish va umuman olganda rivojlantirilishni taqozo qiladi. Mustaqillik mustahkamlanmasa, rivojlantirilmasa ijtimoiy hayot botqoqlikka botadi, mustaqillik faktini maqtash, maddohlik avj oladi. Ayniqsa, o`tmish bilan maqtanish, uni ideallashtirish zararli faoliyatdir, u millatchilikni, etnik va diniy ziddiyatlarni keltirib chiqaradi, fuqarolar hamkorligi va totuvligiga rahna soladi. Shuning uchun o`tmishni milliy o`zlashtirish milliy xavfsizlik va milliy rivojlanish uchun xatarlidir. Markaziy Osiyo xalqlarining tarixiy ildizlari bir va yagonadir. Uni parchalash, o`zlashtirish (o`zbek, tojik, qozog, qirg`iz, turkman, afg`on va h.k.) milliy nizolarni keltirib chiqarishi tabiiydir. Shuning uchun mustaqillik milliy xavfsizlik muammolari bilan uyg`unlashib ketadi. Markaziy Osiyo xalqlari o`rtasida sun'iy to`siglar, jarliklar va devorlar barpo etish – tarixiy haqiqatga va milliy rivojlanish talablariga ziddir.

Aynan shuning uchun milliy mustaqillikni keng tushunish – millatlararo totuvlik, milliy hamjihatlik va barqaror taraqqiyot uchun istiqbollidir.

Mustaqillikka erishish – barqaror taraqqiyot uchun, farovon hayot uchun tinimsiz mehnat qilishdir.

Mustaqillik, darhaqiqat, Ollohnning in'omi bo`ldi, qurbanlarsiz, qon to`kilishsiz qo`lga kiritildi. Endi uni asrab avaylash, mustahkamlash va abadiylashtirish uchun millatdan tinimsiz mehnat, ziyraklik, ogohlilik talab qilinadi.

Mustaqillikni keng ma'noda tushunish uni rivojlantirish zaruratini anglashga olib keladi. Mustaqillik shu ma'noda statik, qotib qolgan fakt emas, balki milliy rivojlanish uchun imkoniyatdir. Bu imkoniyatdan foydalanmaslik, mustaqillik shabadasidan mast bo`lib, eyforiyaga berilish qimimatga tushadi. Mustaqillikka erishgan faqat O`zbekiston emasdir. Sobiq sho`ro mamlakati hududida ko`plab xalqlar ham milliy mustaqillikka erishdilar. Mustaqil rivojlanish odimlari bir vaqtda boshlandi. Biroq mustaqillikka teng erishgan xalqlar, davlatlar o`rtasidagi iqtisodiy, ilmiy, texnikaviy va ijtimoiy farqlar asta - sekin sezilmoqda. Chunki rivojlanish templari sobiq sho`rolar makonida turlicha bo`lmoqda. Buning sababi –

mustaqil rivojlanish taktikasi va strategiyasining sobiq sovet respublikalarida turlichaligidir.

Taraqqiyotning “o`zbekona” modeli ham turli sohalarda o`zini oqlamoqda.

Biroq erishilgan yutuqlar bilan qoniqib, rivojlanish sur'atlarini sekinlashtirish mumkin emasdир.

Taraqqiyotning obyektiv dialektikasi shuni taqozo etadiki, rivojlanishda nafaqat ekstensiv yoki evolyutsion, balki intensiv va inqilobiy elementlar ham mujassamlangandir.

G`arbiy Yevropa, Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari taraqqiyotning intensiv va inqilobiy yo`lidan ketishmoqda, iqtisodiy o`sish sur'atlarini yil sayin oshirib borishmoqda. Natijada bu mamlakatlar Lotin Amerikasi, Sharqiy Yevropa, Markaziy Osiyo va boshqa mintaqalar mamlakatlaridan iqtisodiy o`sish ko`rsatkichlari bo`yicha ilgarilab ketishmoqda.

Mamlakatimizning xalqaro miqyosdagи nufuzi ko`p jihatdan iqtisodiy saloxiyatimizdan qay darajada umumli foydalanishimizga bog`liq. Mustaqilligimiz mamlakatimizning ichki saloxiyatidan mustaqil foydalanish huquqini beradi. Mamlakatimizda juda katta mehnat resurslari mavjud. Xalqimiz tarixan mehnatsevar xalqdir. Mustaqillik ozod Vatanga ijodiy mehnat uchun imkoniyat yaratadi. Bu imkoniyatdan oqilona foydalanish kishidan mustaqillikning mohiyatini va tarixiy ahamiyatini anglash orqali bo`ladi.

Shu ma'noda mustaqillik tushunchasini harakatga keltirish, aniqrog`i inson faoliyatiga mujassamlantirish mustaqillikni negizini tashkil etuvchi asosiy g`oyalarni anglashdan boshlanadi. Bunday g`oyaviy negizlarga birinchi galda milliy o`zlikni anglash, erkinlik, tenglik va demokratiya kabi tushunchalar kirdi.

Milliy o`zlikni anglash g`oyasi yangi g`oya emasdир. Milliy o`zligini anglash aslida millatni kamsitish, tahqirlash, adolatsizliklar oqibatida shakllanadigan his-tuyg`udir. Bu tuyg`u barcha kishiga ham nasb qilavermaydi. Milliy o`zlikni anglash asosan xalqparvar, millatparvar, siyosiy jihatdan savodli shaxslarga xosdir. Milliy o`zlikni anglash tuyg`usi mavjud ijtimoiy sharoitlardan norozilik kayfiyatları asosida shakllanadi va siyosiy hokimiyat, siyosiy tartib uchun xatarli hisoblanadi. Shuning uchun hukmron maskura va uning siyosiy instituti millatparvar shaxslarni neytrallashitirish. ularni imkonni bo`lsa jamiyatdan ajratish yoki jismonan yo`q qilib yuborishga harakat qiladi. Maxmudxo`ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Cho`lpon, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir, Xusayn

Shams va boshqa millatparvar, xalqparvar insonlarning qismati shunday bo`lgan edi.

Ular mustaqillik beshigini ilk bor tebratgan, millatni mustaqillikka, ijtimoiy modernizatsiyaga chorlagan zabardast ziyoililar edi. Bu haqda mustaqillik yillarda yuzlab maqola va kitoblar chop etildi, nohaq shahid bo`lgan bu zotlarga xiyobonlar, tarixiy yodgorliklar barpo etildi.

Milliy o`zlikni anglashning ommaviy ongda shakllanishi jarayoni ikki qarama-qarshi mafkura kurashi yillarda, “sovuv urush” davrlarida chuqur o`rganilar, taxlil qilinar edi. Bu ishni sobiq SSSR da davlat xavf-sizligi organlari amalga oshirishsa, G`arbda esa ko`zga ko`ringan marksshunos, sovetshunos olimlar amalga oshirishar edilar. Bular jumlasiga Kolumbiya universitetining professori, o`zbekshunos Edvard Oll-vort, Washington universitetining professorlaridan Ilza Sirtautas, V.Poppa, Elizabet Bekon, olmoniyalik sovetshunoslар Boymirza Xayit, Abduraxmon Avtorxanov, P.Rivkin va boshqalarni kiritish mumkin.

Sovet voqe`ligini yaxshi bilgan bu tadqiqotchilar milliy o`zlikni anglash tuyg`usini shakllanish dinamikasini adabiyotdan, san`atdan, teatr-dan va boshqa sohalardan qidirishar edi. Oybekning “Navoiy” asari, Abdulla Qahhorning “o`tgan kunlar”, Mahmudxo`ja Behbudiyning “Padarkush” va boshqa asarlari qahramonlari orqali ular mustaqillikka intilish uchqunlarini qidirishar edi. Keksa avlod Moskvada, Toshkentda, Olma-ota va boshqa shaharlarda G`arb olimlari ishtirok etgan milliy o`zlikni anglash muammosiga bag`ishlangan xalqaro konferensiya, seminar, davra suxbatlari va h.k. tadbirlarni hali ham yaxshi eslashadi.

Shuning uchun mustaqilligimizning g`oyaviy negizlaridan biri bo`lmish milliy o`zlikni anglash tuyg`usi allaqachon, o`sha mash'um chor Rossiyasi bosqini yillaridan boshlangan, deb bemalol aytса bo`ladi. Dukchi Eshon, Jizzax qo`zg`ololari ham stixiyali bo`lsa-da, milliy o`zlikni anglashni shakllantirdi, mustaqillik uchun kurashning ilk kurtaklari bo`ldi. Mustaqillikning g`oyaviy negizlaridan yana biri – erkinlikdir.

Erkinlik etimologik jihatdan olib qaralsa, tutqinlikning teskarisidir. Lekin bunday tushunish ilmiy bilishning empirik bosqichiga xosdir. Aslida esa erkinlik nazariy kategoriyadir. Uning mazmunini o`zbilarmonlik, boshboshdoqlik, xohlagan ishni qilaberish emas, balki kishining har bir xatti-harakati uchun yuksak mas`uliyatni, ijtimoiy burchni (xususan fuqarolik burchni) anglash tashkil etadi. Erkinlik ijtimoiyadolat mavjud yerda bo`ladi. Shu bois sohibqiron Amir Temur “Qayerda Qonun hukmron bo`lsa, shu yerda erkinlik bo`ladi”, deb bejiz aytmagan.

Adolatli qonunlar esa o`z navbatida demokratiyani, xalq hokimi-yatchiligini taqozo qiladi.

O`zbekistonda inson huquq va erkinliklari konstitutsiyaviy jihatdan kafolatlangandir. Inson erkinliklari i`hida fikr va e'tiqod erkinligi muhim o`rin tutadi. Fikr erkinligi jamiyatda plyuralizmni, fikrlar xilma-xilligini vujudga keltiradi

Mustaqillikni mustahkamlash va milliy rivojlanishni ta'minlash nuqtai-nazaridan fikrlar xilma-xilligi, plyuralizm – rivojlanishning g`oyaviy manbaidir. Chunki fikrlar xilma-xilligi ijtimoiy guruqlar, uyushmalar, siyosiy partiyalar o`rtasida o`zaro munozara muhitini, raqobatini yuzaga keltiradi. Plyuralistik jamiyatda har bir kishi o`ziga maqbul va manzur bo`lgan g`oyani, fikrni tanlash imkoniyatiga ega bo`ladi. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida g`oyalar, mafkuralar xilma-xilligiga erishish taraqqiyot asosi ekanligi uqtiriladi. “Plyuralizm, ya`ni fikrlar xilma-xilligi va qarashlar rang-barangligi ma'rifiy jamiyatgagina xos bo`lib, muayyan haqiqatni turlicha izohlash, tushunish va talqin etish tamoyiliga asoslanadi”<sup>1</sup>.

Jamiyatda plyuralizm muhiti o`z-o`zidan vujudga kelmaydi. Plyuralizm siyosiy partiyalar, turli nodavlat tashkilotlar, harakatlar va uyushmalar tomonidan shakllantiriladi. O`zbekistonda buning uchun barcha huquqiy asoslar mavjud. Siyosiy partiyalar, nodavlat jamoat tashkilotlari, harakatlar haqida maxsus qonunlar tizimi yaratilgan bo`lib, hech kim muqobil fikr va g`oya uchun ta'qib ostiga olinmaydi; hech qanday mafkura davlat mafkurasi darajasiga ko`tarilmaydi.

O`zbekistonda g`oyaviy plyuralizmni ta'minlash maqsadida ommaviy axborot vositalariga to`rtinchali hokimiyat maqomi berilgan.

Jurnalistika daxlsizligi va erkinligi qonun va Prezident farmoni bilan mustahkamlangan.

Plyuralizmi mustaqillikning mevasidir. Mustaqillikka qadar kommu-nistik g`oya va mafkura yakkahokimligi mavjud bo`lib, har qanday muqobil fikr va mulohaza ta'qib ostiga olinar edi.

Sotsalistik demokratiya, demokratik sentralizm prinsiplari aslida g`oyaviy yakkahokimlik niqoblari edi holos. Aslida esa har qanday hurfikrlilik, rasmiy g`oyaga muqobil bo`lgan fikrni bildirish – g`oyatda xatarli edi. D.Saharov, A.Soljenitsin, I.Shafarevich va h.k. hurfikrli kishilar 80-yillarda dissident, ya`ni sotsalistik Vatan xoinlari deb hisoblanib yo qamoqqa solinar, yo xorriga ketishga majbur qilingan edilar.

<sup>1</sup> Milliy istiqlol : asosiy tushuncha va tamoyillar. T.: O`zbekiston. 2000. -19 b.

Mustaqillik tushunchasining g`oyaviy negizini demokratiya g`oyasi ham tashkil qiladi. Demokratiya aslida mavhum tushuncha bo`lib, ijtimoiy reallikda faqat muayyan darajada qaror topadi. Hatto o`zini demokratik davlat deb hisoblovchi AQSH da ham demokratiya to`la qaror topmagan.

Ko`zga ko`ringan AQSH politolog olimi Frencis Fukuyama ta'kidlashicha, Angliya va AQSH ning tarixiy rivojlanishi boshqa davlatlar uchun hech ham namuna bo`la olmaydi.<sup>1</sup> Demokratiya siyosiy liberalizatsiya bilan bog`liq bo`lib, yuqori iqtisodiy o`sish asosida yuzaga keladi.<sup>2</sup> Shuning uchun mustaqillik bir tomondan siyosiy liberalizatsiya bilan bog`liq bo`lsa, ikkinchi tomondan yuqori iqtisodiy o`sish bilan bog`liqdir. Demokratiya esa mustaqillikning asosiga aylanishi uchun ijtimoiy-iqtisodiy o`sishni, rivojlanishni taqozo qiladi. Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining, shuningdek Yaponiya va Xitoy davlatlarining keyingi o`n yilliklardagi yuksak iqtisodiy o`sish ko`rsatkichlari siyosiy liberalizatsiya vositasida amalgalashdi. Shu bois demokratiya real iqtisodiy o`sishni, konkret iqtisodiy ko`rsatkichlarni bo`lishligini taqozo qiladi. Mustaqillik demokratiya g`oyasini aynan shu talqinda o`z tarkibiga oladi.

<sup>1</sup> Qarang: Фонд Либеральная миссия - Фрэнсис Фукуяма. "Конфуцианство и демократия". М. 2001.

<sup>2</sup> Mazkur fikr Qajor tadqiqotchilar tomonidan qayd etiladi, xususan: Raymond Grew. Crisis of Political Development in Europe and United States. Princeton: Princeton University Press, 1978.

### **3. Milliy rivojlanish g`oyasi tizimida milliy, umuminsoniy, erkinlik va mustaqillik qadriyatları**

Hozirgi zamonda har qanday modernizatsiya milliy rivojlanish maqsadlariga bo`ysundirilgan holda amalga oshiriladi.

Milliy rivojlanish keng ijtimoiy hodisa bo`lib, u mamlakat ichki ijtimoiy tuzilmasining tabiatи asosida jahon hamjamiyati umume'tirof etgan iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va madaniy-ma'rifiy normalar va qadriyatlar bilan o`zaro aloqada bo`ladi. Milliy rivojlanish g`oyasi shu ma'noda integrativ tushuncha bo`lib, alohidalik, yakkalik va umumiylilikning obyektiv dialektikasiga bo`ysungandir. Bu aloqadorlikni inkor etish milliy rivojlanish g`oyasini ilmiy metodologiyasidan mahrum etishni bildiradi. Muayyan ilmiy metodologiyasiz har qanday g`oya to`g`ri rivojlna olmaydi. Buning sababi shundaki, inson biron bir faoliyatga kirishar ekan, u dastavval faoliyat maqsadini aniqlaydi, so`ng unga erishish vositasini qidiradi. Ungacha g`oya faqat potensial imkoniyat shaklida bo`ladi. G`oyani natijaga aylanishi uchun maqsad va vosita bir biriga adekvat yoki izomorf (gomomorf) munosabatga kirishishi lozim bo`ladi. G`oyani hayotga joriy bo`lishligining bunday metodologik qurilmasi ilmiy bilishning sinalgan usulidir. Mustaqillik yillarda milliy istiqlol, milliy g`oya xususida ko`plab ilmiy, ilmiy-publisistik maqolalar, qo`llanma, esse va lavhalar yaratildi. Ularda milliy istiqlol va milliy g`oyaga tarkibiy jihatdan yondashuv kuzatildi, statik tahlil ustuvor mavqeda bo`ldi.

Milliy rivojlanish g`oyasi esa o`z tabiatiga ko`ra dinamik harakterda bo`lib, maqsad, vosita va natija obyektiv dialektikasini o`zida aks ettiradi. Milliy rivojlanish g`oyasi iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, madaniy-ma'naviy hayotga yo`nalish beradi, muayyan maqsadlarga erishish uchun ilmiy metodologiya vazifasini bajaradi. o`z navbatida milliy rivojlanish g`oyasining o`zi ham shunday metodologiyaga muhtoj. Milliy rivojlanish g`oyasining metodologiyasi milliy va umuminsoniy qadriatlarning o`zaro uyg`unlashuvi, o`zaro aloqadorligi va dialektik birligi asosida yuzaga keladi. Buning sababi shundaki, agar milliy rivojlanish g`oyasi faqat tub, ya'ni titul millat tili, madaniyati, urf-odati va an'analariga asosiy urg`uni berib, mamlakatni "o`zbekchalashtirib" yuborsa, millatchilik yuzaga keladi. Millatchi unsurlar esa (aksariyat mahalliy yozuvchilar, tilshunoslar, shoirlar va h.k.) aynan shu yo`ldan borishadi. Mustaqillikning dastlabki yillarda ular o`ta millatchilik siyosatini asosiy milliy rivojlanish yo`liga aylantirmoqchi bo`ldilar. Ular tarixiy taraqqiyot davomida hayotimizga tabiiy ravishda kiring kelgan umuminsoniy qadriatlarni o`zbekchalashtirishga, tarix zahiraga

siga uloqtirilgan “eski chopon”larni yangi jamiyat yelkasiga yopmoqchi bo`lishdi. Masalan, umuminsoniy “respublika” atamasi “jumhuriyat”; “rayon”, “noxiya” yoki “tuman”; “universitet” atamasi “dorilfunin”; “fakultet”, “qulliyot”; “gazeta”, “ro`znama”; “jurnal”, “jarida”; “samolyot”, “uchqoq”, “aeroport”, “tayyoragoh” va h.k. xalq uchun tushunarli bo`limgan so`zlar bilan almashtirila boshlandi.

Milliy rivojlanish hech qachon o`z milliy qobig`iga o`ralib olib xuddi pilla qurti kabi yashashni va yaratishni anglatmaydi.

Hozirgi informatsiya, globalizatsiya, integratsiya zamonida milliy qobig`da qolib ketish jahon taraqqiyotidan orqada qolib ketishni anglatadi. Umuminsoniy huquqiy, siyosiy, iqtisodiy va ma`naviy qadriyatlar millat uchun, milliy rivojlanish uchun hayotbaxshdir.

Lekin bu milliy o`zlikni yo`qotish, umuminsoniy qadriyatlar ichida singib ketishni anglatmaydi.

Mustaqillikning dastlabki yillarda bosh ko`targan millatchi unsurlar 1920-yillarda ijtimoiy hayot saxnasiga chiqqan proletkultchilar kabi faoliyat ko`rsatishdi. Masalan, butun jahon e`tirof etgan “politologiya” sohasini “siyosatshunoslik” atamasi bilan, “ideologiya”ni “mafcura” atamasi bilan almashtirila boshlandi.

Hozirgi zamon taraqqiyoti insoniyatni milliy, irqiy, diniy va siyosiy tuzimidan qat'i nazar bir butun ekanligini, umuminsoniy muammolarni (yadroviy halokat, ekologiya muammolari, epidemija va h.k.) hal etishda o`zaro birlashishni, yaqinlashishni, bir so`z bilan ifodalaganda o`zaro integratsiyani taqozo etmoqda.

Millatchilik O`zbekiston kelajagi uchun halokatlidir.<sup>1</sup> Millatlar, fuqarolararo totuvlik va hamjihatlikni ta'minlash – milliy rivojlanish g`oyasining o`zagidir. Qayerda totuvlik va hamjihatlik bo`lsa, o`sha yerda baraka bo`ladi, o`sha yerda taraqqiyot uchun sharoit yaratiladi. Buni qo`shti Afg`onistonda tarixan istiqomat qiluvchi turli etnik guruuhlar – pushtunlar, afg`onlar, o`zbeklar, tojiklar, turkmanlar, eroniylar, kurdlar va h.k. millatlar o`rtasida hamjihatlik, totuvlikning yo`qligi afg`on xalqini jahon taraqqiyotidan ortda qolishda, jamiyatda jinoyatchilikni o`sishiga, xalqaro terrorizmni o`chog`ini yuzaga kelishiga olib keldi. Afg`oniston bilan O`zbekiston tarixan va jo`g`rofiy jihatdan yaqin mamlakatlardir. Afg`on muammosi o`zbek muammosi bilan uzviyidir. Bu fikrni O`zbekiston sobiq tashqi ishlar vaziri Sodiq Safoyev ifodalab, “fikrlashning eskicha, ya`ni global muammolarni “bizniki” va “ularniki” ga bo`lish

<sup>1</sup> Панарин Э.Д., Мухаметшина Н.С. Национальная проблема на пост-советской территории. Санкт-Петербург: Фонд Сороса. 2001. С. 40-44.

– utopiya, ya'ni xom xayoldan boshqa narsa emas”, deb ta'kidlaydi.<sup>1</sup> Min-taqaviy xavfsizlik O`zbekiston milliy rivojlanishi uchun kafolat ekanligi bugun hech kimga sir emas.

Umuminsoniy qadriyatlar hisoblangan tinchlik, barqarorlik, xavfsizlik va h.k. kategoriyalari milliy rivojlanish uchun g`oyaviy negizga ayланмоқда.

Milliy rivojlanishni har bir kishi va xalq amalga oshiradi. Taniqli tadqiqotchi YU.K.Yakovets ta'kidlashicha, har bir kishi va har bir xalqning ijtimoiy genotipi tarixan bosib o`tilgan davrlarni presslagan holda o`zida aks ettiradi.<sup>2</sup> Tarixiy rivojlanishning burilish nuqtalarida bu qatlamlar o`zini namoyon qiladi. Ungacha ular zamonaviy sivilizatsiya qobig'i bilan o`ralgan bo`ladi. Milliy rivojlanishga ehtiyoj yuzaga kelgan tarixiy burilish nuqtalarida mazkur qatlamlar yuzaga chiqadi – mudrab yotgan milliy tuyg`ular jo`sh uradi, o`zini-o`zi tanishga, ijtimoiy hayotda mustahkamlanishga harakat qiladi. Ikkinci tomondan zamonaviy hayot, mavjud sivilizatsiya taqozo etgan yangicha rivojlanish g`oyalari kurtaklari ham nish uradi. Natijada, milliy o`zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklashga urinuvchi kishilar bilan zamon, davr taraqqiyoti taqozo etgan rivojlanishga intiluvchi kuchlar o`rtasida ziddiyat, qarama-qarshiliklar vujudga keladi. Bu tabiiydir. Chunki rivojlanish eskilik va yangilik o`rtasidagi kurash asosida kechadi.

O`zbekiston milliy rivojlanishida ham aynan shu holat kuzatiladi. Mustaqillik g`oyasi, mustaqillik maslurasi asos e'tibori bilan tarixiy xotirani, milliy o`zlikni anglash vazifasiga bo`ysundirilgan edi. Shu bois o`tmishda yashab o`tgan allomalar nomini tiklash, ularning boy ilmiy va ma`naviy merosiga murojaat qilish, tarixiy vorislikni yuzaga keltirish – milliy istiqlol siyosatining asosiy yo`nalishlaridan biriga aylandi. Bu – masalaning faqat bir tomonidir. Bu – milliylikni, milliy qadriyatlarini tiklash g`oyasidir. Masalaning ikkinchi muhim tomoni – xalqimizni hozirgi zamon taraqqiyoti darajasiga olib chiqish, u bilan tenglashtirish muammosidir. Bu muammo – milliy rivojlanish g`oyasini shakllantirish, mustaqil taraqqiyotga muayyan yo`nalish berish muammosidir.

Buning uchun millat atrofida kechayotgan ijtimoiy jarayonlarni, davr, zamon taqozo etayotgan muammolarni tahlil etish, zamon talablariga mos ish tutish va reja tuzish lozim. Agar millatchi kuchlar an'anaviy Sharq jamiyatini tiklash, reanimatsiya qilish (davlatchilikda, jamiyat hayotini boshqaruvida va h.k.) ga harakat qilishsa, milliy rivojlanish g`oyasi taraf-

<sup>1</sup> Сафоев С. Региональное развитие и постконфликтное восстановление Афганистана - Стабильность в Центральной Азии в постконфликтный период. –Т.: ИСМИ. 2002. С.26.

<sup>2</sup> Яковец Ю.В. История цивилизации. –М.: «Гуманитарный издательский центр ВЛАДОС», 1997. С.266.

dorlari esa jamiyatni modernizatsiyalash, uni postindustrial jamiyatga aylantirish uchun umumjahon e'tirof etgan siyosiy va huquqiy qadriyatlarni (hokimiyatlar bo`linishi, demokratiya, inson huquq va erkinliklarini ta'minlanishi, parlamentchilik va h.k.) hayotda joriy etishga harakat qiladilar.

Bu jarayonda milliy rivojlanishning uchinchi yo`li tarafdorlari ham mavjud. Ularni inkor etish va ular bilan hisoblashmaslik – siyosiy go`llik va uzoqni ko`ra bilmaslik yoki shapko`rlikdir. Bu kuchlar – milliy buzg`unchi kuchlar bo`lib, ular o`taketgan millatchilar bilan birlashib, o`rta asr qabilidagi diniy davlatchilik an'analarini tiklashga, reanimatsiya qilishga urinuvchilardir. Bu maqsadlar yo`lida ular xalqning eng nozik tuyg`usi – diniy tuyg`uni niqob va vosita qilib ish yuritmoqchi bo`lishadi. Milliy rivojlanish vektori mazkur uch toifa kishilar ichidan eng legitimligi – O`zbekistonda demokratik, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurish tarafdorlari olg`a surgan milliy rivojlanish g`oyasi tomon yo`naltirishi – mamlakatimiz istiqbolini belgilaydi.

Milliy rivojlanish g`oyasi ijtimoiy hayotni ijodiy o`zgartirish uchun o`ziga xos nazariy dastur yoki g`oyaviy kompas vazifasini o`taydi. Chunki xalq milliy mustaqillikka erishsa-da, lekin rivojlanish yo`nalishini aniqlay olmasa – mustaqillik o`z ahamiyatini yo`qotadi. Mustaqil taraqqiyot maqsadi va yo`nalishi mustaqilligimizning dastlabki yillarda aniqlab olindi. Bu – 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidir. Konstitutsiyada davlat va jamiyat qanday bo`lishligi, shaxsning, fuqaroning davlat va jamiyat bilan o`zaro munosabatlarining tabiatini qanaqa bo`lishligi umumxalq muhokamasidan o`tdi va oliv Kengash tomonidan tasdiqlandi. Asosiy vazifa - kelajakda O`zbekistonda dunyoviy, demokratik, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishdir. Bu konstitutsiyaviy vazifa – siyosiy-huquqiy ahamiyatga ega bo`lib, qator juz'iy aniqliklar kiritilishini taqozo qiladi. Mustaqillik yillarda qonun chiqaruvchi organ Oliy Kengash va keyinchalik Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan turli qonunlar tizimi – konstitutsiyaviy vazifani tobora konkretlashuvi, inson va jamiyat hayotiga tatbiq etilishining siyosiy-huquqiy ko`rsatkichlaridir.

Milliy rivojlanish g`oyasi O`zbekistonda ochiq jamiyat qurish g`oyasidir. Bu degani – O`zbekiston milliy taraqqiyoti va milliy manfaatlari yo`lida umumjahon ilg`or yutuqlaridan foydalanish uchun jamiyatimizning ochiqligi, jahonga yuz tutishidir.

Bu sohada mustaqillik yillarda muhim o`zgarishlar qo`lga kiritildi. Iqtisodiy sohada mulkdorlar sinfini shakllantirish, mulk shakllarining ham

xilma-xilligini ta'minlash, monopoliyadan chiqarish, xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga oid qator qonunlar yaratildi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi (1997 y.), "Ta'lim to`g`risida" qonun mamlakatimizda tub ma'rifiy o`zgarishlarni ta'minlashga, jahon standartlariga javob beradigan ta'lim tizimi va malakali kadrlarni tarbiyalashga qaratilgandir. Bu yo'nalishda qator yutuqlar ham qo'lga kiritildi. Uzluksiz ta'lim tizimi, ko'p bosqichli ta'lim olish amaliyoti jahonning yetakchi ilg`or mamlakatlari tajribasini o'rganish asosida tashkil etildi. Bundan ko`zlagan maqsad – mamlakatimizning jahoning rivojlanigan mamlakatlari qatoriga olib chiqishdir.

Milliy rivojlanish g`oyasining tarkibiy qismalaridan biri – inson taraqqiyotidir. Inson taraqqiyotiga oid BMT ning Taraqqiyot dasturi mavjud bo`lib, unda inson taraqqiyotining indeksi belgilab berilgandir. O`zbekiston ham har yili BMT ga mazkur indeks bo`yicha yillik hisobotni beradi. BMT ning taraqqiyot dasturiga binoan kishi o`zining salohiyatini faqat yuqori darajali real daromad (inflatsiyadan himoya qilingan) ga, oliv ma'lumot olish va yuqori turmush kechirish reytingiga ega bo`lgandagina namoyon qila oladi.

Agar mamlakatda real daromad bo`yicha keskin farqlar mavjud bo`lsa, jamiyat tabaqlanishuvi tendensiyasi kuchli bo`lsa, bunday mamlakat yuqori taraqqiyot ko`rsatkichlarini bera olmaydi. Buni taraqqiy etgan mamlakatlar (Yaponiya, Kanada, Norvegiya, Shvetsiya, Shveysariya) va avtokrat-byurokratik siyosiy tartibli rivojlanayotgan mamlakatlar (Mali, Nigeriya, Burkina-Faso, Gvineya) o`rtasidagi keskin farqlar ko`rsatib turadi.

Milliy rivojlanish g`oyasi g`oyaligicha qolib ketishi ham mumkin. Chunki, "g`oya amal qilingandagina ommalashadi".<sup>1</sup> Ommalashmagan g`oya so`nadi. Bunga ko`plab misollar keltirish mumkin.

Milliy rivojlanish g`oyasini amaliy tatbig`i, ya'ni inson hayotida joriy etilishi nuqtai nazaridan qo'llaganda, har qanday g`oya kishi uchun biron bir natija bersagina ahamiyatli bo`ladi. Shuning uchun har qanday g`oyani inson manfaatlariga qay darajada mos kelishi yoki kelmasligi yoki bosh-qacha qilib ifodalaganda ratsionalligi (M. Veber) amaliy ahamiyat kasb etadi. G`oya bilan odam qornini to`yg`azib bo`lmaydi. Foya qachonki moddiy asosga ega bo`lsa, yoki moddiy natijaga olib kelsa – amaliy ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv – an'anaviy markscha materialistik yondashuvga o`xshab ketadi. Biroq materialistik yondashuvni hurmat qilgan holda, masalaga idealistik (yoki ratsionalistik) yondashuvni ham

<sup>1</sup> Quvvatov N. O`tish davri tafakkuri. T.: "Ma'naviyat", 2002. 22 b.

ijobiy baholash lozim. Buni klassik shaklda taniqli nemis sotsiologi M.Veber o`zining “Protestant etikasi va kapitalizm ruhi” (1905 y.) asarida ro`y-rost ko`rsatib o`tgan edi. M.Veber ta'kidlashicha kapitalizmni kapitalizm qilgan sinfiy ekspluatatsiya emas, balki protestant mehnat etikasidir. Protestant mehnat etikasi – kapitalizm “ruhi”dir. “Ruh” – esa “bu xudoning nafasi – insonning joni. ichki dunyosi, qalbi”.<sup>1</sup>

Milliy rivojlanish inson ruhini ham rivojlantirishni, uni an'anaviy (islomiy) mo`min-qobillik ruhidan qutqarishni taqozo qiladi. Shu o`rinda bir narsani alohida ta'kidlab o`tishga to`g`ri keladi. Mustaqillik sharofati bilan jamiyatda o`tmishga qiziqish, o`z ma'naviy ildizlarini qidirish benihoyat kuchaydi. Deyarli o`n yildan buyon tarixning sarg`aygan varaqlaridan turli allomalarni, fozil kishilarni kashf etdik.

Bu milliy o`zlikni anglash uchun zarur, albatta. Biroq, bu o`z navbatida orqaga, o`rtasrlar ma'naviyatiga, an'anaviy jamiyatga qaytishga da'vatni ham anglatadi. An'anaviy jamiyat – bu kishini yana mutelikka, kamsuqimlikka, mo`min-qobil bo`lishga, itoatgo`ylikka, sabr-qanoatli bo`lishlikka undovchi jamiyatadir. An'anaviy jamiyat – inson hayotini barcha jabhalarini takrorlanish qonuniyatiga asoslangan jamiyatadir. U turg`unlikka eltadi.

Milliy rivojlanishimizning mustaqillikgacha bo`lgan davrlarning fojiasi shundaki, biz XV-XVI-asrlardan so`ng turg`unlik davriga uzil-kesil o`tdik. Islom aqidalariga asoslangan an'anaviy jamiyat XVI-asrga kelib uzil-kesil shakllandi. Milliy rivojlanish shu davrga kelib to`xtadi. Sharq ilmi asosida Uyg`onish davrini boshlagan G`arb ilgarilab ketdi. Ajoyib tadqiqotchi A.Erkayevning to`g`ri ta'kidlashicha “XVI-asrdan boshlab Sharqning G`arbdan ortda qolishining ma'naviy sabablaridan biri Sharq ijtimoiy-ma'naviy mo`ljallarini insonning ichki kamolotiga, kamsuqumlikka, sabr-qanoatga qaratilgandir”.<sup>2</sup>

Faqat XIX – asrning so`nggi o`n yilliklariga kelib an'anaviy jamiyatning ayrim ilg`or ziyolilari (I.Gasparali, M.Behbudiy) jamiyatni yangilash, isloh qilish davri yetilganligini anglab yetdilar. Islom dinining xalqimizning ma'naviy yuksalishida hissasi katta, albatta. Biroq, islom aqidalari o`rtasrlar uchun ratsional ma'noga ega. Islom dini millatimizni milliy rivojlanishiga uzoq davr salbiy ta'sir ko`rsatib kelgani ravshan. Shuning uchun hozir ham turli buzz`unchi kuchlarni (islom aqidaparastlari, vahobiylar va h.k.) islomiy davlatni reanimatsiya qilishga urinishlari yagona maqsadga bo`ysungan – an'anaviy islom jamiyatini yaratishdir. Buni qanchalik be-

<sup>1</sup> Erkayev A. Milliy va ma'naviyat. –T.: “Ma'naviyat”, 2002. 35-b.

<sup>2</sup> O'sha asar. 81-b.

ma'ni maqsad ekanligini hozirgi zamon ilmiy-texnikaviy taraqqiyoti isbotlab turibdi.

Faqat ratsionalizm va individual ijodiy faoliyat, pragmatizmgina hozirgi zamon taraqqiyotiga undaydi.

Bu degani har bir kishi o`zining betakror aqliy va jismoniy salohiyatidan foydalana olish uchun ijtimoiy sharoitlarni yaratilishi uchun fidokorona mehnat qilishi, yaratuvchanlik faoliyatini ustuvor bo`lishligi demakdir. Ozod, erkin fikr qilish, erkin yashash – zamonaviy jamiyat belgisidir. Inson huquq va erkinliklari kafolatlangan jamiyat – zamonaviy jamiyatadir.

Milliy rivojlanish g`oyasi uchun cheksiz imkoniyatlarga ega. U milliy va umuminsoniy qadriyatlar mushtarakligini ta'minlaydi, xalqimizni an'anaviy jamiyat botqog`idan chiqaradi. Bozor munosabatlarining o`zi an'anaviy jamiyatni dafn etadi. Jamiyatda yangicha urf-odatlar, udumlar sekin-asta shakllanib an'anaga aylanadi, eski an'analarga o`rin qolmaydi. Biroq millatni boshqa millatlardan ajratib turuvchi milliy xususiyatlar yo`qolib ketmaydi. Masalan, mehmondo`stlik, ochiq ko`ngillilik – o`zbeklarga xos xususiyatdir. Tejamkorlik, aniqlik esa nemislarga xos fazilatdir. An'anaviy jamiyat qoidalariga binoan hashamatli to`ylar o`tkazish, yigirma, qirq yil marosimlarini dabdabali qilib nishonlash – odatiy holdir.

Xorijdan kelgan kishilarga ham haddan ziyod mulozamat ko`rsatish, ortiqcha takalluf qilish ham o`tmish jamiyatining belgisidir. Ayrim "Mehmon" lar o`zbeklarning bu takalluflarini xushomad, g`arazli maqsadni ko`zlab qilinmoqda, deb tushunadilar. Tenglik, teng huquqli, teng moddiy va ma'naviy munosabatlar zamonaviy jamiyatda ko`proq qadrlanadi. Dabdababozlik, yasama "boyvachchalik", yaxshi, farovon ko`rinishga sun'iy intilish – o`tmish davrlardan qolgan salbiy odatlardir. Bu odatlar ko`pchilikka nafaqat qimmatga tushadi, balki fojia ham keltiradi. "Men sendan kam emasman", deb chiranihlar, qarzga botish, qarzni uzaman deb noqonuniy yo`llarga kirish – darhaqiqat fojalarga sabab bo`ladi. Zamonaviy kishi zamonaviy jamiyatda ratsional fikrlaydi va ratsional ish tutadi. Chiqim-kirimga qarab qilinadi. Milliy rivojlanish g`oyasi shu ma'noda kishini zamonaviy hayot kechirishi uchun, o`zining jismoniy va aqliy imkoniyatlarga to`g`ri baho berishligi uchun, natijada bir tekis farovon hayot kechirishi uchun g`oyaviy dastur bo`ladi.

#### **4. Siyosiy tizimni modernizatsiyalashtirish - demokratik jamiyatni shakllantirish talabi**

An'anaviy jamiyatni modernizatsiyalashtirish, uni siyosiy tizimini modernizatsiyalashtirishsiz mumkin emas. Ma'lum darajada aynan siyosiy tizimni modernizatsiyalashtirish darjasini jamiyatning tipini va demokratiyalashuvini belgilaydi. Hozirgi zamonda modernizatsiya va demokratizatsiya bir turkumdagi hodisalar bo`lib, ular siyosiy hokimiyatning tarkibi va mazmunini, fuqarolarning jamiyatni boshqaruvida ishtiropi darajasini belgilaydi.

Siyosiy tizimni modernizatsiyalashuvi jamiyatni siyosiy, iqtisodiy, huquqiy va ma'naviy sohalarini demokratiyalashtirish demakdir. An'anaviy jamiyatni modernizatsiyalashtirish uni demokratiyalashtirishni, ya'ni fuqarolarni siyosiy boshqaruvida ishtiropini faollashtirishni taqozo qiladi.

Ko`pincha siyosiy tizimni modernizatsiyalashtirish hokimiyatni, majburlov mexanizmini, ya'ni davlatni demokratiyalashtirish,<sup>1</sup> deb tushuniladi.

Bunday tushunishda siyosiy tizim to`g`ridan to`g`ri davlat, siyosiy hokimiyat, majburlov tizimi bilan aynanlashtiriladi. Bizni bu yerda siyosiy iboralarning mazmunini aniqlash emas, balki davlat va siyosiy tizim vazifalarini aniqlash qiziqtiradi. Shuning uchun biz bu yerda davlat siyosiy tizimining bor yo`g`i bir elementi (tabiiyki zaruriy va asosiy) ekanligini ta'kidlash bilan cheklanamiz. Siyosiy tizim – “bu muayyan siyosiy va huquqiy normalarga, qadriyat va an'analarga tayanadigan siyosiy institutlar, siyosiy munosabatlar, jarayonlarning muayyan tizimi bo`lib, u siyosiy mardaniyatning muayyan qadriyatları, an'analari, siyosiy va huquqiy normaliga asoslanadi”<sup>2</sup>.

Siyosiy tizimni modernizatsiyalashtirish asosan uch o`lchovga: iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohalarga asoslanadi.

Iqtisodiy hayotni modernizatsiyalashtirish bu - industrilashtirish va texnikalashtirish bo`lib, unda qishloq xo`jaligi ahamiyati jihatidan sanoat ishlab chiqarish va xizmat ko`rsatish kabilardan keyin turadi.

Ijtimoiy sohani modernizatsiyalashtirishning muhim jihatlari esa bu - urbanizatsiya, ijtimoiy safarbarlikni darajasini ko`tarish, fuqarolarni moddiy va ma'naviy ne'matlardan to`laqonli bahramand bo`lishi imkoniyatlari darajasini oshirish, ijtimoiy mahsulotlaridan xizmat ko`rsatish imkoniyatini yaxshilash, fanni institutlashtirish va h.k.

<sup>1</sup> Чингиз Шаран П. Сравнительная политология. / Пер. с англ. В 2-х частях. – М.: Прогресс, 1992. С.13-14.

<sup>2</sup> Политология. Учебное пособие для вузов./2 изд. М.: Контр. 2000. С. 131.

Siyosiy modernizatsiya yoki siyosiy tizimni modernizatsiyalashtirishni iqtisodiy va ijtimoiy modernizatsiyalashtirishdan tashqarida amalga oshirib bo`lmaydi. Chunki, jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy hayoti siyosiy tizimining asosidir, ular siyosiy tizimni rivojlanishi shart-sharoitini tashkil etadi.

Shunday qilib, jamiyatning siyosiy tizimi – bu siyosiy subyektlar, tizimlar va munosabatlarning yig`indisi bo`lib, keng qo`lamda ijtimoiy birliliklar va siyosiy kuchlarni manfaatlarini ifodaiaydi. Siyosiy tizim umumiy ahamiyat va maqsablar yo`lida jamiyatni integraasiyalashtiradi va uning faoliyatini samaradorligini ta`minlaydi.

Siyosiy tizimni modernizatsiyalashtirish umuman olganda bir vaqtida iqtisodiy va ijtimoiy modernizatsiyalashtirishni amalga oshirmsandan turib hozirgi zamon postindustrial jamiyatini vujudga keltira olmaydi. Shunday jamiyat qurgan yoki uning arafasidan turgan davlatlarning tajribasi fikrimizning isbotidir.

Hozirgi zamon an'anaviy jamiyatini siyosiy tizimini modernizatsiyalashtirish birinchi navbatda siyosiy ijodiyotning monopol subyekti, konseksual hokimiyatdan majburan ustun turadigan davlat boshqaruviga asoslangan siyosiy rejimni liberallashtirishni talab qiladi. Markazlashtirilgan ma'muriy-boshqaruv tizimida siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlari siyosiy ijodiyotdan chetlashtiriladi, chunki ular rasman faoliyat ko`rsatadilar, mustaqillik va erkinlikka ega emaslar. Bu jamiyatda rivojlangan siyosiy madaniyat va siyosiy ongning shakllanmaganligi bilan bog`liqidir.

Ikkinci tomondan – ko`ppartiyaviylik an'analari mavjud emasligi jamiyatda siyosiy pluralizmni, siyosiy partiyalarni tuzilishi uchun yetarli siyosiy shart-sharoitlarni vujudga keltirishga imkoniyat bermaydi. Eski siyosiy tizimini buzib tashlamasdan, modernizatsiyalashgan ba`zi davlatlarning tajribasi shuni ko`rsatadiki. modernizatsiyalashtirish yaxlit voqelikda, ya`ni jamiyatni siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy modernizatsiyalashtirish – o`zaro aloqadordirlikda amalga oshirilishi mumkin.

Misol uchun, hozirgi davrdagi Xitoydagi islohotlarni qayd qilishimiz mumkin. Ushbu davlat siyosiy hayotni yakka partiyaviylik va yagona mafkura asosida rivojlanadigan siyosiy tizimini buzib tashlamadi, balki uni bozor iqtisodiyoti va ochiq jamiyat qonuniyatlariga mos ravishda modernizatsiyalashtirdi. Xitoyni modernizatsiyalashtirish strategiyasi 1978 yil dekabr oyidagi XKP MK ning plenumida ishlab chiqilgan. Ushbu maqsad “to`rt modernizatsiya” nomli dasturida – sanoat, qishloq xo`jaligi, milliy mudotaa, fan va texnika kabi sohnaiarda ishlash chiqilgan. Modernizatsiya-

<sup>1</sup> Qaralsin: “Проблемы Дальнего Востока», № 4, Москва, 1988. С. 28.

lashtirish dasturini amalga oshirish uch bosqichga bo`lingan va XX1 asrning o`rtalarigacha bo`lgan davrni qamrab oladi. Xitoy jamiyatini modernizatsiyalashtirishning asoschisi o`sha davrdagi siyosiy yo`lboshchi Den S`yao Pin hisoblanadi. U Xitoyda modernizatsiyalashgan sotsialistik jamiyat (ya`ni, bozor iqtisodiga asoslangan) qurish yo`lini ishlab chiqdi. Uning maqsadi – xalqning turmush darajasini izchil oshirib borishdan iborat. Xitoy hukumati 1997 yildan boshlab ochiq jamiyat siyosatini amalga oshirishga kirishdi. Dastlab Guandun va Futsyan viloyatlari tashqi iqtisodiy faoliyatiga imtiyozlar berildi. Keyingi bosqichida 14 ta dengiz bandar-gohlari va dengiz bo`yi shaharlari shu jumladan, Dalyani va Sinxuandao shaharlari xalqaro aloqalar uchun ochiq deb e`lon qilindi. Ochiq siyosat Xitoy jamiyati va iqtisodiyotiga ijobiy ta`sir etmoqda. 1998 yildan boshlab Xitoy besh yil davomida bir yillik investitsiyalarni kiritilishini ko`rsatkichi bo`yicha AQSH dan keyingi ikkinchi o`rinni egallab kelmoqda. Oxirgi 20 yil davomida 71 milliard dollar miqdoridagi shartnomalarga imzo chekilgan, shundan 17 milliard dollarlik ishlar hajarilgan. Xitoy jahonning 200 dan ortiq mamlakatlar va mintaqalar bilan savdo-iqtisodiy hamkorlik qilmoqda, 240 dan ortiq dengiz, quruqlik va havo-chevara bиринчи тоифали muassasalarini ochiq, deb e`lon qilindi, bojxona soliqlari 17% gacha qisqartirildi, bojxona soliqlarisiz shartnomalar soni qisqartirildi. Tashqi aloqalarning osonlashtirilishi sanoat tarkibini tartibga solishni rag`batlantirdi, ishlab chiqarishni odilona taqsimlanishiga shart sharoit yaratdi. Xorijiy kapitalni mamlakat iqtisodiyotiga jalg qilish jarayonining qulami tobora ortib bormoqda. “Bayzing jibao” oynomasida qayd etilishiga ko`ra “jahonning ishlab chiqarish sohasidagi 500 ta eng yirik xalqaro firmalaridan 300 taga yaqini o`z kapitalini Xitoyga kiritgan”.<sup>1</sup> 2000 yilda Xitoyning import-eksport aylanmasi 400 mlrd. dollarni tashkil etgan. 2010 yilga kelib uning miqdori 800 mlrd. dollarni tashkil etishi rejalashtirilmoqda. Bularning barchasi Xitoy jamiyatini modernizatsiyalashuvini anglatadi, u jahonga yanada keng tovar bozorlarini va kapital kiritishning yanada katta imkoniyatlarini yaratishini anglatadi.

Dunyoning yirik politologlaridan biri bo`lgan AQSH strategik va xalqaro tadqiqotlar Markazining eksperti Zbignev Bzejinskiyning qayd etishiga ko`ra Buyuk Xitoyning mavqeい Uzoq Sharqda va Markaziy Osiyo mintaqasida mustahkamlandi.<sup>2</sup> Xitoy tovarlari rus Uzoq Sharqini to`ldirdi, Markaziy Osiyo mintaqasiga kirib kelmoqda. Bu jarayonni to`xtatish maqsadida bojxona soliqlarini oshirish, mahalliy valutani konvertatsiya

<sup>1</sup> Qaralsin: “Бэйзинг жибәо”. Пекин от 15 января 1998 г. С. 4.

<sup>2</sup> Qaralsin:: A.Report of CSIS Freemen Chaur in China Studies. China's new journey to the west. Washington D.C. Au-gust 2003. p. 5.

qilishni taqilash, chegaralarning mustahkamlanishi kabi vujudga keltirilgan sun'iy to`siqlar erkin savdo va tijoratning siuviga bardosh bera olmay qulab tushadi.

Iqtisodiy integratsiya, modernizatsiya va informatizatsiya jarayonlariga to`siqlar qo`yishga intilish xalqaro jamoatchilik tomonidan salbiy qabul qilinadi. Har qanday jamiyat, agarda biqiqlikka intilsa, tashqi ta'sirlar uchun yopiq bo`lsa, iqtisodiy, madaniy va siyosiy rivojlanishdan orqada qolishga mahkum va oxir oqibatda ijtimoiy turg`unlikka duchor bo`ladi. Termodinamika qonuniyatiga ko`ra yopiq tizimlarda entropiya kuchayadi, ya`ni “issiqlik o`limi” kabi fojiaga olib keladi. Ijtimoiy tizimlarda ham o`zini-o`zi cheklash, siyosiy ijodiyotni bostirish siyosati olib borilsa, u holda bunday tizim o`zining ijtimoiy-siyosiy rivojlanishida orqada qola boshlaydi. Yopiq jamiyatlarda, ular odatda “totalitar jamiyat”lar deb ataladi, so`z erkinligi cheklanadi. Modernizatsiyalashtirish nazariyasi asoschilari G.Almond, U.Rostou, T.Parsons, S.Eyzenshteyn va boshqalarining fikricha, “siyosiy taraqqiyot yuqori liberal plyuralizm darajasini taqozo etadi”.<sup>1</sup> Liberal plyuralizm avtoritar siyosiy rejimda, ya`ni norasmiy senzuraning mavjudligi, so`z erkinligini yo`qligi, OAV ning davlat nazoratida bo`lishi, informatsiya bozorining yo`qligi sharoitida mavjud bo`la olmaydi.

Avtoritar siyosiy rejimlar totalitar tizimdan demokratik tizimga o`tish davridagi jamiyatlarda saqlanib qolishi mumkin. Texnik-iqtisodiy imkoniyatlari darajasi past bo`lgan bunday jamiyatlarga quyidagilar xosdir: patrional-urug`chilik bozorigacha bo`lgan munosabatlar saqlanib qolishi, ijtimoiy tizimida guruhlarga bo`linishning zaifligi, fuqarolik jamiyatni institut va tashkilotlarning yetarli darajada rivojlanmasligi aholi, siyosiy madaniyatining past darajada ekanligi. Avtoritar siyosiy rejimlar asorati sovetlari davlati parchalanib ketganidan keyin ham u yoki bu darajada saqlanib qoldi. Chunki avtoritar siyosiy rejimlar sovetlar siyosiy tartibigacha mavjud edi.

1917 yil oktabr to`ntarishidan oldin Turkistonda ham tarixan avtoritar rejimlar mavjud bo`lgan. Buxoro amirligi, Qo`qon va Xiva xonliklari an'anaviy avtoritar rejimlar sifatida qayd etiladi.

O`zbekiston sobiq sovetlar davlati tarkibida avtoritar rejim rivojlanishining bir qator bosqichlaridan o`tgan. Birinchi bosqich, 1917 yildan 1920 yilning o`rtalarigacha davom etgan. Bu davorda siyosiy rejim atvori-tar-diktatorlik ko`rinishida bo`lgan. Bolsheviklar, aniqrog`i partiya rabiariyati rasman proletariat diktaturasini o`rnatib siyosiy hokimiyatni

<sup>1</sup> Чарльз Ф. Эндреин. Сравнительный анализ политических систем./ пер.с англ. - М.: Весь мир. 2000. С. 247.

zo`ravonlik bilan qo`lga oldi. Qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyatlarini o`ziga bo`ysundirdi. Kamchilikni tashkil etgan boshqaruvchilar (bolsheviklar) siyosiy terrorga, shu jumladan, qurolli zo`ravonlikka tayanih ko`pchilik ustidan siyosiy hokimiyatini o`rnatdi. Turkistonda sovetlar hokimiyati kuch bilan, qurol yordamida, kuchli tashviqot apparatiga tayanih amalga oshirildi.

Ikkinchisi bosqich – 20 yillarning o`rtalaridan 50 yillarning o`rtalariga gacha bo`lgan davr Stalin nomi bilan bog`liq. Stalin siyosiy rejimiga – repressiyalar, o`zgacha fikrlovchilarni ta'qib qilish, rasmiy terror, avtoritarizmning betakror ko`rinishi va boshqalar xosdir.

Uchinchi davr – 50 yillarning o`rtalaridan – 1991 yil mustaqillikni qo`lga kiritilishiga gacha bo`lgan davrdir. Ushbu davrda davlat apparatining zo`ravonligi zaiflashdi, ommaviy repressiyalar xurfikrlikni ta'qib qilish siyosati bilan almashtirildi, davlat fuqarolarning doimiy ortib boruvchi chtiyolarini hisobga ola boshladi, “temir parda” ochila boshladi, odamlar G`arb madaniyatini bilan bevosita tanishish imkoniyatini qo`lga kiritdi.

1991 yildan O`zbekistonda yangi vaqt hisobi boshlandi, mamlakat mustaqil siyosiy rivojlanish huquqini qo`lga kiritdi. 1992 y. dekabr oyida mustaqil davlatning yangi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Unda yangi siyosiy tizimning huquqiy asoslari ishlab chiqildi. Biroq tizim, uning bosh bo`g`ini – siyosiy hokimiyat faoliyatini nazorati o`tihs davrida vaqtincha zaif holatda qolmoqda.

Siyosiy hokimiyat faoliyatini nazorat qiluvchi siyosiy kuch sifatida ko`ppartiyaviylik tizimi va ommaviy axborot vositalari xizmat qilishi lozim. O`zbekistonda hozircha siyosiy hokimiyatga haqiqiy oppozitsiyada turgan biron bir siyosiy partiyani ko`rsatish qiyin. Ommaviy axborot vositalari esa resurslarning taqchilligi sababli hokimiyatga qaram bo`lib, davlat dotatsiyalari hisobidan faoliyat olib borishi sabab bo`lishi mumkin.

Avtoritar siyosiy tartib sharoitlarida hokimiyat obro`yi pasayadi, kishilar hokimiyatdan yuz o`giradi, xalq va hokimiyat o`rtasida masofa ortadi, sekin-asta fuqarolarning davlatdan begonalashuvi rivojlanadi, fuqarolarning hayoti yomonlashadi, kishilarning davlat tomonidan olib borilayotgan siyosatga noroziligi ortadi. Jamiyatdagi bu holatning tabiiy oqibati ekstremistik buzg`unchi siyosiy kuchlarning faollashuvi bo`lib, ular paydo bo`lgan imkoniyatdan mavjud konstitutsiyaviy tartibni ag`darib tashlash uchun soydalanishga harakat qilishadi. Qo`shni Qirg`izistonidagi 2005 yil boshlaridagi siyosiy tangliklar, Belorusiyada 2006 yil mart oyida bo`lib o`tgan Prezident saylovlari buni isbotlaydi.

Islohotlar natijalaridan qoniqmayotgan fuqarolari noroziligini kuch ishlatalish vositasida bostira oladi. Biroq aholi turmush darajasining pasayib ketishi. ishsizlikning o'sishi, daromadlarning teng emasligi. hokimiyat tizimidagi korrupsiya – omma kayfiyatining yomonlashuvini va umidsizlikni yumshata olmaydi. Buni Osiyoda va Ukrainadagi "rangli inqilob"<sup>1</sup>lar ro'yrost isbotladi. Bu mamlakatlarda ijtimoiy beqarorlik hanuz davom etmoqda.

Zamonaviy jamiyat nafaqat demokratik siyosiy tizimni, balki demokratik siyosiy rejimni ham taqozo eiadiki, bunday rejimda siyosiy hokimiyatga muqobil bo`lgan siyosiy tuzilmalar – raqobatchi partiyalar, ta'sir etuvchi guruhler, mustaqil axborot vositalari va boshqalarga ehtiyoj ortib boradi.

Konstitutsiyaviv boshqaruvgan agar individ erkinligini, xususiy mulk va bozor iqtisodiyotini himoya qilmasa, u holda bunday jamiyat fuqarolari jamiyat siyosiy hayotida faol ishtirok ham eta olmaydilar, bumi istamaydilar ham. Agar fuqarolar mavjud holatdagi o'zgarishlarni nafaqat kerakli, balki zarur ham, deb bilihsha, ular siyosiy hayotda faol ishtirok etadilar. Shu maqsadda ular siyosiy partiyalarga, siyosiy birlashmalarga, kasaba uyushmalariga a'zo bo`lib, siyosiy faoliytni namoyon etadilar.

Modernizatsiya nazariyasi tarafdarlari Aleks Inkeles va Devid Smit siyosiy taraqqiyotni siyosatda faol ishtirok etish bilan bog`laydilar.

Bu tabiiydir, chunki traditsion (an'anaviy) jamiyatdan zamonaviy jamiyatga o'tish jamiyat a'zolarining ommaviy faolligini, mavjud holatni o'zgartirishdan manfaatdarliklarini ko`zda tutadi.

Eski jamiyatdan postindustrial jamiyatga o'tish sharoitlaridagi an'anaviy ong yangi paradigmalar, zamon talablari asosidagi islohga, vangilanishga muhtojdir.

Bu avvalo siyosiy ongga taalluqlidir. An'anaviy siyosiy ong davlat va boshqa siyosiy institutlarning roli to`g`risidagi eski tasavvurlarga asoslangandir. An'anaviy, ya'ni eski siyosiy ong davlatni jamiyat, inson tepasida turuvchi alohida kuch sifatida idrok etadi. Buning o'ziga xos sabablari bor. Birinchidan, an'anaviy Sovet davlati jamiyat va inson tepasida turar, inson esa bor-yo`g'i bir vintcha bo`lib, siyosatga ta'sir etish huquqiga ega emas edi.

Ikkinchidan, davlat inson hayotini ta'minlovchi bosh omil sifatida o`zini namoyon etar, individual ishlab chiqarish va iste'mol faoliyati davlat tomonidan to`liq nazorat ostiga olingan edi. Bularning barchasi birqalikda

<sup>1</sup> Alex Inkeles and David H. Smith. Becoming Modern: Individual change in Six Developing countries. (Cambridge, MA: Harvard University Press, 1974). P. 251.

insonni mehnatdan begonalashuvi, boqimandalik psihologiyasining shakllanishiga sharoit tug`dirgan edi.

An'anaviy jamiyatdan farqli o`laroq zamonaviy jamiyat inson faoliyatni uchun qulay shart-sharoit, imkoniyat yaratadi, u boqimanda odamga, faqatgina iste'mol etishni o`ylovchiga toqat qila olmaydi.

Hissiyotdan holi qonunlar zamonaviy jamiyatda ratsionaldir, chunki bunday qonunlar amal qiladigan jamiyatda ishlab chiqarishda faol ishtirok etuvchi, ijodkor-yaratuvchi insonlarga yashay oladilar, raqobatga bardosh bera oladilar. Boshqacha aytganda zamonaviy jamiyatda “G`arq bo`luvchining qutilishi uning o`ziga bog`liq” degan qoida amal qiladi, ya`ni davlat hayotiy faoliyat mazmunini emas, balki uning shart-sharoitlarini, huquqiy asosinigina yaratadi yok beradi.

Jamiyatning ijtimoiy tabaqlanishuvi, shafqatsiz raqobat sharoitlarida inson o`z faoliyatini o`zi boshqara olmasa, muayyan maqsadga yo`naltirilgan o`z hayotini qura olmasa, uning yashashi qiyindir.

~~Siyosiy tizimni modernizatsiyalash inson o`z imkoniyatlarini, aqliy va ma`naviy kuch-qudratini ruyobga chiqarishi uchun qulay bo`lgan siyosiy shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratilishini taqozo etadi.~~

Siyosiy tizimni modernizatsiya qilish undagi bosh va asosiy element – davlatni modernizatsiya qilishdan boshlanmog`i kerak.

Davlat siyosiy hokimiyatni tashkil etishning o`ziga xos tashkiloti bo`lib, jamiyatni boshqaruvga maxsus mexanizm, boshqarish tizimi va muassasalariga egadir.

Davlat mexanizmlari deyilganda vakillik, ijroiya va sud hokimiyatlari hamda maxsus muassasalar tushuniladi.

Zamonaviy modernizatsiyalashgan davlatning o`ziga xos muhim xususiyatlaridan biri fucarolik jamiyatni bo`lib, davlat u bilan hamkorlik qiladi va juda qizg`in hamda turli-tuman o`zaro aloqalar o`rnatadi.

Fuqarolik jamiyatining mavjudligi – demokratlashtirishning, ya`ni jamiyat siyosiy tiziminining modernizatsiyalashganlik darajasini ko`rsatadi. Fuqarolik jamiyatni deyilganda O`zbekistonda nodavlat tashkilotlari tizimining, harakatlarining, assotsiatsiyalar, fondlar, birlashmalar va boshqalarning mavjudligi tushuniladi.

Yuqorida qayd etilganidek fuqarolik jamiyatining kurtagi mahalla bo`lib, u siyosiy, ijtimoiy, mintaqaviy, yoki etnik xususiyatlarga ko`ra emas, balki yashash joyi bo`yicha vujudga kelgan qadimiy ijtimoiy birlidir.

Bizningcha, mahalla fuqarolik jamiyatining boshlang`ich elementi holos, uning asosiy elementi bo`la olmaydi, chunki u intellektual va

boshqa xususiyatlarga ko`ra tarkib jihatidan turli-tuman bo`lib, rasmiy siyosatda fuqarolik jamiyatining ibtidosi sifatida ta`riflanayotgan bo`lsa-da, unga fuqarolik jamiyatining to`liq legitim elementi sifatida qarash nojoizdir.

Bizning fikrimizcha, fuqarolik jamiyati – fuqarolar va ular birlashmalarining (harakatlar, guruuhlar, kasbiy, madaniy, milliy, ekologik va boshqa birlashmalar) yig`indisi bo`lib, u o`z guruhiy manfaatlarini tashkiliy tarzda nimoya qifadi va bu manfaatiarning davlat tomonidan qonuniy tartibda qondirilishiga erisha oladi. Shunday qilib, fuqarolik jamiyati odamlarning shunchaki bir yig`indisi emas, balki sivilizatsiyalashgan, ongli va faol fuqarolar uyushmasidir.

Siyosiy tizimlar, davlatlar va siyosatga oid hozirgi zamon konsepsiyalarida fuqarolik jamiyati davlatga tobe bo`lmanan va mustaqil fuqarolarning, masalan fermerlar, tadbirkorlar, iste'molchilar, omonatchilar va boshqalarning assotsiatsiyasi sifatida tushuniladiki, ularning a'zolari professional siyosatchilar bo`limasalar-da, o`zлari mansub bo`lgan ijtimoiy guruuhlar manfaatlarining qondirilishi maqsadida davlat hokimiyatiga tashkiliy tarzda va faol ta'sir ko`rsatadilar.

Buni xohlaymizmi-yo`qmi – fuqarolarning va fuqarolar guruuhlarining siyosiy faolligi zaminida muayyan iqtisodiy manfaatlar yotadi. Har qanday fuqarolar birlashmasi siyosatga o`zining iqtisodiy manfaati orqali a'sir etadi. o`zlarining mazkur manfaatlarini qondirish uchun ular (ya'ni ijtimoiy guruuhlar, harakatlar va h.k.) turli vositalardan foydalanadilar. Masalan, davlat amaldorlari bilan, siyosiy partiyalar yetakchilari bilan, parlament deputatlari bilan (ularni manfaatlarini qondirilishi evaziga qo`llab-quvvatlash uchun) aloqa o`ranatadilar, parlament orqali o`zлari uchun foydali bo`lgan qonun va qarorlarni o`tkazishga harakat qiladilar (lobbism), ommaviy (faqat demokratik jamiyatlarda - A.K.) namoyishlar o`tkazishib, o`zlarining muammotariga jamiyat e'tiborini qaratishga urinadilar. Va nihoyat, ayrim hollarda, o`zлari ham qonun chiqaruvchi organlarning mahalliy va umum davlat bo`g`inlariga bo`ladigan saylovlarda ishtirok etishga, mahalliy boshqaruv tizimiga kirib olishga harakat qiladilar. Bundan tashqari fuqaroviy jamiyatlari uchun xos bo`lgan hokimiyat va jamoatchilik fikriga ta'sir o`tkazishning shakllaridan – namoyishlar, mitinglar, fuqarolar bo`ysunmasligi, aksiyalar, piketlar va h.k. lardan ham foydalaniladi. Bizning fikrimizcha, aynan shu hodisalar orqali eski, davlatga patriarchal – bo`ysunuvchi (amalda mutlaq qo`llab-quvvatlash yoki ijtimoiy kafolatlar evaziga aralashmaslik pozitsiyasi) munosabati namoyon bo`ladi. Bizning fikrimizcha, siyosiy modernizatsiyalashda mazkur bosqich qachonki jami-

yatning turli tabaqalari va guruhlari tomonidan o`zlarining ijtimoiy ehtiyojlarini anglay boshlagandagina erishiladi.

Aynan shunday mashaqqatli yo`l orqali Rossiya va boshqa sobiq sovet mamlakatlari fuqarolik institutlarini shakllanishi, haqiqiy demokratiyaning qaror topishi tomon bormoqdalar. Bu yo`lga Yevropa mamlakatlari Reformatsiya va burjua inqiloblari davrlaridayoq kirgan edilar.

Jamiyatni modernizatsiyalashtirishga asosan faol siyosiy kuchlarni yaratuvchanlik o`zaniga burish, stixiyali noroziliklardan saqlanish, fuqarolarning ijtimoiy va siyosiy faolligining yakson qiluvchi oqibatlarini oldini olishdir. Bularning burchasi jamiyat siyosiy tizimining muhim elementlaridan biri fuqarolarning siyosiy ongi va siyosiy madaniyati rivojlanganligining muayyan darajasi bilan bog`liq.

Jamiyat siyosiy tizimini modernizatsiyalashtirish va demokratiyalashtirish uchun modernizatsiya taqdirini belgilovchi uch bir-biri bilan bog`liq bo`lgan vazifalarni hal etish lozim:

4. *Ishlab chiqarish vositalarining xususiy institutlarini* (kollektiv va individual) yaratish, iqtisodiy raqobat muhitini yaratish, xo`jalik yurituvchi subyektlarning faolligini va teng huquqligini ta'minlash;

5. Cheksiz siyosiy hokimiyatchilikni har qanday asoslarini yo`q qilish, markazlashtirishdan chiqarish, hokimiyat vakolatlarini qayta taqsimlash;

6. Inson ongini ozod qilish, oriyat xissini, o`z kuchiga ishonish hissini kishilarda mustahkamlash, ijtimoiy siyosiy masalalarni hal etishda loqaydlik va sustkashlikka barham berish.

Hozirgi zamon modernizatsiyalashgan demokratik davlati va fuqarolik jamiyatni bir-birini to`ldiradi va bir-biri bilan uzviy aloqada turadi. Davlat ongli va faol fuqarolar tomonidan nazorat qilinmasa – demokratik emas, balki avtoritar, korrupsiyaga asoslangan davlatga aylanadi. Bir vaqtning o`zida jamiyat a`zolari tomonidan qonunlarni va huquqiy normalarni bajarilishini nazorat qilib turuvchi davlatsiz biz uyushgan, ongli fuqarolik jamiyat o`rniga tartibsizlikni, boshboshoqlikni, “hammani hammaga qarsi urushi” ni kuzatgan bo`lar edik. Bunga esa yo`l qo`yib bo`lmaydi.

Hozirgi zamon O`zbekistonining modernizatsiyalashtirish quyidagi ziddiyatlarni hal etishni ham taqozo etadi:

1. An'analar bilan zamonaviylikni to`qnashuvini, ya`ni zamon talablariga javob bera olmaydigan an'analar turli eskirgan tarkiblar, prinsiplar va normalar bilan, yangicha rivojlanish yo`llarini kashf etish, o`zgarishlarga intilish, siyosiy faoliyatning va siyosiy tafakkurning yangicha shakllari o`rtasidagi ziddiyatlar.

2. G`arb sivilizatsiyasining tarixiy mahsuli bo`lmish yangicha siyosiy paradigmalar bilan o`tmish avtoritar tuzumdan meros bo`lib qolgan eski-siya siyosiy tafakkur to`qnashuvi.

3. Hozirgi zamон xalqaro munosabatlari va barqarorlik taqozo etgan o`zgarishlarga intilishni buzilishi bilan aloqada bo`lgan turli bo`zg`unchi, destruktiv intilishlar to`qnashuvi.

O`zbekiston Respublikasining siyosiy tizimini modernizatsiyalashtirish muqarrar harakterga ega bo`lib bormoqda. Bu vakillik hokimiyatini, parlamentni modernizatsiyalashtirishda ko`zga tashlanmoqda. 2004 yil 26 dekabrda ikki palatali parlamentga saylovlар bo`lib o`tdi. Siyosiy partiylarning vakillik hokimiyatidagi siyosiy ishtiroki kuchaydi, muholif siyosiy partiylar faoliyati uchun sharoitlar yaratilib, mavjud siyosiy hokimiyatga muvozanat muhiti yaratildi. Bularning barchasi jamiyatni yangilanishi, demokratizatsiyalashuvi va siyosiy modernizatsiyalashtirilishiga qaratilgandir.

## **5. Ijtimoiy hamkorlik - jamiyatni modernizatsiyalashtirish imkoniyati**

O`zbekiston xalqining mustaqil milliy rivojlanishi jamiyatda ijtimoiy hamkorlik munosabatlarini shakllantirmay va siyosiy barqarorlikni ta'minlamay turib mumkin emasdir. Bu fikrni qanchalik hayotiy ekanligi mintaqaviy va global miqyosda kuzatilayotgan murakkab ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'nnaviy-ma'rifiy jarayonlar, ziddiyat va muammolar misolida kuzatilmoqda. Milliy, etnik, irqiy va diniy nizolar, separatizm, terrorizm, siyosiy va diniy ekstremizm ijtimoiy hamkorlik va jamiyatda siyosiy barqarorlik, fuqaroviylar totuvlik va hamjihatlik bo`limgan yerda paydo bo`lishi va milliy rivojlanishga xavf tug`dirishi hech kimga sir emasdir.

Qo`shni Afg`onistonda, Yaqin Sharqda, Shimoliy Irlandiya, Hindiston, Rossiya va boshqa mamlakatlarda kuzatilayotgan etnik, diniy, irqiy va hududiy ziddiyatlarning ildizi jamiyatda, fuqarolar o`rtasida ijtimoiy hamkorlikning va siyosiy barqarorlikni ta'minlovchi integrativ mexanizm – **milliy rivojlanish g`oyasining yo`qligi, jamiyat maskurusining nochorligi** bilan izohlanadi. Ijtimoiy hamkorlik nima, uning mazmuni va tarkibini nimalar tashkil etadi, degan savol tug`iladi.

Ijtimoiy hamkorlik mazmun va mohiyat jihatdan keng tushuncha bo`lib, u global, regional (mintaqaviy) va hududiy (lokal) ijtimoiy munosabatlar va ijtimoiy munosabatlarni o`z ichiga oladi.

Global miqyosda ijtimoiy hamkorlik globallashuv jarayoni bilan bog`liq bo`lib, jahoning turli mamlakatlari o`rtasida iqtisodiy, siyosiy, madaniy, texnikaviy, ilmiy, harbiy-strategik, ekologik, ijtimoiy-gumanitar munosabatlarni qamrab oladi. Global miqyosdagi ijtimoiy hamkorlik global va regional miqyosda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy munosabatlarni kuchaytirish, milliy va diniy nizolarni, ziddiyatlarni oldini olish, madaniy va gumanitar munosabatlarni rivojlanirishga qaratilgandir.

Global miqyosdagi ijtimoiy hamkorlik ommaviy qirg in qurollarini ishlab chiqarish va tarqatishni cheklash, ekologik tangliklarni oldini olish, epidemiya va boshqa ommaviy xavfli hodisalarini oldini olish va jilovlash uchun jahoning turli siyosiy tartib va siyosiy tizimidagi davlatlari o`rtasidagi hamkorlikka asoslanadi.

Regional yoki mintaqaviy ijtimoiy hamkorlik muayyan cheklangan jo`g`rofiy hududda umummintaqaviy iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ekologik muammolarni hal etishga qaratilgan shu hududda joylashgan mamlakatlarning o`zaro hamkorligidir. Markaziy Osiyo mintaqasida mustaqillikka erishgan yosh mustaqil davlatlar iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ekologik va boshqa sohalarda o`zaro hamkorlikka intilmoqda. Masalan,

Markaziy Osiyoniy yadroviy quroldan halos bo`lgan mintaqaga aylantirishga qaratilgan o`zaro hamkorlik, Orolbo`yi mintaqasida ekologik tanglikni kamaytirish, epidemiya, toza ichimlik suvi bilan ta'minlashga qaratilgan mintaqaviy hamkorlik, xalqaro terrorizm va diniy ekstremizmga, giyohvand moddalarni yetishtirish, saqlash va boshqa hududlarga yetkazishga (narkotrafik) qarshi qaratilgan o`zaro hamkorlik shular jumlasidandir.<sup>1</sup>

Shu ma nodi Turkiston – umumiy uyimiz<sup>2</sup>, degan siyosiy shior Ekosan, EKO, Shanxay hamkorlik kengashi va boshqa xalqaro mintaqaviy tashkilotlar faoliyati orqali amalga oshirilayotgan Markaziy Osiyo davlatlari o`rtasidagi o`zaro hamkorlik regional (mintaqaviy) hamkorlik misolidir. Mintaqaviy hamkorlik shu mintaqada yashovchi xalqlarning o`zaro madaniy yaqintashuvi, iqtisodiy uyg`unlashuvi, xavf-xatarsiz farovon hayot kechirishlarini, yaxshi qo`shinchilik munosabatlarini mustahkamlashga qaratilgandir. Jahonning globallashuv tomon yuz tutayotgan bir tarixiy davrda o`zini mintaqaviy hamkorlikdan chekllovchi, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanish jihatidan biqiq holatga soluvchi ijtimoiy siyosat olib boruvchi har qanday davlat halokatga, inqirozga mahkumidir. Faqat yaxshi, teng huquqli, ochiq va samimi o`zaro iqtisodiy, siyosiy va madaniy munosabatlarga mintaqada xalqlarini farovonlikka yetaklaydi. Shu bois tarixiy madaniy ildizlari yaqin bo`lgan xalqlar mintaqaviy hamkorlikka intiladilar. Bunday intilishlarning ijobji natijasini ASEAN (Tinch okeani basseyni (havzasini) mamlakatlari o`zaro hamkorligi assotsiatsiyasi), ATR, NAFTA va h.k. mintaqaviy uyushmalarga a`zo mamlakatlar turmush darajasining tez sur`atlar bilan rivojlanib borishi misolida kuzatish mumkin. Rossiya, Belorussiya, Qozog`iston va Qirg`iziston davlatlarining MDH iqtisodiy-siyosiy makonida o`zaro hamkorlikka kirishishi, Yevroosiyo o`zaro mintaqaviy hamkorlikni yo`lga qo`yishga qaratilgan o`zaro intilishlar o`z istiqboliga ega. Yevropa Ittifoqi ham mintaqaviy ijtimoiy hamkorlikka misol bo`la oladi. Mintaqaviy hamkorlik global ijtimoiy hamkorlikning asosi, unga olib chiquvchi pog onadir.

Hududiy yoki lokal ijtimoiy hamkorlik bir mamlakat hududida yashovchi turli ijtimoiy tabaqalar, etnik guruuhlar, turli diniy e`tiqodga ega bo`lgan kishilar, siyosiy harakatlar, siyosiy partiylar, ijtimoiy tashkilotlar va uyushmalar o`rtasida barqaror rivojlanishga qaratilgan o`zaro hamkorlikdir.

Ijtimoiy hamkorlikni hududiy yoki lokal tushunish muammoga konkretlik bag`ishlaydi, milliy rivojlanish g`oyasini amaliy yo`nalishini

<sup>1</sup> Р.М. Алимов. Центральная Азия: Общность интересов. / Р.М. Алимов. – Т.: "Шарк", 2005.

ta'minlaydi. Ijtimoiy hamkorlikni hududiy yoki lokal izohlashga oid qator mulohaza va ta'riflar mavjud. Ommaviy va o'quv-uslubiy adabiyotda keng tarqalgan ta'rif quyidagicha: "Ijtimoiy hamkorlik –murosa falsafasi bo`lib, xilma-xil fikr va qarashlarga ega bo`lgan, turli millat, irq va dinga mansub shaxs va guruhlarning umumiy maqsad yo`lidagi hamjihatligini ta'minlaydi".<sup>1</sup>

Ijtimoiy hamkorlik o`z-o`zidan yuzaga kelmaydi. U jamiyatning turli ijtimoiy guruhlari, qatlamlari, siyosiy partiya va harakatlari o`rtasida ijtimoiy taraqqiyotga muayyan ehtiyoj paydo bo`lgandagina yuzaga keladi. Demak, u kishilar o`rtasida individual va ijtimoiy jihatdan paydo bo`ladigan muayyan muammolarni hal etish, muayyan ehtiyoj va qiziqishlarni qondirishga umumiy zarurat tug`ilgandagina paydo bo`ladi va harakatlanadi.

Ijtimoiy hamkorlik integrativ hodisa bo`lib, turli ijtimoiy guruhlar, sinflar va ayniqsa siyosiy partiya va siyosiy kuchlarni boshini qovushtiruvchi muayyan g`oya yoki vazifa yuzaga kelgandagina yuzaga keladi. O`zbekiston sharoitda turli ijtimoiy guruhlar, tabaqalar, partiyalar, harakatlar, nodavlat tashkilotlarni boshini qovushtiruvchi, yagona bir maqsadga yo`naltiruvchi g`oya – bu milliy istiqlol, bugun esa milliy rivojlanish g`oyasidir.

Shu bois "O`zbekiston xalqining milliy taraqqiyot yo`lidagi bosh g`oyasi – ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdir".<sup>2</sup>

Aynan shu g`oya milliy mustaqil rivojlanishimizning o`zak g`oyasi, maqsadi va orzusidir.

Mazkur orzuga, maqsad va g`oyaga amalda erishish iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va madaniy-ma'rifiy tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etadi. Ular ichida eng muhimi, tashkillashtiruvchi va amaliyotda mustahkamlantiruvchisi – siyosiy barqarorlikdir.

Siyosiy barqarorlik bo`Imagan joyda na iqtisodiy, na huquqiy va na madaniy taraqqiyot bo`ladi. Siyosiy barqarorlik jamiyat ichki hayotini sog`lomlashtiruvchi, unga ilgarilanma harakat qilish, rivojlanish uchun sharoit yaratuvchi omildir. Siyosiy barqarorlik tinch-totuv hayot, farovon turmush, ijtimoiy taraqqiyot garovidir.

Siyosiy barqarorlikning global va regional (mintaqaviy) ahamiyati mavjud.

Mamlakat ijtimoiy rivojlanishi uchun chet el investitsiyasining, xalqaro hamjamiyat e'tiborining ahamiyati salmoqlidir. Siyosiy barqarorlik

<sup>1</sup> Milliy istiqlol : asosiy tushuncha va tamovillar. –T.: "Yangi asr avlodii", 2001. 133-b.  
<sup>2</sup> Milliy istiqlol : asosiy tushuncha va tamovillar. –T.: "Yangi asr avlodii", 2000. 50-b.

bo`lмаган мамлакатга чет ел сармоясини кириб келиши қишинашади. Чунки гарандай инвестор о`з сармоясини сиёсилик ва ҳуруғиён жиҳатдан қафолатланышидан мағафатдор бо`лади. Сиёсилик, сиёсилик босх-босхдоғлиқ – бу худди шамолда қаттиқ төбәнниб түрүвчи, қулаб түшисига яғин дарахт мисолидир. Төбәнниб түрган дарахтга на бирон бир қуш қо`нади, на ин қурди. Шунинг учун сиёсилик баргарор бо`лмаган мінтақага юки hududga сармоя олиб кириш, тадбиркорлик билан шуг`улланыш гарандай ақли раста xorijiy сармоядор учун ҳавфидир.

О`zbekistonda ҳозир 100 дан зиод чет ел сармоядорлари кatta капитал асосида саноатнинг ўрік тармоғлари билан ҳамкорлик қилмоқда. Бу – тоғимачилик, машынасозлик, фойдалы қазымаларни разведка қилиш ва о`злаштырыш билан bog`liq қойиҳалардир.

Сиёсилик баргарорликни та'минлаш мінтақалыкның дастлабки юйлардан бoshlab ўш мінтақалык давлатимизнинг diqqat markazida турди. Faqat siyosiy bargarorlikkina milliy, diniy, chegaraviy ziddiyatlarning reanimatsiya qilinishini, fuqarolar o`rtasida o`zaro ҳамкорликни yo`qolishini oldini oladi. Shunday qilib, siyosiy bargarorlik – жамиятнинг түрли ijtimoiy гурнадарлари, сінфлари, сиёсилик партиялари, etnik va diniy ғасырлари, nodavlat tashkilotlari o`rtasida o`rnatalgan tolerantlik, hamjihatlik, totuvlik, ҳамкорлик ва o`zaro биродарлар мінтиңиң mavjudligidir.

Мамлакат ичидеги сиёсилик баргарорлик, юки локал сиёсилик баргарорлик regional юки мінтақавиыт баргарорлик билан узвиғ bog`liqdir. O`zbekiston misolida сиёсилик баргарорлик шунинг учун фақат ичкі омил emasdir. Tarix taqozosiga ko`ra Markaziy Osiyo давлатлари o`rtasidagi chegara demarkatsiya chiziqlari benixoyat shartlidir. Sho`rolar hukumatining aybi bilan мінтақадаги etnik o`zbeklar, qozoqlar, qirg`izlar, tojiklar va turkmanlar o`rtasidagi chegara demarkatsiya chiziqlari tarixan nisbiy holda bo`lib qolgan. Etnik o`zbeklar Markaziy Osiyo мінтақасининг барчасыда istiqomat qiladilar. o`z navbatida O`zbekistonda ham Markaziy Osiyo xalqlarining түрли міллат ғасырлари ҳайот kechirishadi.

Шу боис O`zbekistondagi сиёсилик баргарорлик бутун Markaziy Osiyo мінтақасидаги сиёсилик баргарорликка узвиғ bog`liqdir. Buni яғин o`tmishda, мінтақалык дастлабки юйларда мінтақада yuzaga kelgen сиёсилик tanglik aniq-ravshan tasdiqladi. Mіnтаqalararo, etnik nizolar – сиёсилик баргарорликни kushandasidir. Сиёсилик баргарорликнин yo`qolishi milliy rivojlanish учун fojiadir. Чунки сиёсилик баргарорликгина мамлекатда konsututsiyaviy iuzunni muvozanatimi ta'minlaydi, fuqarolar urushini, сиёсилик tangliklarni, hududiy va chegaraviy da'volarni, nafaqat diniy va сиёсилик ekstremizmni, balki separatizmni ham oldini oladi.

O`zbekistonda va Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik va siyosiy barqarorlikni ta'minlanishida va uning mustahkamlanishida O`zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Abdug`aniyevich Karimovning xizmatlari kattadir.<sup>1</sup> Farg`ona, o`sh, Namangan, Parkent, Bo`ka voqealari hali xalqimiz xotirasidan o`chgani yo`q. O`sha dahshatli, qaltis voqealarni jilovlashuvda va nafaqat O`zbekistonda, balki Markaziy Osiyoda fuqarolar urushi, xunrezliklarning oldi olinishida Prezident Islom Karimovning xizmatlari tarix oldida darhaqiqat kattadir. Buni holisona shaklda Qирг`изистон sobiq Prezidenti Askar Akayevning 1994 yil 5 noyabrida Rossiyaning "Izvestiya" gazetasida bergen intervyusidan ham bilib olish mumkin.<sup>2</sup>

Prezident Askar Akayev aytishicha, 1990 yil iyun oyida ikki kun ichida o`shdagи millatlararo qирг`inda yuzlab o`zbeklar va qирг`izlar halok bo`ldilar. Respublikani ikkinchi Qarabog`ga aylanishidan asrab qolishda mo`jiza tufayligina muvaffaq bo`lindi. Shunda Prezident Karimovning aniq pozitsiyasi yordam berdi.

Siyosiy barqarorlikni ta'minlash oddiy bir ish emasdir. Siyosiy barqarorlik mustahkam huquqiy, moddiy va ma'naviy asoslar yaratilishini taqozo qiladi. Undan tashqari siyosiy barqarorlik ilmiy asosdagina, ilmiy uslublar vositasidagina yaratiladi. Bunda politologik, sotsiologik, statistik, etnografik, tarixiy va mantiqiy uslublar ijtimoiy vokealarni ilmiy tahlil etish va ularning rivojlanish tendensiyalarini amaliy siyosat uchun bashorat va tavsiyalar berishda katta ahamiyat kasb etadi.

Siyosiy barqarorlikni ta'minlash har bir fuqaroning, vijdonli, e'tiqodli kishining burchidir. Siyosiy barqarorlik tinch, xavf-xatarsiz mehnat qilish, farovon hayot kechirish. Vatan yuksalishini ta'minlash omildir.

Ijtimoiy hamkorlik va siyosiy barqarorlikka o`z-o`zidan erishilmaydi. Buning uchun muayyan ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy va iqtisodiy asoslar yaratilishi kerak.

O`zbekiston o`z mustaqilligining dastlabki yillardanoq milliy rivojlanishning siyosiy, huquqiy va iqtisodiy asoslarini yaratishga kirishdi. Milliy rivojlanishning siyosiy-huquqiy asosi bo`lib 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O`zbekistonning yangi Konstitutsiysi xizmat qiladi.

"Asosiy Qonunda, -deb ta'kidlaydi R.Jumayev, - mustaqil demokratik davlat qurilishining vosita va yo`llari, fuqarolik jamiyati, uning ko`p qirrali haq-huquqlari va tinchlik tizimi bilan rivojlanish yo`lini tushunish, umuminsoniy mansaatlарining partiya, sind, millat va boshqalardan us-

<sup>1</sup> Bu haqda batafsilroq qarang: M.S.Gafarli, A.CH.Kasayev. Rivojlanishning izbek modeli: tinchlik va barqarorlik – taraqqiyot asosi. –T.: O`zbekiston, 2001y.

<sup>2</sup> Qarang: "Izvestiya" gazeta. 5 noyabr 1994 y. soni.

tunligi, mustaqil O`zbekistonning rivojlanish strategiyasining bayonnomasi o`z aksini topgan”.<sup>1</sup>

O`zbekistonda ijtimoiy hamkorlik va siyosiy barqarorlikning huquqiy kafolati Konstitutsiyaning qator moddalarida o`z aksini topgandir. Massalan, 21-moddada “O`zbekiston Respublikasining butun hududida yagona fuqarolik o`rnatildi. O`zbekiston Respublikasining fuqaroligi, unga qanday asoslarda ega bo`lganligidan qat'i nazar, hamma uchun tengdir”, deb ta`kidianadi. Məzkrur mo`ddaning ijtimoiy hamkorlik va siyosiy baxqaruvlik uchun ahamiyati shundaki, O`zbekistonda mustaqillik sharofat bilan fuqarolik instituti mazmunan tubdan yangi ma`no va mustaqil ahamiyat kasb etdi, fuqarolik davlatchiligidizning muhim ajralmas belgisiga aylandi. Shunga binoan fuqarolik shaxsnинг davlatga mansubligini, unga daxldorligini yuridik jihatdan mustahkamlaydi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov “shaxs O`zbekiston Respublikasi fuqaroligini qabul qilar ekan, bu bilan u Konstitutsiyamiz va qonunlarimizda mustahkamlab qo`yilgan huquq va erkinliklarga ega bo`ladi. Shuningdek, u ma`lum burchlarni ham bajarishga mabjurdir. Tabiiyki, O`zbekiston davlati ham fuqarolarning manfaatlari va erkinliklarini Respublika hududida va uning tashqarisida himoya qilish majburiyatlarini o`z zimmasiga oladi”.<sup>3</sup>

Siyosiy barqarorlikni ta`minlash nuqtai nazaridan respublika hududida bir fuqarolik huquqiy institutini o`rnatish ijobiy hodisa ekanligini hayot isbotladi. O`zbekiston ko`pmillatli davlatdir. Uning hududida yuzdan ziyod millat va elat vakillari istiqomat qiladi. Konstitutsiyani loyihasini muhokama qilish paytida mahalliy millatdan tashqari tarixiy vatani sobiq SSSR ning turli respublikalari bo`lgan rusizabon kishilarga ikki fuqarolik huquqini berish taklifi ham o`rtaga tashlangan edi.

O`zbekiston Prezidenti I.A.Karimov uzoqni ko`zlovchi siyosiy yetakchi sifatida buning salbiy oqibatlarini nazarda tutib, “ikki davlat fuqaroligiga mansublik achinarli holdir”. Bu bevatanlik bilan barobardir”.<sup>4</sup> - deb ta`kidlagan edi. Darhaqiqat, mazkur huquqiy holatning hayotiy ekanligini, diniy, irliq va milliy ziddiyatlarning oldini olishda fuqarolar o`rtasida ijtimoiy hamkorlik munosabatlarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini mamlakatda erishilgan tinchlik, hamjihatlik va millatlararo totuvlikda ko`rdik.

Kusiam Jumayev. Davlat va jamiyat: demokratiashtirish yunda. -T.: Sharq, 1998, 11-b.

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 21-modda.

<sup>1</sup> I.A.Karimov. Buyuk kelajagimizning shuquqiy kafolati. - Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-tom. -T.: O`zbekiston, 1996, 95-b.

<sup>2</sup> I.A.Karimov. O`sha asar. 96-b.

Fuqarolarga huquqdan tashqari konstitutsiyaviy normalarga riosa etish yuzasidan qator majburiyatlar ham yuklatilgandir. Shuning bilan birga fuqarolarning Konstitutsiyaga riosa etishi faqatgina ularga yuklatilgan majburiyatlar bilan cheklanmaydi, balki bu anchagini kengroq ma'no va mazmun kasb etadi.

Ko`pmillatli davlat sharoitida har bir fuqarodan ijtimoiy kelib chiqishi, millati, dini va irqidan qat'i nazar quyidagilar talab qilinadi: "...birinchidan, boshqa fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini hurmat qilish; ikkinchidan, davlat hokimiyatining konstitutsiyaviy organlari tomonidan qabul qilingan huquqiy aktlarga, shuningdek, sudning qonuniy kuchga kirgan hukm va qarorlariga itoat etish; ikkinchidan, konstitutsiyaviy tartibotlarni hurmat qilish, hech qanday holatda (zaruriy mudofaadan tashqari) zo`rlik ishlatmaslik, qonunga itoatkor bo`lish".

Mamlakatda siyosiy barqarorlikni ta'minlashda Konstitutsiya asosida yuzaga kelgan qonunchilik ham katta rol o`ynaydi. Hayot, amaliyot ehtiyojlaridan kelib chiqilgan holda, Jinoyat Kodeksiga ham qator o`zgartirishlar kiritildi. Xususan, amaldagi Jinoyat Kodeksining 216-moddasi quyidagi tahrirda bayon etildi: "Faoliyati taqiqlangan jamoat birlashmalari va diniy tashkilotlar tuzish yoki ularning faoliyatini tiklash, xuddi shuningdek, bunday birlashmalar va tashkilotlar faoliyatida faol qatnashish – eng kam ish haqining elliq baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki olti oygacha qamoq yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi".

Siyosiy barqarorlik turli ekstremistik guruhlar, buzg`unchi kuchlarga qaqshatqich zarba bermasdan mumkin bo`lmaydi. Diniy ekstremizm, terrorizm va shu kabi mamlakat siyosiy barqarorligiga xavf tug`diruvchi kuchlarga qarshi kurash faqat qonun doirasida olib borilishi kerak. 1997 yil 16 fevral voqealariga qadar diniy ekstremizm, fundamentalizm va terrorizm bizning mamlakatda unchalik xalq osoyishtaligini, yurt tinchligi va siyosiy barqarorlikni buzuvchi omil deb qaralmas edi. Fevral voqealarini bilan bog`liq bo`lgan yuzlab begunoh kishilarning fojiali taqdiri bu hodisalarini oldini olish uchun jinoyat qonunchiligiga ham o`zgartirishlar kiritishni taqozo qildi. Shu bois yurt tinchligi va siyosiy barqarorlikni ta'minlash osoyishtalikni himoya qilish uchun Jinoyat Kodeksiga maxsus 244<sup>1</sup>- modda kiritildi. Unda shunday deyiladi: "Diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlik g`oyalari bilan yo`g`rilgan, qirg`in solishga yoki fuqarolarni zo`rlik bilan ko`chirib yuborishga da'vat etadigan yoxud aholi

<sup>1</sup> U.Tadjixanov, X.Odilqoriyev, A.Saidov. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. –T.: "Shaxq", 2001. 21-b.

orasida vahima chiqarishga qaratilgan materiallarni tayyorlash, ularni tarqatish maqsadida saqlash, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilgandan keyin sodir etilgan bo`lsa - eng kam ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud olti oygacha qamoq yoki mol-mulk musodara qilinib yoki musodara qilinmay uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan ja-  
zolanadi”

Ijtimoiy hamkorlik va siyosiy barqarorlikning siyosiy asosları Konstitutsiyaning 12, 13, 14, 15, 32, 33, 35 va h.k. moddalarida o`z aksini topgan. Xususan, Konstitutsiyaning 12-moddasida “O`zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fuqarolarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi. Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o`rnatalishi mumkin emas”, - deyiladi. Darhaqiqat mustaqil O`zbekistonning ijtimoiy hayoti va siyosiy tizimi mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi. Bir mafkuraning, bir dunyoqarashning yakkahokimligidan voz kechish, siyosiy partiylar, mafkuralar va fikrlar xilma-xilligi konstitutsiyaviy yo`l bilan e'tirof etilgan.

Mamlakatimizda ijtimoiy hamkorlikni va siyosiy barqarorlikni ta'minlanishida mazkur siyosiy-huquqiy dasturning ahamiyati katta. Biroq mazkur siyosiy-huquqiy dastur salohiyatidan shu kungacha hanuz to`la foydalanilgani yo`q. Buning sababi kishilar ongida sovet mafkurasining yakkahokimligiga asoslangan ijtimoiy hayotda o`rnashib qolgan siyosiy ko`nikmalarning saqlanib qolganligi, xalq xotirasidan o`chmaganligidir. Ikkinchidan, mafkuralar xilma-xilligini ijtimoiy hayotda qaror topa olmanligining bosh sabablaridan biri - mamlakatda faoliyat ko`rsatayotgani partiyalarning mustaqil, o`ziga xos mafkurasining yo`qligi yoxud shakllanishga ulgurmaganligidir.

Siyosiy barqarorlikni ta'minlanishida garchi muholif siyosiy kuchlar va muholif mafkuralar uchun huquqiy va siyosiy makon mavjud bo`lsa-da, afsuski jamiyatda siyosiy va huquqiy madaniyat darajasini pastligi sababli siyosat maydoniga konstruktiv muholifot emas, balki destruktiv, ya`ni buzg`unchi muholif kuchli chiqishga urinishdi. Buzg`unchi muholif siyosiy kuchlar aslida jinoyatchi unsurlar ta'sirida bo`lganligi sababli (Tohir Yo`ldoshev, Juma Namangoniy, Muhammad Solih va boshqalar) O`zbekiston islom uyg`onish partiyasi niqobi ostida amalda xalq osoyish-taligini buzish, siyosiy barqarorlikka putur yetkazish yo`lida bordilar. Terror, kishilarni qo`rquvga solish, aholi o`rtasida vahima tarqatish - buzg`unchi muholif kuchlarning kurash uslubiga aylandi. Garchi ko`pchilik bu kuchlarning g`arazli maqsadlarini o`z vaqtida to`g`ri anglab

olgan bo`lsalar-da, ayrim nodon, ishonuvchan, sodda kishilar ularning ta'siriga tushib qoldilar.

Jamiyatda shu bois muayyan muddatda barqarorlik va osoyishtalik buzildi. Faqat hukumatimizning sa'y-harakati bilan jamiyatda bo`linish, parchalanish, hududiy va milliy bo`linishlarning, qonli qarama-qarshi turishliklarning (qo'shni Tojikiston bunga misol – A.K.) oldi olindi. 1997 yil 16 fevral voqealaridan so`ng O`zbekistonda siyosiy barqarorlikni tiklanishi va mustahkamlanishida Prezident I.Karimovning “O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” nomli asari va “O`zbekiston XXI asrga intilmoqda” nomli risolasi mamlakatimizning keyingi rivojlanishi uchun siyosiy va mafkuraviy asos bo`ladi.

Prezident I.A.Karimov mamlakatimizning XXI asr bo`sag`asidagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy-ma'naviy sharoitini chuqur ilmiy tahlil qilish asosida ijtimoiy barqarorlikning va milliy rivojlanishi-shimizning asosiy shartlari va kafolatlari haqida siyosiy-nazariy asosni yaratdi.

Bu asoslar quyidagicha:

1. Ma'naviy qadriyatlar va milliy o`zlikni anglashning tiklanishi.
2. Davlatchilikni shakllantirish va mudofaa qobiliyatini mustahkamlash.
3. Demokratik institutlarni va fuqarolik jamiyatni asoslarini shakllantirish.
4. Kuchli ijtimoiy siyosat va aholi ijtimoiy faolligini oshirish.

Mamlakatimizda ijtimoiy hamkorlik va siyosiy barqarorlikni ta'minlashning aniq iqtisodiy asoslari ham Prezident I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan bo`lib, bir vaqtning o`zida bu omillar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishimizning kafolatlari bo`lib ham xizmat qiladi.

Ijtimoiy hamkorlik va siyosiy barqarorlikning moddiy-iqtisodiy asoslari bo`lib quyidagilar xizmat qiladi:

1. Bozor munosabatlarining qaror topishi va mulkdorlar sinfining shakllanishi;
2. Jo`g`rofiy –strategik imkoniyatlar va tabiiy xom ashyo resurslari;
3. Inson salohiyati, ijtimoiy va ishlab chiqarish infrastrukturasi;
4. Keng qo`lamli o`zgarishlar va hamkorlik kafolatlari;
5. Jahon hamjamiyati bilan hamkorlik.

O`zbekiston – umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan, millati, dini, ijtimoiy ahvoli, siyosiy e'tiqodlaridan qat'i nazar, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlovchi davlatdir. O`zbekistonda inson hayoti, uning erki, qadr-qimmati qadrlanadi.

"Inson huquqlari va demokratiya singari umumbasharliy qadriyatlar, - deb ta'kidlaydi O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov, - respublikamizning milliy davlatchilik manfaatlariga to`la mos keladi. Insonning eng ustuvor va muqaddas huquqlaridan biri – bu tinch yashash huquqidir. Davlat va jamiyatning burchi ana shu huquqni barcha qonuniy vositalar bilan kafolatlab berishdir. Bu huquqni amalga oshirish – davlat va jamiyatni demokratlashtirishning eng muhim shartidir. Demokratiyaning insonparvarligi shu bilan belgilanadi",<sup>1</sup> ijtimoiy hamkorlik va siyosiy barqarorlikning ma'nnaviy-ma'rifiy asoslari O'zbekistonda milliy o'zlikni tanish, e'tiqod erkinligini ta'minlash, millatlararo totuvlikni, o'zaro hurmat va hamjihatlik muhitini yaratish bilan bog`liq.

O'zbekiston davlati ijtimoiy hamkorlik va siyosiy barqarorlikni ta'minlashda mamlakatda yashovchi barcha millat va elatlarning xohishi-irodasini hisobga olib ish yuridi.

Taniqli siyosatshunos N.Jo'rayev ta'kidlashicha: "...davlat faqat adolatga tayansagina, uning siyosatda milliy, irqiy, diniy mansubligidan qat'i nazar yaxlit mamlakat fuqarosi taqdiri qamrab olinsagina qadriyatga aylanadi".<sup>2</sup> Muallifning fikricha, millatlararo munosabatlarni barqarorlashtirish o'tish davri uchun xos xususiyatdir. Bizningcha, millatlararo munosabatlar o`ta nozik va qaltis hodisa bo`lib, u biron bir davr bilan cheklanmaydi, milliy rivojlanish konsepsiysi uchun millatlararo munosabatlarni barqarorlashtirish siyosati muntazam va doimiy olib borilishi lozim. Aks holda 130 dan ziyod millat va elat istiqomat qiluvchi ko`pmillatli davlat sharoitida etnik va milliy ziddiyat har daqiqada yuzaga kelishi, jamiyat birligini buzishi, hatto fuqarolar urushini keltirib chiqarishi mumkin. Millatlararo munosabatlar muntazam e'tiborni talab qiladi. Siyosiy barqarorlik va fuqarolik hamkorligi milliy munosabatlar holatiga ko`p jihatdan bog`liqdir Millatlararo munosabatlarni mo`tadil rivojlanishida davlat va milliy tillar, mahalliy aholi va tarixiy vatani boshqa mamlakatlar bilan bog`liq bo`lgan millat va elatlар o`rtasida o`zaro tenglik, tolerantlik va hurmat munosabatlarini saqlanishiga ko`p jihatdan bog`liqdir. Shu bois mamlakatda 15 dan ziyod diniy konfessiya va 70 ga yaqin milliy-nadaniy markazlarni faoliyat ko`rsatayotgani nafaqat siyosiy barqarorlik, balki fuqarolar o`rtasida ijtimoiy hamkorlik munosabatlarini mustahkam-lanishuviga ijobiy ta'sir ko`rsatmoqda.

"Millatlararo totuvlik g`oyasi – umumbasharliy qadriyat bo`lib, turli xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaqasi va davlatlar milliy taraqqi-

I.A.Karimov. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, masakra. 1-torn. -T.: O'zbekiston, 1996. 78-79-betlar.  
Jirayev Narzulla. Tafakkurdagi evrilish: Istiqbol iztiroblari va quvonchlar haqida mulohazalar. -T.: "Sharq", 2001. 83-b.

yotini belgilaydi, shu joydagi tinchlik va barqarorlikning kafolati bo`lib xizmat qiladi”.<sup>1</sup>

Diniy bag`rikenglik, mamlakatda yashovchi har bir millatning, xoh u ko`p sonli xoh u kam sonli bo`lsin, milliy udumlari, an'analari, bayramlari va milliy tilini hurmat qilish, uni kamsitmaslik – ijtimoiy hamkorlik va si-yosiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omildir. Shu bois milliy rivojlanish g`oyasining asosiy prinsiplaridan biri millatlararo hamjihatlik, diniy va irqiy bag`rikenglik, o`zaro hurmat va ehtirom prinsipidir. Mazkur prinsipga amal qilgan holda ijtimoiy hayotni tashkillashtirish va boshqarish ke-lajakda fuqarolik jamiyatni, huquqiy, demokratik davlat qaror topishida za-ruriy omil bo`ladi.

---

<sup>1</sup> Milliy istiqlol : Asosiy tushuncha va tamoyillar. –T.: O`zbekiston, 2000. 59-b.

## **6. Ijtimoiy hamkorlik va siyosiy barqarorlik – milliy rivojlanish g`oyasi amalga oshuvining asosiy omili**

Ijtimoiy hamkorlik va siyosiy barqarorlik garchi ijtimoiy hodisa bo`lsa-da, individ, konkret shaxs madaniyati, ma`naviyati, e`tiqodi va dunyoqarashiga bog`liq. Individ, shaxs faoliyati ijtimoiy hamkorlik va siyosiy barqarorlikka konkretlik bag`ishlaydi. ularni ijtimoiy voqe'likda reallashuvini belgilaydi.

Milliy rivojlanish g`oyasi – konseptual omil, faoliyat strategiyasi bo`lsa, ijtimoiy hamkorlik uni amalga oshuvini ta'minlovchi shaxslarning faoliyatidir.

Ijtimoiy hamkorlik faqat xalqning, millatning hamjihatligi asosida yuzaga keladi. “Millatning, xalqning hamjihatligi esa har qanday taraqqiyotning garoovidir”.<sup>1</sup>

Milliy rivojlanishi aynan shu ijtimoiy hamjihatlik, ya'ni millatlararo totuvlik, diniy bag`rikenglik, ijtimoiy adolat va qonun ustuvorlik bor joyda mavjud bo`ladi. Milliy rivojlanish g`oyasi o`z mazmuniga ko`ra serqirra va murakkab bo`lib, u mamlakat xalqlarini bir maqsad, bir orzu atrofida birlashtiradi, ularga tanlagan taraqqiyot siyosiy yo`lini muqarrar yuksalish yo`li ekanligiga ishonch tug`diradi.

Ijtimoiy hamkorlik O`zbekistonda yashovchi har bir fuqaroda mamlakat tanlagan siyosiy taraqqiyot yo`liga ishonch, e`tiqod va iroda bo`lgandagina yuzaga keladi. Fuqarolar o`rtasida ertagi kunga ishonch bo`lmasa, hokimiyat tomonidanadolatsizlikka yo`l qo`yilsa, inson manfaatidan davlat manfaati ustun qo`yilsa – ijtimoiy hamkorlik o`rniga anarxiya, bosh-boshdoqlik, faqat o`zini manfaatini o`ylash, egoizm hodisalarini ko`payadi.

Ijtimoiy hamkorlik har bir fuqaro tomonidan davlat tomonidan olib borilayotgan siyosatni inson farovonligi, osoyishtaligi va baxt-saodatiga qaratilganligini his etgandagina kuzatiladi. “Vatan”, “vatanparvarlik”, “Vatan tuyg`usi” va h.k. yuksak tushunchalar konkret xatti-harakatlar, amaliy faoliyat, hayot tomonidan mustahkamlanmas ekan, ular siyosiy populizmning, quruq safsatabozlikning ifodasiga aylanadi, kishilarning ensassi qotadi, bu tushunchalarni faqat kishilarni laqillatish uchun ishlatalayotganligiga ishonchini oshiradi.

Inson tabiatan shunday mavjudotki, u ko`pincha yuksak minbardan yoki ominaviy axborot vositalari tomonidan ayttilayotgan halandparvoz

<sup>1</sup> Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurusasi xalqni-xalq, millatni-millat qolsin. - Adolatli jamiyat sari. -T.: O`zbekiston, 1998. 15-b.

gaplar, va'dalar emas, balki bu so`z va va'dalarni qanchalik uni moddiy va ma'naviy turmushini yaxshilayotganligiga qarab siyosatga baho beradi, faolligini oshiradi. Buni konkret ijtimoiy lavhalarda kuzatish mumkin.

Ma'lumki, sobiq sho`rolar davrida Farbni, Farb mamlakatlarini ijtimoiy adolat yo`qligida u yerda yashayotgan kishilarni baxtsizlikda va fuqarolar o`rtasida ijtimoiy tenglikni yo`qligida ayblanib tashviqot yuritilar edi. Inson baxt-saodatining, farovonligining timsoli deb sotsializm g`oyasi va bu g`oyaning tantana qilgan mamlakatlar uqtirilar edi.

G`arb mamlakatlarda esa aksincha, bunday tashviqotga qaramaqarshi bo`lgan mafkuraviy usullar qo`llanilar edi. Masalan, televide niye orqali sotsializm "beshigi" Moskva hayotidan konkret lavha ko`rsatiladi. Moskvaning eng gavjum ko`chalaridan biri Arbat ko`chasi dagi mashhur do`konlar atrofida navbat kutib turgan turna-qator tirband odamlar ko`rsatiladi. Navbatda turganlar birma-bir ko`rsatilib, do`kon ichida nima borligi ham ko`rsatiladi. Ko`pincha do`konda u yoki bu oziq-ovqat mahsuloti yoki chet eldan kelтирilgan tovarga (masalan, italyancha etik yoki inglizcha palto) navbatda turishadi. Sotuvchi bir kishiga faqat bir juft tovar berayotganligi alohida ko`rsatiladi. Telereportyor ayni vaqtida tomoshabinga murojaat qiladi: "Siz sotsializmni xohlaysizmi?". Tabiiyki Farb fuqarosi ushbu lavhadan so`ng sotsializm manzarasini o`z ko`zi bilan ko`radi va javob beradi: "Hech qachon! Menga sotsializm kerak emas", - deb qat'iy javob beradi. Chunki Farb iste'molchisi bozor munosabatlarda erkendir. U xohlagan narsasini xohlagan miqdorda, xohlagan vaqtida va xohlagan shart bilan (naqd, kredit, ijaraga va h.k.) hech qanday to`siqsiz va e'tirozsiz sotib oladi.

Farbda iste'molchisi huquqlari tovar ishlab chiqaruvchilarga nisbatan ustuvordir, u doimo qonun himoyasida bo`ladi.

Shu bois Farb fuqarolarida ijtimoiy hamkorlik va uning debochasi - fuqaroviy hamjihatlik konkret huquqiy kafolat mexanizmi va institutiga asoslangandir.

Milliy rivojlanish aynan shu boshlang`ich qadriyatlar tizimiga asoslangani uchun Farb sivilizatsiyasida demokratizm va inson huquq va erkinliklari ijtimoiy ishlab chiqarish va madaniy taraqqiyotda ustuvor mavqega egadir.

Ijtimoiy hamkorlik ijtimoiy loqaydlik, besarqlik va sustkashtlikka ham ziddir. Buning ma'nosi shundaki individdan, jamiyatning har bir fuqarosidan shaxsiy baxt va farovonlik uchun maksimal darajada mehnat va harakat qilish talab qilinadi. Boqimandalik, nomigagina mehnat qilish,

davlat dotatsiyasiga qaram bo`lib qolish – milliy rivojlanish talablariga ziddir.

Buning ma'naviy va madaniy asoslari Farb sivilizatsiyasida mavjuddir. Bu qanchalik taajublanarli va g`ayriilmiy bo`lib tuyulmasin, hozirgi Farb sivilizatsiyasining fan, texnika va madaniyatda ilgarilab ketganligining sababi – Reformatsiya va Ma'rifatchilik davrlarida (XVII – XVIII asrlar) protestant etikasiga asos solinganligidir. Bu fikrni buyuk siyosatshunoslardan biri Maks Veber o`zining 1905 yilda yozgan “Protestant etikasi va kapitalizm ruhi” nomli asarida bayon qiladi. Kapitalizmnning “ruhi” – Maks Veber fikricha protestant etikasi targ`ib etuvchi mehnatsevarlik va intizomdadir. Bu fikrni qator ko`zga ko`ringan sotsiolog va siyosatshunoslardan ham qayd qilishadi. Xususan, I.Saifnazarov “bugungi taraqqiy etgan dunyoning asosiy faoliyat mezoni – pragmatizm ham ayni ana shu protestantlik ta'lomi asosida shakllangan edi”, - deb ta'kidlaydi.

Milliy rivojlanish g`oyasini hayotimizda amaliy qaror topishi uchun ma'naviy asoslar bizning madaniy merosimizda ham mayjuddir. Boy madaniy merosimizda milliy rivojlanishimizga ijobji ta'sir ko`rsatuvchi g`oyalarni tanlab, ularni kishilar ongiga singdirish, o`tmish sho`ro tuzumidan meros bo`lgan davlatga boqimandalik, faqat iste'molchilik, yalqovlik va dangasalik ruhiyatidan tezroq qutilishga ko`maklashadi.

Yaratuvchanlik, ijodkorlik mehnatisiz milliy rivojlanishimiz aslo mumkin emasdir. Buni hayot, ilgarilab ketayotgan uzoq va yaqin mam-lakatlar taraqqiyoti isbotlab turibdi. Ijtimoiy hamkorlik ayni buniyodkorlik, ijodiy va halol mehnatga asoslanadi. Bu shak-shubhasizdir. Milliy rivojlanishimizning ma'naviy asoslariga kelsak, bu muammo ijtimoiy hamkorlik va siyosiy barqarorlikni ta'minlash uchun amaliy ahamiyatga egadir. Gap shundaki, milliy rivojlanish g`oyasini (milliy istiqlol mafkurasi va milliy g`oyani ham – A.K.) yuqorida turib hayotga tatbiq etish mushkul vazifadir. Inson iqtisidiy, moddiy jihatdan farovonlikka ega emas ekan, unga quruq g`oya va ma'naviyat haqidagi gap-so`z kerak emasdir. Bu achiq haqiqatni o`z vaqtida K.Marks ham o`z “Kapital” ida ta'kidlab o`tgan edi. Milliy rivojlanish g`oyasi iqtisidiy ravnaq va farovonlik bilan uyg`unlashgan holdagina hayotda qaror topa oladi. Buning uchun har bir fuqaro ruhiyatida, uning ma'naviy qadriyatlar tizimida islohot o`tkazish, uning odatlanib qolingga loqaydilikdan, dangasalikdan va boqimandalik kayfiyatidan qutqarish, uyg`otish, ko`zini ochish, unga “o`z baxting, farovonligiing o`z qo`lingda”, deb uqtirish, xullas, ijodkor, beminnat mehnat qilishga qaytarish va undash lozim bo`ladi. Shu bois “milliy ko`tarilish,

<sup>1</sup> Ismoil Saifnazarov. Ma'naviy barqarorlik va siyosiy madaniyat. –T.: “Sharq”. 2001. 56-b.

milliy o`zligini anglash, ma`naviy qadriyatlar ko`lamini kengaytirish jarayoni ham axloqiy tasavvurlarimiz, an'analarimiz va ezgu fazilatlarimizga borib taqaladi".<sup>1</sup>

Milliy rivojlanish g`oyasini amalda qaror topishi va ijtimoiy hamkorlikning real asoslari shakllanishi uchun boy ma`naviy merosimizdan foydalanimish yuqorida ta'kidlaganimizdek ijobjiy natija beradi. Agar G`arbda protestant etkasi (puritanizm) kapitalistik taraqqiyot uchun asos bo`lgan bo`lsa, Sharqda ayrim sabablarga ko`ra real hayotda qaror topa olmagan naqshbandiya tariqati bugungi kunda milliy rivojlanishimiz uchun ma`naviy asos bo`lishi mumkinligiga shubha yo`qdir. Shu bois Bahouddin Naqshband merosi hukumat e'tibori daraja-sida ekanligi bejiz emasdir. Islom mutaasibligidan, diniy fanatizmdan farqli o`laroq, vatandoshimiz Baxouuddin Naqshband diniy ilmni dunyoviy mehnat bilan qo'shib olib borishni ("Dil ba yor-u, dast ba kor") tartib etish edi. Mehnatsevarlik, yaratuvchanlik har bir mo`min-musulmonning muqaddas vazifasi ekanligi ul buyuk zot tomonidan doimo targ`ib etib kelingan edi.

Sho`ro mafkurasi va uning yakkahokimligi natijasida ma'rifat bulog'i bo`lmish naqshbandiya, qubroviya, yassaviya va h.k. ta'limotlar taqiplandi. xalqimiz bu ma'rifat buloqlarining hayotbaxsh tomchilaridan mustaqil-ligimizga qadar bebahra bo`ladilar. Bugun vaziyat o`zgardi. Konstitutsiyamizda mafkuralar xilma-xilligiga huquqiy maqom berilib, mafkura yakkahokimligiga (davlat mafkurasiga) barham berildi. Ijtimoiy hamkorlik su-qarolarda ma`naviy merosimizga, uning asl namunalariiga ehtirom bilan qarashni, ulardan bugungi kun uchun, taraqqiyotimiz uchun foydalana bilishni taqozo etadi. Chunonchi, Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek "ma'rifatparvarlik biz uchun bugun ham o`z ahamiyatini yo`qtogani yo`q, yo`qotmaydi ham. Aql-zakovatli, yuksak ma`naviyatlari kishilarni tarbiyalay olsakgina, oldimizga qo`yan maqsadlarga erisha olamiz, yurtimizda farovonlik va taraqqiyot qaror topadi. Agar shu muammoni yecholmasak, barcha toat-ibodatlarimiz bir pul: taraqqiyot ham, kelajak ham, farovon hayot ham bo`lmaydi".<sup>2</sup>

Milliy rivojlanish g`oyasini hayotda qaror topishi uchun siyosiy barqarorlik ham katta ahamiyatga ega. Siyosiy barqarorlikka esa osonlikcha erishib bo`lmaydi. Ijtimoiy hayotda xushyorlikni, ogohlikni bo`shashtirish, ayrim g`ayrisiyosiy tabiatdagি hodisalarga (diniy ekstremistik) konformistik (kelishuvchanlik) munosabati jamiyatda siyosiy barqarorlikka putur yetkazadi, mamlakatda destruktiv (buzg`unchi) siyosiy

<sup>1</sup> Tilab Maxmudov. Mustaqillik va ma`naviyat. -T.: "Sharq", 2001. 106-b.  
<sup>2</sup> Karimov Islom. Adolatli jamiyat sari. T.: O`zbekiston. 1998. 36-b.

kuchlar bosh ko`taradi. Bu esa o`z navbatida milliy rivojlanishga nafaqat soya soladi, balki uni orqaga ham tortadi.

Siyosatshunos olim SH.Paxrtdinov ta'kidlashicha "mamlakatlar tarixiy tajribasidan ma'lumki, xavf-xatar omiliga nisbatan doimiy ravishda sergaklik bilan munosabatda bo`linsa, muntazam nazorat qilib borilsa, u ma'lum doirada chegaralanib, jamiyat asoslariga jiddiy xavf tug'dirmaydi".<sup>1</sup> Biroq xavf-xatarga qarshi kurash bahonasida mavjud hokimiyatga ~~tonqidiy~~ fikr bildiruvchi sog'lom siyosiy kuchlarga ham zarha herish – milliy rivojlanish uchun halokatli ekanligi ham xech kimga sir emasdir. O`zbekistonda mustaqillik yillarda kechayotgan tub iqtisodiy va siyosiy islohotlarni chuqur o`rganib, holisona baho bergan xorijiy olim Leonid Levitin "G`arbdagi ayrim tadqiqotchilar sobiq sovetlar hududida paydo bo`lgan mamlakatlarda vujudga kelgan siyosiy tartibotni demokratura yoki nomenklatura demokratiyasi deb – samarali ommaviy siyosiy faoliyat imkoniyatlarini cheklaydigan, ammo yuqori tabaqa darajasida raqobatga yo`l qo`yadigan tartibot deb atamoqdalar" - deydi.

Milliy rivojlanish uchun siyosiy barqarorlikka erishish mamlakatda siyosiy muholifotni yo`qotish,unga shart-sharoitlar yaratmaslik, har qanday muholifotni ta`qqlash va ta`qib ostiga olish evaziga bo`lmasligini hayotni o`zi isbotlab turibdi. Hokimiyatning nafaqat quyi, balki o`rtal va yuqori pog`onalarida ildiz ota boshlagan korrupsiya va suiiste'molchilik bexatar ildiz otayotganligi mazkur kasallikka ijtimoiy va siyosiy baho beruvchisi muholif siyosiy kuchlarni va mustaqil matbuotni zafligidadir. Yuqoridagi olimning holisona ta'kidlashicha "muholifot to`g`ri strategik qarorlar qabul qilinishiga va ularning amalga oshirilishiga yordam beradigan kuch sifatida qatnashmasa, O`zbekistonda yangilanish zarur darajada tezlasha olmaydi".

Siyosiy barqarorlikka muholif siyosiy kuchlarni yo`qotish, muholifotga yo`l qo`ymaslik hisobiga erishish – qimmatga tushishi mumkinligini, mamlakat obro`yini xalqaro maydonda tushirib yuborishi mumkinligini. O`zbekistonning xalqaro huquqning to`laqonli subyekti sifatida mamlakat ichkarisida siyosiy faoliyat olib borayotganligiga jahon hamjamiyati nazarida shubha uyg`otishi mumkinligi milliy rivojlanish g`oyasini hayotda tezroq qaror topishiga to`sinqinlik qilishi barchaga ayondir.

Mamlakatimiz demokratik taraqqiyot yo`liga kirdi. Endi orqaga yo`l yo`q. Demokratiya va inson huquq, erkinliklariga oid o`nlab umumjahon siyosiy va huquqiy hujjatlariga qo`l qo`yildi, ko`plab shartnomalar ratify-

<sup>1</sup> Paxrtdinov SH. Tahdid-halokatli kuch. –T.: Akademiya. 2001. 136-b.

<sup>2</sup> Levitin L. O`zbekiston tarixiy burilish pallasida. –T.: O`zbekiston. 2001. 363-b.

<sup>3</sup> O'sha asar, 364-b.

katsiya qilindi. O`zbekistonda demokratiyalashtirishni qo`llab-quvvatlovchi o`nlab xalqaro tashkilotlar va missiyalar faoliyat ko`rsatmoqda. Siyosiy sohadagi liberalizatsiya jarayoni tezlashmoqda. Bu sharoitda milliy rivojlanish g`oyasiga to`sqinlik qilish – mustaqil taraqqiyotimizga xiyonat qilish bilan tengdir. Mamlakatimiz siyosiy yetakchisi tomonidan olib borilayotgan siyosat, rivojlanishning o`zbekona modeli o`z salohiyatini to`la namoyon etishi uchun real sharoitni yaratilishiga ko`maklashish har bir ongli fuqaroning muqaddas burchidir.

## **7. Milliy rivojlanish va jamiyatni modernizatsiyalashtirishda milliy xavfsizlikning o`rni va ahamiyati**

Milliy rivojlanish milliy xavfsizlikni ta'minlashsiz mumkin emasligi hech kimga sir emasdir. Milliy xavfsizlikni ta'minlash mamlakatni barqaror ilgarilanma taraqqiy qilishi uchun zaruriy omildir.<sup>1</sup> “Milliy xavfsizlik” tushunchasi keng qamrovli tushuncha bo`lib, milliy mustaqillikning ajralmas qismi, zaruriy meyvanizmidir. Milliy xavfsizlik tushunchasi faqat milliy mustaqillikka erishilgandan so`nggina hayotda o`z o`rnini topdi. Muqaddam milliy xavfsizlik tushunchasi o`rniga “Davlat xavfsizligi” tushunchasi ishlatilar edi. Bu tushuncha vositasida totalitar tizimni ichki va tashqi tomonidan muhofaza qilish, uning normal faoliyatini ta'minlashga doir tadbirdilar turkumi ifodalananar edi.

O`zbek xalqi milliy mustaqillikka erishgach, mustaqillikni ichki va tashqi xavflardan himoya qilish zarurati ham paydo bo`ldi. Ayniqsa 1997 yil 16 fevral voqealari milliy xavfsizlikni ta'minlash va uning assosiy obyektlari – shaxs, jamiyat va davlatni muhofaza qilish nafaqat ichki ishlari, Qurolli kuchlar, sud va prokuratura, balki har bir fuqaroning konstitutsiyaviy va fuqaroviylar ekanligini yaqqol ko`rsatdi. Shu bois 1997 yil 29 avgustida “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” bilan bir qatorda “O`zbekiston Respublikasining milliy xavfsizlik konsepsiysi” ni qabul qilinishi bejiz emas. Zero milliy xavfsizlikni ta'minlashning dasturiy ahamiyatga ega bo`lgan ilmiy konsepsiyasiz milliy mustaqillikni ta'minlash mumkin emasligi ayon bo`ldi.

Diniy ekstremizm va fundamentalizmni bosh ko`tarishi, fuqarolar to-tuvligiga, mamlakat, jamiyat yaxlitligiga xavf solishi va buzg`umchi kuchlarni yuzma-yuz emas, balki makkarona – xalq bilan aralashib davlat tuzumiiga qarshi kurashiishi ularga zarba berishning yangicha, zamonaviy usul va vositalarini qo`llash ehtiyojini tug`dirdi. Aks holda begunoh, savodsiz, ishonuvchan fuqarolar hayoti va taqdiri xavf ostida qola boshlagan, ularning ko`pchiligi anglamasdan qilgan qilmishlari uchun jazoga tortila boshlayotgan edi.

Bu holatga barham berish uchun masalaga yangicha yondashish, milliy xavfsizlikni ta'minlashning tinch, siyosiy va mafkuraviy strategiyasi va taktikasini ishlab chiqish ehtiyoji tug`iladi. Mazkur strategiyani va milliy xavfsizlik konsepsiyasining muallifi bo`lib, O`zbekiston Prezidenti I.A.Karimov tashabbus ko`rsatdi. U ochiqdan-ochiq, konkret tarzda: “G`oyaga qarshi – faqat g`oya, jaholatga qarshi – ma'rifat”, degan shiorni

o`rtaga tashladi. Bu shiorning insonparvarlik mohiyati shundaki, u vositasida inson hayotini ulug`lash, qadrlash, uni himoya qilish davlat siyosating ustuvor yo`nalishiga aylanib borayotganligi sezildi. Mazkur shior qonunchilikda ham o`z aksini topdi, jinoyat siyosatini liberallashtirish siyosatiga asos solindi. Bu bilan ko`plab kishilarning taqdiri himoya qilindi, ularga nisbatan muqobil jazo shakllari qo`llanildi.

Milliy xavfsizlikni ta'minlashning dolzarb muammoga aylanib borayotganligining yana bir sababi – mamlakatimizga nafaqat tinchliksevar kuchlarning, balki g`arazli, qora niyatli turli xalqaro kuchlarning qiziqishining tobora ortib borayotganligidir. Markaziy Osiyoning qulay geosiyosiy hududida joylashgan mamlakatimiz xalqaro terrorizm va diniy ekstremizmning ham diqqatini tortmoqda, dunyoviy davlat qurish yo`lidan diniy davlat qurish yo`liga o`tishga xalqimizni g`oyaviy-mafkuraviy da'vat qilmoqda. Buni qanchalik real ekanligining ichki ishlar, milliy xavfsizlik xizmati, sud va prokuratura tomonidan to`plangan ma'lumotlar, ashayoviy dalillar yaqqol isbotlamoqda.

Bugun jahonda bipolyar, ya`ni ikki qarama-qarshi qutbga asoslangan harbiy-siyosiy rivojlanish o`rniga ko`p qutbli rivojlanish tendensiyasi yuzaga keldi. Buning ham ijobiy va ham salbiy oqibatlari mavjud. Ijobiy tomoni shundaki, endi jahonda katta-yu, kichik mamlakatlar o`z siyosiy taraqqiyot yo`lini o`zi tanlaydi, buyuk davlatning qosh-qovog`iga qarab ish tutmaydi, mustaqil rivojlanadi. Shu bilan birga jahonda yakkahokim bo`lishga intiluvchi kuchli davlatlar ham borligini unutmaslik kerak.

Ko`pqtibli siyosiy rivojlanishning salbiy tomonlari shundaki, endi avval “pisib”, kuchli davlatlardan hadiksirab yurgan turli buzg`unchi, ekstremist kuchlar jahon siyosiy maydoniga chiqqa boshladidi, hatto jahonning kuchli davlatlariga ham tahdid solmoqda (birgina misol – AQSH da 2001 yil 11 sentabrida bo`lib o`tgan voqealar). Shu bois xavfsizlik masalasi bugun milliy davlat chegarasidan chiqib global, xalqaro miqyosdagи muammoga aylanib bormoqda, milliy xavfsizlik global xavfsizlikni ta'minlashsiz mumkin bo`lmay qolmoqda. Shu bois Shanxay hamkorlik Kengashi va boshqa xalqaro tashkilotlarning tuzilishi – davr taqozosidir. Terrorizm xavfiga qarshi global hamkorlik bugungi kun vazifasiga aylanmoqda.<sup>1</sup>

Terrorizmga va diniy ekstremizmga qarshi kurash turli davlatlarning o`zaro hamkorlik qilishga undamoqda. O`zbekistonning milliy, mintaqaviy va global xavfsizlikni ta'minlash uchun AQSH va Yaponiya davlatlari bi-

<sup>1</sup> Patterns of Global terrorism. United States Department of State. Washington D.C. May 2002.

lan strategik hamkorlik haqidagi shartnomalarni ikkiyoqlama imzolashi ham hayot taqozosi bilan bo`ldi.

XXI asrda global xavfsizlikni ta'minlashni tobora dolzarblashib borayotganligining sababi – dunyoda nafaqat ommaviy qirg`in qurollarini (yadro quroli, bakteriologik va kimyoviy qurol va h.k.) ishlab chiqish va tarqatish muammosi bilan, balki ekologik, informatsion, geografiy, iqtisodiy, siyosiy, diniy va h.k. tahdidlarning milliy davlatlarga nisbatan ortib borayotganligidir. Bugun muammo shu darajaga vетdiki, endi gap G`arb va Sharq sivilizatsiyalarining omon qolishi ustida ketmoqda. Shu bois jahoning yetakchi mamlakatlari umumjahon omon qolish loyihasini yaratish ustida ish olib bormoqdalar. Xususan shu yo`nalishda sobiq Shvetsiya premyer-ministri Ulof Palme nomidagi xalqaro komissiya ish yuritmoqda.

Agar yuqorida tasvirlangan vaziyatdan kelib chiqiladigan bo`lsa, milliy xavfsizlikni ta'minlash iqtisodiy, siyosiy va informatsion globalizatsiya jarayonlarini hisobga olmasdan turib mumkin emasligi ravshanlashadi.

Milliy rivojlanish va milliy xavfsizlik o`zaro bir-birini taqozo qiluvchi, bir-biri bilan dialektik birlikdagi hodisalardir. Konseptual nuqtai nazardan qaralganda esa bu dialektik birlik yakkalik, alohidilik va umumiylilikning umumiy dialektikasiga asoslanadi, ya`ni milliy xavfsizlik milliy rivojlanish, mintaqaviy va global xavfsizliksiz mavjud bo`la olmaydi. Ular o`rtasida o`zaro tafovut va o`xhashlik bilan bir qatorda, o`zaro aloqadorlik va o`zaro bog`liqlik munosabatlari ham mavjuddir.

Buni hisobga olmaslik “milliy xavfsizlik” tushunchasini faqat empirik bosqichda bo`lishligiga, uni nazariy va metanazariy bosqichi va darajasini nazardan qochirishga olib keladi.

Aslida esa milliy xavfsizlik muayyan tizim (sistema) tabiatiga ega bo lib, u kichik tizimlarni yoki tizim osti tuzilmalarni taqozo etadi.

Masalan, xavfsizlik tizimi shaxs, jamiyat va davlat miqyosida bo`lsa, ularning har biri o`zining konkret xavfsizlik asoslariga (tizim osti tuzilmaysiga) ham egadir. Buning boisi shundaki, xavfsizlik masalasi mavhum muammo bo`lmay, konkret, real muammodir. Shu bois milliy xavfsizlik muammosiga mintaqaviy va global xavfsizlik darajalarini xususiyatlarini hisobga olib yondashish – milliy xavfsizlikni ta'minlash ishiga konkretlik bag`ishlaydi, kichik va katta sistemalar o`zaro aloqadorligini ta'minlaydi. Buni konkret misollarda kuzatish ham mumkin. Masalan, Yaqin Sharqda Isroil-Falastin mojarosi, Iroqdagagi vaziyat yoki Liviya yoki Erondagi yadro materiallaridan foydalanish muammosini yoki Janubiy Afrika minuqasidagi demografik muammolarni (Qo`shni Afg`onistonidagi muammolarni

aytmasak ham bo`ladi) O`zbekiston milliy xavfsizligiga qanday aloqasi bor, degan savol tug`iladi. Yuzaki qaraganda hech-qanday aloqa yo`qdek tuyuladi. Biroq masalaga sistemali uslub orqali dialektik yondashilsa oldimizda global xavfsizlik, tinchlik muammosi gavdalananadi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, hozirgi globalizatsiya jarayonida har qanday millat va davlat boshqa davlatlardagi voqealardan mutlaq chegaralanib yashay olmaydi. Jahon informatsion jarayonlari, iqtisodiy, ekologik, geografiy va h.k. muammolar umumplanetar ahamiyatga va ta'sirga egadir.

Milliy xavfsizlikni ta'minlash mamlakatda nafaqat siyosiy barqarorlikni, balki iqtisodiy barqarorlikni ham ta'minlaydi. Siyosiy barqarorlikka xavf esa o`z navbatida iqtisodiy xavfni tug`diradi, ular o`rtasidagi mavjud muvozanat, barqaror rivojlanish munosabatlari buziladi. Masalan, siyosiy xavf odatda iqtisodiy sohada ham xavfni tug`diradi, ishlab chiqarishga keskin salbiy ta'sir ko`rsatadi va aksincha.

Iqtisodiy sohadagi inflatsiya iste'mol tovarlariga talabni, demak, narx-navoni oshishiga olib keladi. Bu o`z navbatida jamiyatda norozilik kayfiyatlarini, ziddiyatlarni vujudga kelishi, ommaviy tartibsizliklarni, namoyishlarni yuzaga keltirish va tanglik holatiga olib kelishi mumkin.

Shuning uchun bir xavf ikkinchi xavf uchun asos va manbagaga aylanishi ham mumkin.

Milliy rivojlanishga xavflar boshqa davlatlar va mintaqalardagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga ham bog`liqdir. Masalan, jahon valuta bozoridagi ahvol, pul birligining dollarga yoki boshqa shartli birlikka nisbatini o`zgarishi mamlakat moliyaviy ahvoliga ta'sir qilishi muqarrardir. Milliy xavfsizlik ichki iste'mol bozorini ham himoya qilishni, iqtisodiy va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashni ham taqozo qiladi. Shuning uchun “milliy xavfsizlik” tushunchasi sermazmun tushuncha bo`lib, shaxs, jamiyat va davlat faoliyatining deyarli barcha jabhalariga aloqadordir.

Oddiy bir misol: SPID yoki boshqa yuqumli kasallikkarni olaylik. Milliy xavfsizlik nuqtai-nazaridan mamlakat aholisini salomatligini saqlash umummilliy ahamiyatga egadir. Zaharlangan, iste'molga yaroqsiz oziq-ovqat mahsulotlarini mamlakatga kirib kelishi ham milliy rivojlanishga xavf tug`diradi, hech bo`lmasa uni sekinlashtiradi.

Milliy xavfsizlik tushunchasi shu bois umummilliy rivojlanish g`oyasi bilan bog`liq bo`lib, uning tarkibini quyidagilar tashkil qiladi:

- O`zbekistonni jahon hamjamiatidagi o`rnini va rolini aniqlash;
- O`zbekiston Respublikasining milliy manfaatlari va ustuvor qiziqishlarini aniqlash;

- Milliy xavfsizlikka nisbatan ichki va tashqi xavflarni aniqlash va baholash;

- Davlat va jamiyatni milliy xavfsizlikka tahdidlarni oldini olishga imkoniyatlarini va manbalarini baholash va aniqlash;

- Milliy xavfsizlikni ta'minlashning strategik vazifalarini aniqlash va ularni hal etishning mexanizmini ishlab chiqish;

- Milliy xavfsizlikni ta'minlash tizimini takomillashtirish va uning huquqiy bazasini shakllantirish.<sup>1</sup>

Milliy xavfsizlikka mintaqaviy, global va boshqa xavfsizliklarni hisobga olmasdan turib ta'rif berish mushkul. Biroq eng umumiy shaklda quyidagi ta'rifni berish mumkin: Milliy xavfsizlik – milliy rivojlanishga bo`lgan ichki va tashqi tahdidlarga nisbatan bo`ladigan turli tadbirdar, vosita va usullar tizimidir.

Milliy xavfsizlik o`z obyekti va subyektiga ega. Milliy xavfsizlikning obyekti – shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligidir. Milliy xavfsizlikning subyekti esa – qonun chiqaruvchi, ijro va sud hokimiyati, nodavlat tashkilotlari, uyushmalar, harakatlar va fuqarolardir.

Xavfsizlikni “milliy” deb atashning ijtimoiy-siyosiy ma'nosi ham mavjud bo`lib, u titul millat yoki etnik guruh manfaatlarini emas, balki umumdaylat manfaatlarini ifoda etuvchi fuqarolik vakolati bilan bog`liqdir. Shuning uchun “milliy xavfsizlik” tushunchasi mamlakatda yashovchi barcha millatlar, etnik guruhlarni ijtimoiy mavqeい, dini, e'tiqodi va h.k.lardan qat'i nazar ichki va tashqi tahidlardan muhofaza qilishga qaratilgan tadbirdarini aks ettiradi.

“Milliy xavfsizlik” tushunchasi inson va jamiyat faoliyatining turli sohalarini qamrab oлади: iqtisodiy, siyosiy, harbiy, informatsion, ekologik va madaniy-ma'rifiy.

Milliy xavfsizlik tiziminining vazifasi esa nafaqat shaxs, jamiyat va davlat hayoti va taqdiringa ichki va tashqi xavflarni bartaraf etish, balki O`zbekiston Respublikasining ustuvor manfaatlari mavjud bo`lgan hodisalarini strategik jihatdan tahlil etish va nazorat qilish, tahidlarni oldini olishga qaratilgan ilmiy va operativ bashoratlarni ishlab chiqishdir.

O`zbekistonda milliy xavfsizlikning mazkur vazifalarini bajarilishini nazorat qiluvchi “Milliy xavfsizlik Kengashi” faoliyat ko`rsatadi.

Mustaqillikgacha bo`lgan davrlarda xavfsizlik organlarining faoliyatiga qulfi osilgan bo`lib, sir saqlanar edi. Chunki xavfsizlik organlari xalq manfaati yo`lida emas, balki davlat manfaatlari yo`lida xizmat qilar edi. Shuning uchun u “Davlat xavfsizligi komiteti” deb nomlangan edi.

<sup>1</sup> O`zbekiston Respublikasi milliy xavfsizlik konsepsiysi. T.: 1997. 1-b.

CHK (Favqulodda komissiya), NKVD va boshqa dahshatli tashkilotlar va ularning xodimlari qanchadan qancha kishilarning yostig'ini quritgani hammaga ma'lum. Tom ma'noda "Davlat xavfsizligi komiteti" – terroristik davlat tashkiloti edi.

Milliy mustaqillik sharofati bilan xavfsizlik xizmati ham isloh qildi. O'zbekistonda milliy xavfsizlik xizmati va uning xodimlari tarixda ilk bor ezgu niyat va maqsadlar yo`lida faoliyat ko`rsatmoqda, yurt tinchligi, osoyishtaligi, yaratuvchanlik mehnati va barqarorlikni haqiqiy posbonlariga aylandilar. O'zbekiston Prezidenti huzurida faoliyat ko`rsatayotgan "Milliy xavfsizlik Kengashi" aynan shu ezgu faoliyatni siyosiy jihatdan tashkillashtiradi va nazorat qiladi.

Mazkur Kengashning faoliyati ham oshkor bo`lib, xalqimiz xavfsizligini ta'minlashning turli muammolarini hal etishga qaratilgandir. Ushbu vazifalar quyidagilardir:

- O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik konsepsiyasini joriy etishga qaratilgan ishlarni tashkillashtirish va nazorat qilish;

- Jamiyat barqarorligiga xavf tug`diruvchi ichki va tashqi tahdidlarni aniqlash;

- O'zbekiston Respublikasida milliy xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan yagona davlat siyosatini davlat hokimiyati organlari tomonidan olib borilishini nazorat qilish;

- Ichki va tashqi xavflarini oldini olishga qaratilgan tadbirlarni va takliflarni ishlab chiqish va h.k.

Milliy xavfsizlikni ta'minlashda qator davlat tashkilotlari va xizmatlari faoliyat ko`rsatadi. Bular jumlasiga Qurolli kuchlar, prokuratura, IV, FHB, DBQ, DSQ, MHH va boshqalar kiradi.

Milliy xavfsizlik yurt tinchligi, barqaror hayot, chegaralar daxlsizligi, millatlararo totuvlik, diniy bag`rikenglik (tolerantlik), fuqarolararo hamjihatlikka qaratilgan bo`lib, korrupsiya va jinoyatchilik, mahalliychilik, shovinizm va millatchilikni, diniy ekstremizm va mutaasibchilikni, fundamentalizm va vaxxobiylikni milliy rivojlanishimizga asosiy xavf deb baholaydi. Mustaqil rivojlanish g`oyasi mazmunan milliy xavfsizlik g`oyasini o`z tarkibiga oladi. Chunki mustaqil milliy rivojlanish, mustaqillikni mustahkamlash va milliy xavfsizlikni ta'minlashsiz mumkin bo`lmaydi. Milliy xavfsizlikka tahdid soluvchi omillarni o`rganish va ularni bartaraf etishni usullari, yo`llari va vositalarini ishlab chiqish milliy rivojlanishni barqaror kechishiga asos yaratadi.

## **8. Milliy xavfsizlikka tahdid soluvchi omillar va ularni bartaraf qilish imkoniyatlari**

XX-asr siyosatining patriarxlaridan biri – ingliz davlat arbobi, Buyuk Britaniya premyer ministri, makkor va shu bilan birga samimi shaxs – ser Uinston Cherchill davlatlararo munosabatlar tabiatiga haqida to`xtalib, “davlatlar o`rtasida “do`stlik” ham, “dushmanlik” ham emas, balki manfaatlar yotiadi”, deb ta`kidlagan edi Bu fikrning qanchalik dolzarb va hayotiy ekanligini XX asr siyosiy taraqqiyoti va XXI asr boshlarida jahonda yuzaga kelgan siyosiy vaziyat qayta-qayta isbotlamoqda. Har qanday davlatning milliy xavfsizligining vektori uning milliy manfaatlariga qaratilgandir. Milliy rivojlanish milliy mansaftalar asosida, unga bo`ysungan holda kechadi. Milliy xavfsizlik milliy manfaat va ehtiyojlarga bo`ysunganligi tabiiydir. Chunki har qanday millat o`z mustaqil ravnaqi, suvereniteti, hududiy yaxlitligi, madaniy va ma`naviy daxlsizligidan manfaatdordir. Shu bois milliy xavfsizlik masalasi har bir davlatning diqqat markazida turadi. Milliy xavfsizlikka tahdid soluvchi omillarni aniqlash, o`rganish, baholash va ularni bartaraf etish, neytrallashtirishga qaratilgan tadbirdarni amalga oshirish – har bir davlatning vazifasidir.

O`zbekiston davlatining milliy xavfsizligiga tahdid soluvchi omillar, ularning ko`rinishlari, xususiyatlari va yo`nalishlari Prezident I.A.Karimovning qator asarlari, xalqaro konferensiya va uchrashuvlarda so`zlagan nutqlarida batafsil yoritilgan. Bularning ichida “O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari”, “O`zbekiston XXI asrga intilmoqda”, “Mintaqada xavfsizlik va hamkorlik uchun” (Toshkentda Markaziy Osiyoda xavfsizlik va hamkorlik masalalariga bag`ishlangan kengash–seminarda so`zlagan nutq, 1995 yil 15 sentabr), “Globalizmga regionalizm orqali”, “Yevropa Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining Istanbul sammitida so`zlagan nutq”ida (1999 yil 18 noyabr), “Shanxay Hamkorlik tashkilotiga a`zo davlatlar rahbarlarining sammitida so`zlagan nutqi” (2001 yil iyun) da. AQSH da 2001 yil 11 sentabrida sodir etilgan terroristik akt yuzasidan qilingan Bayonotda (“Xalq so`zi”, 2001 y., 6 oktabr) va boshqa asarlari alohida o`rin tutadi.

Bugun “xavf”, “tahdid”, “xavfsizlik” tushunchalari keng ishlatalayotgan tushunchalarga aylanib qolmoqda. Hozirgi zamondagi kishisining hayoti uning xavfsizligi darajasi bilan o`lchanmoqda. Shaxs xavfsizligi jamiyat xavfsizligiga tutashib ketmoqda.

“Xavf” va “xavfsizlik” kategoriyalarini tasniflash, tartibga solish va to`g`ri ishlatish milliy xavfsizlik, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash uchun benihoyat muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm va fundamentalizm, separatizm va agressiv millatchilik – XXI asrni dastlabki yillaridanoq umuminsoniy xavf ekanligini ko`rsatmoqda. Xalqaro terrorizmning umuminsoniy xavfga aylanganligini BMT Xavfsizlik Kengashining 1373-sonli rezolyutsiyasi asosida maxsus antiterror komissiyasini tashkil etilganligida ham kuzatish mumkin. Shanxay Hamkorlik Kengashi ham asosan xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm va separatizmga qarshi xalqaro hamkorlikni ta'minlashga qaratilgandir. BMT Nizomining 51-moddasiga binoan terroristik harakatlar urush harakatlariiga tenglashtirildi. “Bu – Rossiya Bosh Prokurori Vladimir Ustinov ta'kidlashicha – insoniyat tarixida birinchi bor sodir bo`ldi”.<sup>1</sup>

Xalqaro terrorizm milliy xavfsizlikka ham tahdid soladigan hodisa ekanligi barchaga ayon bo`lib qoldi. Shu bois ayrim davlatlar allaqachon milliy xavfsizlikni ta'minlashni davlat siyosatining ustuvor yo`nalishlaridan biriga aylantirgan. Masalan, AQSH da “Milliy xavfsizlik strategiyasi” milliy xavfsizlikka ichki va tashqi tahdidlarning harakteri va qo`lamiga qarab o`zgartirilib turadi. Masalan, 2001 yil 11 sentabr voqealaridan so`ng AQSH Markaziy Osiyoda xalqaro terroristlarning mikonlaridan biri – Afg`oniston “Tolibon” harakatiga qarshi kurashish uchun o`ziga strategik hamkor qidirdi. O`zbekiston Afg`oniston “Tolibon” jan-gari kuchlariga qarshi kurashda AQSH bilan strategik hamkorlik haqidagi shartnomani imzoladi.

XXI asrda jahonda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashda NATO harbiy tashkilotining obro`yi kattadir. NATO ning maqsadi – yevroatlantika xavfsizligini ta'minlash bilan bir qatorda global va mintaqaviy tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga hissa qo`shishdir. O`zbekiston Respublikasi NATO ning “Tinchlik yo`lida hamkorlik” dasturida ishtiroy etmoqda.

O`zbekiston Respublikasi ham o`zining Milliy xavfsizlik konsepsiysi asosida milliy xavfsizlikka tahdid soluvchi asosiy omillarni o`rganish, baholash va bartaraf etish yo`lida qator tadbirlarni ishlab chiqqan bo`lib, ular O`zbekistonning milliy rivojlanishining asosiy manfaatlariiga bo`ysundirilgandir.

Xavfsizlikka bag`ishlangan adabiyotda “milliy manfaat” lar xususida gapirilsa-da uning mazmuni va shakllari yoritilmaydi. Milliy xavfsizlik milliy manfaatlarga bo`ysundirilganligi uchun uni mazmuni va shakllarini aniqlash – masalaga konkretlik bag`ishlaydi.

O`zbekiston Respublikasi “Milliy xavfsizlik konsepsiysi” ga binoan milliy manfaatlar uch asosiy darajada – shaxs, jamiyat va davlat darajasida nainoyon bo`ladi.

Shaxsning hayotiy manfaatlari quyidagilar:

- inson huquq va erkinliklarining ta'minlanishi;
- shaxsni o`z aqliy va jismoniy salohiyatidan foydalanish imkoniyatlarining mavjudligi.

Jamiyauning zaruriy hayotiy manfaatlari:

- fuqaroviylar, diniy va milliy hamjihatlikning ta'minlanishi;
- milliy an'analarga mos keluvchi demokratik institutlarni va fuqarolik jamiyatining asoslarini shakllantirish;
- siyosiy-huquqiy madaniyatni shakllantirish;
- aholining ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish;
- milliy o`zlikni anglashni o`stirish orqali millatni ma'naviy rivojlanishini ta'minlash;
- jamiyatni davlat faoliyati ustidan samarali nazoratini tashkillashtirish.

O`zbekiston davlatining zaruriy hayotiy manfaatlari:

- O`zbekiston Respublikasini suverenitetligi va hududiy yaxlitligini himoya qilish;
- Konstitutsiyaviy tuzum va huquq-tartibotni himoya qilish;
- Davlatni muhofaza qudratini ta'minlash;
- Ijtimoiy, millatlararo va fuqarolararo hamjihatlik va touvlikni ta'minlash;
- Ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash;
- Samarali ichki va tashqi siyosatni olib borish;
- Xalqaro aloqalar va hamkorlikni mustahkamlash;
- Xavfsizlikni mustahkam tizimini yaratish;
- O`zbekistonni global va mintaqaviy xavfsizlik tizimiga uyg`unlashuvini ta'minlash va h.k.

Milliy xavfsizlikka xavf soluvchi tahdidlar esa asosan quyidagilardir:

- “Mintaqaviy mojarolar;
- Diniy ekstremizm va fundamentalizm;
- Buyuk davlatchilik shovinizm va agressiv millatchilik;
- Etnik va millatlararo ziddiyatlar;
- Korrupsiya va jinoyatchilik;
- Mahalliychilik va urug` aymoqchilik munosabatlari;

## - Ekologik muammolar".<sup>1</sup>

Yuqorida sanab o`tilgan tahdidlarni milliy xavfsizlikka xavf soluvchi asosiy omillar, deb baholasa ham bo`ladi. Masalan, Markaziy Osiyoda "islom omili" ning o`sib borishi – real fakt hisoblanadi. Shuning bilan birga turli diniy ekstremistik kuchlarning islom dini niqobi ostida buzg`unchilik, qo`poruvchilik faoliyati darhaqiqat mintaqada xavfsizlikka tahdid soluvchi omil, deb baholanishi ham mumkin.

O`zbekistonda milliy xavfsizlikka tahdid qiluvchi omillarni bartaraf etishning ishonchi asoslari yaratilgan. Ularning ichida eng asosiysi – qonunchiligidir. O`zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi va ayniqsa Bosh Qonun – Konstitutsiyada yuqorida sanab o`tilgan barcha tahdidlarni bartaraf etishning huquqiy asoslari yaratilgandir.

Masalan, O`zbekistonda boshqa mustaqil davlatlardan farqli o`lar oq milliy va etnik nizolarga hech qanday o`rin yo`qdir. Chunki O`zbekiston Konstitutsiyasining 8-moddasiga binoan "O`zbekiston xalqini millatidan qat'i nazar. O`zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi" Mazkur qoida Konstitutsiyaning 18-moddasida yanada konkretlashtirilgandir: "O`zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinlik-larga ega bo`lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirilar...".

Ushbu modda mamlakatimizda hech qanday milliy kamsitishga, milliy tengsizlikka yo`l qo`ymaydi, millatlararo hamjihatlik va totuvlikni huquqiy jihatdan ta'minlaydi. Biroq mustaqilligimizning dastlabki yillarda mamlakatimiz mustaqilligini ko`ra olmagan, g`arazli maqsadlarda yurgan, yana "og`alik" qilishni qumsovchi kuchlar Markaziy Osyo hududida turlicha senariylar bo`yicha "siyosiy o`yin"larni tashkil etishga va bu "o`yinda" eng kuchli karta – milliy tuyg`u va diniy e'tiqod kartalarini ishga solmoqchi bo`ldilar.

O`sh, Farg`ona, Parkent, Bo`ka voqealari ana shu "o`yinchilar" ning senariysi asosida bo`lgani keyinchalik ma'lum bo`ldi.

Faqat siyosiy yetakchimizning uzoqni ko`ra bilishi, vazminligi va qat'iy qarorlarni vaziyatni hisobga olib qabul qila olish qobiliyati Markaziy Osiyoni Tog`li Qorabog` va Yugoslaviya xunrezgilariga o`xshab ketishli-

1 Ushbu tahdidlarning mazmuni va mohiyati haqida quyidagi asarda batafsil ma'lumot mavjud: Karimov I.A. O`zbekiston XXI asr bisa: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va tarajjivot kafolatlari. -T.: O`zbekiston. 1997 – 19-134-betlar.

giga yo`l qo`ymadi. Buni sof vijdonli, holis tashqi kuzatuvchilar ham e'tirof etishga majbur bo`ldilar.<sup>1</sup>

O`zimizdan chiqqan g`alamislar – kallakesar jangarilar Tohir Yo`ldosh va Juma Namangoni esa diniy ekstremizm va fundamentalizmning tegirmoniga suv quyib, o`zlarining chet ellik homiyalarining "sadaqasi" evaziga "islom" kartasini "o`yin"ga tushirmoqchi bo`ldilar. Biroq "o`yin" chiqmadi. Alalmzada bo`lgan bu shaxslar kaltakesak kabi Farg`ona vodiysidan Tojikiston va Afg`oniston hududiga ura qochdilar va u yerda o`zlariga o`xshagan jangari – kallakesarlar to`dasi – "Tolibon" lagerlarida panoh topdilar. Hozir bu jangarilarning qoldiqlari o`z niyatlaridan qaytganicha yo`q.

O`zbekistonda diniy ekstremizm va islom fundamentalizmini yoyilishi va mustahkamlanishi uchun hech qanday asos yo`qdir. Tarixan xanafiya mazxabiga mansub Imom-A'zam maslakdoshlari sunniy bo`lib, Xizb-ut-Tahrir va Muhammad Vahhab ta'lilotlariga e'tiqod qilmaydilar. O`zini "vahhobiy", deb e'lon qilgan ayrim kimsalar esa machitlarda haqiqiy islom e'tiqodiga rioya qiluvchi musulmonlarning umumiy nafratiga duchor bo`lmoqdalar. O`zbekistonda diniy e'tiqodga erkinligiga keng huquqlar berilishi, diniy kitoblarni, xususan Qur'oni o`zbek tiliga tarjima qilinishi, oliygohlarda "Dinshunoslik" kursini o`qitilayotganligi o`z ijobjiy natijasini bermoqda – muqaddam din haqida dunyoviy tasavvurga ega bo`limgan fuqarolarimiz dinning asl mohiyatidan xabardor bo`lmoqdalar. Din davlatimiz e'tiborida turadi.

Milliy xavfsizligimizga tahdid soluvchi mintaqaviy mojarolar ham asta-sekin hal etilmoqda. Narkobiznes va narkotrafik yo`llari mammalakatimiz chegara qo`shinlari, bojxona xizmati xodimlari tomonidan qattiq nazorat ostiga olingan, qo`shni mustaqil davlatlar bilan hududiy da'voga oid masalalari BMT ning rezolyutsiyalari va Nizomiga binoan kun tartibiga qo`yilmaydi. Markaziy Osiyo mintaqasiga tahdid solib turgan qo`shni Afg`onistondagi harbiy-siyosiy vaziyat yumshadi, Afg`onistonda koalitsion hukumat barcha etnik guruhlarni boshini qovushtirishga, mamlakatni barqaror rivojlanish yo`liga olib kirishga harakat qilmoqda. Qo`shni Tojikistonda ham muholifat kuchlari hukumat bilan birlashib tojik xalqini demokratik davlatni shakllantirish sari yetaklamoqda.

Biroq milliy xavfsizlikka, milliy rivojlanishimizga tahdid soluvchi ikki omil boshqa tahdid soluvchi omillarga nisbatan murakkab va mustahkamdir.

<sup>1</sup> Эльвира Мамитова. Исламский фундаментализм и экстремизм в странах Центральной Азии. - Центральная Азия и Кавказ. Стокгольм. 2000. №5(11). С. 57-63.

Bu – korrupsiya va jinoyatchilik, mahalliychilik va urug`-aymoqchilik munosabatlaridir. Milliy ravnaq va rivojlanish uchun eng xavfli tahdid – korrupsiyadir. Korrupsiya degani – bu mansabdar shaxs tomonidan o`zining vakolatlarini suiiste'mol qilishi demakdir.

Korrupsiya davlat va jamiyat uchun ijtimoiy korroziya, ya'ni "zang" dir. Davlatni agar mexanizm deb olsak, u agar zanglasa, korroziyaga duchor bo`lsa, bu mexanizm uzoq ishlamaydi, yemiriladi.

Korruksianing turli sabablari mavjud. Korruksianing siyosiy sababi – davlat, hokimiyat xodimlari, turli darajadagi mansabdar shaxslar tomonidan xizmat burchlariga xiyonat qilishlari, suiiste'molchilikka yo`l qo'yishlari va "yozilmagan qonun"larni (tanish-bilishchilik, mahalliychilik, qarindosh-urug`chilik va h.k.) rasmiy qonunlardan ustun qo'yishlaridir.

Korruksianing iqtisodiy sabablari – davlat, hokimiyat xodimining real daromadlarini o`rtacha turmush kechirish darajasidan pastligi, uning mehnatiga kam haq to`lanishidir.

Korruksianing madaniy-ma'naviy sabablari – davlat, jamiyat xodimining siyosiy, huquqiy va axloqiy ongi va madaniyatining egallab turgan lavozimiga va unga ishonib topshirilgan vakolatlar talablariga mos kelmaslidir.

Korruksianing ijtimoiy-tarixiy sabablari ham mavjud. Ular sobiq markazlashgan ma'muriy-buyruqbozlilik siyosiy tizimida siyosat va ishlab chiqarish, boshqarish va taqsimlash sohalarida mustaqil qarorlar qabul qilishning cheklanganligi oqibatida davlat xodimida shakllangan o`ziga xos ruhiyatini va dunyoqarashini vorisiyligidadir.

Korrupsiya va poraxo'rlik yolg'on demokratiya va bir siyosiy tizimdan ikkinchi siyosiy tizimga o'tish davrlarida, har bir ishda va sohada davlat monopoliyasini o'matilishida, o'ta markazlashtirilgan boshqaruv tizimida va avtoritar siyosiy tartib hukmron bo`lgan jamiyatlarda "gullab-yashnaydi", ildiz otadi va rivojlanadi. Milliy xavfsizlikka va milliy rivojlanishga korrupsiya va poraxo'rlik misli ko'rilmagan darajada ziyon yetkazadi. Korrupsiya va poraxo'rlik manlakatga bo`ladigan tashqi tahdiddan ham xavfli va zararlidir. Korrupsiya botqog`iga botgan mamlakatda taraqqiyot sekinlashadi, jamiyat tanazzulga yuz tutadi, fuqarolarda davlat hokimiyatiga va uning ijroiya tizimga ishonchi yo`qoladi. Natijada destruktiv, ya'ni buzg`unchi kuchlarning faollashuviga sharoit yaratiladi. Shu bois O`zbekiston Prezidenti I.A.Karimov korruksiyani jinoyatchilik bilan bir qatorga qo'yadi va uni milliy xavfsizlik va barqarorlikka tahidlardan biri, deb baholadi.

Milliy xavfsizlikka va milliy rivojlanishga xavf tug`diruvchi ikkinchi zararli tahdid-mahalliychilik va urug`-aymoqchilikdir. Mahalliychilik va urug`-aymoqchilik tarixan urug`-qabilachilik ibtidoiy tuzumidan meros bo`lib, u an'anaviy jamiyatlarda kuzatiladi. Zamonaviy, ya`ni modernizatsiyalashgan jamiyatlarda urug`-aymoqchilik va mahalliychilik munosabatlari emas, balki individual ratsional-pragmatistik munosabatlар yuzaga keladi. Urug`-aymoqchilik va mahalliychilik jamiyatni ijtimoiy rivojlanishning quyi bosqichlarining ko`rimichidir. Kapitalistik yoki hozirgi zamon bazaar munosabatlari shakllangan mamlakatlarda urug`-aymoqchilik va mahalliychilik o`rniga ratsionalizm, tejamkorlik va imkoniyatlardan maksimal foydalana bilishlik ruhiyati ustuvor ahamiyat kasb etadi. Urug`-aymoqchilik va mahalliychilik jamiyatga benihoyat zarar yetkazuvchi, davlat hokimiyatini zaiflashtiruvchi kasallikdir. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov Toshkent, Surxandaryo, Xorazm, Samarcand, Sirdaryo va boshqa viloyatlar xalq deputatlari Kengashining navbatdan tashqari sessiyalarida viloyat hokimlarini egallab turgan lavozimlaridan muddatidan ilgari chetlashtirar ekan, ularga umumiy bo`lgan yagona siyosiy bahoni beradi – mahalliychilik va urug`-aymoqchilik kasali. Urug`-aymoqchilik va mahalliychilik demokratiyaga, ya`ni xalq hokimiyatchiligi ziddir. Urug`-aymoqchilik va mahalliychilik agressiv millatchilik kabi korrupsiya va poraxo`rlikka yo`l ochadi. Shuning uchun korrupsiya, poraxo`rlik, urug`-aymoqchilik va mahalliychilik bir turkumdagи salbiy hodisalardir, ular huquqiy davlat talablariga ziddir.

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, uning asosida Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan Mehnat kodeksi, Jinoyat kodeksi, Ma`muriy kodeks, fuqarolik kodeksi va h.k. huquqiy asoslar urug`-aymoqchilik, mahalliychilik, millatchilik, korrupsiya va h.k. salbiy hodisalarini O`zbekistonda shakllanayotgan huquqiy, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati tabiatiga batamom zid ekanligini asoslaydi.

O`zbekiston Respublikasining Milliy xavfsizlik konsepsiysi talablarini ham mahalliychilik, urug`-aymoqchilik, millatchilik va hokazo salbiy hodisalarini mustaqil rivojlanish siyosatiga batamom zid, teskari ekanligini ko`rsatadi. Shu bois O`zbekiston Respublikasining qonunchiligi mahalliychilik, urug`-aymoqchilik, millatchilik va h.k. salbiy hodisalarga qarshi kurashish uchun huquqiy imkoniyat va sharoit yaratadi.

## **9. Milliy xavfsizlikni ta'minlashda yoshlarga milliy va fuqaroviylarning anglatishning ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati. Unda milliy rivojlanish g`oyasining roli**

Milliy xavfsizlikni ta'minlanishi jamiyatning barcha a'zolari uchun birday hayotiy ahamiyatga ega. Biroq mamlakat xavfsizligi. Vatan ravnaqi va kelajagi haqida qayg`urish hissi jamiyatning barcha a'zolarida birday shakllanmaydi. Vatan, tug'ilgan el-yurtga, uni taqdiriga qiziqish, befarq va loqayd bo'Imaslik uchun kishidan muayyan bilim, e'tiqod va dunyoqarash talab qilinadi.

Milliy mustaqillikka erishilgandan so'ng mamlakatimiz ijtimoiy hayotida sodir bo'lgan halokatl, murakkab voqealar shuni ko`rsatdiki, milliy xavfsizlik, milliy rivojlanishning mustaqil yo`lini jamiyatning barcha tabaqalari birday anglay olmaydilar. Ayniqsa hayot tajribasi kam, o`tmish mustabid sho'ro tuzumining asl mohiyatini hali anglab ulgurmagan yosh-yanglar turli ekstremistik buzg`unchi g`oyalar uchun osongina "o'lja" bo'shlari mumk!nligi ravshan bo`ldi. 1997 yil 16 fevral voqealaridan keyin o'tkazilgan aniqlash va tozalash tadbirlari natijasida aksariyat yoshlar ko`proq jinoiy jazoga tortildilar.

Prezident I.A.Karimovning "yoshlar – mening bolalarim, men ularni birovg'a berib qo`ymayman", degan samimi otalarcha mulohazalaridan so'ng, jamiyatimiz noto`g'ri yo`lga anglamay, adashib kirib qolgan yoshlarni ko`pchiligini kechirdi, ularga ezgu hayotga qaytishlari uchun imkoniyatlar yaratildi.

Biroq bu – yoshlarni ezgu maqsadlar yo`nalishida tarbiyalash muammolari hal bo`ldi, degani emas. Yoshlar, demak mamlakatimiz kelajagi uchun kurash hali oldinda. Bugungi ayrim ma'lumotlarga ko`ra, buzg`unchilik uchun qaqshatqich zarbaga uchragan ekstremistik, jinoyatchi unsurlar – Tohir Yo'ldosh va uning gumashtalari chet ellarda voyaga yetmagan vatandoshlarimizni g`oyaviy jihatdan maxsus dargohlarda ashadiy terrorchi, kallakesar, "shaxid" qilib tayyorlash ishlarini amalga oshirmoqdalar. Bu ishda turli xorijiy mutaxassislardan q`poruvchilik uslubiyati, maxfiy ish yuritish va o`zaro aloqa qilishning zamonaviy bilimlaridan, texnika va boshqa informatsiya vositalaridan foy-dalanish sirlarini o'rgatmoqdalar.

Keyingi paytlarda turli manbalarda va matbuotda "g`oyaviy immunitet", ya'ni "g`oyaviy ko`nikma", degan ibora tez-tez ishlatiladigan bo`lib qoldi. Ta'kidlash joizki, mazkur tushuncha aslida yangi emasdир. G`oyaviy immunitet, g`oyaviy kurash, mafkuraviy diversiya, mafkuraviy ekspansiya

va boshqa tushunchalar sobiq ikki qutbli jahon ijtimoiy-siyosiy raqobati, "sovq urush" davrlarida oshkor bo`lmasa-da ishlatalar va bu tushunchalarning amaliy samarasi yo`lida katta mablag`lar, vosita va inson resurslari ayamay sarflanar edi.

Dunyodagi vaziyat XX asr oxirlariga kelib o`zgargan bo`lsa-da, mazkur tushunchalardan foydalanish eskirmadi, aksincha yangicha ahamiyat va ma'no kasb eta boshladи. Bugun g`oyaviy va mafkuraviy kurash yangi bosqirishga ko`tarildi va yangicha ma'no kasb etmoqda. Shu ma'noda O`zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning "bugun mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham kuchliroqdir", degan fikrlarida chuqur ma'no bordir.

Mafkura poligonlari hozir chet ellarda, ayniqsa Afg`oniston, Pokiston, Eron, Saudiya Arabiston, Liviya va boshqa mamlakatlarda joylashgan bo`lib, xalqaro terrorizmning tayanch punktlariga, mafkuraviy manbariga aylangan. U yerdan buzg`unchi mazmundagi turli kitoblar, lavhalar, bukletlar va varaqalar jahoning turli mamlakatlariga eksport qilinadi va diniy ekstremizmga xayrixoh kuchlardan o`zlariga maslakdoshlar yaratish va kelajakda islomiy davlat qurish maqsadida mafkuraviy tadbirlar boshqariladi.

Qo`poruvchilik, buzg`unchilik mazmunidagi turli adabiyotlar Markaziy Osiyoning barcha yosh mustaqil davlatlarida, Rossiyaning Chеченiston, Dog`iston, Tatariston, Boshqirdiston va boshqa mintaqalarida ko`plab topilmoqda.

Mafkuraviy ekspansiyada hozirgi jahon informatsion to`ri – Internet-dan keng foydalanilmogda. Ashadiy xalqaro terrorchi jinoiy ishlari va maqsadlari uchun xalqaro qidiruvda bo`lgan Usama Ben Ladenning Internetda hozir 8 ta sayti mavjud. Bu saytlarda yoshlар, go`l fuqarolarni laqillatish, to`g`ri yo`ldan urush, sarobiv maqsadlar yo`liga kirish uchun g`oyaviy tadbirlar e`lon qilinmoqda. Shuning uchun milliy xavfsizlikning tarkibiy qismlaridan biri bo`lmish informatsion xavfsizlik mustaqil rivojlanishning asosiy talablaridan biridir.

Xo`sh, milliy rivojlanishimizga va milliy xavfsizligimizga tahdid soluvchi g`oyaviy ta`sirlarga qanday qarshilik qilish, qanday vositalardan foydalanish va ularga nimani qarshi qo`yish mumkin, degan savol tug`iladi.

Milliy xavfsizlik, ijtimoiy barqarorlik uchun ishonchli qalqon-hayot tajribasiga ega, oq-qoran tanigan, boshidan sho`ro siyosiy tartibini musibatlarini, tahqirlashlarini, boshidan kechirgan jamiyatining keksa avlodidir. Aynan yoshi ulug` fuqarolar, mustaqillikgacha bo`lgan hayotni ko`rgan,

bugungi hayotni o`tmish ijtimoiy hayotdan farqini bilgan keksa avlodgina yosh avlodni g`oyaviy buzilishdan, mustaqil rivojlanishga loqaydlik, be-farqlikdan qutqara oladi, ogohlikka undaydi. Chunki, har bir yosh oilda yashaydi. Hozir qonunchiligmizda yoshlар uchun ota-onaning mas'uliyati masalasi ham o`z o`rnini topgan. Avlodlar vorisligi milliy burch va milliy madaniyatni ta'minlashda eng ishonchli omildir. Yosh nihol bog`bonning ma'naviyati, bilimi va dunyoqarashi ta'sirida shakllanganligi kabi yosh avlod ham ota-onaning va qolaversa maktab, mahalla va jamiyatning ta'sirida shakllanadi.

Shuning uchun yoshlarga milliy rivojlanish uchun burchi nimada ekanligini tushuntirish, uning orzu-umidlarining ushalishi mamlakatda bo`layotgan o`zgarishlarga aloqadorligini anglatib borish o`z samarasini berishi muqarrardir. Ijtimoiy burchni anglash – eng yaxshi va ishonchli g`oyaviy immunitet, ko`nikmadir. Buning ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati shundaki, yoshlар o`zini ijtimoiy voqealarga (qonunlar qabul qilinishiga, qonunlar loyihasini muhokamasi, saylovlar, referendumlar, sessiyalar va h.k.) aloqadorligini, bu voqealarni kelajakda uni hayotiga bevosita ta'sir ko`rsatishini anglashi ularni siyosiy faolligini, demak ijtimoiy hayotda si-yosiy ishtirokini o`stiradi. "Davlat" nima, "jamiyat" nima, "budget" nima, "soliq" nima, "moliya" nima, "siyosiy partiya va uning maqsadi" nima, "demokratiya" nima, "hukumat" nima, "fuqaro" nima kabi ijtimoiy-siyosiy tushunchalarni faqat maktab, litsey, kollej va oliygoh o`quvchisi emas, balki har bir yosh bilishligi oila davrasida normaga aylanishiga erishish – milliy rivojlanish, demak milliy xavfsizlik uchun ishonchli aksilg`oyaviy qalqon va ko`nikma bo`ladi.

Matbuotda "Vatan", "milliy g`oya", "milliy mustaqillik", "milliy mafkura" va h.k. yuqori abstraksiyali tushunchalar keng ishlatiladi. Ularga ko`pincha badiiy tus va qiyofa berilib, iste'molchiga taklif qilinadi. Bu usulni samarasiz ekanligini fevral voqealari yana bir bor isbotladi. Kam hajmda, biroq tushunarli va ishonchli qilib "hujra"larda olingan "saboq"lar maktab sinflarida va oliygoh auditoriyalarida yuqori ilmiy darajadagi mu-taxassislar tomonidan berilgan "ilm" lardan ta'sirchanroq ekanligini hayot achinarli bo`lsa-da isbotladi.

Yoshlар tomonidan ijtimoiy burch va mas'uliyatni anglash yuqoridan emas, balki quyidan boshlanishi ma'qul. Chunki hali g`o'r, abstrakt bilimlar mag`zini anglay olmaydigan yoshlarga "milliy mafkura", "milliy g`oya", "Vatan ravnaqi" va h.k. yuqori darajadagi siyosiy tushunchalarni berish 6-7 oylik go`dakka osh berishga tengdir. U hazm qila olmaydi.

Shuning uchun yoshlarni qadam-ba-qadam, sekin-asta, muntazam katta hayotga tayyorlab borilsa, ularga yoshiga munosib bo`lgan bilimlarni berib borilsa, ular shundagina ijtimoiy va fuqaroviylar burchni tushunish darajasiga ko`tariladi. Shuning uchun o`smirga faqat muayyan balog`at yoshiga yetgandagina fuqarolik pasporti beriladi va unga fuqarolik majburiyati va mas'uliyati yuklanadi. Qonunchilikda mazkur holatlar hisobga olingandir.

Milliy rivojlanish g`oyasini yoshlar anglashi uchun yana bir ijtimoiy kategoriya muhimdir. Bu – fuqarolik yetukligi kategoriyasidir. Bizning jamiyatshunosligimizda mazkur kategoriya va uning amaliy salohiyati hali yaxshi o`rganilmagandir. Vaholanki, ham axloqiy, ham siyosiy va ham huquqiy tarbiya uchun mazkur kategoriyaning roli va ahamiyati salmolqidir.

Fuqarolik yetukligi kategoriyasining mohiyati shundaki, fuqaroviylar yetuk bo`lgan shaxs ijtimoiy burch va ijtimoiy mas'uliyatni yaxshi biladi, o`z faoliyatini shu kategoriylar asosida tashkil qiladi. Fuqaroviylar yetuk inson qonunlardan ham, ular tomonidan har bir fuqaroga quyilgan talablaridan ham xabardor bo`ladi. Bu – ijobiy ko`rsatkichdir. Bunday odam har xil bo`lmag`ir yoki yasama g`oya va fikrlarga qo`shila olmaydi, ularga er-gashmaydi, unda muayyan hayotiy prinsip va pozitsiya shakllangan bo`ladi. Bunday inson tabiiyki o`zi yashayotgan Vatanga, mamlakatga, xalqiga, demak millatiga xiyonat va xoinlik qilmaydi. Ijtimoiy burch va ijtimoiy mas'uliyat haqida tasavvur va tushunchaga ega bo`lmagan kishi odatda irodasiz, munofiq bo`ladi – arzimagan narsaga sotiladi, yon bosadi, qilayotgan qilmishini ijtimoiy zararini xayoliga ham keltirmaydi, jinoyatga qadam qo`yadi.

Inson ona qornidan to`g`ri yoki o`g`ri, yaxshi yoki yomon bo`lib tug`ilmasligi - faktidir. Muammo – minia uchun ayrim yoshlar noto`g`ri yo`lga kirib qoladi, sababi nimada ekanligini o`rganishdir. Milliy rivojlanish g`oyasining tarkibiy muammolaridan biri ham ana shunda – farovon kelajagimizni ta'minlash, inson uchun munosib bo`lgan ijtimoiy sharoitni yaratishdir. Mehnatkash va zahmatkash xalqimiz asrlar davomida mustabid, mute sharoitda yashadi, kosasi oqarmadi, tahqirlandi, xo`rlandi. Bobolari yaratgan jasorat, qat`iylik, mag`rurlik, “o`zbek” lik, milliy sha'n, or-nomus kabi hissiyatlari tumtoqlashdi, ongi xiralashdi. Boshini ko`tarib tik qarash, adolatsizlikka murosasiz bo`lish o`rniga unda biologik qo`rquv, jazolnishdan, ta`qibdan vahima qilish hissiyoti ustun keladigan bo`ldi. Nihoyat tarix taqozosi bilan mustaqil bo`ldik. Nafaqat o`sha unutilmas

1991 yil avgustida, balki bugun ham hali ayrimlar mustaqillik nima ekanligini, uni qadri, ahamiyati nimada ekanligini tushunmaydilar.

Shuning uchun yosh avlod – orzu-umidimizdir. Ularda Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek aql ham, jasorat ham, qat'iylik ham va ularning mahsuli baxt-saodat ham albatta qaror topajak. Bunga bugun barchaning ishonchi komil. Biroq buning uchun muayyan dastur zarur. Bu dastur – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va uning mantiqiy in'ikosi – milliy rivojlanish g`oyasidir.

## **10. Jahon hamjamiyatiga uyg`unlashish va globalizatsiya jamiyatni modernizatsiyalashtirish sharti**

O`tgan XX asr ijtimoiy-tarixiy salmog`i, voqealarning nufuzi va insoniyat sivilizatsiyasi uchun ahamiyati jihatidan bir necha ming yilliklarga teng asr bo`ldi. Insoniyat nafaqat mikro olamni, balki koinotni zabit etdi, hatto inson irsiyati qonunlarini ham kashf etdi.

XX asrning vutnig`i – ham tafakkurda va ham texnikada afsonaviy tezlik va tezlanishlarni boshqara olish, sun`iy materiallarning yarata olish imkoniyatlari yaratilishidir.

Kompyuter texnikasi, robot texnikasi, avtomatik boshqarish tizimi, global informatsion to`r – Internet va h.k. hodisalar darhaqiqat XX asr mo`jizalaridir.

XX asrda nafaqat mamlakatlar, hatto qit'alar o`rtasidagi masofa qisqardi, bir necha daqiqa ichida jahoning xohlagan nuqtasidan ma'lumot olish yoki ma'lumot almashish mumkin bo`ldi.

Jahonda iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar ham yaqinlasha boshladi, umumjahon yaqinlashuvi, uyg`unlashuvi va uning natijasida globalizatsiya, ya`ni butun Yer shari miqyosida o`zaro hamkorlik munosabatlari rivojlana boshladи.

Biroq turli mamlakatlarda iqtisodiy o`sish templari turlicha edi. Agar Farb mamlakatlarida postindustrial jamiyatga o`tish XX asrning 70-yillariga to`g`ri kelsa, “uchinchи dunyo” mamlakatlari industrializatsiya bo`yicha ancha orqada edi. Tabiiyki iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar qoloq mamlakatlar uchun namuna bo`la boshladilar. 70-yillarda “yetib olish” shiori qoloq mamlakatlar uchun harakterli edi.

Shunisi diqqatga sazovorki, iqtisodiy o`sish faqat miqdor nuqtalaridan emas, balki boshqa mezonlar asosida ham bo`lishligi zarurligi qator iqtisodchi, sotsiolog va politologlar tomonidan angvana boshlanadi. Ular orasida “yetarli” yoki “muvozonatli” (sustainable) taraqqiyot haqida mulohazalar keng tarqala boshladи.<sup>1</sup>

BMT ning taraqqiyot va atrofmuhitni muhofaza qilish bo`yicha Butun-jahon komissiyasi tomonidan 1987 yilda tayyorlangan “Bizning umumiy ke-lajagimiz” nomli dokladda taraqqiyotning mezoni boshqa hududlar ressurslarini egallash va sof miqdoriy ko`rsatkichlarga erishish orqali emas, balki mamlakatning ichki imkoniyatlari hisobiga bo`lishligi mumkinligi asoslanadi. Biroq, G`arb jamiyatini o`zining ichki imkoniyatlari asosida rivo-

<sup>1</sup> Bu haqda batafsil ma'lumotlar quyidagi asarda mavjud: Pearce D., Barbier E., Markandya A. Sustainable Development. Economics and Environment in the Third World. L., 1990. p. 1-3.

jana olishi uning butunjahon taraqqiyoti uchun andoza bo`lishligini anglatmaydi.

Iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotning g`arbona liberal andoza butun planeta, Yer shari miqyosida ishlashi mumkin, degan xulosa 80-90 yillarda keng tarqala boshladi va “globalizatsiya” termini deyarli barcha ijtimoiy nazariyalarning asosini tashkil eta boshladi. Taniqli G`arb olimi M.Uoters “Agar 80-yillarning asosiy tushunchasi “postmodernizm” tushunchasi bo`lgan bo`lsa, 90-yillarning asosiy tushunchasi “globalizatsiya” bo`lib, bu tushuncha orqali insoniyatni uch ming yillikka o`ta boshlaganini tushunamiz”<sup>1</sup>, deb ta`kidlaydi.

Jahon taraqqiyotiga nisbatan globalizatsiya tushunchasi mohiyatan turli mamlakatlarni iqtisodiy, madaniy va siyosiy jihatdan yaqinlashuv, uyg`unlashuvini anglatmaydi. Bunday tendensiya darhaqiqat mavjud. Biroq u globalizatsiyaning asl mohiyatini anglatmaydi.

Globalizatsiya, degani an'anaviy jamiyatlarни postindustrial zamonaviy jamiyatga, ya`ni moderniti bosqichiga o`tish demakdir. Moderniti yoki post-industrial jamiyatga o`tish jarayoniда milliy iqtisodiyotlar o`zar uyg`unlashib boradilar. Bu xalqaro savdo-sotiqning rivojlanishi, investitsiya-larning xalqaro tus ola borishi orqali sodir bo`ladi.

Globalizatsiya jarayoni jahonda qarama-qarshi qarashlarni ham yuzaga keltirmoqda. Masalan, birovlar globalizatsiya butunjahon iqtisodiyotni teng rivojlanishiga, demak siyosiy tuzumi va tartibidan qat`i nazar katta-kichik barcha mamlakatlarda turmush darajasi va sifatini oshuviga olib keladi, deb ijobjiy baholasalar, boshqalar globalizatsiyani milliy iqtisodiy rivojlanish va milliy taraqqiyot uchun zararli, deb baholamoqdalar. Hozir hatto xalqaro tus olib borayotgan antiglobalizm harakati ham mavjud. Antiglobalistlar fikriga ko`ra, globalizatsiya oqibatida rivojlanayotgan mamlakatlarda kam maosh to`lash iquisidiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda ish o`rinlarini qisqartirishga olib keladi. Chunki davlat ish haqini kamaytirish hisobiga o`zini global miqyosda raqobatbardoshligini ta`minlaydi. Rivojlangan mamlakatlar o`zlariga tenglashishga harakat qilayotgan taraqqiy etayotgan mamlakatlar bilan munosabatga kirishar ekan, ular kabi mamlakatda ish haqini, atrof-muhitni muhofaza qilishga xarajatlarni qisqartirishga majbur bo`ladi. Shu bois antiglobalistlar xalqaro iqtisodiy forumlar, uchrashuvlar o`tadigan mamlakatlarda turli namoyishlar, piket va tartibbuzarliklar tashkillashtirib o`zlarini globalizatsiyadan noroziligini bildiradilar.

Antiglobalizm liberalizm, konservativizm, sotsializm kabi ijtimoiy harakatdir. Ular davlatlararo, mintaqalararo va global miqyosdagi xalqaro ittifoqlar, kengashlar va uyushmalarning shakllanishiga qarshi chiqadilar.

<sup>1</sup> Waters M. Globalization.L. –N.Y., 1995, p.1.

Antiglobalistlarning xalqaro yetakchilari va markazlashgan shtabi ham mavjud.

Ularning yetakchilaridan Markos (Meksika), Joze Bove (Fransiya) kabi shaxslarning nomi mashhur. Antiglobalizmning shtab kvartirasi Fransiyaning Parij shahrida joylashgan bo`lib, "ATTAK", deb ataladi. Hozir antiglobalistlar safida jahoning 42 mamlakati fuqarolari bordir. Ular ayniqsa Shveysariyaning Davos shahrida har yili bo`ladigan xalqaro iqtisodiy forumlarda ~~ashadiylashishardi~~, turli namoyishlar va tartibsizliklar uvushtirishadi.

2001 yil Italiyaning Genuya shahrida iyun oyida o`tkazilgan "sakkizlik" ning davlat rahbarlari uchrashuviga antiglobalistlar katta tayyorgarlik ko`rgan edi. 2003 yil may oyida Toshkentda Yevropa qayta qurish va taraqqiyot bankining yillik yig`ilishida ham antiglobalistlarning huruji kutilgan edi.

Biroq hukumatimiz tomonidan ko`rilgan tadbir-choralar natijasida (viza tartibotini kuchaytirish va h.k.) antiglobalistlar bizning mamlakatga kira olmadilar.

Antiglobalistlar quyidagi narsalarga qarshi kurashadilar:

5. Turli iqtisodiy taraqqiyot bosqichida turuvchi davlatlarning o`zaro yaqinlashuvi (konvergensiya) va hamkorligi;

6. Iqtisodni mintaqaviylashuvi (regionalizatsiya);
7. Jahonda moliyaviy globalizatsiyani o`sib borishi;
8. Global transmilliy korporatsiyalarni vujudga kelishi.

Sotsiolog, filosof va madaniyatshunoslar jahonda turli mamlakatlar turmush tarzini yaqinlashuvi madaniyatlarni gibrildashuvi va universallashuvini ham bashorat qilmoqdalar.

Tarixchi olimlar fikricha esa globalizatsiya jarayoni allaqachon boshlangan bo`lib, u buyuk geografik kashfiyotlar davriga borib taqaladi. Bu taxminan XIV-XVI asrlarni o`z ichiga oladi. Inglizlar, ispanlar, portugallar, fransuzlar va boshqa Yevropa mamlakatlari vakillari tomonidan Amerika qit'asini ochilishi, Afrikani zabt etilishi, Hindistonni kashf etilishi va h.k. geografik ekspansionizm Yer sharining turli madaniyatları va sivilizatsiyalarini darhaqiqat yaqinlashtirdi. Mustamlakachilik siyosati aborigen, tuzem xalqlarni mustamlakachilar turmush tarzini, madaniyatini va hatto e'tiqodini ham qabul qilinishiga olib kelgan edi. Masalaning salbiy tomoni shundaki, markaz va protektorat o`rtasida mehnat taqsimoti va tarmoqlanish holati yuzaga kelib, sanoat ishlab chiqarish tarmog`i asosan markazda rivojlanib, protektorat esa faqat xom ashyo yetkazib berishga ixtisoslasha boshlaydi. Buning ogibatida Yevropada sanoat ishlab chiqarishi, industrializatsiya katta templar bilan rivojlanib ketdi. Fan va texnikaning rivojlanishi Yevropa mam-

lakatlarini jahoning boshqa mamlakatlariga nisbatan ilgarilab ketishligini ta'minladi.

XVII-XVIII asrlar ingliz va fransuz revolutsiyalari, Reformatsiya Yevropada kapitalistik munosabatlarni shakllantirdi. Kapitalistik ishlab chiqarish, raqobat muhitini yaratilishi G`arb sivilizatsiyasini madaniy-ma`naviy jihatdan ham o`sishini ta'minladi.

XX asrga kelib, G`arb mamlakatlari jahonda iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy taraqqiyot jihatidan yetakchilik qila boshladilar. G`arb qadriyatlari, davlat tuzilishi prinsiplari, jamiyatni boshqaruv usullari Sharq mamlakatlari uchun andoza, namuna rolini o`ynay boshladi. Ayniqsa demokratizm an'analarining Farbda tiklanishi Sharq mamlakatlari uchun jamiyat hayotining modeliga aylandi.

Bu hodisani "vesternizatsiya" deb atash ham rasm bo`ldi. Darhaqiqat g`arbona turmush tarzi, tafakkur uslubi va madaniyat modeli butun jahonga san'at va madaniyat tarmoqlari orqali tarqala boshladi.

Milliy teleradiokompaniyalar G`arb filmlarini, g`arbona turmush tarzini targ`ib qila boshladi. Bu madaniy globalizatsiyani tezlashtirdi.

Globalizatsiya muammosi yuzasidan moliyaviy globalizatsiya masalasi ilmiy doiralarda keng muhokama qilinmoqda. AQSH pul birligi – dollarning xalqaro moliyaviy operatsiyalarda etalon bo`lib borishligi, jahon valuta bozorida milliy pul birliklarining qiymati dollar qiymatiga nisbatan belgilanishi moliyaviy globalizatsiyani darhaqiqat reallik ekanligini ko`rsatdi.

Moliyaviy globalizatsiyaning ham ijobjiy va ham salbiy tomonlari mavjud. Uning ijobjiy jihatlari quyidagicha:

- har bir tadbirkor va ishbilarmon milliy valutasining mamlakatdagi iqtisodiy munosabatlarning yaxshilanishi yoki yomonlashuvi oqibatida yuzaga keladigan tangliklardan mo`tadil kursda turuvchi global pul birligi – dollar vositasida o`z kapitalini himoya qilish imkoniyatiga ega bo`лади;

- global miqyosda bozor munosabatlarining ustuvorligi hukumatlar tomonidan infliyatsion siyosatni yurgizishlariga halaqt beradi. davlat qarzdorligini o`sishiga to`sqinlik qiladi va h.k.

Darhaqiqat globalizatsiya oqibatida nazariy jihatdan mamlakatga xalqaro kapitalning katta miqdorda kirib kelishi ijobjiy holdir. Buning oqibatida investitsiyaga muhtoj mamlakatlarning moliyaviy ahvoli bir muncha barqarorlashadi. Tadbirkorlar buning natijasida o`zlarining ichki qarorlari bilan cheklanib qolmay, boshqa mamlakatlardan investitsiya qilish imkoniyatlarini qidiradilar. o`z navbatida chet el investitsiyalari ham mamlakatda o`z mablag`larini joylashtirish uchun keng imkoniyatlarga ega bo`ладilar.

Moliyaviy globalizatsiyaning salbiy jihatleriga kelsak, jahon bozorida moliyaviy bozorlarni integratsiyalashuvi barqarorlikni buzuvchi omilga aylan-

nadi, makroiqtisodiy siyosatni buning oqibatida qimmatli qog`ozlar va obli-gatsiyalar bilan chayqovchilik qiluvchilar belgilay boshlashadi.

Moliyaviy globalizatsiyaga qarshi kishilarning fikricha, bozor munosa-batlarining vaqtincha yuqori ko`rsatkichlariga mahliyo bo`lish uzoq muddatli samaralarni nazardan qochirishni, bugungi kun natijalari bilan cheklanib qol-ishiga olib keladi.

Xalqaro miqyosdagi moliyaviy globalizatsiya xalqaro pul va moliya hezarorligini, iqtisodiy tangliklarning sababchisidir. Buni 1992-1993 yillardagi Yevropada, 1994-1995 yillarda Meksikada va 1997 yilda Janubiy-Sharqi Osiyoda bo`lib o`tgan moliyaviy tangliklar bilan isbotlashadi.<sup>1</sup>

Globalizatsiyaning salbiy jihatlari ayrim tadqiqotchilar fikricha migration jarayonlarning rivojlanishi oqibatida ish joylarining qisqarishi, fu-qarolarni ijtimoiy jihatdan himoyalanishining zaiflashishi yuzaga keladi.

Kuchli migratsiya jarayonlari rivojlangan mamlakatlarning demografik holatiga ta'sir etadi, an'anaviy jihatdan keksalari ko`p bo`lgan mamlakat, immigrant ishchi kuchlari hisobiga yosharib boradi. Chunki immigrantlarni asosan ishga layoqathi yoshlар tashkil qiladi. Tabiiyki bu sharoitda yoshlар mahalliy keksa fuqarolar ish o`rinlariga da'vogar bo`ladilar. Buning ustiga immigrantlar kam ish haqi evaziga ham mehnat qilish shartiga ko`nadilar. Bu narsa mahalliy fuqarolarning noroziligini kuchaytiradi.

Umuman olganda esa globalizatsiya obyektiv tabiiy-tarixiy jarayon bo`lib, insoniyatning taraqqiyoti natijasidir. Insonni tashqi olam haqidagi bilimlarining oshib borishi, ijtimoiy taraqqiyot butun Yer shari miqyosida madaniy va ijtimoiy yaqinlashuvga olib keladi. Agar muqaddam Yer sharining turli qit'alarida va mamlakatlarida ijtimoiy taraqqiyot, madaniyat turlicha rivojlangan bo`lsa XX asrning oxirlariga kelib va ayniqsa XXI asrda insoniyat tobora yagona taraqqiyot yo`liga kira boshlaydi. Buni ham iqtisodiy, ham siyosiy va ham madaniy sohada kuzatish mumkin. Masalan, iqtisodiy sohada hozir jahoning barcha mamlakatlari bozor iqtisodiyotiga o`tmoqdalar yoki shu yo`lga kirishga intilmoqdalar.

Siyosiy sohada esa xalq hokimiyatichiligi, fuqarolik jamiyatni insoniyat orzu qilgan yagona adolatlari jamiyat ekanligi ayon bo`lib borgan sari demokratiya prinsiplarining, demokratik boshqaruv usullarining ahamiyati oshib bormoqda. Hokimiyatlar bo`linishi, Konstitutsiya, parlament va prezident boshqaruvi tizimlariga o`tish global miqyosda sodir bo`lmoqda. Globalizatsiya fan va texnikani, aloqa vositalarining tez rivojlanishi natijasida madaniyatlarni o`zaro yaqinlashuviga, o`zaro boyishiga, umuminsoniy madaniyat qadriyatlarini tobora ustuvor bo`lib borishligiga olib kelmoqda.

Qarang: Latouche S. The Westernization of the World. The Significance, Score and Limits of the Drive Towards Global Uniformity. Cambridge. 1989. p. 50-51

Shuning bilan birga globalizatsiya bordaniga sodir bo`la olmaydi. Globalizatsiya dastlab regionalizatsiyani taqozo qiladi. Regionalizatsiyaning mohiyati shundaki, muayyan mintaqada joylashgan davlatlar madaniyati, iqtisodi, tarixi va siyosiy tartiblarining nisbatan o`xshashligi natijasida o`zaro hamkorlik munosabatlarini o`rnatadilar, hamkorlik, o`zaro foydali iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotning omili ekanligini tobora chuqurroq his eta boshlaydilar. Ayniqsa, ayrim regionalizatsiya, ya`ni mintaqaviy hamkorlikning ijobjiy natijalari jahonning turli mintaqalaridagi davlatlarni ham o`zaro hamkorlik qilishga undaydi. Masalan, Yevropa Ittifoqi, ASEAN, NAFTA, EKO va boshqa regional uyushmalar bunday hamkorlikka intilishning natijalaridir. Regional, ya`ni mintaqaviy muammolar (ekologiya, epidemiya, xavfsizlik va h.k.) Shanxay hamkorlik kengashi. NATO va boshqa tashkilotlarni shakllanishiga olib kelmoqdaki, ular sekin-asta global xavfsizlikning ham omiliga aylanmoqda.

O`zbekiston Respublikasi ham Markaziy Osiyoda mintaqaviy muammolarni hal etish orqali jahon hamjamiatiga tobora uyg`unlashadi.

Prezident I.A.Karimov ta`kidlaganidek “Markaziy Osiyo mintaqasida turli siyosiy, iqtisodiy, harbiy, transport va ekologiyaga oid muammolar to`planib qolgan... Mintaqada jo`g`rofiy-siyosiy muvozanatni va barqarorlikni saqlagan taqdirdagina mazkur muammolarni hal etish imkonи tug`iladi”.<sup>1</sup>

Milliy xavfsizlikni ta`minlash shu bois mintaqaviy xavfsizlikni ta`minlashsiz aslo mumkin emasdir. Xalqimizning “Qo`sning tinch, sen ham tinch”, degan naqlida ko`p ma`no bor. Shuning uchun milliy xavfsizlikni ta`minlash uchun hududiy va global hamkorlik tinchlik va osoyishtalik, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikning muhim omilidir.

<sup>1</sup> Karimov I.A. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O`zbekiston, 1997, 9-b.

## **11. O`zbekistonning globallashuv jarayonida teng huquq va teng manfaat tamoyili asosida jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashuvi va uning jamiyatni modernizatsiyalashtirishda tutgan o`rni**

O`zbekistonning Markaziy Osiyo hududida va jahon ijtimoiy-iqtisodiy jarayonidagi mavqeい ko`p jihatdan mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy, siyosiy va huquqiy islohotlar tabiatiga bog`liq. Konstitutsiyaviy jihatidan mustalikamlangan umuminsoniy qadriyatlarning milliy qadriyatlardan ustuvorligini tan olishning legitimligi O`zbekistonni jahon hamjamiyatiga uyg`unlashuvi uchun huquqiy kafolat bo`ladi.

O`zbekiston o`z kelajagini o`zi yaratadi. Markaziy Osiyoda buyuk davlatchilik siyosatini olib boruvchi Rossianing mavqeini zaiflashishi O`zbekistonning ham erkin va mustaqil rivojlaniishi uchun, jahon hamjamiyati bilan keng ko`lamda hamkorlikka kirishishi uchun shart-sharoitlar yaratadi.

O`zbekiston Prezidenti I.A.Karimov, “O`zbekiston dunyo uchun ochiq. Biz ham dunyoning O`zbekistonga juda katta qiziqish bilan qarayotganligini his etmoqdamiz”<sup>1</sup>, - deb ta'kidlaydi

Markaziy Osiyo mintaqasi va xususan O`zbekiston murakkab demografik holat (aholining tabiiy o`sishining yuqoriligi), dengiz kommunikatsiyalardan uzoqligi, Orol dengizining tobora qurib borayotganligi sababli yer va suv resurslarining cheklanib borayotganligi bilan harakterlarnadi. Markaziy Osiyo mintaqasining barqarorligiga xavf solib turuvchi Afg`oniston muammosini nisbatan barqarorlashuvi mintaqaviy muammo-larni aslida kamaytirmaydi.<sup>2</sup> Mintaqada bozor munosabatlariiga o`tish, global miqyosdagi ijtimoiy siyosiy jarayonlarga uyg`unlashish besh yosh mustaqil davlatlarda turlicha darajada amalga oshmoqda.

Markaziy Osiyo yosh davlatlari uchun umumiyl bo`lgan jihatlardan biri shundaki, ular global ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga uyg`unlashuvini davlatning yetakchiligidagi amalga oshrimoqdalar. Chet el kapitalini ham mintaqaga kuchli daylat kafolatlari himoyasida jalb etilmoqda, tashqi iqtisodiy munosabatlarni rivojantirish davlat nazorati ostida kechmoqda. Valutaning kirib kelishi, importni qo`llab-quvvatlash mexanizmi ham davlat qo`lida saqlanib qolmoqda. Shuning bilan birga mintaqada iqtisodiy jihatdan yetakchilik uchun xufyona kurash ketmoqda.

O`zbekistonning milliy manfaatlari nuqtai nazaridan mintaqada millatlararo` totuvlikni, qo`shni davlatlar bilan o`zaro hamkorlikni, yaxshi

<sup>1</sup> Karimov I.A. O`sha asar. 297-b.

<sup>2</sup> Алимов Р.М. Центральная Азия: Общность интересов. –Т.: “Шарқ”. 2005. 213-б.

qo'shnichilik munosabatlarini rivojlantirish orqali mintaqaviy integratsiya (yagona iqtisodiy hudud, bojxona to'lovlarini mo'tadillashtirish, viza (borish-kelish) tartibini soddashtirish va h.k.) erishish istiqbolli siyosat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov mintaqaviy integratsiyalashuv oqibatida davlatlar ustida turuvchi tizimlarni paydo bo'lishiga mutlaqo qarshi chiqmoqda.

Prezident I.A.Karimovning O'zbekiston Milliy axborot Agentligi muxbiri bilan suhbatida ... integratsiya, eng avvalo, o'z salohiyati, o'z kuchi va imkoniyatlariga suyangan holdagini, o'zaro foydali sheriklik qilish uchun qurbi yetgandagina, takror aytaman, o'zaro foydali mulkchilik qilish uchun qurbi yetgandagina, ... o'zaro foydali kooperativ vujudga kelib, bundan barcha manfaatdor tomonlar naf ko'rgandagina amaliy natija berishi mumkin",<sup>1</sup> - deb ta'kidlaydi.

Shuningdek, boqimandalikka asoslangan urinishlar, o'z muammo- larini boshqalar hamda ularning resurslari hisobiga hal qilishga umid bog'lash majoziy qilib aytganda ... bunday intilishlar biz uchun mutlaqo maqbul emasligi ta'kidlanadi.

Muxbirning "Sizning nazaringizda integratsiya jarayonlarini shakllantirishga asos bo'la oladigan prinsipial hollar nimalardan iborat bo'lishi mumkin?", degan savoliga Prezident I.A.Karimov quyidagi javoblarni beradi: "Birinchidan, integratsiyaga ixtiyoriy qo'shilish, bunda davlatlar to'la teng huquqqa ega bo'lishi kerak. Suverenitet va davlat mustaqilligi to'la saqlanib qolishi zarur. Ikkinchidan, har bir mamlakatda o'tkazilayotgan islohotlar bir yo'nalishda va bir-biriga monand bo'lishi lozim. Nazarimizda, siyosiy va iqtisodiy yangilanishlarning, qonunchilik va huquqiy asosning turli bosqichida turgan davlatlarning integratsiyalashuvi mumkin emas.

Uchinchidan, har bir davlat, eng avvalo, o'z salohiyatiga suyanishi lozim. Integratsiya va kooperatsiya jarayonlarini chuqurlashtirishdan barcha, avvalo o'zaro, bir-biridan manfaatdor bo'lishi kerak. Boqimandalik kayfiyatining barcha ko'rinishlariga, birovning hisobidan boshqalarning muammosini hal etish niyatlariga barham berilishi shart.

To'rtinchidan, integratsiya jarayonlarini sun'iy ravishda jadallashtirishga ham yo'l qo'yib boilmaydi. Integratsiya shunchaki integratsiya uchun emas, o'zini ko'rsatish, populistik va boshqa siyosiy maqsadlar uchun emas, eng avvalo, biz nomi va fikri bilan har bir xatti-harakatimizni

<sup>1</sup> Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. T.4. -T.: O'zbekiston, 1996. 300-b.

niqoblamoqchi bo`layotgan xalqlarning farovonligi uchun amalga oshirilishi lozim.

Beshinchidan, integrativ jarayonlariga mafkuraviy tus berish oqibatida davlatlar ustidan quriladigan parlamentlararo, hukumatlارaro qoshni tuzilmalarni tashkil etish, bu jarayonni iqtisodiy integratsiya jarayonlaridan oldin qo`yish hamda iqtisodiy aloqalarning xolisona amalga oshirilishiga zug`ul qilish mutlaqo nomaqbuldir. Aravani otdan oldin qo`yib bo`imaganidek, siyosatni ham iqtisodiyotdan oldin qo`yib bo`lmaydi. Integratsiya deb atalayotgan bunday hodisaning kuch ishlatalidigan, zo`ravonlik usullari bizga mutlaqo to`g`ri kelmaydi. Buning qanday oqibatga olib kelishi to`g`risida gapirib o`tirishning o`zi ortiqcha”.

O`zbekiston davlati Markaziy Osiyo mintaqasida joylashgan davlatlar, Rossiya va Yevropa Kengashi mamlakatlari bilan o`zarо hamkorlikka asoslangan integratsiya jarayoniga kirar ekan, o`zining aniq pozitsiyasini ham integratsiyaga kirishayotgan davlatlarga e`lon qiladi.

Bu pozitsiya Prezidentimiz tomonidan 1996 yil 12 aprelda Toshkentdagi diplomatiya korpusi va jurnalistlar bilan uchrashuvda so`zlagan nutqida ro`yrost o`z ifodasini topgan. Prezident I.A.Karimov O`zbekiston davlatini mintaqaviy va global integratsiya masalasiga munosabatini ifodalar ekan “sobiq sovetlar hududida integratsiya masalalari bo`yicha yuz berayotgan voqealar, shu munosabat bilan imzolangan hujjatlar har bir alohida davlat va uning rahbarlik tuzilmalarining huquqi va ichki ishidir. Har bir davlat va uning rahbarlari eng avvalo o`z manfaatlарidan kelib chiqqan holda har qanday hujjat va davlatlарaro shartnomalarni qabul qilish va imzolash huquqiga ega. ... O`zbekiston uchun bu shartnoma va hujjatlar maqbulmi, O`zbekiston bu shartnomalarga qo`shilishi mumkinmi yoki yo`qmi? Buning ustiga, qat`iylik bilan bizni hamjamiyat yoki integratsiyalashgan davlatlar ittifoqi deb atalmish uyushmalarini tuzish haqidagi hujjatlarni imzolashga taklif etishmoqda. gohida esa bu narsa O`zbekistonga foydalimi, yo`qmi ekanini biz uchun o`zlar hal qilishmoqda.

Shu munosabat bilan men O`zbekiston uchun bunday ittifoqlar yoki hamdo`stliklar mutlaqo maqbul emasligini aytib o`tishni istar edim”,<sup>2</sup> - deb ta`kidlaydi.

Prezident I.A.Karimovning global va mintaqaviy integratsiya muammosi bo`yicha mustaqil O`zbekiston pozitsiyasini ifodalashida ikkita muhim tomon mavjud. Birinchiisi, integratsiyaga kirishayotgan davlatlar o`zarо teng huquqlilik principiga rioya qilishlari. ya`ni katta-mi, kichikmi

<sup>1</sup> O`sha asar: 300-301-betlar.

<sup>2</sup> Karimov I.A. Bunyodkorlik yo`lidan. T.4. -T.: O`zbekiston, 1996, 307-b.

barcha davlatlar o`zaro shartnoma majburiyatlarini ishlab chiqishda va bajarishda teng mas'uliyatlari bo`lishi kerak.

Ikkinchisi, integratsiyaga kirishish har bir davlatni mustaqilligiga zarar yetkazmasligi lozim.

Davlatimiz rahbarining xavotirlangan joyi shundaki, iqtisodiy integratsiya niqobi ostida harbiy-siyosiy masalalar, birlashgan ko`mondonlik tuzish, chegaralarni birgalikda qo`riqlash kabi masalalar ham asta-sekin MDH davlatlari integratsiyasi oldiga qo`yila boshlandi. Bu aslo yo`l qo`yib bo`lmaydigan holdir. Shuni nazarda tutib, Prezident I.A.Karimov shunday deydi: "...tashkil etiladigan hamjamaliylarda bevosita amal qiladigan, ya`ni barcha organlar va tashkilotlar bajarilishi majbur bo`lgan qarorlarni shartnomada ishtirok etuvchi har bir mamlakatning tegishli organlarini chetlab o`tib qabul qilish huquqiga ega bo`lgan davlatdan yuqori turuvchi tuzilmalar tashkil etilgan taqdirda, bu davlatlarni mustaqil davlat deyish qiyin bo`ladi".<sup>1</sup>

O`zbekiston Respublikasining mintaqaviv integratsiyaga nishbatan pozitsiyasi qat`iy – tenglar ichida teng bo`lish, milliy mustaqillikka putur yetkazmaslikdir. O`zbekiston bu bilan o`z eshiklarini zich yopib, boshqa mamlakatlar bilan hamkorlikni olib bormaydi, degani emas. O`zbekiston mintaqaviv hamkorlikni tobora rivojlantirish siyosatini izchil olib bormoqda. Birgina 1996 yilning o`zida qo`shni mamlakatlar bilan iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishga oid qator uchrashuvlar bo`lib o`tdi. Masalan, 1996 yil 5 aprel kuni Toshkentda yagona iqtisodiy makon barpo etish haqidagi shartnomani imzolagan mamlakatlar Bosh vazirlarining navbatdagi majlisi bo`ldi. Unda Qozog`iston, Qирғизистон, O`zbekiston Bosh vazirlari transport va kommunikatsiya sohasida kelishilgan siyosat o`tkazish, yoqilg`i-energetika va suv resurslaridan, shuningdek, gaz quvurlaridan foydalanish, narkotik moddalarning g`ayriqonuniy tarzda aylanishiga qarshi kurashda hamkorlik qilish, "Sentrazelektron" transmilliy moliya-sanoat guruhini tuzish, yerning davlatlararo ijarasini va boshqa masalalar bo`yicha yuzdan ortiq hujjat imzolashdi.<sup>2</sup> Bunday shartnoma va hujjatlar keyingi o`n yilda qisman hayotda o`z tasdig`ini topdi, ayrimlari esa hanuz hayotga joriy bo`la olmadidi. Buning qator sabablari mavjud. Bunday sabablardan biri - O`zbekiston davlati tanlagan siyosiy yo`l – modernizatsiya jarayonini tezlashtirmay, iqtisodiyotni yuksaltirish orqali integratsiyaga kirishgan mamlakatlar bilan moddiy ishlab chiqarish bo`yicha teng rivojlanishga erishishdir.

<sup>1</sup> O`sha asar, 309-b.

<sup>2</sup> O`sha asar, 306-b.

Mintaqaviy integratsiya jarayonini sust kechishining sababi shart-noma imzolagan mamlakatlarlarning bunday ittifoq ichida “katta og`a”ni paydo bo`lishidan hadiksirashdir.

Markaziy Osiyo davlatlarining ko`pchiligidagi Prezident I.A.Karimov ta`kidlashicha, o`tmish sovet tarbiyasi o`z kuchini ko`rsatayapti va “MDH doirasida qabul qilingan qarorlarning bajarilishini ta'minlaydigan mex-anizmlarni astoydil izlash, davlatlar o`rtasidagi ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirish, ularni aniq va muayyan mazmun bilan boyitish o`rniga, bizda ko`pincha eski zamonalarni qumsash namoyon bo`lmoqda”.<sup>1</sup>

O`zbekiston Markaziy Osiyo va MDH davlatlaridan tashqari AQSH, Yaponiya, Fransiya, Turkiya va Janubiy Koreya davlatlari bilan turli so-hada munosabatlarini rivojlantirmoqda.

O`zbekiston NATO bilan “Tinchlik yo`lida hamkorlik” dasturi orqali mintaqada xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash uchun o`zaro hamkorligi mustaqilligimizni mustahkamlash va milliy rivojlanishimiz uchun ishon-chli omilga aylandi. MDH doirasida “Kollektiv xavfsizlik” shartnomasini qog`ozda qolishi, O`zbekistonga 2000 yil Afg`onistonning “Tolibon” jan-garlari real xavf tug`dirganda yaqqol sezildi. Shuning uchun O`zbekiston bu shartnomadan bir tomonlama chiqdi. Bu fakt ishni ko`rsatdiki, O`zbekiston o`z mudofaa qobiliyatini dastavval o`zining ichki salohiyatiga tayanib rivojlantirish lozimligini hayotni o`zi isbotladi. O`zbekiston milliy manfaatlari qo`shni mamlakatlar manfaatini hurmat qilgan holda mustaqil milliy rivojlanishimizni ta'minlash, uning iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va madaniy asoslarini mustahkamlashdir.

Shuning uchun siyosiy yetakchimiz tomonidan boshqarilayotgan keng qo`lamli islohotlar hovliqish, me'yordan ortiq tezlik bilan emas, balki tabiiy o`z me'yorida, asta-sekin, bosqichma-bosqich o`ta bosiqlik bilan o`tkazilmoqda.

Mamlakatimizda erishilgan siyosiy barqarorlik, millatlararo totuvlik va hamjihatlik mana shu siyosatning natijasidir.

Shu bois O`zbekistonga jahon hamjamiyati tomonidan qiziqish to-bora o`sib bornmoqda. O`zbekistonning jo`g`rofiy-tabuy imkoniyatlari, tabiiy boyliklari va eng muhimmi mehmondo`st va mehnatsevar xalqi jahon xalqlarini o`zaro hamkorlikka undamoqda, global iqtisodiy va madaniy munosabatlarga teng huquqli subyekt bo`lib kirishi uchun kafolat bo`lmoqda. Milliy rivojlanishimiz shu bois faqat boshqa mamlakatlar bilan o`zaro hamkorlik, o`zaro manfaatdorlik, o`zaro do`stlik munosabatlarni rivojlantirish orqali ekanligini hayot isbotlamoqda.

<sup>1</sup> O`sha asar, 308-b.

## **12. O`zbekistonning jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashuvi jarayonidagi faolligini oshirish jarayoni**

O`zbekistonning jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashuvi nafaqat O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan siyosiy-huquqiy normalar orqali, balki milliy rivojlanish g`oyasi orqali ham amalga oshadi. Buning boisi – milliy rivojlanish g`oyasining O`zbekiston davlati tanlagan siyosiy taraqqiyot yo`li – kelajakda dunyoviy demokratik, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirish maqsadiga bo`ysundirilganligidir. Milliy rivojlanish g`oyasi mamlakatimizni jahon hamjamiyatiga uyg`unlashuvi (globallashuvi) ning nazariy asosidir.

O`zbekistonni jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashuvi avtomatik tarzda bo`lmaydi. Chunki har qanday integratsiya, Prezident I.A.Karimov ta'biri bilan aytganda, nisbatan teng iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojlanish darajasini taqozo etadi. Aks holda har qanday iqtisodiy va h.k. ittifoqda tenglik prinsipi buziladi, kimdir qattiq mehnat qiladi, kimdir boqimanda bo`ladi. Shuning uchun yuqorida tilga olingan antiglobalistlarning chiqishlarida ham ma`no bor – ular globalizmni milliy rivojlanishga salbiy ta`sir etishidan cho`chishadi. Antiglobalistlar asosan iqtisodiy jihatdan yuqori taraqqiy etgan mamlakatlarning fuqarolaridir, ular o`zlarini vatanparvarlar, deb hisoblashadi.

Jahonda yuzaga kelgan har bir integratsiya (ATS, ASEAN, NAFTA, YEI va h.k.) ishtirokchi mamlakatlarning nisbatan teng iqtisodiy taraqqiyot darajasini talab qiladi. Misol tariqasida Yevropa Ittifoqi (YEI) tarixiga murojaat qilamiz.

Yevropada integratsiyaga kirishish jarayoni deyarli 50 yildan oshiq davrda davom etib kelmoqda. Ikkinci jahon urushidan so`ng jahonda ikkita buyuk davlat –SSSR va AQSH jahon ijtimoiy-siyosiy ob-havosini belgilay boshladi. Bu ikki davlat atrofida qator davlatlar birlashib, ikki harbiy-siyosiy lagerni tashkil etdilar.

SSSR ning harbiy qudrati va AQShning madaniy ekspansiyasi G`arbiy Yevropa mamlakatlarini cho`chita boshladi. Ikkinci jahon urushi natijasida ancha zaiflashgan G`arbiy Yevropa mamlakatlari bu ikki davlatga birga-bir, yakkama-yakka qarshi tura olmas edi. Buning uchun ularda na iqtisodiy va na harbiy qudrat bor edi. Buyuk davlat arbobi U.Cherchill 1946 yili Syurixda so`zlagan nutqida “Yevropa Amerika Qo`shma Shtatlariga o`xshagan bo`lishi lozim”, - deb aytdi. Bu paytda Yevropaning ilg`or ziyolilari Yevropada yana urush o`chog`ini paydo bo`lmasligi uchun, tinchlik va barqaror taraqqiyotni ta'minlash uchun o`zaro birlashish lozimligini tobora yaxshi anglay boshlagan edi.

Ayni shu davrda AQSH Yevropaga, xususan mag`lub bo`lgan Germaniyani tiklash uchun "Marshall plani"ni tuzib Farbiya Yevropaga investitsiya qila boshladi. Mazkur reja doirasida 1948 yili Yevropa iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga asos solindi. Shu yilning o`zida "Benelyuks" bojxona ittifoqi tuzildi.

Farbiy Yevropaning qator davlatlarini birlashtirgan bu yangi tuzilma turli mamlakatlarning iqtisodiy sohadagi taraqqiyot imkoniyatlarini ko`rsatdi. 1949 yili Yevropa Ittifoqiga asos solindi.

1956 yilga kelib bu ittifoq qator sonaiarni qanub ola boshladi. Xususan, yadro energiyasidan birgalikda tinch maqsadda foydalanishga oid 1957 yil 25 martida Rim Sharhnomasi imzolandi. Yevropa Iqtisodiy Ittifoqi, Yevropa atom energiyasidan foydalanish ittifoqi (Yevroatom) va boshqa integratsiyalar sekin-asta shakllandi.

Yevropada yagona bozor makonini vujudga keltirish uchun 1987 yil 1 iyulda Yagona Yevropa Akti imzolandi.

1996 yil dekabrida Yevropaning 12 ta davlati Gollandiyaning Maastricht shahrida yig`ilishib, o`zaro integratsiyani yanada chuqurlashtirishga kelishihib 1993 y. 1 yanvaridan yangi mazmunda Ittifoqqa asos solishdi. Bu Sharhnomaga asosan yagona fuqarolik (umumevropa miqyosida), iqtisodiy va valuta ittifoqi va siyosiy ittifoq tuzildi.

Bugunga kelib, Yevropa Ittifoqi jahondagi eng nufuzli integratsiyaga aylandi. Uning Yevropa qayta qurish va taraqqiyotbanki, OBSE va h.k. yuqori martabali tarmoqlari nafaqat Yevropada, balki butun jahon miqyosida barqaror iqtisodiyot, demokratiya, inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, gumanitar yordam ko`rsatish yo`nalishlari bo`yicha faoliyat ko`rsatmoqda. O`zbekistonda Yevropa Ittifoqining qator missiyalari mayjud. Yevropa Ittifoqi jahon bozorida va iqtisodiyotida katta salmoqqa ega. Yevropa Ittifoqiga a`zo mamlakatlarida yagona pul birligi – yevro muomalaga kiritilgan, u dol-larga nisbatan o`z qadrini oshirib bormoqda, milliy valutalar yevroga nisbatan o`lchanmoqda.

Yevropa Ittifoqiga kirish orzusida yurgan davlatlar talaygina.

Buning uchun har bir da'vogar mamlakat dastlab o`z ichki bozorini, iqtisodiyotini jahon standartlari talabiga mos qilib rivojlantirishi lozim.

O`zbekistonni jahon hamjamiatiga uyg`unlashuvi ham qator xalqaro talablarni bajarishni taqozo etadi. Milliy rivojlanish g`oyasi shu ma'noda Vatanimizni jahonning ilg`or mamlakatlari qatoridan o`rin olishi uchun muayyan nazariy asos rolini o`ynaydi, fuqarolarimizning siyosiy ongi va siyosiy madaniyatini va pirovardida esa zamonaviy dunyoqarashini shakllantirishga xizmat qiladi.

## SO'NGGI SO'Z

Shunday qilib, modernizatsiya jamiyat hayotini tubdan o`zgartirish, uni umumjahon ilg`or ijtimoiy-siyosiy prinsiplari va qonuniyatlariga muvofiqlashtirish, planetar ijtimoiy tafakkurga yaqinlashtirish demakdir. Bu – milliy xususiyatlarni, milliy o`zlikni va betakrorlikni yo`qotish, ularni umumjahon ijtimoiy hayotida qorishtirib yuborish, ijtimoiy assimilatsiyani amalga oshirish degani emas. Modernizatsiya ko`proq transformatsiya, ijtimoiy yangilanish demakdir.

An'anaviy jamiyatni modernizatsiyalashtirishning strategiyasi esa shundan iboratki, birinchidan, jamiyat siyosiy tizimida demokratik institutlarni shakllantirish, ijtimoiy hayotda davlat monopoliyasini cheklash, ijtimoiy nazoratni, o`z-o`zini boshqarishni qaror toptirishda bo`lsa, ikkinchidan, erkin iqtisodiyotni va iqtisodiy munosabatlarni shakllantirish va ularning huquqiy mexanizmini mustahkamlash, uchinchidan, jamiyat ma'nnaviy hayotini ham tubdan o`zgartirish, an'ana va udumlarda pragmatizm va ratsionalizm prinsiplarini qaror toptirish, yasama iltifot va takalluflarga barham berish, realistik dunyoqarashni shakllantirishni o`z ichiga oladi.

An'anaviy jamiyatni modernizatsiyalashtirish asosida uni demokratilashtirish yotishligi strategik g`oyadir. Biroq ushbu g`oya antinomiya harakteriga ega bo`lib, har qanday demokratiyalashtirish dastavval yuqori darajada bo`lgan iqtisodiy o`sishni taqozo etadi. AQSH ning ko`zga ko`ringan sotsiologgi Frensis Fukuyama ta'kidlashicha, ikkinchi jahon urushidan so`ng ayrim Sharq, aniqrog`i Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlarda yuksak iqtisodiy o`sish ushbu mamlakatlarda siyosiy liberalizatsiyani yuzaga keltirdi.

Frensis Fukuyamaning ta'kidlashicha, iqtisodiy o`sish bilan demokratik institutlarni mustahkamlanishi Yaponiyadan tortib Janubiy Koreya-gacha deyarli bir vaqtida kuzatildi. Tayvan, Tailand, Birma va Fillipinda ham jamiyatni modernizatsiyalashtirish iqtisodiy o`sish va siyosiy sohani liberallashtirish bilan o`zaro aloqadorlikda kuzatilmaganligini qator boshqa tadqiqotchilar ham ta'kidlashadi.<sup>1</sup>

Ham G`arbda va ham Sharqda, Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlarda ikkinchi jahon urushidan so`ng kuzatilgan iqtisodiy o`sish demokratik institutlarni mustahkamlanishi, siyosiy sohada liberalizatsiya jarayonlari bilan uzviy aloqada kechganligini tasdiqlaydi.

<sup>1</sup> Ф.Фукуяма. Конфуцианство и демократия. - Qarang: Journal of Democracy. 1995, vol.t, № 2, p. 20-33.

Iqtisodiy hayotda davlat monopoliyasini mustahkamlash demokratiyanı bo`g`ishni yoki “boshqariladigan demokratiya” va undan ham achi-narlisi - “demokratik sentralizm”ni yuzaga keltiradi. Sobiq Sovet Ittifoqining ikkinchi jahon urushidan keyingi taraqqiyoti aynan shunday bo`ldi.

Pirovard oqibat shu bo`ldiki, 80-yillar oxirlariga kelib “g`olib” bo`lgan mamlakat “mag`lub” bo`lgan davlatlardan (Germaniya, Yaponiya) insonparvarlik yordamini olishga majbur bo`ldi. Shuning uchun jamiyatni demokratlashtirish kechiktirib bo`lmaydigan strategik vazifadir.

Ushbu fikrni O`zbekiston Prezidenti I.A.Karimov ham Oliy Majlis Qonunchilik va Senatning Qo`shma majlisida so`zlagan nutqida ifodalar ekan “biz bugungi kunda mintaqamizda yashayotgan xalqlar guyoki hali demokratiya uchun tayyor emas, bu borada “pishib yetilmagan” ular oldin kambag`allik va qashshoqlik bilan bog`liq muammolarni hal qilishlari zarur, shundan keyingina demokratiya qurish, siyosiy va iqtisodiy islohotlar uchun shart-sharoit yuzaga keladi, degan gaplarni ko`p eshitamiz”, deydi. Ushbu fikrni davom e`tirof ekan I.A.Karimov “bunday bayonot va yondashuvlar – avvalo, tarixni bilmaslik, xalqning bunyodkorlik salohiyatiga, kuch-qudratiga ishonmaslik, aytish mumkinki, hozirgi dunyoni jadallik bilan o`zgartirib borayotgan obyektiv, global jarayonlarni tushunmaslik nati-jasidir”, deb ta`kidlaydi.

“Bugun, hamma bo`lmasa ham, lekin ko`pchilik odamlar yaxshi anglaydiki, - deydi I.A.Karimov, - faqat zamon bilan teng-qadam tashlayotgan, tez o`zgarayotgan dunyoning qat`iy shart va talablariga javob berishga intilayotgan mamlakatning kelajagi yorug` bo`lishi mumkin”.

Mazkur fikrlarni yanada oydinlashtirar ekan yurtboshimiz “mustaqil-likni mustahkamlash, jamiyatni demokratlashtirish va yangilash biz uchun hamisha birinchi darajali ustuvor maqsad va vazifa bo`lib qolaveradi”, - deb ta`kidlaydi.

Jamiyatni demokratlashtirish keng ma'noda uni modernizatsiyalashtirish, yangilash, zamonaviylashtirish demakdir. Shu ma'noda modernizatsiya ayrim kimsalar tomonidan olg`a surilayotgan, zo`ravonlik bilan kishilar ongiga singdirishga urinilayotgan turli ekstremistik maqsad va vazifalarga batamom ziddir. Bunday maqsad va vazifalar bir narsaga – biz shakllantirmoqchi bo`lgan zamonaviy dunyoviy jamiyat o`rniga o`rta asr qabiladagi diniy-teokratik davlat – halifalikni barpo etishga qaratilgandir. Bunday maqsad va vazifalarning bema`niligi shundaki, tarixiy taraqqiyotning obyektiv jarayonini orqaga qaytarish yoki uni kuch bilan to`xatib bo`lmaydi. Tarix g`ildiragi bunday urinishlarni g`ildirakka yopishgan loy kabi uloqtirib tashlaydi, yanchib ketadi. Bunday qismat tarixiy jarayonni,

modernizatsiya jarayonini to`xtatmoqchi bo`lgan kishilar istaydimi yoki yo`qmi – shunday bo`ladi.

Modernizatsiyaga qaratilgan siyosiy kurs – umumjahon miqyos va maromga ega. Modernizatsiya jarayoni nafaqat G`arbda va Sharqda, balki Lotin Amerikasida, Afrika qit'asida va ayniqsa Janubiy Sharqiy Osiyo mamlakatlarida tez sur'atlar bilan kechmoqda. Ushbu jarayonga mustaqil O`zbekiston ham tortilgandir. Chunki u jahon hamjamiyati bilan o`zaro hamkorliksiz taraqqiy eta olmaydi, u jahon hamjamiyatining uzviy qis-midir, jahon hamjamiyati oldida turgan vazifalar O`zbekiston uchun ham dolzarbdir. O`zbekiston milliy rivojlanishi modernizatsiyaga qaratilgandir. Buni anglamaslik siyosiy savodsizlik bilan tengdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

74. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. T.: “O`zbekiston”, 2005.
75. Karimov I.A. Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati.// Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-tom, T.: “O`zbekiston”, 1996.
76. Karimov I.A. O`zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-tom. T.: “O`zbekiston” 1996
77. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilsin.// Adolatli jamiyat sari. –T.: “O`zbekiston”, 1998.
78. Karimov I.A. Adolatli jamiyat sari. –T.: “O`zbekiston”, 1998.
79. Karimov I.A. O`zbekiston XXI-asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: “O`zbekiston”, 1997.
80. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo`ldan. T. 4. –T.: “O`zbekiston”, 1996.
81. Алиев Р.М. Центральная Азия: общность интересов. Т.: «Шарк», 2005.
82. Альфонсин Р.Р. Модернизация и социальная справедливость.// Лат.Америка. America Latina. – М. 1991. № 10.
83. Арифханова Зоя. Традиционные сообщества в совр. Узбекистане.// Центральная Азия и Кавказ. №4 (10). 2000.
84. Ашин Г.Н. Элиты как субъекты модернизации.// Модернизация и национальная культура. –М., 1995.
85. Бреслауэр Дж.У. Возможности модернизации посткоммунистического режима.// Россия-США: опыт политического развития. Ростов н/Д, 1993.
86. «Бейзинг жибао», Пекин от 15 января 1998.
87. Вебер М. Теория ступеней и направлений религиозного неприятия мира. -Изб.произв. –М.: Прогресс, 1990.
88. Вебер М. Протестантская этика и дух капитализма. Изб.произв. –М.: Прогресс, 1990.
89. Василенко И.М. Политическая глобалистика. Учебное пособие. /М., Логос. 2000.
90. Гегель Г. Философия истории. СПб., 1933.
91. Gafarli M.S., Kasayev A.CH. Rivojlanishning o`zbek modeli: tinchlik va barqarorlik – taraqqiyot asosi.T.: “O`zbekiston”, 2001.
92. Jalolov A. Mustaqillik – fidokorona mehnat va ruh matonati. // O`zbekiston: mustaqillik, ma`naviyat, mafkura. T.: O`zbekiston, 1999.
93. Jumayev R. Davlat va jamiyat: demokratlashtirish yo`lida. T.: “Sharq”, 1998.
94. Jo`rayev Narzulla. Tafakkurdagı evrilish: istiqboi iztirobları va quvonchlari haqida mulohazalar. –T.: “Sharq”, 2001.

95. "Izvestiya" gazetasi, 1994 y. 5 noyabr.
96. Каспэ С.И. Имперская политическая культура в условиях модернизации.// Политика. М., 1998.
97. Красильников В.А. Модернизация и Россия на пороге XXI века.// Вопросы философии. № 7. –М., 1993.
98. Льонг Вьет Хай. Ускорение модернизации в странах Восточной и Юго-Восточной Азии.// Филос.исслед. №1. –М., 1998.
99. Levitin L. O'zbekiston tarixiy burilish pallasida. –Т.: "O'zbekiston", 2001.
100. Maximov Tilab. Mustaqillik va ma'naviyat. –Т.: "Sharq", 2001.
101. Мамитова Эльвира. Исламский фундаментализм и экстремизм в странах Центральной Азии.// Центральная Азия и Кавказ. Стокгольм. № 5 (11), 2000.
102. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Т.: O'zbekiston. 2000.
103. Paxrudinov SH. Tahdid – halokatli kuch. Т.: Akademiya. 2001.
104. Панарин Э.Д., Мухаметшина Н.С. Национальные проблемы на постсоветской территории. Санкт-Петербург: Фонд Сороса. 2001.
105. Попова И.М., Куняевский М.Б. Социальная цена «запаздывающей» модернизации. // Социологический журнал. -№3. –М., 1997.
106. Пластун Вл. Такой разный ислам.// Центральная Азия и Кавказ. Стокгольм. 2000, № 5 (11).
107. Политология. Учебное пособие для вузов. // 2-изд. М.: Констр, 2000.
108. «Проблемы Дальнего Востока», № 4. М., 1988.
109. Saifnazarov I. Ma'naviy barqarorlik va siyosiy madaniyat. –Т.: "Sharq", 2001.
110. Сафоев С. Региональное развитие и постконфликтное восстановление Афганистана.// Стабильность в Центральной Азии в постконфликтный период. Ташкент: ИСМИ. 2002.
111. Становление институтов буржуазной экономики. М.: «Наука», 1989.
112. Tadjixanov U., Odilqoriyev X., Saidov A. O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy huquqi. Т.: "Sharq", 2001.
113. Устинов В.В. Обвиняется терроризм. М.: ОЛМА-ПРЕСС. 2002.
114. Фонд Либеральная миссия.// Фрэнсис Фукуяма. Конфуцианство и демократия. М., 2001.
115. Фукуяма Ф. Конфуцианство и демократия // Journal of Democracy. 1995. vol. 1., № 2.
116. Чарльз Ф. Эндрейн. Сравнительный анализ политических систем.// Пер.с англ. –М.: Весь мир, 2000.

- 117.Sharipov R.X., Muhiddinova F. O`zbekiston xalqlari siyosiy-huquqiy ta'lilotlari tarixi (XIX asr oxiri – XX asr boshlarida). T.: Toshkent Davlat yuridik instituti. 2004.
- 118.Шаран П. Сравнительная политология. // Пер. с англ. В. 2-х частях. –М.: Прогресс, 1992.
- 119.Erkayev A. Milliy g`oya va milliy ma'naviyat. –Т.: "Ma'naviyat", 2002.
- 120.Яковец Ю.В. История цивилизации. М.: «Гуманитарный издательский центр ВЛАДОС», 1997.
- 121.«O`zbekiston Respublikasining shahar, posyolka va qishloq, mahalla (mavze) komitetlari to`g`risida» Nizom. Т., 1993.
- 122.O`zbekiston Respublikasi milliy xavfsizlik konsepsiysi. Т.: 1997.
- 123.Quvatov N. o`tish davri tafakkuri. Т.:, "Ma'naviyat", 2002.
- 124.Qodirov A. Huquqiy davlatning shakllanishiga xavf solayotgan hodisalar.// Huquq-Pravog-Law, 2005 1-son.
- 125.Qodirov A. Siyosat falsafasi. Т.:TDYUI.2005
- 126.Кадыров А. Политическая модернизация-как фактор демократизации и обновления общества.//Jamiyatni demokratlashtirish, yangilash va isloh qilish muammolari.T.:TDYUI.2005.
- 127.Abraham, M.F. Perspectives on modernization. Toward a general theory of Third World Development. –Wash.Univ.Press of America, 1980. –IV.
- 128.Ake, C. Modernization and political instability: A theoretical exploration//Political system and Change: A "World politics" reader. –Princeton (N.J) 1986.
- 129.A report of CSIS Freeman Chair in China Studies. China's new journey to the west. Washington D.C. August 2003.
- 130.Alex Inkeles and David H.Smith. Becoming Modern: Individual Change in Six Developing Countries. (Cambridge. MA: Harvard University Press, 1974).
- 131.Apter D. The Politics of Modernization. The University of Chicago Press, 1965.
- 132.Barry. F. Failures and Opportunities. // Christianity and Crisis. // L., 1933.
- 133.Bureacratic – Autoeratism: Studies in South American Politics (Berkeley: Institute of International studies. University of California, Berkeley. 1973.
- 134.Davis.J.C. Radicalism in a Traditional society: The evaluation of radical thought in the English commonwealth 1649-1660 // History of polit. Thought. – Exter. 1982. – Vol. 3, № 2.
- 135.Giddens,A. Consegnences of modernity. – Cambridge: Polity press, 1997. XIII.
- 136.Modernity and identity: a symposium // Intern. Social Science J. – Paris. N.Y. 1988. –Vol. 40, № 4.

137. Offe, C. Modernity and State: East, West. - Cambridge: Oxford. Blackwell: Polity press, 1996. -XII.
138. Huntington S. The Third Wave. Demociatization in the late Twentieth Century. University of Oklahoma Press. 1999.
139. Reflection on the Patterns of Change in the Bureacratic. - no 1. (1973).
140. Tuan T. Ling. "Totalitarian and Authoritarian Regimes". /In Handbook of Political Science. MA: Addison -Wersley. 1975.
141. Political Development in Europa and United States. Princeton: Princeton University Press. 1978.
142. Patterns of Global terrorism. United States Departement of State. Washington D.C. May, 2002.
143. Pearce D., Barbier E., Markandya A. Sustainable Development. Economics and Environment in the third world. L., 1990.
144. Waters. M. Globalization. L. -N.Y., 1995.
145. Latouche S. The westernization of the World. The Significance, Seare and Limits of the Drive Towards Global Uniformity. Cambridge, 1989.
146. Journal of Democracy. 1995. vol. 1. № 2.

## МУНДАРИЖА

Сўз боши.....	3
1.Анъанавий жамият ва ундан замонавий жамиятга утишнинг маҳаллий хусусиятлари .....	8
2.Мустакиллик – жамиятни модернизациялаштириш ва ривожлантириш омили.....	27
3.Миллий ривожланиш ғояси тизимида миллий, умуминсоний, эркинлик ва мустакиллик қадриятларин.....	33
4.Сиёсий тизимни модернизациялаштириш – демократик жамиятни шакллантириш талаби .....	41
5.Ижтимоий ҳамкорлик – жамиятни модернизациялаштириш имконияти .....	52
6.Ижтимоий ҳамкорлик ва сиёсий баркарорлик – миллий ривожланиш ғояси амалга ошувишинг асосий омили .....	64
7.Миллий ривожланиш ва жамиятни модернизациялаштиришда миллий хавфсизликнинг ўрни ва аҳамияти.....	70
8.Миллий хавфсизликка таҳдид солувчи омиллар ва уларни бартараф қилиш имкониятлари .....	77
9.Миллий хавфсизликни таъминлашда ёшларга миллий ва фуқаровий бурчларнинг англатишнинг маънавий-маърифий аҳамияти. Унда миллий ривожланиш ғоясининг роли .....	85
10.Жаҳон ҳамжамиятига уйғунлашиш ва глобализация жамиятни модернизациялаштириш шарти.....	90
11.Ўзбекистоннинг глобаллашув жаёнида тенг ҳукук ва тенг маңфаат тамойили асосида жаҳон ҳамжамияти билан интеграциялашуви ва унинг жамиятни одернизациялаштиришда тутган ўрни .....	97
12.Ўзбекистоннинг жаҳон ҳамжамияти билан интеграциялашуви жараёнидаги фаоллийни ошириш жараёни .....	103
Сўнги сўз .....	106
Фойдаланилган адабиётлар .....	109

## MUNDARIJA

So`z boshi .....	114
1. An'anaviy jamiyat va undan zamonaviy jamiyatga o`tishning mahalliy xususiyatlari .....	119
2. Mustaqillik – jamiyatni modernizatsiyalashtirish va rivojlanirish omili .....	136
3. Milliy rivojlanish g`oyasi tizimida milliy, umuminsoniy, erkinlik va mustaqillik qadriyatları .....	142
4. Siyosiy tizimni modernizatsiyalashtirish – demokratik jamiyatni shakllantirish talabi .....	149
5. Ijtimoiy hamkorlik – jamiyatni modernizatsiyalashtirish imkoniyati .....	159
6. Ijtimoiy hamkorlik va siyosiy barqarorlik – milliy rivojlanish g`oyasi amalga oshuvining asosiy omili .....	170
7. Milliy rivojlanish va jamiyatni modernizatsiyalashtirishda milliy xavfsizlikning o`rnii va ahamiyati .....	176
8. Milliy xavfsizlikka tahdid soluvchi omillar va ularni bartaraf qilish imkoniyatlari .....	182
9. Milliy xavfsizlikni ta'minlashda yoshlarga milliy va fuqaroviylarning anglatishning ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati. Unda milliy rivojlanish g`oyasining roli .....	189
10. Juhon hamjamiyatiga uyg`unlashish va globalizatsiya jamiyatni modernizatsiyalashtirish sharti .....	194
11. O`zbekistonning globallashuv jarayonida teng huquq va teng manfaat tamoyili asosida jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashuvi va uning jamiyatni modernizatsiyalashtirishda tutgan o`rni .....	200
12. O`zbekistonning jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashuvi jarayonidagi faolligini oshirish jarayoni .....	205
So`ngi so`z .....	207
Foydalanilgan adabiyotlar .....	210

Анвар КОДИРОВ

АНЬАНАВИЙ ЖАМИЯТ ВА УНИ  
МОДЕРНИЗАЦИЯЛАШТИРИШ  
СТРАТЕГИЯСИ

Мухаррир: *С. Салимова.*

Техник мухаррир: *Ж. Абдужалилов.*

Мусаххих: *Н. Мирзажонова.*

Компьютерда сахифаловчи: *А. Худайбергенова.*

Босишга руҳсат этилди: 01.06.2006.

Ҳажми: 13,5 б.т. Адади: 500. Буюртма: № 803

ТДЮИ кичик босмахонасида босилди.

Тошкент шаҳри, Сайилгоҳ 35.